Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar: Talabalarda manaviy-axloqiy sifatlari shakllanishida mamlakatimizda O’zbek psixolog olimlardan I.B.Xushbaqov, X.M.Alimov, S.Hasanov, Z.M.Husniddinov, M.Ismoilov, Z.R.Isoqova, X.X.Jabborov, M.Kenjabek, J.Z.Mirzayev, J.O.Omonturdiyev, M.Ye.Pazilova, K.Yu.Qilichyeva, Q.B.Qodirov, A.S.Samiyev, Q.A.Toshmurodova, S.N.Tursunov, U.M.Uvatov, I.S.Usmonov, M.S.Xadjiyeva, M.X.Xolnazarova, M.A.Shaxodjayev, J.O.Cho‘tmatov, Z.Ch.Choriyev A.Qodirova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Biz ilmiy ishmizda Mualliflik so’rovnomalari va E.G’oziyevning Barkamol insonni baholash testi o’tkazilib unda shaxs xususiyatlatlarini aniqlash hisoblandi. Qolaversa ,«Abu Iso Muhammad At-Termiziy qarashlari asosida talabalar ma’naviy –axloqiy xususiyatlarini aniqlash» so’rovnomasi ham o’tkazildi.

Barkamol insonni baholash testi (E.G‘G‘oziyev)

№	Fazilatlar nomi	Kuchsiz	O‘rtacha	Kuchli	O‘ta kuchli
1	Iymon e’tiqodlilik	1	2	3	4
2	Sobitqadamlilik	1	2	3	4
3	Hamiyatlilik	1	2	3	4
4	Beg‘arazlik	1	2	3	4
5	Xaqgo‘ylik	1	2	3	4

Olingan natijalar va ularning tahlili. Biz natijalarni qayta ishlash jarayonida tajriba guruhining o'rtacha ko'rsatkichlari hisoblanadi va tadqiqot natijalariga ko'ra, o'rganilayotgan guruh uchun ma’naviy – axloqiy sifatlar qaydarajada ekanligini ko’rishimiz mumkin bo’ldi. Aynan Kuchsiz ball 1 ball etib belgilandi, O’rta ball 2 ball etib belgilandi, Kuchli ball 3 ball hisoblandi, O’ta kuchli ball 4 ball etib belgilandi. Talabalda barkamol avlodni baholash testi natijasiga ko’ra har bir shaxs o’zininig ma’naviy axloqiy sifatlarini inobatga olgan holda yondashib javob variantlarini belgilagan. Biz hozirgi davrda aynan islom ta’limotida yoshlarning ma’naviyati va axloqiy sifatlari, qadriyatlari qay darajada ekanligini biz albatta olingan metodikamizning natijalariga qarab xulosa chiqirishimiz mumkin. Natijamiz shuni dalolat beradiki, talabalarda ma’naviy -axloqiy sifatlar sinov guruhi va tajriba guruhlarida o’z-o’zidan turli xil holatda namoyon bo’layabdi. Albatta tajriba guruhi natijalari bilan sinov guruhi natijalari o’rtasidagi farq sezilarli darajada ekanligini ko’rishimiz mumkin. Barkamol insonni baholash testida ishtirok etgan respondentlar soni umumiy 250 nafarni tashkil etdi va metodikamizda yigitlar 125 nafar, qizlar 125 nafarni tshkil etdi va biz

bunda qizlar va yigitlar o’rtasidagi ma’naviy-axloqiy sifatlar qay darajada ekanligni ham bilindi. Iymon e’tiqodlilik yigitlarda qizlarga nisbattan o’rtacha kuchlilik yuqori natija ko’rsatdi qzlarda bo’lsa, o’ta kuchli natija nomoyon etdi.

Sobitqadamlik- shkalasida qizlarda kuchli natija namoyon bo’ldi, yigitlarda bo’lsa o’ta kuchli natija namoyon bo’lgan bu holatdan ko’rinib turubdiki talabalarda yigitlar yuqori natija qayd etishgan.

Hamiyatllik - shkallasida bo’lsa yigitlar va qizlar bir xil natija qayd etganlar. Har bir yosh albatta o’z tengdoshlariga va yaqinlariga o’z hurmatini saqlashi va kattalarga ham hurmatda bo’lishi kerakligini aytishimiz mumkin.

Beg’arazlik –bu shkalada yigitlar qizlarga qaraganda yuqori natija qayd etganlar. Biz bilamizki beg’araz munosabat asosan yig’itlarda qizlarga qaraganda kamroq natija ko’rsatadi.

Haqgo’ylik- ushbu shkalamizda yuqori natija qizlarda nomoyon bo’ldi. Biz bilamozki qizlar asosan tog’ri so’zli bo’lishadu va nohaqliklarga chidamlilik darajasi sust bo’ladi. Shu sababli ham biz aytishimiz mumkinki, haqiqatgo’ylik darajasi qizlarda yuqori natija qayd etgan.

Shuni ham ta’kidlab o’tishimiz kerakki, Imom Termiziy o’z asarlari orqali va hadis ilmiga qo’shgan ulkan hissasi bilan o‘sha davr uchun zarur bo’lgan halolik, to’g’rilik, vijdonlilik xususida qimmatli manbalar qoldirganlar. Xususan, Abu Iso at-Termiziy asarlari hozirda ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Uning «Al-Jome as-sahih», «Ash-shamoil an-nabaviyya» kabi asarlarida keltirilgan hadisi shariflar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib insonlarni halol, adolatli, iymon-e’tiqodli, diyonatli, pokiza, mehnatsevar, muruvvatli, rahm-shafqatli, ota-ona, ayollarga nisbatan hurmat-e’tiborli bo‘lishga chorlaydi. Imom At-Termiziy talqinida yuksak ma’naviyatning kaliti - **kamtarlikdir.** U zot keltirgan rivoyatlarda Rasulullohning oddiy odamlar bilan birga o‘tirishi, uy ishlarida yordamlashishi va takabburlikdan uzoq bo‘lgani tasvirlanadi. Bu orqali Termiziy jamiyatda tabaqalanishga emas, balki o‘zaro hurmatga asoslangan axloqiy muhit yaratishni targ‘ib qilgan. Uning qarashlarida har bir ishda **o‘rtacha yo‘lni tutish** (isrof qilmaslik va o‘ta xasis bo‘lmaslik) muhim o‘rin tutadi.

U keltirgan ma’lumotlar insonning ovqatlanishi, uxlashi va so‘zlashi ham ma’lum bir odob doirasida bo‘lishi kerakligini uqtiradi. Iso At-Termiziy asarlari yoshlarda yot g'oyalarga qarshi ma’naviy qalqon hosil qiladi. U keltirgan hadislarda rostgo‘ylik, omonatga xiyonat qilmaslik va va’daga vafo qilish kabi fazilatlar shunchaki nasihat emas, balki hayotiy zarurat sifatida ko’rsatiladi. Bu esa yoshlarni turli axloqiy inqirozlardan himoya qiladi. Imob Termiziy o‘zining ilm yo‘lidagi mashaqqatlari va ustozlariga bo‘lgan cheksiz hurmati bilan yoshlarga namuna bo‘ladi. Uning qarashlariga ko'ra: Ilm faqat ma’lumot olish emas, balki odob bilan ziynatlanishdir. Haqiqiy bilim insonni kibrga emas, balki tavoze’ga (kamtarlikka) yetaklashi kerak. Bugungi axborot almashinuvi tezlashgan davrda Iso At-Termiziyning **“foydasiz so‘zdan tiyilish”** va **“rostgo‘ylik”** haqidagi ta’limotlari yoshlar uchun juda dolzarb. Bu ularni ijtimoiy tarmoqlarda va kundalik hayotda mas’uliyatli muloqot qilishga o‘rgatadi. *Anas Ibn Molik rahimolloh rivoyat qilishlaricha:* Bir kishi Payg’ambarimiz alayhissalom huzurlariga kelib, minishga ulov so’radi. Shunda Rasululloh hazil tariqasida: “Seni tuyaning bolasiga mindirib qo’yaman”, dedilar.

Haligi kishi “U zot tuyaning bolasini bersalar, uni qanday qilib minaman?” deb o’yladi va savol bilan Rasulullohga murojaat qildi. Shunda Payg’ambarimiz: “Axir (minishga yaroqli) tuyalarni ham ona tuya tug’adimi?” deb so’radilar. Aslida u zot ulov so’rab kelgan kishiga minsa bo’ladigan tuya bermoqchi edilar, biroq oldin latif so’zlar bilan hazillashishni lozim topdilar.Bu rivoyatda aytilgan so’zni tafakkur qilishga chaqiriq bor. Chunki minsa bo’ladigan yetuk tuyalarni ham ona tuya tug’adi. Ulov so’rab kelgan kishi Rasululloh sollallohu alayhi va sallam gaplarining mag’zini chaqa olganida “Tuyaning bolasini nima qilaman?” deb ajablanmagan bo’lardi.

Bundan chiqdi, so’zlovchi gapini e’tibor bilan eshitib, keyin unga munosabat bildirish lozim. Aks holda e’tiroz bildiruvchi yoki savol beruvchi uyalib qoladi. Hazillashishdan maqsad kishilar diliga quvonch bag’ishlash, orada do’stona kayfiyat paydo qilish, samimiyatni ifodalash va hokazo. Shuning uchun Nabiy sollallohu alayhi va sallam sahobalar bilan o’rni kelganida haq so’zlarni aytib hazillashganlar.Hazilni tuzga o’xshatish mumkin. Agar ovqatning tuzi kam bo’lsa, bemaza bo’lib qoladi. Agar ko’payib ketsa, sho’r ovqatni yeb bo’lmaydi. Me’yorida solingan tuz taomga maza beradi. Xuddi shunga o’xshab, hazil ham chegaradan chiqmagan holda qilinsa, o’rinli bo’ladi. Umuman hazillashmay, doim qovog’ini solib yoki o’ta jiddiy bo’lib yurish ham, bo’lar-bo’lmasga kulib, bemaza qiliqlar qilish ham yaramaydi. Mo’min kishi har ishda o’rtacha bo’ladi, shariat ko’rsatmalari doirasida ish tutadi.

Xulosa qilib aytganda, Islom ta’limoti inson kamolotini ta’minlashda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga alohida ahamiyat beradi. Ushbu qadriyatlar insonning nafaqat diniy e’tiqodi, balki uning ruhiy dunyosi, xulq-atvori, jamiyatdagi o‘rni va boshqalar bilan bo‘lgan munosabatlarini ham tartibga soladi. Islomda halollik, adolat, sabr, mehr-shafqat, hayo, ota-onaga hurmat, ilmga intilish, insonparvarlik kabi fazilatlar komil insonni shakllantirishning muhim omillari sifatida qaraladi. Shu jihatdan Islom ta’limoti inson ruhiyatini

poklash, uning ichki dunyosini boyitish va jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhit yaratishda katta ahamiyat kasb etadi.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy o‘zining ilmiy va ma’naviy merosi orqali Islom axloqiy qadriyatlarini keng targ‘ib qilgan allomalardan biridir. Uning hadis ilmidagi xizmatlari nafaqat diniy, balki psixologik va tarbiyaviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. At-Termiziy hadislarni tanlash va sharhlash jarayonida insonning ruhiy holati, axloqiy kamoloti, niyat pokligi, hissiy boshqaruv va ijtimoiy munosabatlarga katta e’tibor qaratgan.

Bu esa uning qarashlarida psixologik yondashuv mavjud ekanligini ko‘rsatadi. Allomaning fikricha, insonning tashqi xulqi uning ichki ruhiy olami bilan chambarchas bog‘liqdir. Agar inson qalban pok bo‘lsa, uning xatti-harakatlari ham ezgulikka yo‘naltiriladi. Shu sababli At-Termiziy nafsni tarbiyalash, sabr-toqatli bo‘lish, g‘azabni jilovlash, rostgo‘ylik va halollikni insonning eng muhim ma’naviy sifatlari sifatida talqin etadi. Bu qarashlar bugungi zamonaviy psixologiyada ham shaxsning emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligini ta’minlovchi omillar sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqot davomida shuni ko‘rish mumkinki, At-Termiziy ta’limoti yoshlar tarbiyasida muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida yoshlarning ongida milliy va diniy qadriyatlarni shakllantirish, ularni turli zararli g‘oyalar va ma’naviy tahdidlardan himoya qilishda ushbu ta’limotning ahamiyati nihoyatda kattadir. Allomaning hadislarida ilgari surilgan mehr-oqibat, insoniylik, bag‘rikenglik, ilmga muhabbat va odob-axloq haqidagi fikrlar yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, Islom ta’limotidagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan At-Termiziy qarashlari o‘zaro uyg‘un holda inson psixologiyasining ijobiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ziyovuddun Rahim tarjimasi va sharhi Imom Abu Iso Muhammad At-Termiziy “Shamoili Muhammadiya, 2021-y, 101-b.

2. Халидов Б. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. Москва, 1985, стр. 143

3. Al-mavohib al-naduniya" kitobi, birinchi juz. 2-bet.

4. Ahmadjonov. I Ta’lim muasassi o’qituvchisi https://hidoya.uz/uz/news/1637

5. U. Uvatov O.Jo’raev. Imom Termiziy ma’naviy-ma’rifiy– Toshkent: “Shamsuddinxon Boboxonov” NMIU, 2021. 84-88 b.

6. Nuriddin Itr. Al-Imam Termiziy val muvozanatu bayna Jameihi va baynas sahihayn. – Qohira: Lajnat at-ta’lif vat tarjima van nashr, 1970. – B.20.

7. Uvatov. O. Jo‘rayev Imom Termiziiy Manaviy –ma’rifiy T Shamsuddinxon Boboxonov -2020-yil 38-39-40-50.b

8. Qayumova, G. (2024). Imom Buxoriy va Imom Termiziyning hadis ilmiga qo'shgan hissalarini qiyosiy tahlili. // Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(16), 48-49.

9. U. Uvatov O.Jo’raev. Imom Termiziy ma’naviy-ma’rifiy– Toshkent: “Shamsuddinxon Boboxonov”, NMIU, 2021. 15 b

11. Raymberdiyev, a. (2025). Imom Termiziy “Sunan” asarida “Muddassir” surasi tafsiri. // Pedagog, 8(9), 76-82

12. Ibn Xaplikon. Vafoyot al-a'yon, 3-jild, 407-bet.

Dilmurodova Zilola Davron qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
dilmurodovazilola16@gmail.com
ORCID ID: 0009-0008-4068-7560

TEMPERAMENT VA SHAXSIYAT O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUNOSABAT MASALASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada temperament va shaxsiyat tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Temperamentning biologik asoslari va shaxsiyatning ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida shakllanishi ko‘rsatilib, turli olimlarning nazariyalari solishtiriladi. Shuningdek, temperamentni shaxsiyatning tug‘ma va barqaror tarkibiy qismi sifatida talqin qilishning ilmiy asoslari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *temperament, shaxsiyat, individual farqlar, biologik asos, ijtimoiy muhit, psixologik xususiyatlar.*

THE ISSUE OF THE INTERRELATIONSHIP BETWEEN TEMPERAMENT AND PERSONALITY

Abstract. *This article analyzes the relationship between the concepts of temperament and personality. It highlights the biological foundations of temperament and the formation of personality under the influence of socio-cultural factors, while comparing the theories of various scholars. In addition, the scientific basis for interpreting temperament as an innate and stable component of personality is discussed.*

Keywords: *temperament, personality, individual differences, biological basis, social environment, psychological characteristics.*

ВОПРОС ВЗАИМОСВЯЗИ ТЕМПЕРАМЕНТА И ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В данной статье анализируется взаимосвязь между понятиями темперамента и личности. Раскрываются биологические основы темперамента и формирование личности под влиянием социально-культурных факторов, а также сравниваются теории различных учёных. Кроме того, освещаются научные основы интерпретации темперамента как врождённого и устойчивого компонента личности.*

Ключевые слова: *темперамент, личность, индивидуальные различия, биологическая основа, социальная среда, психологические особенности.*

Kirish. Inson psixikasini to‘liq anglash uchun temperament va shaxsiyat tushunchalarini alohida hamda birgalikda o‘rganish zarur. Temperament tug‘ma psixofiziologik xususiyat bo‘lib, asab tizimining ishlashiga bog‘liq, shaxsiyat esa ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida shakllanadi. Zamonaviy psixologiyada bu ikki tushuncha o‘rtasidagi munosabat bo‘yicha yagona fikr mavjud emas, ammo ularning o‘zaro bog‘liqligi shubhasizdir. Temperament va shaxsiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishdan avval, ularning alohida tushunchalar sifatida ko‘rib chiqish zarur. Temperament – insonning tug‘ma psixofiziologik xususiyati bo‘lib, asab tizimining ishlashiga bog‘liq. U hissiy reaksiyalarining tezligi, kuchi, barqarorligi va faollik darajasini belgilaydi. Temperament biologik asosga ega, baraqaror bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan kam o‘zgaradi va insonning tashqi hamda ichki ta’sirlariga qanday tez va kuchli javob berishini belgilaydi. Shaxsiyat esa insonning ijtimoiy-psixologik sifati bo‘lib, individual bo‘lib, individual xatti-harakatlar, qiziqishlar, qadriyatlar, dunyoqarash va o‘z-o‘zini anglash darajasini o‘z ichiga oladi. U asosan tarbiya, muhit, ta’lim va madaniyat ta’siri ostida shakllanadi, o‘zgaruvchan bo‘lib, vaqt o‘tishi va tajriba orttirish bilan rivojlanadi. Shaxsiyat ixtiyoriy boshqaruv ostidagi xatti-harakatlarda namoyon bo‘ladi va insonning “Kimligi”ni, ya’ni qanday fikrlashi, his qilishi, qaror qabul qilishi va munosabatini ifodalaydi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda temperament va shaxsiyat munosabati bo‘yicha olimlar o‘rtasida yagona fikr mavjud emas. Bu asosan “Shaxsiyat” tushunchasining o‘zida aniqlik yetishmasligi bilan izohlanadi. Masalan, G.V.Olport (1937) “Shaxsiyat” atamasiga oid 50 ga yaqin turli ta’riflar mavjudligini ta’kidlagan. Temperament va shaxsiyatni ajratib ko‘rish yonoshuvlari tarixan uzoq davom etib keladi. Masalan, qadimiy yunon tabibi Galen temperamentni inson organizmidagi ichki, ya’ni endogen omillarga bog‘liq xulq-atvor xususiyati sifatida qaragan. Boshqa nazariyalar esa inson fe’l-atvoridagi farqlarni tashqi, ya’ni ekzogen omillar – muhit, tarbiya, jamiyat ta’siri bilan izohlashga harakat qilgan. Bunday yondashuvning dastlabki namunalaridan biri miloddan avvalgi IV-III asrlarda yashagan yunon faylasufi Teofrasting “Xarakterlar” asaridir. Unda shaxslar o‘rtasidagi xarakter farqlari asosan tashqi muhit sharoitlariga bog‘liq holda tahlil qilingan.

Temperament tadqiqotlari individual farqlar yondashuviga asoslanadi. Bu yondashuv zamonaviy shaxsiyat tadqiqotlarida ham muhim o‘rin tutadi. Shaxsiyat keng qamrovli tushuncha bo‘lib, “Individning o‘ziga xos muhitga moslashuvini belgilovchi psixofizologik tizimlarning dinamik tashkiloti” sifatida ta’riflanadi. G. V.Olport shaxsiyat odatlar, aniq va umumiy munosabatlar, tuyg‘ular va moyilliklar kirishni ta’kidlab, ularni xususiyatlar orqali ifodalash mumkinligini bildiradi. Bu xususiyatlarga temperament ham kiradi, shuning uchun individual farqlar shaxsiyatning asosiy tarkibiy qismi hisoblandi. Hollandiya psixologiya Viliem K.Hofstee esa shaxsiyat psixologiyasida individual farqlarni o‘rganishga katta ahamiyat bergan olimlardan biridir. U 1991- yilda shaxsiyat psixologiyasini shaxsiyat xususiyatlarini o‘rganish deb ta’riflab, shaxsiyatning asosiy vazifasi individual farqlar orqali xatti- harakatlarni tushuntirish ekanini ta’kidlagan. Agar insonlar o‘rtasidagi farqlarni xususiyatlar, omillar yoki o‘lchovlar orqali tavsiflovchi individual farqlar yondashuvi asosida qarasak, temperamentning shaxsiyat doirasidagi o‘rni mutlaqo asosli ekanlig ko‘rinarli. Ko‘plab olimlar, jumladan G.Olport, Buss va Finn, Diamond, Endlaer, j.P.Guilford, Roback va Strelau temperamentni shaxsiyatning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatganlar.

Fikrimizcha, temperamentni shaxsiyatning bilogik asoslangan va nisbatan barqaror tarkibiy qismi sifatida talqin qilish to‘g‘ri yondashuvdir. Chunki temperamentning tug‘ma xususiyatlari- emotsional reaktivlik, faollik, ijtimoiylik kabi omillar – shaxsning xulq-atvori va ichki dunyosiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli temperamentni shaxsiyat strukturasi doirasida o‘rganish ilmiy jihatdan asosli hisoblandi. Shaxsiyatni xususiyatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilganda temperament – shaxsiyatning asosiy, boshlang‘ich xomashyosi hisoblanadi. Ushbu xususiyatlar bolalikdan mavjud bo‘lib, temperament biologik aosga ega bo‘lgan shaxsiyat xususiyatlarini o‘z ichiga oladi, deb ta’kidlaydi Strelau o‘zining “Temperant: A Psychological Perpective” nomli asarida. Shaxsiyat va temperamentga oid adabiyotlarda xususiyatlarga asoslangan yondashuvdan tashqari yana ikki asosiy qarash mavjud. Birinchisi, temperament va shaxsiyat tushunchalarini sinonim sifatida qabul qilish, ikkinchisi esa temperament atamasidan umuman foydalanmaslik va hatto temperamentga oid deb hisoblangan shaxsiyat xususiyatlarini o‘rganishda ham bu atamani ishlatmaslikdir. G.V.Olportning “Personality a psychological interpretation” nomli asarining 53 betida temperamentni shaxsiyat bilan tenglashtirish Britaniya an’anasi ekanini ta’kidlagan. Bu fikr individual farqlar sohasidagi mashhur tadqiqotchilar H.J.Ayzenk va J.A.Grayning qarashlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Britaniya psixologlari Ayzenk, H,J,Vauning o‘g‘li Ayzenk M.V ning “Personality and individual differences, a natural science approach” nomli kitobida shaxsiyatning ikki asosiy jihati – temperament va intelekt mavjudligini, lekin ko‘pchilik shaxsiyat darsliklarida asosan temperamentga e’tibor qaratilishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, qadriyatlar, qiziqishlar va munosabatlar shaxsiyat bilan bog‘liq bo‘lsa-da, uning markaziy qismi hisoblanmaydi.

Ayzenk shaxsiyatni ekstraversiya, neyrotizm va psixotizm – uchta asosiy o‘lchov orqali ifodalaydi va ular kontekstga qarab temeparement yoki shaxsiyat omillari sifatida ko‘riladi. Gray ham shunga o‘xshash fikrda bo‘lib, temperament va shaxsiyat atamalarini sinonim sifatida ishlatadi. U “The neuropsychology of temperament” nomli kitobida “Men temeparment va shaxsiyat atamalarini almashtirib ishlataman, ikkalasi ham umumiy intelekt va visual- makonsal yoki og‘zaki qobiliyatlar chiqarib tashlangandan keyingina individual farqlarni anglatadi”- deb yozadi.

Amerikalik psixologlar Buss va Finnlae esa shaxsiyat fazilatlarini tushuntirishda temeperamentdan ancha kengroq tizimli tasnifni taklif qilganlar. Ularning yondashuvi uch mezonga aoslanadi:

1. Xulq-atvorning instrumental, affektiv va kognitiv jihatlari,
2. Ijtimoiy va noijtimoiy xususiyatlar farqi,
3. “Men” (self) va “Boshqalar” (nonoself) bilan bog‘liq fazilatlar farqlanishi.

Ular 32 ta shaxsiyat xususiyatlarini ajratib, faqat uchini temeparmentga tegishli deb hisoblaydi. Shuningdek, shaxsiyat rivoji bosqichma-boshqich murakkablashishini ta’kidlab, 1,5 yoshli bolalar asosan temperament xususiyatlari bilan tavsiflanishini, yosh o‘sishi bilan ayniqsa kognitiv sohada shaxsiyat xususiyatlari kengayishini, 10 yoshga kelib esa kattalarga xos barcha shaxsiyat fazilatlari shjakllanishini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv shaxsiyat tuzilmasining boyligi va temepramentdan ancha keng ekanini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Temperament va shaxsiyat tushunchalarini bir-birining o‘rnida ishlatish keraksiz soddalashtirish hisoblanadi va tadqiqotchilar uchun bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Tarixan, Gippokrat-galen tipologiyasidan boshlab temperament doimo biologik asosga ega deb qaraladi. Shuning uchun temperament va shaxsiyetni tenglashtirish shxasiyat faqat biologik omillar bilan belgilanadi degan noto‘g‘ri tasavvurga olib keladi. Bu yondashuv H.J.Ayzenkning biologik asoslangan nazariyasiga mos kelishi mumkin, ammo ko‘plab psixologlar bunga rozi emas. Temperament mexanizmlari va shaxsiyatning ijtimoiy omillar ta’siridagi jihatlarini ajratib tushunish muhimdir. Shu bilan birga, ijtimoiy yo‘nalaishdagi

tadqiqotchilar temperamentni e’tiborga olmasalar, shaxsiyatning biologik asoslari nazarda chetda qoladi. Temperamentni shaxsiyat bilan birlashtirish orqali o‘ziga xos biologik mexanizmlari va ijtimoiy omillar ta’siridagi shaxsiyat xususiyatlarini ajratib olish mumkin emas. Shu sababli, temperament va shaxsiyatni alohida o‘rganish muhimdir [55]. Temperament va shaxsiyat tushunchjalarini sinonim deb qabul qilish noto‘g‘ri tushunmovchiliklarga olib keladi. Masalan, Prior, Crook, Stripp va boshqalar temperament va shaxsiyat munosabatini o‘rganishda Temperament O‘lchovlari So‘rovi (DOTS) va Ayzenkning Shaxsiyat so‘rovi (EPQ)ni ishlatganlar. Biroq EPQ asosan temperamentni o‘lchash uchun ishlatilgan, shuning uchun ular ikki xil temperament o‘lchovini taqqoslagan, bu esa noto‘g‘ri xulosalarga sabab bo‘lgan. Hatto biologik yo‘nalishdagi psixologlar temperament atamasidan ko‘ra, biologik asosli shaxsiyat o‘lchovlarini Afzal ko‘rishadi, ammo bu muammoni hal qilmaydi deb yoziladi Strelauning “Temperament: A psychological Perspective” nomli kitobida.

Shaxsiyat tushunchasi turli nazariy yo‘nalishlarda shakllangan, ko‘pchilik esa temperamentga kam e’tabor beradi yoki hisobga olmaydi. To‘liq inson tabiati tasavvuriga erishish uchun, ayniqsa biologik asosga ega bolalikdagi xulq-atvor xususiyatlarini o‘rganish muhimdir. Psixoanalitik, o‘rganish va ba’zi kognitiv nazariyalar temperamentga kam e’tibor qaratadi. Ba’zi nazariy yo‘nalishdagi tadqiqotchilar temperamentni e’tiboran chetda qaoldiradi yoki uni shaxsiyat tarkibiga kiritmaydi, chunki ular individual farqlar paradigmasiga tayanmaydi. Ushbu paradigm esa temperament va xususiyatga asoslangan shaxsiyat nazariyalarining asosi hisoblanadi. Shuningdek, temeparment va shaxsiyat nazariyalari o‘rtasida boshqa muhim farqlar mavjud bo‘lib, bu tushunmovchiliklar va yagona ilmiy tilning yo‘qligiga olib keladi. Masalan, Strelau (1987) temperament tsuhunchasining shaxsiyat tadqiqotlaridagi o‘rniga e’tibor qaratib, temeparemt va xususiyatlarga asoslanmagan shaxsiyat konstruktorlari o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatadi. Biroq ba’zi mualliflar uning fikrlarini noto‘g‘ri talqin qilgan. Uning tahlili raivojlanish omillari, shakllanish bosqichi, aholining turi, xulq-atvor bilan bog‘liqlik va integratsiyasi kabi jihatlar bilan chegaralangan. Ayrim farqlar individual farqlar yondashuvi doirasida ham dolrazb bo‘lib, temperament shaxsiyatdagi no-temeprament xususiyatlar bilan taqqoslanadi. Temperament va shaxsiyat o‘zaro farqlovchi xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, ko‘pincha ularni turli o‘lchovlardagi o‘zgaruvchilar sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq. Agar ular bir o ‘lchovda uzoqda joylashsa, turli hodisalar ekanligi aniq bo‘ladi, o‘rtasidagi holatlar esa ularni aniq tasniflashni qiyinlashtiradi.

J.Strelau ta’kidlagandek, temeparament asosan biologik omillarga bog‘liq, tug‘ma xususiyat bo‘lib, chaqaloqlar va hayvonlarga xosdir. U ko‘pincha yoqimsiz xulq bilan bog‘lanib, xulqni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Shaxsiyat esa ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanib, faqat odamlar uchun xos, ko‘proq yoqimli xulq bilan bog‘liq va xulqni integratsiyalashda ro‘l o‘ynadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Shunday qilib, temperament va shaxsiyat o‘rtasidagi asosiy farqlar ularning rivojlanish manbai, shakllanish davri, qamrovi, xulq bilan bog‘liqligi va boshqarishdagi roli bilan aniqlanadi.

Jan Strealu temperanet va shaxsiyatni ikki alohida tushuncha sifatida ko‘rib, ularni quyidagi jihatlarlar bilan farqlaydi:

1. Rivojlanish omillari- temperament asosan biologik, irsiy va nevrologik tizimlarga bog‘liq, shaxsiyat esa ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida shakllanadi.
2. Shakllanish bosqichlari – temperament tug‘ilishdan boshlab barqaror, shaxsiyat esa hayot davomida o‘zgaradi.
3. Qamrov doirasi – temperament odamlar va hayvonlarga xos, shaxsiyat faqat insonlarga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.
4. Xulq-atvor bilan bog‘liqlik – temeparment xulq shakllanishining boshlang‘ich bosqichida ustun, shaxsiyat esa uning mazmuni va maqsadlariga bog‘liq.
5. Xulq-atvorni integratsiyalashdagi rol – temeparment boshqqaruvchi, shaxsiyat esa integratsiyalovchi va moslashuvchi funksiyani bildiradi.

Biologik omillar ham temperamentni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shaxsiyat nazariyalari, xususan, ijtimoiy muhitni asosiy yoki yagona omil sifatida ko‘radi. Ya’ni, bandura Walders hamda Rotter ijtimouy muhitning rolini, Kelly va Epstein esa kognitiv jarayonlarning ta’sirini o‘rganishgan . Biroq, ijtimoiy muhit temperamentning ifodasiga ta’sir qilsada, uning rivojlanishida eng muhim omil hisoblanmaydi. Tomas va Chessning tadqiqotlari ota-ona va oila munosabatlari temperament xususiyuatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi, ammo temperament nazariyalarida ijtimoiy muhit eng asosiy omil sifatida qaralmaydi. Strelau ham ushbu yondashuvni qo‘llab-quvvatlagan holda, ijtimoiy muhitning temperamentga ko‘rsatadigan ta’sirini bevosita mazmuni orqali emas, balki uning shakily xususiyatlari- stress, ortiqcha stimulyatsiya yoki xavf kabi omillar orqali yuzaga chiqishini ta’kidlaydi. Bu esa yana bir bor temperamentning asosi biologik omillarga borib taqalishini ko‘rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, temperament asosan biologik evolutsiya mahsulidir, shaxsiyat esa ijtimoiy muhit ta’sirida shakllandi, lekin shaxsiyat bilogik asos – tamepramentga tayangan holda rivojlanadi. A.Tomas va Chess hamda ularning shogirdlari olib brogan tadqiqotlar temperament xususiyatlari erta bolalikda shakllanayotganini ko‘rsatadi. Ba’zi psixologlar shaxsiyat, xususan uning xususiyatlari, asosan o‘rganish va ijtimoiylashuv natijasi deb hisoblab, yangi tug‘ilgan chaqaloqda shaxsiyat hali to‘liq shakllanmaganligini ta’kidlaydi. Shaxsiyatning tuzilmalari va mexanizmlari ontogenez jarayonida rivojlanib, keying bosqichlarda shakllandi.

Hatto xususiyatlar yondashuvida ham temperamentga tegishli bo‘lmagan xususiyatlar keying rivojlanish davrlarida paydo bo‘ladi. Buss va Finn ma’lumotlariga ko‘ra, shaxsiyat xusuiyatlari taxminan 10 yoshda to‘liq namoyon bo‘lsa, temeparment xususiyatlari esa chaqaloqlikdan mavjud bo‘ladi. Shaxsiyat tushunchasi asosan insonlarga tegishli (lotincha persona – aktyorni yuzi, maskasi) bo‘lib, u ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadigan psixologik hodisalarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli, hayvonlarga nisbatan shaxsiyat atamasi noaniq va ko‘pincha qavs ichida ishlatiladi. Aksincha, temperament tushunchasi insonlar va hayvonlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Pavlov va uning shogirdlari hayvonlarda temperamentni birinchi bo‘lib ekspremental o‘rganishgan. Masalan, itlar va sichqonlarda xavotirlik, emotsionallik, ekstraversiya, introversiya hamda stimulyatsiya qidirish kabi individual farqlar temperament doirasida o ‘rganiladi. Diamond ta’kidlagandek, hayvonlarning madaniyatsiz xatti-harakatlarini o‘rganish temperament aoslarini aniqlash va inson hamda boshqa jonivorlarning psixofiziologik xatti-harakatlarini tsushunishda ilmiy ahamiyatga ega. Buss va Plominlarning nazariyalariga ko‘ra, erta rivojlangan temperament xususiyatlari evolutsion merosga ega bo‘lgani uchun, moslashuvchan rol o‘ynaydigan temperament xususiyatlari hayvonlarda ham mavjud deyilgan. Temperament asosan xulq-atvorning formal jihatlari –uslub, intensivlik, energiya darajasi va vaqt komponentlariga taalluqlidir. Shaxsiyat esa, nazariyaga qaramay, xulq-atvor mazmunini, ya’ni insonning o‘ziga, boshqalarga va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlari, motivatsiya va istatklarini qamrab oladi.

Ba’zi xulq-atvor xususiaytlari, masalan, asosiy emotsiyalar – xavotir yoki agressiya – bilogik asosga ega bo‘lib, temperament doirasiga kiradi. Masalan, Grayning xulqni to‘xtatish tizimi (BIS) haqidagi tadqiqotlari xavotir tashqi olamga bo‘lgan biologik aosli munosabat ekanligini ko‘rsatadi. Shuning uchun temperamentga xos adaptiv xususiyatlar uchun fizologik mexanizmlar rivojlangan bo‘lib, ular asosan emotsional xulq-atvorda ifodalandi

Xulosamizcha, zamonaviy psixologik adabiyotlarda temperament va shaxsiyat tushunchalari o‘rtasida to‘liq bir xillik mavjud emas. Ular bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lsada, aslida bitta tushuncha emas va bir xil ma’noda qo‘llanmasligi lozim. Temperament shaxsiyatning asosiy, tug‘ma va biologik qismi bo‘lib, odamning xuql-atvoriga asosiy ta’sir ko‘rsatida. Shaxsiyat esa biologik temperament xususiyatlariga ijtimoiy, madaniy va psixologik omillar qo‘shilishi natijasida shakllanadi va rivojlanadi. Shu sababli, temperament va shaxsiyat tushunchalarini bir-birining o‘rnida ishlatish no‘to‘g‘ri bo‘lib, ilmiy tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Temperament va shaxsiyatni alohida hamda birgalikda o‘rganish inson psixikasini yanada anglash imkoni beradi. Temperament va shaxsiyat bir-biriga bog‘liq bo‘lsa-da, ular bir xil tushuncha emas. Temperament biologik asoslangan tug‘ma xususiyatlarni ifodalasa, shaxsiyat ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi. Shu sababli, ularni sinonim sifatida ishlatish noto‘g‘ri bo‘lib, ilmiy tushunmovchiliklarga olib keladi. Temperament va shaxsiyatni alohida hamda birgalikda o‘rganish inson psixikasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Strelau, J. (1998). Temperament: A Psychological Perspective. New York, NY: Plenum Press.
2. Allport, G. W. (1937). Personality: A psychological interpretation. Henry Holt and Company.
3. Hofstee, W. K. B. (1991). Personality psychology as the study of traits. In J. R. Pervin (Ed.), Handbook of personality: Theory and research (pp. 170–190). Guilford Press.
4. Eysenck, H. J., & Eysenck, M. W. (1985). Personality and individual differences: A natural science approach. Plenum Press. Epstein, S. (1990). Cognitive-experiential self-theory: An integrative theory of personality. In L. A. Pervin (Ed.), Handbook of Personality: Theory and Research (pp. 165–191). Guilford Press.
5. Thomas, A., & Chess, S. (1977). Temperament and Development. Brunner/M Diamond, S. (1957). Personality and temperament. New York: Harper & Rowazel.
6. Buss, A. H., & Finn, S. E. (1987). Classification of personality traits. // Journal of Personality and Social Psychology, 52(3), 432–444.

7. Pervin, L. A. (1 Buss, A. H., & Plomin, R. (1984). Temperament: Early developing personality traits. Lawrence Erlbaum Associates.

8. Стреляу, Г. (1987a). Темперамент и личность: Место темперамента в исследованиях личности. // Вопросы психологии, (1), 3–14.996). The science of personality. John Wiley & Sons.

9. Gray, J. A. (1982). The neuropsychology of anxiety: An enquiry into the functions of the septo-hippocampal system. Oxford University Press.

10. Pervin, L. A. (1996). Personality: Theory and research (6th ed.). Wiley.

Djuxonova Noxida Xayotjonovna,
Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘G‘IL BOLALARNING OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI O‘RGANISHNING EMPIRIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o’g’il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarini ilmiy nazariy o`rganish, amaliy jihatdan asoslangan. O’smir o’g’il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash pedagogik-psixologik muammo va ijtimoiy zarurat ekanligini, tarixiy va ilmiy manbalarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik aspektlari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *romantizm, filogenez, stereotip, ustanovka, psixomotorika, ruhiy zo‘riqish, hissiy zo‘riqish.*

ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ МАЛЬЧИКОВ О СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. *В данной статье представлены научно-теоретические и практические обоснования социально-психологических условий подготовки юношей к семейной жизни. Подготовка юношей-подростков к семейной жизни рассматривается как педагогико-психологическая проблема и социальная необходимость; в исторических и научных источниках освещаются социально-психологические аспекты подготовки молодёжи к семейной жизни.*

Ключевые слова*: романтизм, филогенез, стереотип, установка, психомоторика, психическое напряжение, эмоциональное напряжение.*

AN EMPIRICAL ANALYSIS OF BOYS' PERCEPTIONS OF FAMILY LIFE

Abstract. *This article presents a scientific-theoretical study and practical justification of the socio-psychological conditions for preparing boys for family life. It establishes that preparing adolescent boys for family life is a pedagogical-psychological issue and a social necessity. Furthermore, it highlights the socio-psychological aspects of preparing youth for family life as illuminated in historical and scientific sources.*

Keywords*: romanticism, phylogenesis, stereotype, set, psychomotor skills, mental stress, emotional stress.*

Kirish. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne’mat bor. Farzand bor ekan odamzod hamishi ezgu orzu-intilishlar bilan yashaydi”. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu-saodati, ularning yorug’ kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki jamiyatning eng katta boyligidir. Shu jihatdan olganda yoshlarimizni har tomonlama sog’lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviyat qo’rg’oni bo’lgan oilani mustahkamlash barchamizning insoniy burchimizga aylangan.

Mustaqillik yillarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda va oilada sog’lom ma’naviy-axloqiy muhitni qaror toptirish yuzasidan zarur shart-sharoitlar yaratildi. Jumladan, “Tibbiy ishlar asosi”, “Balog’at davri” kabi dasturlar bo’yicha olib borilayotgan ishlar e’tiborga molikdir. Har bir shahar va tuman nikohni qayd etish bo’limlari qoshida yoshlarga oila, uning muqaddasligi, farzand tarbiyasi bilan bog’liq masalalar to’g’risida saboq beradigan “Oila dorilfinunlari” tashkil etilgan bo’lib, ularda turmush qurayotgan yigit-qizlar ko’rikdan o’tkazilmoqda. Eng muhimi xalqimiz millat genofondini sog’lomlashtirish g’oyasi bilan yangi asrga kirib keldi. Shaxsning rivojlanishida oilaning roli beqiyos. Jismonan va ma’nan sog’lom farzandlar oilada tarbiyalanadi.

Oilaning mustahkam va barqaror bo’lishi hayot ostonasida turgan yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashga bog’liq. Turmushda yuz beradigan quvonchlar,yutuqlar, kamchilik va nuqsonlar, ziddiyatlar oilada o’z aksini topadi. Shuning uchun oila va oilaviy tarbiya masalalari bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan xolda oila va oilaviy munosabatlar jamiyat rivojlanishida muxim o’rin tutishi va yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlash dolzarb muammolardan biri bo’lib kelmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Psixologik bilimlarni inson tomonidan o‘rganilishi shuning uchun ham muhimki odamlarning bilimdonligi nafaqat tashqi olamda ro‘y berayotgan ob’ektiv hodisalar mohiyatiga aloqador bilimlar majmuiga ega bo‘lish bilan, balki hayotda munosib o‘rin egallash, o‘z ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan holda faoliyatini oqilona tashkil etishning barcha sirlaridan boxabar bo‘lish, o‘ziga va o‘zgalarga ta’sir ko‘rsatishning usul va vositalarini bilish va ulardan o‘z o‘rnida unumli foydalanishni nazarda tutadi.

Kundalik hayotning tobora shiddatli tus olayotgani insonga bo‘layotgan axborot xurujining ko‘pligi, ijtimoiy muammolarning haddan ziyod zidlashuvi natijasida asablarning taranglashishi juda ko‘p insonlarni stress holatiga duchor etmoqda. Shu nuqtayi nazardan bizning tanlagan mavzuimiz o‘smirlik yoshi davridagi o‘ziga xos psixik zo‘riqishlar asosiad stress holatlarning yuzaga kelishi va uni bartaraf etish jihatlarini nazariy va amaliy yoritishga asoslanganligi bilan ahamiyatga egadir.

Jahon psixologiyasi fanida shaxsning kamoloti, uning rivojlanishi to‘g‘risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo‘lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o‘rganishda turlicha pozitsiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o‘ziga xos yondashishga egadirlar.

Biogenetik nazariyaning yirik namoyondalaridan biri bo‘lmish amerikalik psixolog S.Xoll psixologik taraqqiyotning bosh qonuni deb “rekapitulyatsiya qonuni”ni (filogenezni qisqacha takrorlashni) hisoblaydi. Uning fikricha, ontogenezdagi individual taraqqiyot filogenezning muhim bosqichlarini takrorlaydi.

Olimning talqiniga binoan, go‘daklik hayvonlarga xos taraqqiyot pallasini qaytarishdan boshqa narsa emas. Bolalik davri esa qadimgi odamlarning asosiy mashg‘uloti bo‘lgan ovchilik va baliqchilik davriga aynan mos keladi.

8-12 yosh oralig‘ida o‘sish davri o‘smiroldi yoshidan iborat bo‘lib, yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolot cho‘qqisiga hamohangdir. O‘spirinlik esa jinsiy yetilishidan (12-13) boshlanib, to yetuklik davri kirib kelgunga qadar (22-25 yoshgacha) davom etib, u romantizmiga ekvivalentdir. S.Xolning talqiniga qaraganda, bu davrlar “bo‘ron va tazyiqlar”, ichki va tashqi nizolar (konflikt)dan iborat bo‘lib kechishi davomida odamda “individuallik tuyg‘u”si vujudga keladi. Shaxsni rivojlanishining ushbu nazariyasi o‘z davrida bir talay tanqidiy mulohazalar manbai vazifasini o‘tadi, chunki inson zotidagi rivojlanish bosqichlari filogenezni aynan takrorlamaydi va takrorlashi ham mumkin emas.

E.Shpranger “O‘spirinlik davri psixologiyasi” degan asarida qizlarning 13 yoshdan 19 yoshgacha, yigitlarning esa 14 yoshdan 22 yoshgacha kiritishni tavsiya qiladi. Ushbu yosh davrida yuz beradigan asosiy o‘zgarishlar E.Shpranger bo‘yicha:

a) shaxsiy “Men”ni kashf qilish;

b) refleksiyaning o‘sishi;

v) o‘zining individualligini anglash (tushunish) va shaxsiy xususiyatlarini e’tirof qilish;

g) hayotiy ezgu rejalarining paydo bo‘lishi;

d) o‘z shaxsiy turmushini anglagan holda qurish ustanovkasi va boshva holatlar.

Uning fikricha, 14-17 yoshlarda vujudga keladigan inqirozning mohiyati ularga kattalarning bolalarcha munosabatidan qutulish tuyg‘usini tug‘ilishidan iboratdir. 17-21 yoshlarning yana bir xususiyati-o‘zining tengqurlari va jamoatchilik qurshovidan “uzilish inqirozi” va tanholik tuyg‘usining paydo bo‘lishidir. Bu holatni tarixiy shartlanganlik shart-sharoitlar va omillar vujudga keltiradi.

E.Shpranger, K.Byuler, A.Maslou va boshqalar personologik nazariyaning yirik namoyondalari bo‘lib hisoblanadilar.

Sobiq sho‘ro psixologiyasida rivojlanishi muammosi L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananev, L.I.Bojovich singari yirik psixologlarning asarlarida o‘z aksini topa boshlagan.

Sobiq sho‘ro psixologiyasining yirik namoyondasi, L.S.Vigotskiyning shogirdi L.I.Bojovich shaxs shakllanishini muayyan davrlarga bo‘lishda motivlarga asoslanadi, shuning uchun bu yondashuvni motivatsion deb yuritish mumkin. L.I.Bojovich mulohazasiga binoan, shaxsning shakllanishi ushbu darajalardan iborat:

1. birinchi bosqich-chaqaloqlik-tug‘ilgandan to 1 yoshgacha,
2. ikkinchi bosqich-motivatsion tasavvur - 1 yoshdan 3 yoshgacha,
3. uchinchi bosqich - “Men”ni anglash davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha,
4. to‘rtinchi bosqich-ijtimoiy jonzod ekanligini anglash davri - 7 yoshdan 11 yoshgacha,
5. beshinchi bosqich:

a) o‘z-o‘zini anglash davri - 12 yoshdan 14 yoshgacha,

b) o‘z o‘rnini belgilab olish (topish) davri - 15 yoshdan 17 yoshgacha.

Tadqiqot metodologiyasi. Shaxsning o‘zini-o‘zi baholash u hammaning o‘rtasida bildiradigan fikr ham, samimiy ravishda o‘zi haqida nimani o‘ylashi bilan ham belgilanmay, balki muntazam ravishda o‘ziga nisbatan qanday harakat qilishi bilan belgilanadi. Agar inson unga e’tiborsizlik qilishlariga o‘ta hissiyotli

bo‘lsa, agar u zaifliklari namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaziyatlardan qochishga zo‘r berib urinsa, uni ish qobilyatini yomonlashtiradigan darajagacha orzularga berilsa, uning o‘ziga ishonmaslik xususida xulosa chiqarish mumkin. Va aksincha, hatto inson juda kamtar bo‘lib tuyulsa-da, o‘ziga o‘zi ancha yuqori baho berishi to‘g‘risida hukm chiqarish imkonini beradigan mezonlar ham mavjud bo‘lsa, u atrofdagilarni haqoratlamay, o‘z nuqtayi nazariga amal qiladi; agar boshqalar u bilan rozi bo‘lmasalar unchalik xafsalasi pir bo‘lmaydi; u muvaffaqiyatsizlikka uchraganda o‘zini-o‘zi oqlamaydi va umidsizlikka uchramaydi. U boshqa odamlarga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi va boshqalardan o‘ziga nisbatan salbiy fikrni kutib o‘tirmasdan va maqtovlarni rad etmay, qo‘lidan kelganicha boshqalarga yordam berishga intiladilar.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosi bilan ko’plab va psixolog olimlarimiz ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, Z.F.Mirtursunov, A.Munavvarov, G’.Shoumarov, V.Kariimova, O.Musurmonova, M.Inomova, N.Sog’inov, M.Xolmatova, D.Xoliqov, A.Muxsiyeva va boshqalarning ilmiy – tadqiqot ishlari e’tiborga molik.

Pedagogika fanlari doktori M.Mahmudova “Xalq pedagogikasi va oila tarbiyasi” monografiyasida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, maqola va tezislarida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik jihatlarini ilmiy va amaliy tomondan asoslab berishga harakat qilgan. Olimaning ta’kidlashicha, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga 80-yillarning o’rtalarigacha e’tibor berilmay kelingan, farzandlarni oila va oilaviy hayotga tayyorlash, ayniqsa jinsiy tarbiya borasida suhbatlar o’tkazish ayb sanalib, ular oilaviy hayot, uning ostonasida bu murakkab jarayonga tayyorlanishi “yot” do’stlardan, boshqalardan eshitib, unga o’zini ko’r-ko’rona tarzda tayyorlash edi., yoshlar uchun tavsiyalar, qo’llanmalarning yetarli emasligi ham sabab bo’lganligi, yopirilib kirib kelayotgan, ovropalashib oilaviy hayotga doir axborot vositalari milliy turmush tarzimizga salbiy ta’sir etayotgani, yoshlarimizning bu sohada yot ta’sirlarga berilib ketayotgani ham oz bo’lsa-da namoyon bo’ladi, – deb yozadi.

Psixologiya fanlar doktori G’. Shoumarov o’zining ilmiy-tadqiqot ishlarida o’zbek oilalarining o’ziga xos xususiyatlarini, oiladagi o’zaro nizolarning psixologik asoslarini yoritgan.

Pedagog olima O.Musurmonova o’zining ilmiy-tadqiqot ishlarida oila tarbiyasining milliy g’urur va iftixor darajasiga ko’tarilganligini, O’zbekiston Respublikasi hukumati uning kamolotiga, tinchligi va farovonligiga, haq-huquqlari himoyasiga alohida e’tibor qaratilayotganligi boy materiallar asosida bayon qilingan [49,50,51,52,53]. Olima hukumatimiz olib borayotgan “Sog’lom avlod uchun” siyosatining asosiy maqsadi ham sog’lom ona, sog’lom bola va sog’lom jamiyatni shakllantirish, jamiyatda mavjud barcha institutlarning bu boradagi faolligini, mas’uliyatini va rolini oshirish, maqsad va vazifalarini davr tarbiyasiga mos ravishda kengaytirish hamda uning moddiy va ma’naviy bazasini mustahkamlashdan iborat ekanligiga e’tiborni qaratadi.

Y. V. Shcherbatix stress yoki hissiy zo‘riqishlarning xulq-atvorda namoyon bo‘lishini quyidagi jadval orqali ifodalaydi:

Hissiy zo’riqishning xulq-atvordagi belgilari

Psixomotorikaning buzilishi	Hayot tarzining o’zgarishi	Kasbiy faoliyatning buzlishi	Ijtimoiy vazifalarni bajarishdagi o’zgarish
↓	↓	↓	↓
Mushaklarning xaddan ziyod zo’riqishi, harakat ritmining o’zgarishi	Kun tartibining o’zgarishi, uyquning buzilishi	Mehnat samaradorligining pasayishi, yuqori darajada toliqish	Nizolarning kuchayishi, tajovuzkorlikning ortishi

Olingan natijalar va ularning tahlili. Psixomotorikadagi o‘zgarishlar mushaklarning, ayniqsa, yuz va bo‘yin mushaklarining haddan ziyod zo‘riqishida, qo‘llarning titrashida, nafas olish ritmining buzilishida, ovozning titrashi, sensomotor reaksiyalar tezligining pasayishi, nutq buzilishi va boshqalarda namoyon bo‘ladi. Yu. V. Shcherbatix tomonidan o‘tkazilgan tajribalarda stress va boshqa hissiy zo‘riqishlar insonning yozuviga ham ta’sir ko‘rsatar ekan. Masalan, yomon kayfiyat ta’sirida harflar orasidagi masofa kengayib, harflarning eniga kattalashib ketishiga ta’sir etadi. Yaxshi kayfiyatda esa kishining yozuvi mayda harflar bilan, chiroyli holda yoziladi.

O‘smir o’g’il bolalarning o‘quv faoliyatidagi hissiy zo‘riqishlarini o‘rganish maqsadida o‘smirlar

bilan Yu. V. Shcherbatixning “O‘quv faoliyati bilan bog‘liq stresslarni o‘rganish” testi va S. Kouxen va G. Vilyamsonlarning “Hissiy zo‘riqishlarga chidamlilikni baholash” testi o‘tkazildi. Unda 56 nafar o‘smir o’g’il bolalar ishtirok etishdi. O‘smirlarda hissiy zo‘riqishlarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘luvchi muammolar 10 ballik shkala bo‘yicha baholandi va uning natijasi quyidagi jadvalda keltirilgan:

№	Zo‘riqishga sabab bo‘lgan holat va muammolar	Ball
1	Qattiqqo‘l talabchan o‘qituvchi	5,3
2	Katta hajmdagi o‘quv topshiriqlari	5,3
3	Darsliklar yetishmasligi	4,6
4	Zerikarli, tushunarsiz darsliklar	5,2
5	Ota-onadan uzoqdagi hayot	4,6
6	Cheklangan miqdordagi mablag‘dan unumli foydalanish	3,8
7	Kun tartibini to‘g‘ri tashkil qila olmaslik	3,4
8	Noto‘g‘ri ovqatlanish	3,7
9	Boshqa o‘smirlar bilan birga yashash bilan bog‘liq muammolar	3,3
10	Guruhdagi nizolar	4,2
11	O‘qishda bo‘lgan ortiqcha, jiddiy muammolar	3,0
12	O‘qishni, bu kasbni hohlamaslik	2,6
13	Tortinchoqlik, uyatchanlik	3,9
14	Kelajakdan xavotirlanish	4,5
15	Shaxsiy hayotdagi muammolar	4,9

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘smirlar uchun hissiy zo‘riqishlarni keltirib chiqaruvchi sabab sifatida o‘qituvchilarning qattiqqo‘lligi, talabchanligi (5,3 foiz), o‘quv topshiriqlari va hajmining ko‘pligi (5,3 foiz), darsliklar yetishmasligi (5,2 foiz), shaxsiy hayotidagi muammolar (4,9 foiz) va boshqalar ko‘rsatib o‘tilgan.

“O‘quv faoliyatidagi hissiy zo‘riqishlaringiz qanday namoyon bo‘lishini 10 balli shkala bo‘yicha baholang” degan savolga olingan javoblarning o‘rtacha ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

№	Hissiy zo‘riqishlarning namoyon bo‘lish shakllari	Ball
1	O‘zini ojiz, muammolarni yechimini topa olmaydigandek his qilish	3,2
2	Begona fikrlardan qutulish imkoniyatining yo‘qligi	3,5
3	Diqqatning tez chalg‘ishi, to‘planishini qiyinlashuvi	4,7
4	Ta’sirlanuvchanlik, tez xafa bo‘lish	5,3
5	Yomon kayfiyat, tushkunlik	4,4
6	Qo‘rquv, xavotirlik	4,0
7	O‘ziga ishonchning yo‘qolishi, o‘z-o‘ziga bahoning pasayishi	2,8
8	Muntazam vaqt yetishmasligidan shoshilish	3,5
9	Uyquning buzilishi	3,0
10	Muomaladagi qiyinchiliklar, ijtimoiy aloqalarning buzilishi	4,6
11	Yurak urishining tezlashishi, yurak sohasida og‘riq	3,0
12	Nafas olishning qiyinlashuvi	1,8

13	Oshqozon-ichak faoliyatining buzilishi	3,3
14	Mushaklarning zo‘riqishi, titrashi	2,9
15	Bosh og‘rishi	4,4
16	Ish qobiliyatining pasayishi, kuchli toliqish	4,5

Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar o‘rtasida hissiy zo‘riqish diqqatning tez chalg‘ishi, uning biror ob’ekt ustida to‘plashning qiyinligida (4,7), ta’sirlanuvchanlik, tez xafa bo‘lishda (5,3), muomaladagi qiyinchiliklar, ijtimoiy aloqalarning buzilishida (4,6), bosh og‘rishi (4,4), yomon kayfiyat, tushkunlik (4,4), ish qobiliyatining pasayishi (4,5), qo‘rquv va xavotirlik (4,0) shaklida ko‘proq namoyon bo‘ladi. “Zo‘riqishlarni yengib o‘tishda qanday usul va vositalardan foydalanasiz?” degan savolga olingan javoblar tahlili navbatdagi jadvalda aks ettirilgan.

Har bir kishi turli salbiy kechinma va holatlardan chiqib ketishda o‘ziga xos usul va vositalardan foydalanadi. Tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, ko‘pchilik (24 %) hissiy zo‘riqish paytida toza havoda sayr qilishni ma’qul ko‘radi, ba’zilar o‘ziga yoqqan kishilar yoki do‘stlari bilan muloqot orqali bunday holatdan chiqib ketishga harakat qiladilar (22 %), ayrim o‘smirlar uchun (15 %) uyqu ham zo‘riqishlardan qutulishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. 26 % tekshiriluvchilar esa biz tavsiya etgan usullardan boshqa, o‘ziga xos usul va vositalardan foydalanishlarini ko‘rsatib o‘tishgan.

Xulosa. Psixologik zo‘riqishlarni bartaraf etishning yani ikki yo‘nalishini farqlash mumkin, ya’ni – profilaktik va terapevtik.

Birinchisi, organizmning himoya kuchlarini rivojlantirishga, psixologik zarba beruvchi omilga munosabatni o‘zgartirishga, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan.

Ikkinchisi, paydo bo‘lgan zo‘riqishni zararsizlantirish, uning inson tanasidagi va emotsional sohadagi o‘ziga xos ko‘rinishlariga ta’sir etish.

Albatta, bu ikki yo‘nalish o‘rtasida chegara mavjud emas. Masalan, aynan bir xil autotrening profilaktik va terapevtik maqsadlarda qo‘llanilishi mumkin. Zo‘riqishlar haddan ziyod kuchayib ketganda nafaqat mushaklar relaksatsiyasi yoki jismoniy mashqlar orqali tanaga ta’sir etish kerak, shu bilan birga kishining his-tuyg‘u va fikrlariga ham ta’sir etish zarurati paydo bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Karimova V. M. «Oilaviy hayot psixologiyasi». Toshkent. 2006 yil, 137 b.
2. Mahmudova M. Yoshlarda oilaviy hayotga doir ko’nikma va malakalarni shakllantirish. Yoshlar ma’naviyati va sog’lom turmush tarzi. Ilmiy to’plam. 102-108-betlar.
3. Voxidov M.V. Umumiy psixologiya. Toshkent 1992 yil. 122 b.
4. Davletshin M.G., Do‘stmuhamedova Sh., Mavlanov M., To‘ychieva S. «Yosh va pedagogik psixologiya» o‘quv metodik qo‘llanma, Toshkent. - 2004 yil. 132-bet.

Eshmuradova Shirin Oybek qizi,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
1-son O‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

TALABA QIZLAR PSIXIK SALOMATLIGI VA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada raqamli muhitning talaba qizlar psixik salomatligiga ko‘rsatadigan ta’siri, shuningdek, deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik determinantlari kompleks va tizimli yondashuv asosida o‘rganilgan. Tadqiqotda zamonaviy psixologiya, ijtimoiy psixologiya va medialogiya doirasidagi nazariyalar asos qilib olingan. Ijtimoiy taqqoslash nazariyasi, identifikatsiya konsepsiyasi, addiktiv xulq modeli va kiberpsixologik yondashuvlar asosida muammo tahlil qilindi. Natijalar talaba qizlar orasida raqamli muhitning noto‘g‘ri foydalanilishi psixik buzilishlar va deviant xulq-atvor xavfini oshirishini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli muhit, psixik salomatlik, deviant xulq-atvor, talaba qizlar, ijtimoiy tarmoqlar, identifikatsiya, ijtimoiy taqqoslash, addiktsiya, kiberbulling, psixologik xavf omillari.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ СТУДЕНТОК И ФОРМИРОВАНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье комплексно рассматривается влияние цифровой среды на психическое здоровье студенток, а также психологические детерминанты формирования девиантного поведения. В условиях стремительного развития информационно-коммуникационных технологий усиливается воздействие социальных сетей и интернет-пространства на личностное развитие молодёжи. В исследовании анализируются такие факторы, как социальное сравнение, виртуальная идентификация, интернет-аддикция и кибербуллинг, которые выступают основными детерминантами девиантного поведения. Установлено, что чрезмерное использование цифровых ресурсов способствует снижению самооценки, росту тревожности и развитию депрессивных состояний у студенток. В статье также предложены психолого-педагогические меры профилактики и коррекции негативных последствий цифровой среды.*

Ключевые слова: *цифровая среда, психическое здоровье, девиантное поведение, студентки, социальные сети, интернет-аддикция, кибербуллинг, идентификация.*

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF FEMALE STUDENTS’ MENTAL HEALTH AND THE FORMATION OF DEVIANT BEHAVIOR

Abstract. *This article comprehensively examines the impact of the digital environment on the mental health of female students, as well as the psychological determinants of deviant behavior formation. In the context of rapid development of information and communication technologies, the influence of social media and the Internet on youth personality development has significantly increased. The study analyzes key factors such as social comparison, virtual identity, internet addiction, and cyberbullying as major determinants of deviant behavior. The findings indicate that excessive use of digital resources leads to decreased self-esteem, increased anxiety, and depressive symptoms among female students. The article also proposes psychological and pedagogical measures for the prevention and correction of negative effects of the digital environment.*

Keywords: *digital environment, mental health, deviant behavior, female students, social media, internet addiction, cyberbullying, identity.*

Kirish. Hozirgi paytda Respublikamizda raqamli muhit va yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli muhitning aynan qizlar psixik salomatligi va deviant xulq-atvor shakllanishiga ta’siri yetarli darajada kompleks va tizimli o‘rganilmagan. Ko‘pgina tadqiqotlar umumiy yoshlar yoki o‘smirlar muammolariga qaratilgan bo‘lib, gender xususiyatlari, psixologik determinantlar va milliy kontekstni chuqur tahlil qilish yetishmaydi. Shu bois, raqamli muhit sharoitida qizlar psixik salomatligi va deviant xulq-atvor o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, ushbu jarayonga ta’sir etuvchi psixologik omillarni ilmiy asosda ochib berish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, u raqamli muhitning qizlar psixik salomatligiga ta’sirini nafaqat salbiy oqibatlar nuqtayi nazaridan, balki ushbu ta’sirni boshqarish, oldini olish va psixologik himoya mexanizmlarini ishlab chiqish imkoniyatlari orqali tahlil qiladi. Mavzu doirasida aniqlanadigan psixologik determinantlar (emosional beqarorlik, o‘zini baholash darajasi, ijtimoiy taqqoslash, psixologik immunitet, stressga chidamlilik va boshqalar) deviant xulq-atvorni erta bosqichda aniqlash va profilaktika qilish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu nisbatan noziklik, ruhiy stress sezgirligi). Bu esa deviant xulq-atvorning shakllanish mexanizmlarini va psixologik determinantlarni chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Zamonaviy globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalar insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylandi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar o‘zaro muloqot qilish, bilim olish va o‘zini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Biroq bu jarayon inson psixikasiga yangi turdagi bosim va xavflarni ham olib keldi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Talaba yoshlar, ayniqsa talaba qizlar, ijtimoiy-psixologik jihatdan sezgir qatlam hisoblanadi. Ularning shaxs sifatida shakllanish davrida raqamli muhit kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida psixik salomatlikning buzilishi, identifikatsiya inqirozi va deviant xulq-atvor shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Raqamli muhitning yoshlar, shu jumladan, qizlar psixik salomatligiga ta’siri masalasining O‘zbekiston sharoitida ham jadal ilmiy izlanayotganini tasdiqlaydi, ammo aynan raqamli muhit ta’sirida qizlar psixik salomatligining deviant xulq-atvor shakllanishini psixologik determinantlar orqali o‘rganish bo‘yicha yetarlicha kompleks ilmiy tahlil mavjud emas. O’zbek olimlari tomonidan deviant xulq-atvorning psixologik xususiyatlari ko’plab olimlar tomonidan o’rganilgan, jumladan, mamlakatimizdagi so’nggi tadqiqotlar doirasida Z.S.Elov tomonidan deviant xulq-atvor ijtimoiy muammo sifatida o’rganilib, muammoning ilmiy-nazariy asoslari, deviant xulq atvorni o’rganishga doir psixologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Z.Sh.Saidova tomonidan deviant xulq-atvor kontseptsiyasini ijtimoiy normalar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Ilmiy ishda internet va virtual dunyo, zamonaviy omillar yoshlarning xulqida normadan chetlanish tendensiyalarini kuchaytirishi aytiladi. F.Saidbekova tomonidan psixologik moslashuv holatlari va deviant xulq-atvor ma’lumotlarini O‘zbekiston sharoitida o‘rganib, past o‘zini baholash va stress chidamsizligi kabi psixologik omillar deviant xulq-atvor rivojlanishida muhim ekanini ko‘rsatgan.

Tadqiqot metodologiyasi va nazariy asoslari. Psixik salomatlik shaxsning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, kundalik hayotdagi stresslarga bardosh berishi, samarali faoliyat olib borishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi. Talaba qizlarning psixik salomatligi ularning akademik muvaffaqiyati, ijtimoiy moslashuvi hamda kelajakdagi kasbiy va shaxsiy kamolotining muhim omili hisoblanadi. Ruhiy barqarorlikning buzilishi esa depressiya, tashvish, emotsional zo‘riqish va o‘ziga ishonchsizlik kabi salbiy holatlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Deviant xulq-atvor esa jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy-me’yoriy qoidalardan chetga chiqish holati sifatida izohlanadi. Talaba qizlarda deviant xulq-atvor turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin: akademik mas’uliyatsizlik, agressivlik, ijtimoiy izolyatsiya, zararli odatlarga moyillik, internetga qaramlik yoki axloqiy me’yorlarga zid xatti-harakatlar shular jumlasidandir. Mazkur holatlarning yuzaga kelishida psixologik determinantlar muhim rol o‘ynaydi.

Talaba qizlar psixologik jihatdan sezgir, emotsional reaksiyalarga boy va ijtimoiy baholashga nisbatan yuqori darajada ta’sirchan guruh hisoblanadi. Ularning shaxs sifatida shakllanish jarayoni aynan talabalik davriga to‘g‘ri keladi va bu davrda tashqi ijtimoiy omillar, jumladan raqamli muhitning ta’siri nihoyatda kuchli bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etilayotgan “ideal hayot”, “mukammal tashqi ko‘rinish” va “muvaffaqiyatli shaxs” obrazlari talaba qizlarda o‘zini boshqalar bilan taqqoslash ehtiyojini kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida o‘z-o‘zini baholashning pasayishi, ichki norozilik, psixologik diskomfort va depressiv holatlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Ijtimoiy taqqoslash fenomeni shaxsning ichki psixologik muvozanatini buzuvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Talaba qizlar psixik salomatligi va deviant xulq-atvor shakllanishining asosiy psixologik determinantlariga quyidagilar kiradi: shaxsning o‘zini anglash darajasi, o‘z-o‘zini baholash, emotsional barqarorlik, motivatsiya, ijtimoiy moslashuv, qadriyatlar tizimi hamda stressga chidamlilik. Shuningdek, oilaviy muhit, tarbiya uslubi, tengdoshlar ta’siri, ta’lim muassasasidagi psixologik iqlim va ommaviy axborot vositalari ham ushbu jarayonga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, noto‘g‘ri ijtimoiy taqqoslash, perfektsionizm va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rquv talaba qizlarda ichki ziddiyatlarni kuchaytiradi.

Raqamli muhitda shakllanadigan virtual identifikatsiya ham talaba qizlar psixikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Virtual platformalarda yaratilgan “ideal men” obrazi ko‘pincha real shaxsiyat bilan mos kelmaydi. Bu esa shaxsda ichki konflikt, ya’ni real “men” va virtual “men” o‘rtasidagi ziddiyatni yuzaga keltiradi. Natijada identifikatsiya inqirozi kuzatiladi, bu esa psixologik beqarorlik, o‘ziga ishonchsizlik va ijtimoiy moslashuvning buzilishiga olib keladi. Erikson nazariyasiga ko‘ra, yosh davrida identifikatsiya shakllanishi muhim bosqich hisoblanadi va bu jarayonning buzilishi shaxs rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, raqamli muhitning yana bir muhim psixologik jihati bu internet addiktsiyasi, ya’ni virtual muhitga qaramlikning shakllanishidir. Talaba qizlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish holatlari keng tarqalgan bo‘lib, bu jarayon asta-sekin psixologik ehtiyojga aylanadi. Dastlab oddiy qiziqish sifatida boshlangan faoliyat keyinchalik odat, undan so‘ng esa qaramlik darajasiga yetadi. Internet addiktsiyasi shaxsning vaqtni boshqarish qobiliyatini pasaytiradi, real ijtimoiy aloqalarni zaiflashtiradi va psixologik muammolarni yanada chuqurlashtiradi. Ayniqsa, real hayotdagi muammolardan qochish vositasi sifatida virtual muhitdan foydalanish deviant xulq-atvor shakllanishining muhim omiliga aylanadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Kiberbulling, ya’ni onlayn muhitdagi tahqir, bosim va psixologik zo‘ravonlik ham talaba qizlar psixik salomatligiga jiddiy zarar yetkazuvchi omillardan biridir. Ijtimoiy tarmoqlarda bildiriladigan salbiy fikrlar, tanqidlar va haqoratlar shaxsda kuchli stress, xavotir va qo‘rquv hissini uyg‘otadi. Bunday holatlar uzoq davom etganda, depressiv buzilishlar, ijtimoiy izolyatsiya va hatto avtodestruktiv xatti-harakatlar shakllanishi mumkin. Kiberbullingning xavfliligi shundaki, u doimiy va keng auditoriya oldida sodir bo‘ladi, bu esa psixologik travmaning kuchayishiga olib keladi.

Raqamli muhitning yana bir salbiy jihati bu ijtimoiy izolyatsiyaning kuchayishidir. Virtual muloqot real ijtimoiy aloqalarni asta-sekin siqib chiqaradi, natijada talaba qizlar real hayotdagi munosabatlardan uzoqlasha boshlaydi. Bu esa yolg‘izlik hissining kuchayishiga, emotsional qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligiga va psixik salomatlikning yomonlashuviga olib keladi. Yolg‘izlik esa o‘z navbatida deviant xulq-atvor shakllanishining muhim psixologik determinantlaridan biri hisoblanadi.

Axborot ortiqligi (information overload) ham zamonaviy raqamli muhitning muhim muammolaridan biridir. Doimiy ravishda katta hajmdagi axborotni qabul qilish inson miyasida kognitiv yuklamani oshiradi, diqqatning tarqoqlashuviga va charchoqka olib keladi. Bu esa o‘qish samaradorligining pasayishiga, stress darajasining oshishiga va psixologik diskomfortga sabab bo‘ladi. Talaba qizlar orasida bu holat ko‘pincha o‘quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyaning pasayishi bilan namoyon bo‘ladi.

Raqamli muhitning psixologik ta’siri ko‘pincha yashirin xarakterga ega bo‘lib, u asta-sekin shakllanadi va uzoq muddat davomida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shu sababli ushbu jarayonni erta bosqichda aniqlash va profilaktika choralarini ko‘rish muhim ahamiyatga ega. Psixologik profilaktika doirasida talaba qizlarda raqamli gigiyena ko‘nikmalarini shakllantirish, ya’ni internetdan foydalanish vaqtini me’yorlash, foydali kontentni tanlash va dam olish rejimini to‘g‘ri tashkil etish zarur. Shuningdek, psixologik treninglar, maslahatlar va stressni boshqarish texnikalarini o‘rgatish ham muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim muassasalari bu borada muhim rol o‘ynaydi. Universitetlarda psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish, talabalarga muntazam psixologik yordam ko‘rsatish, media savodxonlikni oshirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish zarur. Bundan tashqari, oila va ijtimoiy muhitning qo‘llab-quvvatlashi ham talaba qizlar psixik salomatligini saqlashda muhim omil hisoblanadi. Ochiq muloqot, ishonchli munosabat va emotsional qo‘llab-quvvatlash psixologik muammolarni kamaytirishga yordam beradi.

Xulosa. Umuman olganda, raqamli muhit talaba qizlar psixik salomatligiga murakkab va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ta’sir natijasida deviant xulq-atvor shakllanishiga olib keluvchi psixologik determinantlar — ijtimoiy taqqoslash, virtual identifikatsiya inqirozi, internet addiktsiyasi, kiberbulling va ijtimoiy izolyatsiya muhim o‘rin tutadi. Mazkur muammoni hal etish uchun kompleks yondashuv, ya’ni psixologik, pedagogik va ijtimoiy choralarni uyg‘unlashtirish zarur. Ayniqsa, zamonaviy yoshlar ongida sog‘lom raqamli madaniyatni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2019.
3. Qodirov B.R. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020.
4. Nishonova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent, 2017.
5. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2017.
6. Белинская Е.П. Интернет и идентичность личности. – Москва, 2018.
7. Реан А.А. Психология личности. – Санкт-Петербург, 2019.
8. Выготский Л.С. Психология развития человека. – Москва, 2016.
9. Bandura A. Social Learning Theory. – New York: General Learning Press, 1977.
10. Festinger L. A Theory of Social Comparison Processes. – Human Relations, 1954.
11. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: Norton, 1968.
12. Young K.S. Internet Addiction: A New Clinical Phenomenon. – CyberPsychology & Behavior, 2016.
13. Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New

Ruzmatova Nigina Shotillo qizi,
O‘zbekiston sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

STRESSGA BARDOSHLILIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada stressga bardoshlilikni rivojlantirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy jamiyatda stress darajasining ortib borishi shaxsning psixologik barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi sababli, ushbu muammoni o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida psixologik treninglar orqali stressga chidamlilikni oshirish usullari ko‘rib chiqildi. Xususan, geshtalt yondashuvi, bixevioral va kognitiv metodlar hamda musiqa terapiyasining samaradorligi yoritildi. Trening jarayonida interaktiv usullar, relaksatsiya mashqlari va guruhiy muhokamalardan foydalanishning ahamiyati asoslab berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kompleks yondashuv asosida tashkil etilgan treninglar shaxsning stressga bardoshliligini sezilarli darajada oshiradi.*

Kalit so‘zlar: *stress, stressga bardoshlilik, psixologik trening, geshtalt yondashuvi, bixeviorizm, kognitiv yondashuv, musiqa terapiyasi, relaksatsiya, emotsional barqarorlik, moslashuvchanlik.*

THEORETICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING STRESS RESILIENCE

Abstract. *This article analyzes the theoretical foundations for developing stress resilience. Studying this issue is particularly relevant as the rising level of stress in modern society negatively impacts an individual's psychological stability. The research process examined methods for enhancing stress resilience through psychological training. Specifically, it highlights the effectiveness of the Gestalt approach, behavioral and cognitive methods, and music therapy. The importance of using interactive methods, relaxation exercises, and group discussions during the training process is also substantiated. The research findings indicate that training programs organized with a comprehensive approach significantly increase an individual's stress resilience.*

Keywords: *stress, stress resilience, psychological training, Gestalt approach, behaviorism, cognitive approach, music therapy, relaxation, emotional stability, adaptability.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СТРЕССОУСТОЙЧИВОСТИ

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические основы развития стрессоустойчивости. В современном обществе рост уровня стресса негативно влияет на психологическую стабильность личности, в связи с чем изучение данной проблемы приобретает особую актуальность. В ходе исследования были рассмотрены методы повышения стрессоустойчивости с помощью психологических тренингов. В частности, освещается эффективность гештальт-подхода, бихевиоральных и когнитивных методов, а также музыкотерапии. Обосновывается значимость использования интерактивных методов, релаксационных упражнений и групповых обсуждений в процессе тренинга. Результаты исследования показывают, что тренинги, организованные на основе комплексного подхода, значительно повышают стрессоустойчивость личности.*

Ключевые слова: *стресс, стрессоустойчивость, психологический тренинг, гештальт-подход, бихевиоризм, когнитивный подход, музыкотерапия, релаксация, эмоциональная стабильность, адаптивность.*

Kirish. Shaxsda stressga barqarorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda turli ijtimoiylashuv institutlarining roli katta bo‘lib, ulardan biri ta’lim tizimi hisoblanadi. Xuddi shuningdek, sport faoliyati va trenerlik jarayoni ham shaxsning psixologik barqarorligini shakllantirishda muhim omillardan biridir. Sport mashg‘ulotlari davomida sportchilar nafaqat jismoniy tayyorgarlikni oshiradilar, balki o‘zlarining psixologik holatini boshqarish, stressli vaziyatlarga moslashish va ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ayniqsa, trenerning pedagogik va psixologik yondashuvi sportchilarda stressga chidamlilikni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. To‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulot jarayoni, musobaqa oldi va musobaqa jarayonidagi psixologik qo‘llab-quvvatlash sportchilarning nafaqat natijalariga, balki ularning shaxs sifatida kamol topishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois sport faoliyatida, xususan trenerlik

amaliyotida sportchilarning stressga barqarorligini rivojlantirish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Stressli vaziyatlarda barqarorlik shaxsning ijtimoiy hayotdagi eng muhim ko‘nikmalaridan biri hisoblanadi. Mazkur holat sport faoliyatida ayniqsa dolzarb bo‘lib, sportchilar musobaqa jarayonida, raqobat sharoitida hamda yuqori jismoniy va psixologik yuklama ostida tez-tez stressogen vaziyatlarga duch keladilar. Bunday vaziyatlarda sportchining o‘zini va xulq-atvorini nazorat qila olishi uning individual-psixologik xususiyatlari, xususan xarakterining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash joizki, har qanday murakkab vaziyatlarda o‘zini boshqara oladigan sportchi o‘z hissiyotlarini ham samarali nazorat qila oladi. Bu esa musobaqa natijadorligiga, qaror qabul qilish tezligi va aniqligiga, shuningdek, umumiy sport faoliyati samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, trenerlik jarayonida sportchilarda emotsional o‘zini boshqarish va stressga chidamlilik ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Material va metodlar. Ushbu tadqiqot nazariy-amaliy yo‘nalishga ega bo‘lib, stressga bardoshlilikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik trening dasturini ishlab chiqish maqsadida amalga oshirildi. Tadqiqot materiali sifatida stress, stressga bardoshlilik (rezilientlik), koping strategiyalar hamda shaxsning psixologik resurslariga oid ilmiy adabiyotlar, shuningdek, sport va ta’lim psixologiyasi bo‘yicha nazariy manbalar tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslangan bo‘lib, stressga bardoshlilikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bir nechta psixologik trening yo‘nalishlarini integratsiya qilishni nazarda tutadi.

Trening dasturini shakllantirishda quyidagi psixologik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi:

Geshtalt yondashuvi ishtirokchilarning “hozir va shu yerda” tamoyili asosida o‘z ichki kechinmalarini anglash, emotsional ogohlikni oshirish hamda shaxsiy tajribani yaxlit idrok etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Bixevioristik yondashuv asosida stressli vaziyatlarga moslashish, o‘ziga ishonchni oshirish, xavotirni kamaytirish hamda ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar tizimi ishlab chiqiladi. Bu yondashuv xulq-atvorni o‘zgartirish orqali stressga bardoshlilikni oshirishga xizmat qiladi.

Psixodrama metodi rolli o‘yinlar orqali stressli vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi. Bu jarayon ishtirokchilarda emotsional kechinmalarni ifodalash, ichki psixologik zo‘riqishni kamaytirish va katarsis holatiga erishishni ta’minlaydi.

Encounter (uchrashuv guruhlari) yondashuvi ishtirokchilar o‘rtasida ishonch, ochiqlik va emotsional qo‘llab-quvvatlash muhitini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Bu esa shaxslararo muloqot va emotsional kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kognitiv terapiya va **ratsional emotiv terapiya (RET)** elementlari ishtirokchilarning fikrlash tizimini qayta qurishga qaratiladi. Ushbu yondashuvlar irratsional fikrlarni aniqlash, ularni ratsional fikrlar bilan almashtirish hamda stressli vaziyatlarni adekvat talqin qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. A. Ellis va K. Maklarenning qarashlariga ko‘ra, emotsional reaksiyalar tashqi vaziyatlarga emas, balki shaxsning ularni qanday talqin qilishiga bog‘liqdir.

Shuningdek, trening jarayonida **musiqa terapiyasi**dan foydalanish ham ko‘zda tutiladi. Musiqa terapiyasi ishtirokchilarning emotsional holatini barqarorlashtirish, psixologik zo‘riqishni kamaytirish hamda ijobiy ruhiy fonni shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Mazkur metodlarning integratsiyasi stressga bardoshlilikni rivojlantirishga qaratilgan trening dasturining kompleks modelini tashkil etadi. Ushbu model kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini birgalikda rivojlantirish orqali shaxsning psixologik barqarorligini oshirishga yo‘naltiriladi.

Natijalar va muhokama. Nazariy adabiyotlar tahlili va ishlab chiqilgan trening modeli shuni ko‘rsatadiki, stressga bardoshlilik ko‘p komponentli psixologik tuzilma bo‘lib, u shaxsning kognitiv baholash tizimi, emotsional boshqaruv ko‘nikmalari hamda xulq-atvor strategiyalari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, koping strategiyalar stressli vaziyatlarga moslashishda asosiy psixologik mexanizmlardan biri hisoblanadi. O‘zini adekvat baholash, optimizm, emotsional intellektning yuqoriligi, ichki nazorat lokusi hamda yumor kabi shaxsiy resurslar stressga bardoshlilikni oshiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, psixologik treninglarning guruhiy shakli individual yondashuvlarga nisbatan samaraliroq bo‘lishi mumkinligi qayd etiladi. Guruhiy jarayonda ishtirokchilar o‘zaro emotsional qo‘llab-quvvatlash, tajriba almashish va ijtimoiy identifikatsiya orqali stressni yengish strategiyalarini tezroq o‘zlashtiradilar.

Taklif etilayotgan kompleks trening modeli geshtalt, bixevioristik, kognitiv, ratsional emotiv terapiya, psixodrama, encounter guruhlari hamda musiqa terapiyasi elementlarini integratsiya qiladi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv shaxsning uch asosiy psixologik komponentiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

- **Kognitiv komponent** – irratsional fikrlarni aniqlash va ularni ratsional fikrlar bilan almashtirish;
- **Emotsional komponent** – emotsional barqarorlikni oshirish va xavotir darajasini kamaytirish;
- **Xulq-atvor komponenti** – moslashuvchan xulq-atvor strategiyalarini shakllantirish.

Muhokama natijalariga ko‘ra, ayniqsa sport faoliyati kontekstida bunday kompleks yondashuv sportchilarning musobaqa oldi va musobaqa jarayonidagi psixologik bosimni yengishiga, tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini yaxshilashiga hamda jamoaviy muhitda samarali ishlashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, musiqa terapiyasining qo‘llanilishi emotsional relaksatsiyani kuchaytirib, stress gormonlarini kamaytirish va psixologik tiklanish jarayonini tezlashtirishga yordam berishi ehtimoli yuqori ekanligi ta’kidlanadi.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan trening modeli stressga bardoshlilikni oshirishga qaratilgan kompleks psixologik tizim sifatida nazariy jihatdan asoslangan bo‘lib, uning samaradorligi kelgusida empirik tadqiqotlar orqali tekshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, stressga bardoshlilikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar turli kasb egalari faoliyatida samarali natijalar bergan. Xususan, pedagoglar, tibbiyot xodimlari, harbiylar hamda korporativ tashkilot xodimlari ishtirokida olib borilgan tadqiqotlarda stressni boshqarish, emotsional barqarorlik va o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarining rivojlangani qayd etilgan.

Tahlillarga ko‘ra, kognitiv va xulq-atvor yondashuvlariga asoslangan treninglar stressli vaziyatlarga moslashish imkoniyatlarini kengaytirgan hamda ishtirokchilarning psixologik zo‘riqish darajasini kamaytirgan. Shu bilan birga, guruhiy trening shakllari ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va emotsional almashinuv hisobiga yuqoriroq samaradorlikni namoyon qilgan.

1-jadval.

Turli soha vakillarida stressga bardoshlilik treninglari samaradorligi

Tadqiqot ishtirokchilari	Kuzatilgan psixologik o‘zgarish	Samaradorlik (%)
Pedagoglar	Emotsional barqarorlikning oshishi	56%
Tibbiyot xodimlari	Stress darajasining kamayishi	48%
Korporativ tashkilot xodimlari	O‘zini boshqarish ko‘nikmasining rivojlanishi	51%
Harbiy xizmatchilar	Psixologik moslashuvning yaxshilanishi	59%
Talabalar guruhi	Xavotir darajasining pasayishi	44%

Jadval natijalari turli kasb egalari o‘rtasida o‘tkazilgan psixologik treninglarning stressga bardoshlilikni rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, harbiy xizmatchilar va pedagoglarda emotsional barqarorlik hamda psixologik moslashuv ko‘rsatkichlari yuqori darajada yaxshilangani kuzatilgan. Bu esa stressli faoliyat bilan bog‘liq kasblarda kompleks psixologik treninglarning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.



1-diagramma. Psixologik treninglarning turli soha vakillaridagi samaradorligi

Diagrammada psixologik treninglarning turli soha vakillarida stressga bardoshlilikni oshirishdagi samaradorligi aks ettirilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, emotsional zo‘riqish yuqori bo‘lgan faoliyat turlarida treninglarning samarasi nisbatan yuqoriroq kuzatiladi. Bu holat stressli sharoitlarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun psixologik tayyorgarlikning zarurligini ko‘rsatadi.

Nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlili asosida shuni ta’kidlash mumkinki, stressga bardoshlilikni rivojlantirishga qaratilgan trening dasturlari shaxsning emotsional boshqaruv, kognitiv moslashuv va xulq-atvor nazorati kabi muhim psixologik komponentlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, geshtalt yondashuvi, kognitiv terapiya, psixodrama va guruhiy trening elementlarining integratsiyasi stressli vaziyatlarga moslashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mazkur natijalar trenerlik faoliyatida ham psixologik trening texnologiyalaridan foydalanish muhimligini ko‘rsatadi. Chunki trenerlar faoliyati ham yuqori emotsional zo‘riqish, mas’uliyat va tezkor qaror qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lib, ularda stressga bardoshlilik ko‘nikmalarini rivojlantirish kasbiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Stressga bardoshlilik shaxsning murakkab hayotiy vaziyatlarga moslashish, emotsional barqarorlikni saqlash va samarali xulq-atvorni namoyon etish qobiliyati sifatida zamonaviy psixologiyada muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, stressga bardoshlilik ko‘p komponentli psixologik tuzilma bo‘lib, u kognitiv baholash, emotsional boshqaruv va xulq-atvor strategiyalarining o‘zaro integratsiyasiga asoslanadi.

Turli soha vakillarida o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili psixologik treninglarning stressga bardoshlilikni rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar trenerlik faoliyatida ham kompleks psixologik trening dasturlarini qo‘llash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Shu sababli trenerlarda emotsional barqarorlik, o‘zini boshqarish va stressli vaziyatlarga moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.Shuningdek, adabiyotlar tahlili koping strategiyalar, emotsional intellekt, optimizm va ichki nazorat lokusi kabi shaxsiy resurslar stressga bardoshlilikni oshirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Ushbu omillarni rivojlantirishga qaratilgan trening dasturlari shaxsning psixologik barqarorligini kuchaytirishi mumkin.

Umuman olganda, taklif etilgan trening modeli nazariy jihatdan asoslangan bo‘lib, uning amaliy samaradorligini aniqlash uchun kelgusida empirik tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Рудестам К. Групповая психотерапия. - СПб.: Питер ком, 2019. - 384 с.
2. Андреева И.Н. Эмоциональный интеллект как феномен современной психологии. — Новополоцк: Полоц. гос. унив., 2011. — 388 с.
3. Ismoilova N.Z. Sotsial psixologik trening. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Innovatsiya-ziyo”, 2019. - 189 b.
4. Ismoilova N.Z. Psixologik trening asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Innovatsiya-ziyo”, 2023. - 293 b.
5. Буравцова Н.В., Дмитриева Н.В. Развитие личностной харизматичности посредством социально-психологического тренинга. // Социосфера. — 2014. № 1. С.180-184.
6. Белова Л.П. Социально-психологический тренинг как средство развития социальной активности личности. - Л.: Наука, 2018. - 112 с.
7. Цзен Н.В., Пахомов Ю.В. Психотренинг: игры и упражнения. - М: Смысл, 2018. - 282 с.
8. Тренинг преодоления тревожности и повышения стрессоустойчивости / под. ред. Мягкова И.Ф. - Воронеж, 2008. — 178 с.
9. Карвасарский Б.Д. Психотерапевтическая энциклопедия, 2-е издание. - СПБ, 2000. - 122 с.

Tursunbayev Sandjar Bahtiyorovich,
O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxasisslarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0006-3119-4209

MAKTAB SPORT TRENERLARIDA MOTIVATSIYA DARAJASI VA PROFESSIONAL SAMARADORLIK O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktab sport trenerlarining motivatsiya darajasi hamda ularning professional samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida trenerlarning ichki va tashqi motivatsiyasi, kasbiy faoliyatga munosabati, pedagogik mahorati hamda sport natijadorligiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganildi. Shuningdek, motivatsiyaning professional faoliyat samaradorligiga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri ilmiy manbalar asosida yoritildi.*

Kalit so‘zlar: *motivatsiya, professional samaradorlik, sport treneri, pedagogik faoliyat, ichki motivatsiya, kasbiy kompetensiya, sport psixologiyasi, sport ta’limi.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ МОТИВАЦИИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ У ШКОЛЬНЫХ СПОРТИВНЫХ ТРЕНЕРОВ

Аннотация. *В данной статье анализируется взаимосвязь между уровнем мотивации школьных спортивных тренеров и их профессиональной эффективностью с психолого-педагогической точки зрения. В ходе исследования были изучены внутренняя и внешняя мотивация тренеров, отношение к профессиональной деятельности, педагогическое мастерство и факторы, влияющие на спортивные результаты. Также на основе научных источников раскрыто положительное влияние мотивации на эффективность профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *мотивация, профессиональная эффективность, спортивный тренер, педагогическая деятельность, внутренняя мотивация, профессиональная компетентность, психология спорта, спортивное образование.*

THE RELATIONSHIP BETWEEN MOTIVATION LEVEL AND PROFESSIONAL EFFECTIVENESS OF SCHOOL SPORTS COACHES

Abstract. *This article analyzes the relationship between the motivation level of school sports coaches and their professional effectiveness from a psychological and pedagogical perspective. The study examined coaches’ intrinsic and extrinsic motivation, attitudes toward professional activity, pedagogical skills, and factors influencing sports performance. The positive impact of motivation on professional effectiveness was also highlighted based on scientific literature.*

Keywords: *motivation, professional effectiveness, sports coach, pedagogical activity, intrinsic motivation, professional competence, sports psychology, sports education.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sport sohasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, maktab sportini rivojlantirish, yoshlarning jismoniy salomatligini mustahkamlash, ularni sportga keng jalb etish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda sport trenerlarining professional faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Shu nuqtayi nazardan, maktab sport trenerlarining kasbiy faoliyat samaradorligini oshiruvchi psixologik omillarni aniqlash dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Sport trenerining professional faoliyati nafaqat sport texnikasini o‘rgatish, balki sportchilarning psixologik tayyorgarligini shakllantirish, ularda g‘alabaga bo‘lgan ishonchni rivojlantirish va motivatsion muhit yaratishni ham o‘z ichiga oladi [2]. Trener faoliyatining samaradorligi esa ko‘p jihatdan uning motivatsion holati bilan bog‘liqdir. Motivatsiya inson faoliyatini harakatga keltiruvchi ichki psixologik mexanizm bo‘lib, shaxsning maqsad sari intilishi, qiziqishi va kasbiy faolligini belgilaydi [3].

Psixologiya fanida motivatsiya masalasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. A.Maslou ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasida inson faoliyatining asosida ehtiyojlar tizimi yotishini ta’kidlagan bo‘lsa, F.Gersberg motivatsiyani ichki va tashqi omillarga ajratadi [4]. D.MakKlelland esa muvaffaqiyatga erishish motivining professional faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini asoslab bergan [5]. Sport

psixologiyasida esa trener motivatsiyasi sportchilar natijadorligining muhim omillaridan biri sifatida qaraladi.

Maktab sport trenerlarida motivatsiya darajasi yuqori bo‘lsa, ular o‘z faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashadi, innovatsion metodlardan foydalanadi, sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga oladi hamda ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etadi. Aksincha, motivatsiyaning pasayishi kasbiy charchoq, faoliyat samaradorligining kamayishi va sport natijalarining sustlashuviga olib kelishi mumkin [6].

Mazkur maqolaning maqsadi maktab sport trenerlarida motivatsiya darajasi va professional samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida psixologik-pedagogik tahlil, kuzatish, suhbat, anketa va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotda umumta’lim maktablarida faoliyat olib borayotgan sport trenerlari ishtirok etdi. Respondentlarning kasbiy faoliyatga munosabati, motivatsion darajasi hamda professional samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rganildi.

Motivatsiyani aniqlashda kasbiy motivatsiya diagnostikasi metodikalaridan foydalanildi. Professional samaradorlik esa quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- sportchilarning natijadorligi;
- mashg‘ulotlarning samarali tashkil etilishi;
- trenerning kommunikativ kompetensiyasi;
- innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajasi;
- sportchilarning trener faoliyatidan qoniqish ko‘rsatkichi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yuqori motivatsiyaga ega trenerlar professional faoliyatda yuqori natijalarni namoyon etadi. Ularda sportchilarga individual yondashuv, tashabbuskorlik, tashkilotchilik va pedagogik mahorat yuqori darajada shakllanganligi kuzatildi.

Motivatsiya darajasi past trenerlarda esa quyidagi holatlar aniqlandi:

- kasbiy faoliyatga nisbatan befarqlik;
- innovatsion metodlardan kam foydalanish;
- sportchilar bilan kommunikativ munosabatlarning sustligi;
- sport natijalarining barqaror emasligi.

Tadqiqot davomida trenerlarning ichki motivatsiyasi professional samaradorlikka tashqi motivatsiyaga nisbatan kuchliroq ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Ichki motivatsiyaga ega trenerlar o‘z faoliyatidan ma’naviy qoniqish oladi, sportchilar muvaffaqiyatini shaxsiy yutuq sifatida qabul qiladi hamda kasbiy rivojlanishga intiladi [7].

Sport psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ham motivatsiya va samaradorlik o‘rtasida ijobiy korrelyatsion bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi [8]. Motivatsiya trenerning emotsional barqarorligini ta’minlaydi, stressga chidamliligini oshiradi va sportchilar bilan samarali muloqot qilishiga yordam beradi.

Quyidagi jadvalda motivatsiya darajasi va professional samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatilgan.

Motivatsiya darajasi	Professional samaradorlik	Pedagogik faollik	Sport natijadorligi	Motivatsiya darajasi
Yuqori	Yuqori	Faol	Barqaror yuqori	Yuqori
O‘rta	O‘rta	Qisman faol	O‘rtacha	O‘rta
Past	Past	Sust	Barqaror emas	Past

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, motivatsiya darajasi ortishi bilan professional samaradorlik ham oshib boradi. Demak, trenerlarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish sport ta’limi sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Muhokama. Maktab sport trenerlari faoliyati murakkab psixologik-pedagogik jarayon bo‘lib, u yuqori mas’uliyat, emotsional barqarorlik va kasbiy kompetensiyani talab etadi. Trener faoliyatida motivatsiya nafaqat shaxsiy rivojlanish omili, balki sportchilar muvaffaqiyatining ham muhim determinantidir.

Ayniqsa, ichki motivatsiya trenerning kasbiy o‘sishiga kuchli turtki beradi. Ichki motivatsiya mavjud bo‘lgan trenerlar o‘z ustida muntazam ishlaydi, yangi metodlarni o‘rganadi va sportchilarda ham motivatsion muhit yaratishga harakat qiladi [9].

Shuningdek, professional samaradorlikka ijtimoiy-psixologik muhit, moddiy rag‘batlantirish, rahbariyat qo‘llab-quvvatlashi va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maktab sport trenerlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan psixologik va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Maktab sport trenerlarining motivatsiya darajasi ularning professional samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

2. Ichki motivatsiya professional faoliyat samaradorligini oshiruvchi asosiy psixologik omillardan biri hisoblanadi.

3. Yuqori motivatsiyaga ega trenerlarda pedagogik mahorat, tashabbuskorlik va sport natijadorligi yuqori darajada namoyon bo‘ladi.

4. Motivatsiyaning pasayishi kasbiy charchoq va professional samaradorlikning kamayishiga olib keladi.

5. Sport trenerlari faoliyatida psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Tavsiyalar.

- sport trenerlari uchun motivatsion treninglar tashkil etish;
- trenerlarning kasbiy rivojlanish dasturlarini kengaytirish;
- sport ta’limida psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish;
- trenerlarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish;
- sport trenerlari faoliyatini muntazam psixologik monitoring qilish.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2015.
2. Karimov F.A. Sport psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975.
4. Herzberg F. Work and the Nature of Man. – Cleveland: World Publishing, 1966.
5. McClelland D. Human Motivation. – Cambridge University Press, 1987.
6. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – Санкт-Петербург: Питер, 2011.
7. Deci E., Ryan R. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985.
8. Weinberg R., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. – Human Kinetics, 2019.
9. Maslow A. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1970.

Xomidova Madina Xusan qizi,
Farg‘ona davlat universiteti magistranti

TALABALARDA MUVAFFAQIYATGA INTILISH VA EMOTSIONAL INTELLEKTNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy talabalarning shaxsiy va kasbiy kamolotida muhim rol o‘ynaydigan ikki yetakchi omil — muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi va emotsional intellekt o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tadqiq etilgan. Maqolada talabalarning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish va atrofdagilarning emotsiyalarini tushunish qobiliyati ularning akademik hamda hayotiy maqsadlarga erishishdagi intilishlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari yuqori emotsional intellektga ega bo‘lgan talabalarda to‘siqlarni yengib o‘tish va muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi kuchliroq bo‘lishini ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada oliy ta’lim jarayonida talabalarning emotsional va motivatsion sohalarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *talabalar, muvaffaqiyatga intilish, emotsional intellekt, motivatsiya, shaxsiy kamolot, akademik muvaffaqiyat, emotsional muvozanat, o‘z-o‘zini boshqarish.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ СТРЕМЛЕНИЯ К УСПЕХУ И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье исследуется взаимосвязь между двумя ведущими факторами, играющими важную роль в личностном и профессиональном развитии современных студентов — мотивацией стремления к успеху и эмоциональным интеллектом. Анализируется, как способность студентов управлять своими эмоциями и понимать эмоции окружающих влияет на их стремление к достижению академических и жизненных целей. Результаты исследования показывают, что студенты с высоким уровнем эмоционального интеллекта обладают более сильной мотивацией к преодолению препятствий и достижению успеха. Кроме того, в статье разработаны практические рекомендации по развитию эмоциональной и мотивационной сфер студентов в процессе высшего образования.*

Ключевые слова: *студенты, стремление к успеху, эмоциональный интеллект, мотивация, личностное развитие, академический успех, эмоциональный баланс, саморегуляция.*

THE RELATIONSHIP BETWEEN ACHIEVEMENT MOTIVATION AND EMOTIONAL INTELLIGENCE AMONG STUDENTS

Abstract. *This article examines the relationship between two leading factors that play a crucial role in the personal and professional development of modern students: achievement motivation and emotional intelligence. The paper analyzes how students' ability to manage their own emotions and understand the emotions of others influences their pursuit of academic and life goals. The research findings indicate that students with higher emotional intelligence possess stronger motivation to overcome obstacles and achieve success. Furthermore, the article provides practical recommendations for developing students' emotional and motivational spheres within the higher education process.*

Keywords: *students, achievement motivation, emotional intelligence, motivation, personal growth, academic success, emotional balance, self-regulation.*

Kirish. Bugungi shiddatli globallashuv va innovatsiyalar asrida har qanday davlatning taraqqiyoti uning intellektual salohiyati hamda yuqori malakali yosh kadrlariga bog‘liq. O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri — Uchinchi Renessans poydevorini yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Biz yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni strategik vazifa qilib qo‘ydik... Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlarini uyg‘un va uzviy ravishda rivojlantirish orqali yeni davr bunyodkorlarini tarbiyalashimiz zarur."

Ushbu vazifani amalga oshirish oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talaba-yoshlarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini har tomonlama shakllantirishni talab etadi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning akademik va hayotiy yutuqlarida faqatgina yuqori intellekt koeffitsiyenti (IQ) yetarli emas. Bugungi mehnat bozori va ijtimoiy muhit shaxsdan o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, stressga bardoshlilik va jamoada samarali muloqot o‘rnatish qobiliyatini, ya’ni

emotsional intellektni (EQ) ham talab qilmoqda. Davlatimiz rahbarining yoshlar tarbiyasiga to‘xtalib, "Bizga nafaqat bilimli, balki... har qanday qiyinchilik va sinovlarni iroda bilan yengishga qodir, mustaqil fikrlaydigan yoshlar kerak" degan so‘zlari ham bevosita talabalarda emotsional barqarorlik va muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini uyg‘un rivojlantirish zaruriyatini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Talabalik davri shaxsning ijtimoiy-psixologik jihatdan eng faol shakllanish bosqichidir. Bu davrda talabalarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi va emotsional intellekt o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlarini o‘rganish alohida dolzarblik kasb etadi. Negaki, emotsional intellekti yuqori bo‘lgan talabalar to‘siqlarni osonroq yengib o‘tadilar va maqsad sari intilishda yuqori natijalarni namoyon etadilar.

Tadqiqotning maqsadi — talabalarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi va emotsional intellekt ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik xususiyatlarini empirik tahlil qilish hamda ularning shaxsiy kamolotini ta’minlash bo‘yicha ilmiy-psixologik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi va emotsional intellekt muammosi zamonaviy psixologiya fanining eng dolzarb hamda fundamental yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimidagi islohotlar va talabalardan talab etilayotgan kompetensiyalar ushbu ikki psixologik fenomenning o‘zaro determinantlik xususiyatlarini chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda.

Psixologiya fanida muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi shaxsning faoliyatda yuqori natijalarga erishish, o‘z oldiga qo‘yilgan qiyin vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish va belgilangan sifat standartlaridan o‘zib ketish ehtiyojini ifodalaydi. Ushbu muammoning fundamental asoslari dastlab amerikalik psixolog Genri Marrey tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u muvaffaqiyatga erishish ehtiyojini shaxsning eng muhim ijtimoiy-psixologik ehtiyojlaridan biri sifatida tasniflagan.

Keyinchalik, Devid Makklelland va Jon Atkinson ushbu konsepsiyani yanada rivojlantirib, uning motivatsion-dinamik modelini yaratdilar. D. Makklelland guruhlar va shaxslarning iqtisodiy hamda ijtimoiy yutuqlari bevosita ularda muvaffaqiyat motivatsiyasining qay darajada shakllanganligiga bog‘liqligini empirik asoslab berdi. J. Atkinson esa ushbu fenomenning ikki qarama-qarshi qutbli tabiatini ko‘rsatib o‘tdi:

1. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ushbu tendensiyaga ega bo‘lgan talabalar qiyinchiliklardan qo‘rqmaydilar, o‘rtacha darajadagi risklarni qabul qilishga moyil bo‘ladilar hamda muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda ham faollikni susaytirmasdan, maqsad sari intilishda davom etadilar.

2. Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi mazkur xususiyat ustun bo‘lgan talabalarda esa himoya mexanizmlari kuchli rivojlangan bo‘lib, ular asosan xavfsiz va oson vazifalarni tanlashga yoki mas’uliyatdan qochishga intiladilar. Ularning asosiy maqsadi g‘alaba qozonish emas, balki mag‘lubiyat va tanbehlardan omon qolish hisoblanadi.

Emotsional intellekt tushunchasi an’anaviy intellekt tushunchasiga muqobil va to‘ldiruvchi kontsept sifatida fanga kirib keldi. Dastlabki ilmiy model 1990-yillarda Jon Mayyer va Piter Salovey tomonidan taklif etilgan bo‘lib, ular emotsional intellektni sof kognitiv qobiliyat, ya’ni emotsional ma’lumotlarni qayta ishlash tizimi sifatida ta’riflaganlar. Ularning qobiliyatlar modelida emotsiyalarni idrok etish, ularni fikrlash jarayoniga integratsiya qilish, emotsiyalarning sabablarini tushunish va ularni boshqarish kabi to‘rtta asosiy iyerarxik daraja ajratib ko‘rsatiladi.

Ushbu yo‘nalishni jahon miqyosida ommaviylashtirgan Daniel Goulman o‘zining aralash modelida emotsional intellektni faqat kognitiv jarayon deb cheklamay, uni shaxsning yetakchilik va ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilovchi xarakter xususiyatlari bilan bog‘laydi. D. Goulman modeliga ko‘ra, emotsional intellekt beshta tarkibiy qismdan iborat:

O‘z-o‘zini anglash - shaxsning o‘z ichki holati, his-tuyg‘ulari va ularning faoliyatga ta’sirini aniq tushunishi.

O‘z-o‘zini boshqarish - impulslar, salbiy emotsional holatlar va stressli vaziyatlarni nazorat qila olish qobiliyati.

Ichki motivatsiya - tashqi moddiy rag‘batlardan tashqari, maqsadga erishishning o‘zidan zavqlanish va ichki iroda kuchi.

Empatiya - atrofdagilarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularning holatiga hamdard bo‘la olish.

Ijtimoiy ko‘nikmalar - odamlar bilan munosabatlarni samarali boshqarish va jamoada yetakchilik qilish.

MDH va mahalliy psixologiya maktablarida, xususan, D. Lyusin, E. G‘oziyev va B. Qodirov kabi olimlarning ishlarida emotsional intellekt shaxsning ijtimoiy va akademik muhitga moslashuvini (adaptatsiyasini) ta’minlovchi eng muhim integral xususiyat ekanligi alohida ta’kidlangan.

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi akademik yoki hayotiy muvaffaqiyatga erishish uchun faqatgina kognitiv qobiliyatlarning mavjudligi yetarli emas. Talaba o‘z faoliyatida muntazam ravishda turli qiyinchiliklar, imtihon stresslari va ijtimoiy ziddiyatlarga duch keladi. D. Goulman o‘z tadqiqotlarida

ichki motivatsiyani to‘g‘ridan-to‘g‘ri emotsional intellektning tarkibiy qismi sifatida kiritganligi ham bejiz emas. Emotsional intellekti yuqori bo‘lgan talaba o‘zining salbiy emotsional holatlarini (frustratsiya, apatiya, xavotirlanish) tezda jilovlay oladi, olingan salbiy bahoni fojia sifatida emas, balki tajriba sifatida qabul qiladi va o‘z kuchini maqsad sari qayta yo‘naltiradi. Binobarin, emotsional intellekt muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasining psixologik "katalizatori" va barqarorlashtiruvchisi vazifasini bajaradi.

Tadqiqotning metodologik asosi va metodologik prinsiplari olingan empirik ma’lumotlarning xolisligi, ishonchliligi va ilmiy jihatdan asoslanganligini ta’minlashga qaratilgan.

Talaba shaxsining emotsional va motivatsion sohalari alohida ajratilgan elementlar sifatida emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan yaxlit tizim sifatida o‘rganiladi. Har bir talabaning subyektiv tajribasi, emotsiyalarni boshqarish strategiyalari va shaxsiy maqsadlari tahlil markaziga qo‘yiladi. Talabalardagi muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasining o‘zgarishi (kuchayishi yoki susayishi) ularning emotsional intellekt darajasi bilan sabab-oqibat munosabatida ekanligi tekshiriladi.

Tadqiqot obyekti: Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan va ijtimoiy-psixologik rivojlanishning faol bosqichida bo‘lgan talaba-yoshlar hisoblanadi.

Tadqiqot subyekti: Talabalarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasining intensivligi va uning emotsional intellekt ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqlik qonuniyatlaridir.

Tadqiqot tanlanmasi: Empirik tadqiqotda jami N = 132 nafar oliy ta’lim muassasalarining 1-4-kurs talabalari ishtirok etdi. Tanlanmani shakllantirishda gender muvozanati (66 nafar yigit va 66 nafar qiz) hamda yosh xususiyatlari (18 yoshdan 23 yoshgacha) qat’iy inobatga olindi.

Tadqiqotda belgilangan gipotezalarni empirik jihatdan tekshirish va o‘zgaruvchilarni miqdoriy o‘lchash maqsadida sinovdan o‘tgan, validlik va ishonchlilik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan quyidagi standartlashtirilgan psixodiagnostik metodikadan foydalanildi:

1. A. Reanning "Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi" testi: Ushbu metodika talaba shaxsidagi yetakchi motivatsion tendensiyani aniqlashga xizmat qiladi va natijalar shaxsning muvaffaqiyatga yo‘naltirilganligi yoki mag‘lubiyatdan qo‘rqish tendensiyasini miqdoriy ifodalaydi.

Pirson (r) chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyenti ma’lumotlar normal taqsimlangan bo‘lsa, emotsional intellekt shkalalari ko‘rsatkichlari va muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikning kuchi hamda yo‘nalishini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi.

Styudentning t-kriteriyasi yuqori va past emotsional intellektga ega bo‘lgan talabalar guruhlari o‘rtasida muvaffaqiyat motivatsiyasining o‘rtacha qiymatlaridagi statistik farqlarni baholash va qiyoslash uchun xizmat qiladi.

Natija va muhokama.

1- va 4- kurs talabalari o‘rtasida turli ko‘rsatkichlarni solishtirish uchun t-test (Styudent testi) natijalarini ko‘rsatmoqda. P- qiymat(p) farqning tasodifiy emasligini bildiradi. Agar $p < 0,05$ bo‘lsa guruhlar o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli(ishonchli) hisoblanadi. 1- kurs talabalari 4-kurslarga qaraganda ancha yuqori muvaffaqiyatga intilish darajasi ko‘rsatkichiga ega. Ya’ni talabalar yuqori kursga o‘tgan sari muvaffaqiyatga intilish ko‘rsatkichlari pasayganini ko‘rishimiz mumkin.

Natijalar quyidagi jadvalda o‘z ifodasini topgan.

1- jadval.

	kurs	n	M	Std.Og‘ish	t	p
Muvaffaqiyatga intilish	1-kurs	66	9,29	5,29	1,25	0,21
	4-kurs	66	8,20	4,70		
Muvaffaqiyatga intilish	1-kurs	66	5,50	6,99	1,46	0,15
	4-kurs	66	3,73	6,97		
Muvaffaqiyatga intilish	1-kurs	66	9,97	5,44	2,41*	0,02
	4-kurs	66	7,64	5,67		
Muvaffaqiyatga intilish	1-kurs	66	10,95	6,57	3,48**	0,00
	4-kurs	66	7,32	5,36		
Muvaffaqiyatga intilish	1-kurs	66	10,44	6,04	3,59**	0,00
	4-kurs	66	6,73	5,84		
Jami	1-kurs	66	45,76	24,28	3,20**	0,00
	4-kurs	66	32,64	22,84		
Muvaffaqiyatga	1-kurs	66	19,30	2,82	2,03*	0,05

intilish	4-kurs	66	18,30	2,85		
Muvaffaqiyatsizlikdan qochish	1-kurs	66	16,61	4,11	0,86	0,39
	4-kurs	66	16,03	3,55		
O‘zaro bog‘liqligi	1-kurs	66	11,80	2,22	1,27	0,21
	4-kurs	66	11,33	2,03		
O‘zaro bog‘liqligi	1-kurs	66	19,21	3,70	0,38	0,70
	4-kurs	66	18,98	3,07		

*p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001

Muvaffaqiyatgag intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish darajasi har ikki kursda ham deyarli bir xil M=16,61 va M=16,03. Demak, talabalarning xatoga bo‘lgan munosabati va ehtiyotkorligi yillar davimida keskin o‘zgarmagan. Biroq umumiy ko‘rsatkichlarda esa, 1- kurslarda muvaffaqiyatga intilish yetakchilik qilmoqda.

Xulosa. Talabalarda emotsional intellekt darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ularda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ham shanchalik kuchli namoyon bo‘ladi. O‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri anglaydigan va boshqara oladigan talabalar o‘quv jarayonidagi qiyinchiliklar oldida taslim bo‘lmasdan, maqsad sari intiluvchanlik ko‘rsatadilar.

Aksincha, emotsional intellekti past bo‘lgan talabalarda xato qilishdan qo‘rqish va tavakkalchilikdan qochish kabi subyektiv tendensiyalar ustunlik qiladi. Yuqori emotsional intellekt talabalarga imtihon stressi va akademik xavotirlikni muvaffaqiyatli yengib o‘tishda ichki psixologik resurs bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quv yillari davomida talabalarning hayotiy va ijtimoiy tajribasi ortishi natijasida, yuqori kurslarda emotsional intellekt va muvaffaqiyat motivatsiyasi o‘rtasidagi tizimli bog‘liqlik yanada barqaror tus oladi. Talabalarning emotsional salohiyatini rivojlantirish ularning nafaqat oliy ta’limda, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham yuqori natijalarga erishishini kafolatlovchi bosh omil hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. / “Xalq so‘zi” gazetasi 2020 yil 30 dekabr. –T: 2013.
2. D.Golmen “Emotsional intelligence: why it can matter more than IQ. –New York. 2018.
3. K.Ehlers. Motivation annd werhalten bei studeirenden. –Berlin. 2001.
4. Туника Э.Е. Психодиагностика творческого мышления. Творческий тест. –СПб.: Изд-во «Дидактика Плюс», 2002.
5. S.X. Jalilova, N.A. G‘ayibova . Umumiy psixodiagnostika: o‘quv qo‘llanma. –Toshkent. 2018. 181- 189- bet.
6. Turg‘unov Q. Psixologiya terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 195 b.
7. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Наука. 1996.
8. E.G‘. G‘oziyev. Umumiy psixologiya. –Toshkent. 2010.

Yuldasheva Saodat Mamasaxatovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

TALABA SHAXSNING KASBIY FAOLIYATIDA UCHRAYDIGAN ASOSIY PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talaba shaxsining kasbiy faoliyatida uchraydigan asosiy psixologik muammolar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida kasb tanlash, kasbiy o‘z-o‘zini aniqlash, kasbiy moslashish hamda kasbiy shakllanish jarayonlarining psixologik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, talabalarning kasbiy tasavvurlari, motivatsiyasi, qiziqishlari va individual-psixologik imkoniyatlarining kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’siri ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, kasbiy faoliyat, kasbiy shakllanish, kasbiy o‘z-o‘zini aniqlash, kasb tanlash, kasbiy moslashish, kasbiy motivatsiya, kasbiy yo‘nalganlik, psixologik tayyorgarlik, talaba shaxsi, kasbiy rivojlanish, psixologik muammolar.*

MAIN PSYCHOLOGICAL PROBLEMS ENCOUNTERED IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF STUDENT PERSONALITY

Abstract. *This article theoretically and practically analyzes the main psychological problems encountered in the professional activity of student personality. During the research, the psychological characteristics of career choice, professional self-determination, professional adaptation, and professional development processes were highlighted. In addition, the influence of students’ professional perceptions, motivation, interests, and individual psychological capabilities on the effectiveness of professional activity was substantiated based on scientific sources.*

Keywords: *personality, professional activity, professional development, professional self-determination, career choice, professional adaptation, professional motivation, professional orientation, psychological preparedness, student personality, professional growth, psychological problems.*

ОСНОВНЫЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ, ВСТРЕЧАЮЩИЕСЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЧНОСТИ СТУДЕНТА

Аннотация. *В данной статье с теоретической и практической точек зрения анализируются основные психологические проблемы, возникающие в профессиональной деятельности личности студента. В ходе исследования были раскрыты психологические особенности процессов выбора профессии, профессионального самоопределения, профессиональной адаптации и профессионального становления. Также на основе научных источников обосновано влияние профессиональных представлений, мотивации, интересов и индивидуально-психологических возможностей студентов на эффективность профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *личность, профессиональная деятельность, профессиональное становление, профессиональное самоопределение, выбор профессии, профессиональная адаптация, профессиональная мотивация, профессиональная направленность, психологическая подготовленность, личность студента, профессиональное развитие, психологические проблемы.*

Kirish. XXI asrning boshidagi kasb-korlikka doir axborotlar ko‘lamining ortganligi, inson ehtiyojlarining o‘sib borayotganligi, yangi sohalarning paydo bo‘layotganligi, kasb yo‘nalishlarining o‘zgarib borishi va shaxsning hayotga munosabatining o‘zgarayotganligi sifatlari bilan xarakterlanadi.

Shunday ekan, har bir shaxs farovonlikda va yaxshi ta’minlangan sharoitda yashashni istaydi. Shu sababli ham insonlar farovon turmushni ta’minlashga xizmat qiluvchi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishga intiladilar va moddiy boyliklarni o‘zlashtirishga imkon yaratuvchi kasb-hunar sohalari va mutaxassisliklarni egallashga harakat qiladilar. Ba’zi holatlarda ma’lum bir kasbni tanlash va uni egallashda shaxsning imkoniyati etarli bo‘lmaydi. Insonning qiziqishlariga va psixologik imkoniyatlariga to‘g‘ri kelmaydigan kasbning tanlanishi, tabiiyki, uning shaxs sifatida kamol topishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan shaxsning ichki intilish va imkoniyatlariga u tanlagan kasbi bilan shaxsi orasidagi munosabati o‘ta dolzarb masala hisoblanadi. Biz quyida shu masala bo‘yicha psixolog olimlarning qarashlarini, o‘tkazgan tadqiqotlarini tahlil qilamiz.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Ma’lumki, shaxsning kasbiy shakllanishi to‘rt asosiy bosqichdan iborat bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: a) kasbiy intilishlarning shakllanishi; b) kasbiy ta’lim; v) kasbiy moslashish; g) shaxsning kasbiy faoliyatda qisman va to‘liq o‘zini-o‘zi bag‘ishlashi. Mazkur bosqichlarga mos holda kasbiy o‘zini o‘zi aniqlash jarayoni ham sodir bo‘ladi. Kasbiy o‘zini o‘zi aniqlash jarayoni psixologik adabiyotlarda etarli darajada chuqur yoritilgan bo‘lib, ayniqsa, psixologlar kasbiy intilishning shakllanishi va kasb tanlash bosqichlariga alohida e’tibor qaratganlar.

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar aholidan yuksak madaniyatni, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan kasbiy faoliyatning ikki xil jihati psixologik va pedagogik jihatlari farqlanadi. Kasbiy faoliyatning psixologik jihatlari xodimlarning kelajakda o‘z burch va majburiyatlarini samarali bajarishlari uchun ularga zarur bo‘lgan psixologik – pedagogik tamoymllar, kategoriyalar va tushunchalarni singdirish hamda kasb madaniyati va etikasi talablariga muvofiq hatti – harakatlarini izohlash, xizmat vazifalarini to‘g‘ri bajarishga o‘rgatish, o‘z kasbiga mehr – muhabbat, insonga hurmat bilan qarashni tarbiyalashda namoyon bo‘ladi.

Kasbiy faoliyatning pedagogik jihatlari esa xodimlar xulqidagi mavjud axloqiy – siyosiy xususiyatlarda aks etib, axloqiy prinsiplar va me’yorlarning shaxs ongida qanday hosil bo‘lishi bilan belgilanadi. Axloqning shakllanishida atrofdagi turli xulq – atvordagi kishilar, shaxsiy tajriba, muayyan tiplar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ommaviy axborot vositalarida yoritilayotgan faktlar katta ahamiyatga ega.

Kasbiy ta’limning muhim vazifalaridan biri kasbiy tayyorgarlik bo‘lib, bunda tayyorgarlik ikki xil ko‘rinishda amalga oshiriladi: mustaqil o‘rganish (qo‘shimcha ta’lim yoki mustaqil ta’lim) va maxsus kasbiy ta’lim muassasalarida ta’lim olish orqali. Kasbiy ta’limning muvaffaqiyatini belgilaydigan muhim psixologik jarayon “ma’lum bir kasbga tayyorgarlik” holati hisoblanadi. Bu holat emotsional va motivatsion tayyorgarlikni ham nazarda tutadi. Kasb tanlash inson hayotidagi muhim bir bosqich hisoblanib, bunda inson hayoti uchun muhim qaror qabul qiladi va u jamiyatda o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi. Bu jarayon inson tomonidan o‘z ichki imkoniyatlari tahlil qilish natijasida ma’lum kasbning talablariga uning imkoniyatlarining mos kelishiga qarab sodir bo‘ladi. Kasb tanlash ma’lum bir kasbni tanlayotgan inson (tanlov subyekti) bilan tanlanayotgan kasb (tanlov ob’ekti) munosabatlarini o‘zida aks ettiruvchi faoliyat нисобланади. Tanlov subyekti va tanlov ob’ekti o‘rtasidagi munosabatlar xarakteristikasini o‘rganish davrimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kasb tanlash qisqa vaqtda hal etiladigan ish bo‘lmasdan, balki qator bosqichlardan iborat jarayondir. Bu bosqichlarning davoimiyligi tashqi omillarga va kasb tanlash subyektining individual xususiyatlariga bog‘liq holda kechadi.

Kasbiy jihatdan o‘z o‘zini aniqlash katta maktab yoshiga kelib inson uchun dolzarb mazmun kasb etadi va bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Biz quyida shu bosqichlarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Bundan ko‘zlangan maqsad shundaki, biz ko‘rib chiqayotgan mavzuni, ya’ni shaxsning kasb tanlashi, kasbiy shakllanishi va kasbiy faoliyati muammolarini chuqurroq yoritish orqali shaxsni aynan kasbiy o‘z o‘zini aniqlash jarayonini bosqichma bosqich ko‘rib chiqishimiz zarur bo‘ladi. Shunday qilib, kasbiy o‘z o‘zini aniqlash beshta bosqichni o‘z ichiga qamrab oladi:

1. Kasbni ilk tanlash bosqichi. Bu bosqichda bola kasblar olami haqida etarlicha tasavvurga ega bo‘ladi, o‘z ichki imkoniyatlari haqida kam biladi, uning kasbiy intilishi hali sust darajada bo‘ladi. Bu bosqich kichik maktab yoshiga taalluqli bo‘lib, unda kasbning mazmuni va ish sharoitlari haqida bolada savollar tug‘ilmaydi.

2. Kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini aniqlash bosqichi katta maktab yoshiga to‘g‘ri keladi (15-17 yoshlar). Bu bosqichda ilk professional intilishlar paydo bo‘ladi va rivojlanadi hamda mehnatning turli xil sohalari ichidan o‘ziga ma’qulini tanlash jarayoni kuzatiladi.

3. Kasbiy ta’lim bosqichida tanlangan kasbni o‘zlashtirish jarayoni sodir bo‘ladi.

4. Kasbiy moslashish bosqichi kasbiy faoliyatning individual uslubining paydo bo‘lishi hamda kishining ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlar tizimiga bog‘lanishi bilan xarakterlanadi.

5. Mehnatda o‘zini ko‘rsatish bosqichi (qisman yoki butunlay) kasbiy mehnatga taalluqli bo‘lgan talablarning (kutilmalarning) bajarilishi yoki bajarilmasligi bilan bog‘liq holda kechadi.

Shunday qilib, kasbiy jihatdan o‘z o‘zini aniqlash - shaxs kasbiy faoliyatining barcha davrlarini, ya’ni kasbiy intilishning paydo bo‘lishidan tortib to mehnat faoliyatidan butunlay ozod bo‘lgungacha bo‘lgan davrlarni o‘zida mujassamlashtirgan jarayondir. Aytish mumkinki, u insonning butun hayot yo‘lini qamrab oladi. Albatta, bu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri kasb tanlash amalga oshiriladiganbosqichdir. To‘g‘ri tanlangan kasb, bir tomondan, shaxsning ichki imkoniyatlariga mos tushadi va uning insoniy baxti hamda kamolotini belgilaydi, ikkinchi tomondan esa yaxshi kasb egasining samarali mehnati ta’sirida jamiyat rivoji jadallashadi.

Biz shaxsning kasbiy shakllanishida o‘zaro aloqadorlik masalasini tadqiq etar ekanmiz, izlanishlar bugungi kunda o‘zining keskin pallasiga kirganligini e’tirof etishimiz kerak. Chunki ko‘pgina tadqiqotlar mavjudki, ularda kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy kamolot, kasbiy faoliyatni boshqarish va kasbiy kamolotning boshqa masalalari tadqiq etiladi va h.z.

Ilmiy manbalarning tahlili shundan dalolat beradiki, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy o‘zlikni anglash va aniqlashga taalluqli umummetodologik va nazariy muammolar borasida qator izlanishlar olib borilgan, bular: L.A.Aza, G.M. Belokrilova, A.E. Golomshtok, V.I. Jukovskaya, Ye.A. Klimov, M.X. Titma, P.A. Shavir, M.G. Davletshin, N.Sh. Shodiev, B.R. Qodirov, E. G‘. G‘oziev va boshqalar[1-14].

Qator tadqiqotlar kasb tanlash, kasbiy faoliyatga yaroqlilik va shaxsning kasbiy o‘zligini anglashi masalalari, kasbiy faoliyatning psixologik talablari va individ faoliyatining psixofiziologik asoslari, kasbiy qiziqishlarning shakllanishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu yo‘nalishlarda M.X.Titma, Ye.A.Klimov, V.G.Maksimov, A.P.Chernyavchkaya, Y.A.Golomshtok, K.M. Guriyevich, N.D.Levitov va boshqalarning olib borgan tadqiqot ishlarini misol qilib keltirish mumkin [7-10].

Tadqiqot metodologiyasi. O‘spirinlarning kasbiy o‘zlikni anglashi borasidagi holatlari tahlil qilinganda, ularning kasblar to‘g‘risidagi tushunchalarida sayozlik mavjudligi ko‘zga tashlandi. Bundan tashqari, kasbiy o‘zligini anglash bilan ma’lum kasbni tanlash jarayoni o‘rtasida ta’lim-tarbiya muhiti va atrofdagilarning ta’siri omillarini nazardan chetda tutmasligimiz lozim bo‘ladi. Mazkur o‘zaro ta’sir jarayonlaridagi dialektik bog‘liqlikning o‘ziyoq ushbu masalaning naqadar murakkabligidan dalolat beradi. Masalan, birgina kasbiy maslahatni tashkil etishning o‘zining bir qator bosqichlari mavjud:

a) kasbiy ma’lumot bosqichida shaxs o‘zi uchun mehnatni tashkil etish, ishga qabul qilish talablari, turli kasblarni egallashi, ularni tayyorlash bosqichlari va ta’lim olish muddati, mehnat haqi va kasbning istiqboli xususida ma’lumotlar oladi.

b) diagnostik bosqichda shaxsning o‘z tanlagan kasbiga nisbatan qiziqishlari, layoqati, qobiliyati va maqsadlarining mosligi o‘rganiladi;

v) shakllantiruvchi bosqichda kasb tanlagan o‘quvchi yoki shaxsga rahbarlik qilinadi, kasb tanlashdagi og‘ishlarning oldi olinadi va tuzatishlar kiritiladi;

g) tibbiy jihatdan salomatligining kasbga mos kelishini aniqlash va psixologik bosqichda shaxs sifatlarining o‘z tanlagan kasbiga muvofiqligi masalalari muhokama qilinadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. P.A. Shavirning mulohazalariga ko‘ra, shaxsning kasbiy o‘zligini aniqlashi qobiliyatning bo‘lg‘usi kasbiy talablarga mos kelishi, kasbga yaroqliligi bo‘yicha o‘zini to‘g‘ri baholashi, irodaviy sifatlar saviyasini o‘stirishi, mehnatga muhabbatli bo‘lishi va hayotiy tajriba singari shaxslilik asoslari talab etilar ekan. Kasb muammosini o‘rganish jabhalarining keng ko‘lamdagi o‘z tadqiqot predmetiga egaligi bugunga qadar amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida kuzatiladi. Ushbu tadqiqotlarning bir necha yil davomida olib borilganligi va ulardan olingan natijalar ko‘lamining kengligi e’tiborga molikdir. Ularning bugungi kungi izlanishlar yakunlari bilan qiyoslanishi bu boradagi qo‘lga kiritilgan yutuqlarimizni boyitadi. Ammo talabalar kasbiy tasavvurlarining kasbiy shakllanishga va kasbiy faoliyatga muvofiqlashuviga ta’siri masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, qator tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ularda shaxs kasbiy rivojlanishining psixologik jihatlariga asosiy e’tibor qaratilgan. Mazkur masalalarga biz quyida alohida to‘xtalib o‘tamiz[13].

Ularning bugungi kungi izlanishlar yakunlari bilan qiyoslaniyoi bu boradagi qo‘lga kiritilgan yutuqlarimizni boyitadi. Ammo talabalar kasbiy tasavvurlarining kasbiy shakllanishga va kasbiy faoliyatga muvofiqlashuviga ta’siri masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, qator tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ularda shaxs kasbiy rivojlanishining psixologik jihatlariga asosiy e’tibor qaratilgan.

Demak, kasbiy o‘z-o‘zini aniqlash kasb tanlash, kasbiy tayyorgarlik masalalaridan xabardorlik, kasbiy yo‘nalganlik, kasbiy yaroqlilik muhim komponentlarga bo‘linadi. Quyida ularga alohida-alohida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Kasbiy yo‘nalganlik inson shaxsi yo‘nalganligining bir ko‘rinishi hisoblanib, bu holat uning chuqur shaxs tuzulmalarigacha kirib boradi. Kasbiy yo‘nalganlik insonning individual-psixologik va individual-tipologik xususiyatlarigacha, uning qadriyatlar tizimiga, steriotiplariga, qobiliyatlari va qiziqishlariga borib taqaladi.

Kasbiy yo‘nalganlik tizimining quyidagi funksiyalarini ajratib ko‘rsatsak bo‘ladi:

Shunday qilib, kasbiy o‘zini-o‘zi aniqlash o‘zida quyidagi psixologik muammolarni mujassamlashtiradi: kasb tanlash, kasbiy yo‘nalganlik, psixologik tayyorgarlik masalalaridan xabardorlik.

Xulosa va tavsiya. Umuman olganda kasb tanlash muammosi bilan bog‘liq barcha jarayonlar quyidagi holatlarda o‘z echimini topishi ko‘zda tutiladi:

1. Kasb tanlash, kasbga o‘zining mosligini aniqlash, kasbiy shakllanish, kasbiy rivojlanish uzluksiz davom etuvchi muammo bo‘lib, davrning o‘zgarishiga qarab unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning rolini aniqlash zarurdir.

2. Kasb tanlash, kasbga o‘zining mosligini aniqlash, kasbiy shakllanish, kasbiy rivojlanish uzluksiz davom etuvchi muammo bo‘lib, davrning o‘zgarishiga qarab unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning rolini aniqlash zarurdir.

3. Talabalarning kasb tanlash va kasbiy shakllanishdagi tasavvurlari atrofdagilarning ta’sirida va mustaqil qaror qabul qilish layoqatiga ega emasligi tufayli yuz bermoqda. Natijada kasbiy shakllanish yo‘nalishi bilan kasbiy maqsad o‘rtasida moslik yo‘qolgan.

Adabiyotlar:

1. Avlaev O. U. Gender differences of social intelligence in student development. // Scientific journal "Psychology". 2021. № PaGES 1, 34-41.

2. Абрамова Г.С. Практическая психология. Учебник для студентов вузов. – Изд., 6-е., перераб. и доп..- М.: Академический Проект, 2001.- 480 с.

3. Аза Л.А. Особенности профессионалного самоопределения молодёжи. // Философская и социологическая мысль. - 1989.-№ 6.-С 3-10.

4. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. - М., 1977. -287 с.

5. Burkhanov A., Avlaev O., Abdujalilova Sh. Responsibility as a criterion for determining personal maturity / E3S Web of Conferences 2021.

6. Давлетшин М.Г., Захарина М.С. Профессиональная ориентация учащихся. – Ташкент: Укитувчи, 1986.-82 с.

7. Зеер Э.Ф. Психология профессий. Екатеринбург, 1999.-184 с.

8. Клумов Е.А. Психология профессионального самоопределения. Ростов. Н.Д., 1996.-382 с.

9. Кондаков И.М., Сухарев А.В. Методологические основания зарубежных теорий профессионалного развития // Вопросы психологии. 1989. №5. С.157-164

10. Кудрявцев Т.В. Исследование психологических особенностей профессионального становления. - М., 1988.-145 с.

11. Стрелков Ю.К. Операционально-смысловые структуры профессионального опыта.- Вест. Московск. ун-та. Сер. 14, Психология. 1990. № 3.-С. 32-38.

12. Столяренко Л.Д. Педагогическая психология. Ростов н/Д: «Фенекс»,

13. Шавир Н.Ш. Психология профессионального самоопределения в ранней юности.-М., 1980-96 с.

14. Ғозиев Э.Ғ., Жабборов А.М. Фаолият ва хулқ-атвор мотивацияси. -Тошкент, Университет, 2003.-167 б.

Kasimova Xulkar Atabayevna,
Ma’mun universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD
x.a.kasimova@gmail.com

SHAXS PSIXOLOGIK FAROVONLIGINI TADQIQ ETISHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada psixologik farovonlik fenomenining nazariy va konseptual asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda xorij va rus psixologiyasida psixologik farovonlikka oid shakllangan asosiy ilmiy yondashuvlar, uning mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda rivojlanish darajalari yoritilgan. Xususan, A. V. Voronina, P. P. Fesenko, T. D. Shevelenkova hamda A. A. Kroniklarning ilmiy qarashlari asosida psixologik farovonlikning strukturaviy, subyektiv va evdemonik jihatlari tahlil etilgan. Shuningdek, psixologik farovonlik insonning o‘zini ro‘yobga chiqarishi, hayotdan qoniqishi, ichki uyg‘unligi va ijobiy faoliyat yuritishi bilan bog‘liq ko‘p komponentli psixologik hodisa sifatida asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida psixologik farovonlikning insonning shaxsiy rivojlanishi, psixologik salomatligi va ijtimoiy moslashuvidagi muhim o‘rni ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *psixologik farovonlik, psixologik salomatlik, subyektiv farovonlik, hayotdan qoniqish, shaxs rivojlanishi, o‘zini ro‘yobga chiqarish, ichki uyg‘unlik, evdemonik yondashuv, gedonistik yondashuv, psixologik salomatlik darajalari, ijtimoiy moslashuv, psixologik nazariyalar.*

СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В данной статье проанализированы теоретические и концептуальные основы феномена психологического благополучия. В исследовании освещены основные научные подходы, сформировавшиеся в зарубежной и российской психологии к проблеме психологического благополучия, раскрыты его содержание, структурные компоненты и уровни развития. В частности, на основе научных взглядов А. В. Ворониной, П. П. Фесенко, Т. Д. Шевеленковой и А. А. Кроника проанализированы структурные, субъективные и эвдемонические аспекты психологического благополучия. Также психологическое благополучие обосновано как многокомпонентное психологическое явление, связанное с самореализацией личности, удовлетворённостью жизнью, внутренней гармонией и позитивным функционированием. В результате исследования раскрыта важная роль психологического благополучия в личностном развитии человека, его психологическом здоровье и социальной адаптации.*

Ключевые слова: *психологическое благополучие, психологическое здоровье, субъективное благополучие, удовлетворённость жизнью, развитие личности, самореализация, внутренняя гармония, эвдемонический подход, гедонистический подход, уровни психологического здоровья, социальная адаптация, психологические теории.*

MODERN DIRECTIONS IN THE STUDY OF INDIVIDUAL PSYCHOLOGICAL WELL-BEING

Abstract. *This article analyzes the theoretical and conceptual foundations of the phenomenon of psychological well-being. The study highlights the main scientific approaches to psychological well-being developed in foreign and Russian psychology, as well as its content, structural components, and levels of development. In particular, the structural, subjective, and eudaimonic aspects of psychological well-being are examined based on the scientific views of A. V. Voronina, P. P. Fesenko, T. D. Shevelenkova, and A. A. Kronik. Psychological well-being is also substantiated as a multidimensional psychological phenomenon associated with self-realization, life satisfaction, inner harmony, and positive functioning. The results of the study reveal the significant role of psychological well-being in personal development, psychological health, and social adaptation.*

Keywords: *psychological well-being, psychological health, subjective well-being, life satisfaction, personality development, self-realization, inner harmony, eudaimonic approach, hedonic approach, levels of psychological health, social adaptation, psychological theories.*

Kirish. So‘nggi yillarda insonning ruhiy salomatligi, hayotdan qoniqishi hamda o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi bilan bog‘liq masalalar zamonaviy psixologiya fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi va turli stress omillarining ortib borishi insonning psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli insonning nafaqat psixik buzilishlari yoki ruhiy muammolarini o‘rganish, balki uning ijobiy rivojlanishi, ichki resurslari va hayotiy farovonligini tadqiq etish dolzarb ilmiy masalaga aylangan.

Mazkur jarayonda “psixologik farovonlik” fenomeni alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda. Ushbu tushuncha insonning o‘z hayotidan mamnunligi, ichki uyg‘unligi, shaxsiy o‘sishga intilishi, ijtimoiy moslashuvi hamda o‘z imkoniyatlarini samarali amalga oshira olishi bilan bog‘liq murakkab psixologik hodisa sifatida talqin qilinadi. Biroq hozirgi kungacha psixologik farovonlikning yagona va umumqabul qilingan ilmiy ta’rifi mavjud emas. Turli psixologik maktab va nazariy yo‘nalishlarda ushbu fenomen turlicha izohlanib, uning tarkibiy komponentlari va namoyon bo‘lish shakllari bo‘yicha bir-biridan farqlanuvchi yondashuvlar ilgari surilgan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Xorij va rus psixologiyasida psixologik farovonlik muammosini tadqiq etish XX asrning oxirlaridan boshlab faol rivojlana boshladi. Ayniqsa, Norman Bradburn, Ed Diener, Carol Ryff, Richard Ryan va Edward Deci kabi olimlarning ilmiy ishlari ushbu fenomenning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, A. V. Voronina, P. P. Fesenko, T. D. Shevelenkova hamda A. A. Kronik kabi rus psixologlari tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar psixologik farovonlikning strukturasi, darajalari va rivojlanish omillarini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qilgan.

Mazkur maqolaning maqsadi psixologik farovonlik fenomenining zamonaviy nazariy yondashuvlarini tahlil qilish, uning konseptual asoslari hamda tarkibiy komponentlarini yoritishdan iborat. Shuningdek, psixologik farovonlikning insonning ijobiy faoliyat yuritishi, o‘zini ro‘yobga chiqarishi va shaxs sifatida rivojlanishidagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslash ko‘zda tutilgan.

Xorij va rus psixologiyasida insonning psixologik farovonligi va uning to‘laqonli faoliyat yuritishi masalalarini o‘rganish o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlangan. Hozirgi kunga qadar ilm-fanda “psixologik farovonlik” tushunchasining yagona va umumqabul qilingan talqini mavjud emas [2]. Biroq ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan bir nechta ilmiy tendensiyalarni kuzatish mumkin.

Birinchi tendensiya “psixologik farovonlik” tushunchasini boshqa yaqin mazmundagi tushunchalar bilan integratsiyalashga intilish bilan tavsiflanadi. Bunda ayrim tushunchalar psixologik farovonlik tarkibiga kiritiladi yoki aksincha, psixologik farovonlik kengroq va murakkabroq tushunchaning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi.

Ikkinchi tendensiya esa “psixologik farovonlik” terminini mazmun jihatdan unga yaqin bo‘lgan boshqa tushunchalardan aniq ajratish va mustaqil ilmiy kategoriya sifatida asoslashga qaratilgan [3].

Strukturaviy-darajaviy yondashuvga tayangan holda, nazariya muallifi insonning psixologik va ruhiy salomatligini psixologik farovonlik rivojlanishining turli darajalari sifatida talqin qiladi. Bunda psixologik farovonlikning o‘zi insonning ichki yaxlitligi, o‘zligini anglash darajasi hamda o‘zi bilan ichki uyg‘unlikka erishganligini aks ettiruvchi holat sifatida qaraladi.

A. V. Voronina tomonidan ishlab chiqilgan psixologik farovonlik modeli inson mavjudligi bir necha darajadagi makonlardan iboratligi haqidagi tasavvurlarga asoslanadi. Ushbu darajalar inson faoliyatining turli shakllari jarayonida shakllanadi:

1. **Biologik daraja** — inson mavjudligining eng quyi darajasi bo‘lib, biologik ehtiyojlar va tabiiy jarayonlar bilan bog‘liq;
2. **Ijtimoiy-pedagogik daraja** — insonning ijtimoiy me’yorlar, qoidalar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi bilan tavsiflanadi;
3. **Ijtimoiy-madaniy daraja** — insonning zamonaviy madaniyat doirasida o‘z qadriyatlari va hayotiy ma’nolarini belgilashi, ya’ni qadriyatli-ma’noviy o‘zini aniqlashi bilan bog‘liq;
4. **Ma’naviy-amaliy daraja** — insonning mavjud madaniy me’yorlar chegarasidan chiqib, o‘zining individual-shaxsiy tamoyillari va ichki me’yorlarini faol ravishda shakllantirishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon shaxsning o‘zini anglash va ma’naviy yuksalishga intilishi orqali amalga oshadi.

A. V. Voroninaning fikriga ko‘ra, inson mavjudligining turli darajalarida ichki intensiyalar, ya’ni ongli va ongsiz shakllanuvchi resursli ustanovkalar paydo bo‘ladi. Ushbu ichki yo‘nalishlar asta-sekin insonning psixologik farovonligi iyerarxik darajalarini shakllantiradi. Mazkur darajalar insonning rivojlanishi va tarbiya jarayonida tarkib topadi hamda quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. psixosomatik salomatlik darajasi;

2. ijtimoiy moslashganlik darajasi;
3. ruhiy salomatlik darajasi;
4. psixologik salomatlik darajasi [4].

Olimning ta’kidlashicha, har bir keyingi daraja avvalgisiga tayangan holda shakllanadi va insonning o‘ziga, atrofdagi olamga hamda o‘zining dunyodagi o‘rniga nisbatan yangi qarashlarni yuzaga keltiradi. Bu esa shaxsda hayotiy reja va maqsadlarni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, bunday rivojlanish jarayoni insonning ijodkorlik va kreativ faolligini namoyon etishiga, xulq-atvorini boshqarishda yanada mustaqil va avtonom bo‘lishiga imkon yaratadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur psixologik farovonlik modeli tibbiy psixologiya doirasida ishlab chiqilganligi sababli, unda kasallik va uning psixologik farovonlik tuzilishiga ta’siri markaziy o‘rin egallaydi. Ushbu yondashuvda kasallik inson psixologik farovonligining dastlabki uchta iyerarxik darajasidagi buzilishlarning yig‘indisi sifatida talqin qilinadi. Bunday holatda eng yuqori daraja — psixologik salomatlik darajasi umuman shakllanmaydi.

Agar buzilish faqat bir yoki ikki darajada kuzatilsa, bu holat o‘tish davri yoki “kasallik oldi” holati sifatida baholanadi [4].

Mahalliy psixologiyadagi ikkinchi ilmiy yo‘nalishga P. P. Fesenko va T. D. Shevelenkovaning tadqiqotlarini kiritish mumkin [3]. Ushbu mualliflar Carol Ryff konsepsiyasini psixologik farovonlikning asosiy tarkibiy qismlarini eng muvaffaqiyatli va to‘liq yoritib bergan nazariya sifatida baholaydilar.

Ularning talqiniga ko‘ra, psixologik farovonlik insonning o‘zini va o‘z hayotini ijobiy baholashi bilan bog‘liq bo‘lgan subyektiv baxt hissi hamda hayotdan qoniqishning yaxlit kechinmasini anglatadi.

P. P. Fesenko va T. D. Shevelenkova ta’kidlashicha, insonning o‘z psixologik farovonligini his etishi uning o‘zini, o‘z hayotini va mavjudligini muayyan me’yor, etalon yoki ideal bilan taqqoslashi orqali shakllanadi. Bunda mazkur ideal inson ongida mavjud bo‘ladi va u shaxsning o‘zini baholash mezoni sifatida xizmat qiladi.

Shu asosda olimlar psixologik farovonlikni insonning o‘ziga bo‘lgan munosabatining bir ko‘rinishi sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, ushbu fenomenni tadqiq etishda nafaqat insonning ichki kechinmalari va hissiy holati, balki uning ongida shakllangan subyektiv ideal va ichki etalon xususiyatlari ham ҳисобга olinishi zarur.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, mualliflar “aktual” va “ideal” psixologik farovonlik tushunchalarini ajratib ko‘rsatadilar.

- **Aktual psixologik farovonlik** — insonning o‘ziga, hayotdagi o‘z o‘rniga va shaxs faoliyatining asosiy sohalaridagi o‘zini ro‘yobga chiqarish darajasiga nisbatan subyektiv munosabatini ifodalaydi. Ya’ni bu insonning o‘z rivojlanishi va shakllanishidan qanchalik qoniqqanligini aks ettiradi.
- **Ideal psixologik farovonlik** esa shaxs faoliyatining potensial imkoniyatlarini hamda insonning ijobiy psixologik rivojlanish komponentlarini amalga oshirishga qay darajada yo‘naltirilganligini ifodalaydi [1].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Psixologik farovonlik fenomenining mahalliy ilm-fandagi tadqiqotlari haqida so‘z yuritganda, A. A. Kronikning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi [6]. Mualliflar asosiy e’tiborni baxtga erishish shartlari va omillarini tahlil qilishga qaratgan bo‘lib, ular baxt tushunchasini psixologik farovonlik bilan chambarchas bog‘laydilar. Ushbu yondashuvda baxt insonning o‘zini ro‘yobga chiqarishi asosida hayotning mazmun va to‘liqligini his etish shakli sifatida talqin qilinadi.

A. A. Kronik psixologik farovonlikka erishishning to‘rtta asosiy yo‘lini ajratib ko‘rsatadi. Olim ularni insonning o‘z motivatsiyasini boshqarishga qaratilgan psixologik o‘zini-o‘zi tartibga solish usullari sifatida izohlaydi. Bunda inson yoki tashqi olamning ahamiyatini kuchaytirishga, yoki o‘z imkoniyatlarini rivojlantirishga intiladi.

1. **Olam foydaliligini maksimal darajada oshirish tamoyili (gedonistik yo‘l).** Mazkur o‘zini-o‘zi boshqarish usulida inson o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun eng foydali deb hisoblangan obyekt va hodisalarga intiladi. Foydalilik subyektiv xarakterga ega bo‘lib, u insonning yoqimli emotsional holati orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli ushbu yo‘l turli darajadagi ijobiy hissiy kechinmalarni izlash bilan ham bog‘liqdir.
2. **Ehtiyojlarni minimallashtirish tamoyili (asketik yo‘l).** Mazkur o‘zini-o‘zi boshqarish usuli insonning o‘z ehtiyojlari, istaklari va ichki talablarining kuchi hamda ahamiyatini kamaytirishga intilishi bilan tavsiflanadi. Bunday yondashuvda inson moddiy yoki hissiy ehtiyojlarga haddan tashqari bog‘lanmaslik orqali ichki barqarorlikka erishishga harakat qiladi.
3. **Murakkablikni minimallashtirish tamoyili (mushohadaviy yo‘l).** Bu holatda inson o‘z hayotini, atrofdagi olamni hamda faoliyat maqsadlarini soddalashtirishga intiladi. Odatda bunday xulq-atvor

inson oldiga qo‘yilgan maqsad uning imkoniyatlariga nisbatan haddan tashqari yuqori bo‘lganda yoki mavjud sharoitda unga erishish qiyin bo‘lgan vaziyatlarda kuzatiladi.

4. **Imkoniyatlarni maksimal rivojlantirish tamoyili (faoliyatga yo‘naltirilgan yo‘l).** Mazkur tamoyil insonning o‘zini rivojlantirish, o‘z ustida ishlash hamda jismoniy va ma’naviy jihatdan takomillashishga bo‘lgan intilishini anglatadi.

A. A. Kronikning fikriga ko‘ra, insonning baxtga erishishning yuqorida ko‘rsatilgan yo‘llaridan biriga moyilligi unda muayyan evdemonik ustanovkalarni shakllantiradi. Ushbu ustanovkalar o‘zini-o‘zi boshqarish usullariga mos ravishda gedonistik, asketik, mushohadaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan shakllarda namoyon bo‘ladi. Aynan shu ustanovkalar insonning o‘zini qanday yo‘l bilan, qaysi psixologik mexanizmlar yordamida va nimaga tayangan holda ro‘yobga chiqarishga intilishini tushuntirib beradi.

Xulosa. Shunday qilib, psixologik farovonlikka oid turli yondashuvlarni umumlashtirib aytganda, uni insonning ijobiy faoliyat yuritish darajasi, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi hamda shaxs sifatida rivojlanishini tavsiflovchi ko‘p komponentli fenomen sifatida talqin qilish mumkin. Ushbu holat, odatda, ijobiy emotsiyalarning ustunligi, shaxsning ichki uyg‘unlik hissi, baxtni his etishi, hayotdan va o‘z yutuqlaridan qoniqishi orqali namoyon bo‘ladi .

Adabiyotlar:

1. Шевеленкова Т.Д. Исследование личностного способа существования человека в современном мире (опыт гуманистического направления в зарубежной психологии) // Психология личности в условиях социальных изменений. М.: Институт психологии РАН, 1993. С. 21-37.

2. Фесенко П.П. Что такое психологическое благополучие? Краткий обзор сновных концепций // Научные труды аспирантов и докторантов. М.:Изд-во Московского гуманитарного университета, 2005. Вып. 46. С.35-48.

3. Бучацкая, М.В. Психологическое благополучие работающих женщин: Автореф. дис. … канд. психол. наук. М., 2006. 25 с.

4. Воронина А.В. Оценка психологического благополучия школьников в системе профилактической и коррекционной работы психологической службы: Автореф. дис. … канд. психол. наук. Томск, 2002. 24 с.

5. Воронина, А.В. Проблема психологического здоровья и благополучия человека: обзор концепций и опыт структурно-уровневого анализа // Сибирский психологический журнал. 2005. №3. С. 142-145.

6. Кроник А.А., Ахмеров Р.А. Каузометрия: Методы самопознания, психодиагностики, и психотерапии в психологии жизненного пути. М.: Смысл, 2003. 306 с.

7. Ryff C.D. Happiness is everything, or is it? Explorations on the meaning of psychological well-being // Journal of Personality and Social Psychology. 1989.

Mo‘minova Ra‘no Raximberdi qizi,
Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs magistranti

OILAVIY AJRIMLAR MOTIVLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda eng dolzarb muammolardan biriga aylangan oilaviy ajrimlar va ularni keltirib chiqaruvchi motivlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda yosh oilalarning inqirozli davrlari, er-xotin munosabatlaridagi psixologik moslashuv muammolari, shaxslararo nizolar, iqtisodiy qiyinchiliklar va tashqi ijtimoiy omillarning ajrimlar dinamikasiga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada oilaviy ajrimlarning oldini olish, er-xotin o‘rtasidagi emotsional aloqalarni mustahkamlash va nizoli vaziyatlarni barqarorlashtirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik tavsiyalar hamda korreksion chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *oila, ajrim, ajrim motivlari, ijtimoiy-psixologik tahlil, shaxslararo nizolar, er-xotin munosabatlari, psixologik moslashuv, oilaviy inqiroz, qadriyatlar tizimi.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МОТИВОВ СЕМЕЙНЫХ РАЗВОДОВ

Аннотация. *В данной статье научно анализируются социально-психологические особенности семейных разводов и мотивов, приводящих к ним, что стало одной из самых актуальных проблем в современном обществе. В исследовании рассматриваются кризисные периоды молодых семей, проблемы психологической адаптации в супружеских отношениях, межличностные конфликты, экономические трудности и влияние внешних социальных факторов на динамику разводов. Также в статье разработаны социально-психологические рекомендации и коррекционные меры, направленные на предотвращение семейных разводов, укрепление эмоциональных связей между супругами и стабилизацию конфликтных ситуаций.*

Ключевые слова: *семья, развод, мотивы развода, социально-психологический анализ, межличностные конфликты, супружеские отношения, психологическая адаптация, семейный кризис, система ценностей.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE MOTIVES FOR FAMILY DIVORCE

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the socio-psychological characteristics of family divorces and the underlying motives, which have become one of the most pressing issues in modern society. The study examines the crisis periods of young families, problems of psychological adaptation in marital relations, interpersonal conflicts, economic difficulties, and the influence of external social factors on divorce dynamics. Furthermore, the paper develops socio-psychological recommendations and correctional measures aimed at preventing family divorces, strengthening emotional bonds between spouses, and stabilizing conflict situations.*

Keywords: *family, divorce, motives of divorce, socio-psychological analysis, interpersonal conflicts, marital relations, psychological adaptation, family crisis, value system.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda kechayotgan transformatsion jarayonlar, globallashuv va madaniy universallashuv tendensiyalari jamiyatning fundamental asosi bo‘lgan oila institutining ichki strukturaviy va funksional xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Oila faqatgina biologik yoki iqtisodiy birlik bo‘lmay, balki shaxsning ijtimoiylashuvi, emotsional barqarorligi va ruhiy salomatligini ta’minlovchi birlamchi ijtimoiy-psixologik muhitdir. Biroq, so‘nggi yillarda dunyo miqyosida, xususan, O‘zbekiston demografik manzarasida ham oilaviy ajrimlar ko‘rsatkichining barqaror ravishda ortib borayotgani ushbu muammoni ijtimoiy-psixologik determinantlar (belgilovchi omillar) prizmasi orqali chuqur va tizimli tahlil qilishni taqozo etmoqda. Oila inqirozi va uning parchalanishi nafaqat ikki shaxs o‘rtasidagi nikoh munosabatlarining tugashi, balki jamiyatning ijtimoiy integratsiyasiga, qadriyatlar tizimi barqarorligiga va kelajak avlodning psixologik rivojlanishiga rahna soluvchi destruktiv hodisadir.

Ilmiy adabiyotlar va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy ajrimlarni keltirib chiqaruvchi motivlar ko‘p qirrali bo‘lib, ularni faqatgina iqtisodiy yetishmovchilik, moddiy-maishiy muammolar yoki huquqiy omillar bilan izohlash fundamental xato hisoblanadi. Moddiy omillar ko‘pincha tashqi, yuzaki sabablar bo‘lib xizmat qilsa, ajrim qarorining shakllanishidagi tub determinantlar chuqur ijtimoiy-psixologik xarakterga egadir. Bular sirasiga er-xotinning shaxslararo munosabatlardagi psixologik moslashuvchanligi

(inkompatibillik), rolli kutilmalar va real hayot o‘rtasidagi kognitiv disbalans, oilaviy qadriyatlar tizimidagi nomutanosiblik, emotsional intellektning pastligi hamda destruktiv nizolarni boshqarish strategiyalarining shakllanmaganligini kiritish mumkin.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Psixologik tadqiqotlarda oila barqarorligi muammosi G. Shoumarov, V. Karimova, F. Akramova kabi mahalliy olimlar, shuningdek, tizimli oilaviy yondashuv vakillari (S. Minuxin, V. Satir, E. Eydemiller) tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, bugungi axborotlashgan jamiyat voqeligi ushbu motivlarning o‘zgarishiga (transformatsiyasiga) olib keldi. Zamonaviy oilalarda "fabbing" (muloqot paytida smartfonga chalg‘ish), ijtimoiy tarmoqlar orqali yuzaga keladigan virtual va emotsional xiyonat turlari, shuningdek, shaxsiy makon va individualizmga bo‘lgan ehtiyojning ortishi kabi yangi ijtimoiy-psixologik triggerlar paydo bo‘lmoqda. Bu esa ajrim motivlarini bugungi kun kontekstida qayta ko‘rib chiqish zaruratini tug‘diradi.

Ajrim — bu bir lahzada qabul qilinadigan qaror emas, balki ma’lum bir bosqichlardan iborat bo‘lgan uzoq muddatli psixologik differensiallashuv (begonalashuv) jarayonining yakuniy natijasidir. Ushbu jarayonning har bir bosqichida er-xotinning ichki motivatsiyasi, subyektiv qoniqarsizlik hissi va emotsional reaksiyalari o‘zgarib boradi.

Ushbu maqolaning maqsadi – zamonaviy oilalarda ajrimlarni keltirib chiqaruvchi yetakchi ijtimoiy-psixologik motivlar iyerarxiyasini aniqlash, ularning kelib chiqish mexanizmlari va nikoh barqarorligiga ta’sirini empirik va nazariy jihatdan ochib berish hamda oilaviy inqirozlarni profilaktika qilishga qaratilgan amaliy psixologik tavsiyalarni shakllantirishdan iborat.

Zamonaviy kognitiv va tizimli psixologiya yondashuvlari prizmasidan qaraganda, oilaviy ajrim fenomeni qisqa muddatli affektiv reaksiyalarning tasodifiy mahsuli bo‘lmay, aksincha, nikoh munosabatlarining uzoq davr mobaynida bosqichma-bosqich destruktiv deformatsiyaga uchrashi, tizimli inqirozlarning chuqurlashishi hamda er-xotin o‘rtasidagi emotsional-kognitiv aloqalarning muttasil ravishda begonalashib borishi bilan tavsiflanadigan murakkab va ko‘p faktorli ijtimoiy-psixologik jarayondir. Ilmiy tadqiqotlar doirasida ajrim motivi tushunchasi shaxsning turmush o‘rtog‘i bilan munosabatlar tizimidan subyektiv ravishda mutlaqo qoniqmasligi, ichki psixologik ehtiyojlarining qondirilmay qolishi natijasida yuzaga keladigan va nikoh rishtalarini huquqiy hamda real jihatdan tugatishga yo‘naltirilgan ongli internal (ichki) intilishlar iyerarxiyasi sifatida talqin etiladi.

Empirik ma’lumotlarning differensial tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kun voqeligida oilaviy ajrimlarni keltirib chiqaruvchi yetakchi motivatsion determinantlarni o‘zaro funksional bog‘liqlikda bo‘lgan uchta yirik tizimli guruhga klassifikatsiya qilish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Er-xotinning xarakterologik va tipologik xususiyatlaridagi fundamental nomutanosiblik, affektiv muloqot va emotsional intellekt darajasining pastligi sababli yuzaga keladigan psixologik inkompatibillik (moslasha olmaslik) hamda bir-birini subyektiv idrok etish adaptatsiyasining shakllanmaganligi.

Ijtimoiy-iqtisodiy beqarorliklar, moddiy-maishiy qiyinchiliklar, doimiy avtonom yashash maydonining mavjud emasligi tufayli yuzaga keladigan frustratsion holatlar hamda zamonaviy ayollarning iqtisodiy jihatdan mustaqillikka erishishi (emansipatsiya) natijasida erkak kishiga bo‘lgan an’anaviy-ijtimoiy ehtiyojning funksional pasayishi.

Gender rollari va kutilmalar tizimidagi disbalans, uchinchi shaxslarning (asosan mikromuhitdagi yaqin qarindoshlar va ota-onalarning) yosh oilaning ichki suveren chegaralariga destruktiv tarzda aralashuvi hamda axborotlashgan makondagi virtual xiyonat va emotsional begonalashuv omillari.

Tadqiqot metodologiyasi. Nikoh munosabatlarining ichki barqarorligi va barqoror ijtimoiy-psixologik muvozanatini ta’minlovchi fundamental mezonlardan biri — bu er va xotinning oilaviy hayot tizimidagi rolli kutilmalari hamda o‘zaro majburiyatlarni anglash darajasining kognitiv jihatdan muvofiqligidir. Har bir individual shaxs nikoh ittifoqiga qadam qo‘yishdan avval, o‘zi voyaga yetgan ota-ona oilasining sotsio-madaniy andozalari asosida ong osti darajasida shakllangan "ideal er" yoki "ideal xotin" modelining ijtimoiy ssenariysini va rolli kutilmalar matritsasini subyektiv tarzda olib kiradi.

Agar er va xotinning oilaviy majburiyatlarni taqsimlash, iqtisodiy yetakchilik (dominantlik) maqomini belgilash, farzandlar tarbiyasi strategiyasi hamda kundalik ro‘zg‘or yuritish me’yorlari borasidagi funksional rollari bir-biriga mos kelmasa, oilaviy tizim ichida shaxsiy qadriyatlar to‘qnashuvi — kognitiv dissonans va chuqur psixologik inqiroz yuzaga keladi.

Masalan, patriarxal-an’anaviy oila modelini va erkak kishining mutloq hukmronligini kutgan er bilan egalitar (teng huquqli, demokratik) munosabatlarga va shaxsiy sotsial rivojlanishga intilgan xotin o‘rtasidagi qarashlar nomutanosibligi uzoq muddatli frustratsiyani keltirib chiqaradi hamda yakunda ushbu psixologik ziddiyat ajrim qarorining shakllanishiga asosiy intellektual va emotsional impuls bo‘lib xizmat qiladi.

Nizoli vaziyatlar va fikrlar xilma-xilligi har qanday dinamik oilaviy tizimning tabiiy hamda qonuniy rivojlanish bosqichi hisoblansa-da, ushbu konfliktlarni bartaraf etishda er-xotin tomonidan qo‘llaniladigan

verbal va noverbal muloqot strategiyalari munosabatlarning konstruktiv yoki destruktiv xarakter kasb etishini belgilab beradi. Konstruktiv nizo strategiyalarida er-xotin asosiy diqqat-e’tiborini mavjud muammoning optimal va o‘zaro manfaatli yechimini topishga yo‘naltirsa, destruktiv konfliktlar dinamikasida muloqot obyekti muammoning o‘zidan bevosita suhbatdoshning shaxsiyatiga ko‘chadi, bu esa surunkali haqoratlar, bir-birini kamsitish va emotsional bostirish orqali munosabatlarni qayta tiklab bo‘lmaydigan darajada parchalanishiga olib keladi.

Adabiyotlar tahlili. Kasbiy charchash fenomenini tushunishda Natalya Vodopyanova va Elena Starchenkova tomonidan ishlab chiqilgan diagnostik modellar Rossiya va MDH psixologiya maktabi uchun alohida ahamiyatga ega. Mualliflar ta’kidlaganidek, «Charchash sindromi — bu uzoq muddatli kasbiy

stressning natijasidir» [14. 45-bet]. Bizning fikrimizga ko‘ra, ushbu jarayon uchta asosiy komponent: emotsional charchash, depersonalizatsiya va shaxsiy muvaffaqiyat hisining pasayishi orqali namoyon bo‘lib, xodimning psixologik resurslarini muntazam ravishda kemirib boradi. Arnold Bakker va Evangelia Demerouti taklif etgan «Ish talablari-resurslari» (JD-R) modeli doirasida charchash ish yuklamasining haddan tashqari ortishi va resurslarning yetishmasligi natijasida yuzaga keladi [2]. Bizningcha, resurslar bu nafaqat moddiy rag‘bat, balki tashkilotdagi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va xodimning o‘z ishiga bo‘lgan subyektiv qiziqishidir.

O‘z-o‘zini anglash nazariyasi (SDT) motivatsiyaning sifatini charchashga qarshi kurashda hal qiluvchi omil deb biladi. Martin Xagger va Kaylin MakAnalli Star ta’kidlashicha, «Avtonom motivatsiya xodimlarning moslashuvchanligini oshiradi va charchashni kamaytiradi» [3. 221-bet]. Demak, xodim o‘z ishida qanchalik mustaqil bo‘lsa, uning «so‘nish» darajasi shunchalik past bo‘ladi. Xayjing Luo yozishicha, ishdan qoniqish va motivatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik charchashning oldini olishda moderatorlik vazifasini o‘taydi [6]. Bizning fikrimizcha, ichki motivatsiyasi yuqori bo‘lgan xodimlar tashqi stressorlarga nisbatan chidamliroq bo‘ladilar. Shu bilan birga, Oktay Koch va boshqalar ta’kidlaganidek, toksik rahbarlik muhitida ichki motivatsiya xodim uchun «himoya qalqoni» vazifasini o‘tashi mumkin [4]. Marchello Nonnis va uning hammualliflari fikricha esa, ish faoliyati shaxsning o‘zligining bir qismiga aylangandagina kasbiy barqarorlikka erishiladi [8]. Shunday qilib, xodimda psixologik kapitalni rivojlantirish orqali emotsional so‘nishga qarshi ichki immunitet yaratish lozim [12].

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda mehnat jamoalarida kasbiy charchash va motivatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish maqsadida 140 nafar respondent (104 nafar ayol va 36 nafar erkak) ishtirok etdi. Tadqiqotga Xorazm viloyatidagi turli korxona va tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan xodimlar jalb qilindi. Respondentlar ixtiyoriy ravishda tadqiqotda ishtirok etishga rozilik bildirdilar. Tadqiqotda o‘zgaruvchilarni o‘lchash uchun bir qator standartlashtirilgan metodikalardan foydalanildi. Jumladan, charchash darajasini aniqlashda Maslachning «Kasbiy charchash so‘rovnomasi» (MBI) ning Natalya Vodopyanova tomonidan moslashtirilgan versiyasidan foydalanildi [14]. Motivatsiya ko‘rsatkichlarini baholashda Yasuhiro Kotera va uning hammualliflari tomonidan ishlab chiqilgan «Ishdagi ichki va tashqi motivatsiya shkalasi» (SWEIMS) qo‘llanildi [5]. Bizning fikrimizga ko‘ra, ushbu metodikalar majmuasi xodimlarning ham emotsional holatini, ham ichki drayverlarini kompleks baholash imkonini berdi.

Ma’lumotlarni statistik tahlil qilishda noparametrik statistik mezonlar — Mann-Uitni (U) va Kruskal-Uollis (H) mezonlaridan foydalanildi. Masatoshi Sato va uning hamkasblari ta’kidlaganidek, miqdoriy va sifat tahlillarini birlashtirish muammoning ildizini ochib berishga xizmat qiladi [9]. Kristofer Slemp va uning hammualliflari metodologiyasiga ko‘ra, rahbar tomonidan avtonomiyaning qo‘llab-quvvatlanishi metatahliliy darajada charchashni kamaytiruvchi omil sifatida tasdiqlangan [10]. Bizning fikrimizga ko‘ra, ushbu kompleks metodologik yondashuv olingan natijalarning ilmiy asoslanganligini ta’minlaydi.

Natijalar tahlili. Tadqiqot ishtirokchilarining yosh tarkibini aniqlash maqsadida ularning yosh ko‘rsatkichlari tahlil qilindi (1-rasm).



1-rasm. Mehnat jamoasining yoshi bo‘yicha ma’lumotlari (n=140)

Respondentlarning asosiy qismini 29–35 yosh guruhi tashkil etdi (n=54). 23–28 va 36–55 yoshdagilar esa deyarli bir xil natija ko‘rsatdi. Eng kam qatnashganlar 17–22 yoshdagilar bo‘ldi, ular 11 nafar chiqdi.

Tadqiqot ishtirokchilarining jins bo‘yicha taqsimlanishi tahlil qilindi (2-rasm).



2-rasm. Mehnat jamoasining jins bo‘yicha ma’lumotlari (n=140)

Tadqiqotda qatnashgan 140 nafar respondentning 104 nafari ayollar bo‘ldi. Erkaklar esa 36 nafarni tashkil etdi. Ko‘rinib turibdiki, bu tanlanmada ayollar soni ancha ko‘proq chiqqan. Shu sababli respondentlar tarkibida ham ayollar ustunligi seziladi.

Tadqiqotda mehnat jamoalari xodimlarining emotsional charchash va ish motivatsiyasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqsimlanish xususiyatlarini aniqlash maqsadida assimmetriya hamda ekstsess ko‘rsatkichlari tahlil qilindi (1-jadval). Natijalarga ko‘ra, psixoemotsional charchash ko‘rsatkichi o‘rtacha 18.96 ni tashkil etgan bo‘lib, natijalarda tarqoqlik nisbatan yuqoriroq kuzatildi.

1-jadval

Mehnat jamoalarida emotsional charchash va ish motivatsiyasi ko‘rsatkichlarining metodikalari bo‘yicha assimmetriya va ekstess ko‘rsatkichlari (N=140)

Shkalalar	Minimum	Maksimum	O‘rtacha arifmetik qiymat	O‘rtacha standart og‘ish	Assimmetriya	Ekstess
Psixoemotsional charchash	0.00	48.00	18.9643	10.51919	0.807	0.395
Depersonalizatsiya	0.00	46.00	15.3214	13.22700	0.720	-0.810
Shaxsiy yutuqlarning pasayishi	0.00	46.00	29.7857	10.29268	-0.832	0.433
Ichki motivatsiya	0.00	65.00	7.7143	8.92639	4.575	25.339
Integratsiyalashgan regulyatsiya	0.00	65.00	5.9464	6.39236	5.982	52.511
Identifikatsiyalangan regulyatsiya	0.00	19.00	6.1679	3.66571	1.213	3.264
Introyeksiyalangan regulyatsiya	0.00	17.00	5.8143	3.59573	0.918	1.983
Tashqi regulyatsiya	0.00	19.00	5.8214	3.95618	0.954	1.504
Amotivatsiya	0.00	18.00	4.1071	4.13651	1.417	1.453

Depersonalizatsiya shkalasida ham o‘rtacha qiymat 15.32 bo‘lib, standart og‘ishning yuqoriligi respondentlar orasida farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Shaxsiy yutuqlarning pasayishi ko‘rsatkichi esa 29.78 bilan boshqa ayrim shkalarga qaraganda yuqoriroq chiqdi.

Motivatsion ko‘rsatkichlar ichida ichki motivatsiya va integratsiyalashgan regulyatsiyada assimmetriya hamda ekstsess qiymatlari juda yuqori kuzatildi. Bu esa ayrim respondentlarda juda past yoki juda yuqori natijalar mavjudligini anglatadi. Mazkur holat avvalgi tadqiqotlarda ham qayd etilgan bo‘lib, stress va motivatsiya ko‘rsatkichlarining namoyon bo‘lish darajasi respondentlarning individual psixologik xususiyatlari hamda shaxsiy resurslariga bog‘liq ravishda farqlanishi ta’kidlangan [1]. Identifikatsiyalangan, tashqi va introyeksiyalangan regulyatsiya ko‘rsatkichlarida esa natijalar nisbatan barqarorroq taqsimlangan.

Amotivatsiya ko‘rsatkichi o‘rtacha 4.10 ni tashkil qilgan bo‘lib, respondentlarning aksariyatida motivatsiyasizlik darajasi yuqori emasligi kuzatildi. Umuman olganda, natijalarda ayrim shkalalar bo‘yicha tarqoqlik va assimmetriyaning yuqoriligi respondentlar orasidagi individual farqlar sezilarli ekanligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar avvalgi tadqiqotlar xulosalarini tasdiqlaydi. Mazkur tadqiqotlarga ko‘ra, psixologik ko‘rsatkichlarning ifodalanish darajasi ko‘p jihatdan respondentlarning individual xususiyatlari bilan bog‘liqdir [13].

2-jadval.

Mehnat jamoalarida emotsional charchash va ichki motivatsiya ko‘rsatkichlarining jinslar kesimidagi qiyosiy tahlili (Mann–Uitni U mezoni asosida, n=140)

Shkalalar	Jinsi	N	O‘rtacha rang	Ranglar summasi	U	p
Psixoemotsional charchash	Erkak	36	80.51	2898.50	1511.500	0.085
	Ayol	104	67.03	6971.50		
Depersonalizatsiya	Erkak	36	77.33	2784.00	1626.000	0.240
	Ayol	104	68.13	7086.00		
Shaxsiy yutuqlarning pasayishi	Erkak	36	71.32	2567.50	1842.500	0.888
	Ayol	104	70.22	7302.50		
Ichki motivatsiya	Erkak	36	75.10	2703.50	1706.500	0.425
	Ayol	104	68.91	7166.50		

Mehnat jamoalarida emotsional charchash va ichki motivatsiya ko‘rsatkichlari jins kesimida Mann–Uitni U mezoni asosida tahlil qilindi (2-jadval).

Natijalarga ko‘ra, ayrim shkalalarda erkak respondentlarning o‘rtacha ranglari ayollarga nisbatan biroz yuqoriroq chiqdi. Biroq psixoemotsional charchash (U=1511.500; p≥0.05), depersonalizatsiya (U=1626.000; p≥0.05), shaxsiy yutuqlarning pasayishi (U=1842.500; p≥0.05) hamda ichki motivatsiya (U=1706.500; p≥0.05) ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik jihatdan ishonchli tafovut aniqlanmadi.

Ish motivatsiyasi ko‘rsatkichlarining jinslar bo‘yicha farqlari Mann–Uitni U mezoni yordamida tahlil qilindi (3-jadval).

3-jadval.

Mehnat jamoalarida ish motivatsiyasi ko‘rsatkichlarining jinslar kesimidagi qiyosiy tahlili (Mann–Uitni U mezoni asosida, n=140)

Shkalalar	Jinsi	N	O‘rtacha rang	Ranglar summasi	U	p
Integratsiyalashgan regulyatsiya	Erkak	36	74.35	2676.50	1733.500	0.507
	Ayol	104	69.17	7193.50		
Identifikatsiyalangan regulyatsiya	Erkak	36	75.74	2726.50	1683.500	0.365
	Ayol	104	68.69	7143.50		
Introyeksiyalangan regulyatsiya	Erkak	36	85.25	3069.00	1341.000	**0.010****
	Ayol	104	65.39	6801.00		
Tashqi regulyatsiya	Erkak	36	82.06	2954.00	1456.000	**0.046***
	Ayol	104	66.50	6916.00		
Amotivatsiya	Erkak	36	87.40	3146.50	1263.500	**0.003****
	Ayol	104	64.65	6723.50		

Izoh:**p≤0,01; *p≤0,05

Integratsiyalashgan regulyatsiya hamda identifikatsiyalangan regulyatsiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha erkak respondentlarning o‘rtacha ranglari ayollarga nisbatan biroz yuqoriroq chiqdi. Biroq statistik jihatdan ishonchli tafovut aniqlanmadi (p≥0.05).

Shu bilan birga, introyeksiyalangan regulyatsiya bo‘yicha erkak respondentlarning o‘rtacha rangi (85.25) ayollarnikidan (65.39) yuqori bo‘lib, guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq kuzatildi (U=1341.000; p≤0.01). Tashqi regulyatsiya ko‘rsatkichida ham erkak respondentlar natijasi yuqoriroq chiqib, ishonchli tafovut aniqlandi (U=1456.000; p≤0.05).

Amotivatsiya shkalasida ham erkak respondentlarning o‘rtacha rangi (87.40) ayollarga nisbatan (64.65) sezilarli darajada yuqori bo‘ldi va statistik jihatdan ahamiyatli farq qayd etildi (U=1263.500; p≤0.01).

4-jadval.

Mehnat jamoalarida emotsional charchash va ichki motivatsiya ko‘rsatkichlarining yosh kesimidagi qiyosiy tahlili (Kruskal–Uollis mezoni asosida, n=140)

Shkalalar	Yoshi	N	O‘rtacha rang	H	p
Psixoemotsional charchash	17-22 yosh	11	72.82	2.767	0.429
	23-28 yosh	37	66.03		
	29-35 yosh	54	66.82		
	36-55 yosh	38	79.41		
Depersonalizatsiya	17-22 yosh	11	73.41	1.007	0.800
	23-28 yosh	37	75.68		
	29-35 yosh	54	67.63		
	36-55 yosh	38	68.70		
Shaxsiy yutuqlarning pasayishi	17-22 yosh	11	80.55	1.971	0.579
	23-28 yosh	37	75.35		
	29-35 yosh	54	68.96		
	36-55 yosh	38	65.05		
Ichki motivatsiya	17-22 yosh	11	99.91	6.567	0.087
	23-28 yosh	37	68.47		
	29-35 yosh	54	69.11		
	36-55 yosh	38	65.93		

Ko‘rsatkichlarning yosh guruhlari kesimidagi farqlari Kruskal–Uollis mezoni yordamida tahlil qilindi (4-jadval).

Natijalarga ko‘ra, psixoemotsional charchash ko‘rsatkichi 36–55 yosh guruhida nisbatan yuqoriroq kuzatildi. Depersonalizatsiya bo‘yicha esa 23–28 yosh respondentlarning o‘rtacha rangi yuqoriroq chiqdi. Shaxsiy yutuqlarning pasayishi hamda ichki motivatsiya ko‘rsatkichlarida 17–22 yosh guruhi boshqa yosh guruhlariga qaraganda yuqoriroq natija ko‘rsatdi.

Biroq psixoemotsional charchash (H=2.767; p≥0.05), depersonalizatsiya (H=1.007; p≥0.05), shaxsiy yutuqlarning pasayishi (H=1.971; p≥0.05) hamda ichki motivatsiya (H=6.567; p≥0.05) ko‘rsatkichlari bo‘yicha yosh guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli tafovut aniqlanmadi.

Ish motivatsiyasi ko‘rsatkichlarining yosh kesimidagi farqlari Kruskal–Uollis mezoni yordamida tahlil qilindi (5-jadval).

5-jadval

Mehnat jamoalarida ish motivatsiyasi ko‘rsatkichlarining yosh kesimidagi qiyosiy tahlili (Kruskal–Uollis mezoni asosida, n=140)

Shkalalar	Yoshi	N	O‘rtacha rang	H	p
Integratsiyalashgan regulyatsiya	17-22 yosh	11	99.32	11.119	**0.011***
	23-28 yosh	37	72.68		
	29-35 yosh	54	58.81		
	36-55 yosh	38	76.64		
Identifikatsiyalangan regulyatsiya	17-22 yosh	11	74.73	9.812	**0.020***
	23-28 yosh	37	73.72		
	29-35 yosh	54	57.98		
	36-55 yosh	38	83.93		
Introyeksiyalangan regulyatsiya	17-22 yosh	11	78.73	1.692	0.639
	23-28 yosh	37	73.38		
	29-35 yosh	54	65.27		
	36-55 yosh	38	72.75		
Tashqi regulyatsiya	17-22 yosh	11	91.91	5.502	0.139
	23-28 yosh	37	69.72		
	29-35 yosh	54	63.12		
	36-55 yosh	38	75.55		
Amotivatsiya	17-22 yosh	11	75.23	8.334	**0.040***
	23-28 yosh	37	68.95		
	29-35 yosh	54	60.62		
	36-55 yosh	38	84.68		

Izoh: *p≤0,05

Natijalarda integratsiyalashgan regulyatsiya va identifikatsiyalangan regulyatsiya bo‘yicha yosh guruhlari orasida farq kuzatildi (p≤0.05). Bu yoshga qarab ishga bo‘lgan qiziqish va motivatsiya bir xil qolmasligini bildiradi. 17–22 yoshdagilarda motivatsion ko‘rsatkichlar balandroq chiqdi.

Amotivatsiya natijasida esa 36–55 yosh guruhi yuqoriroq ko‘rsatkich berdi (H=8.334; p≤0.05). Bu yoshda ishdagi charchoq yoki qiziqishning pasayishi ko‘proq uchrashi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Qolgan ko‘rsatkichlarda esa sezilarli farq chiqmagan (p≥0.05).

Emotsional charchash va ish motivatsiyasi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi statistik bog‘liqlik Spirmen mezoni asosida tahlil qilindi (6-jadval).

Natijalarga ko‘ra, psixoemotsional charchash ko‘rsatkichi integratsiyalashgan regulyatsiya, identifikatsiyalangan regulyatsiya hamda tashqi regulyatsiya bilan kuchsiz musbat bog‘liqlik ko‘rsatdi. Ayniqsa, amotivatsiya bilan bog‘liqlik nisbatan yuqoriroq chiqdi (r=0.478; p≤0.01). Bu emotsional charchash ortishi bilan ishga qiziqish va motivatsiyaning pasayishi ham kuchayishini ko‘rsatadi.

Depersonalizatsiya barcha motivatsion ko‘rsatkichlar bilan musbat va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘langan. Eng yuqori bog‘liqlik amotivatsiya bilan kuzatildi (r=0.545; p≤0.01). Bu holat depersonalizatsiya kuchaygan sari ish faoliyatiga nisbatan befarqlik va motivatsiyasizlik ham ortib borishini bildiradi.

6-jadval.

Mehnat jamoalarida emotsional charchash va ish motivatsiyasi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik (Spirmen mezoni asosida, n=140)

Shkalalar	Integratsiyalashgan regulyatsiya	Identifikatsiyalangan regulyatsiya	Introyeksiyalangan regulyatsiya	Tashqi regulyatsiya	Amotivatsiya
Psixoemotsional charchash	0.190(*)	0.215(*)	0.000	0.200(*)	0.478(**)
Depersonalizatsiya	0.289(**)	0.329(**)	0.228(**)	0.341(**)	0.545(**)
Shaxsiy yutuqlarning pasayishi	-0.071	0.134	0.014	0.043	-0.061
Ichki motivatsiya	0.389(**)	0.280(**)	0.268(**)	0.377(**)	0.318(**)

Izoh:**p≤0,01; *p≤0,05

Shaxsiy yutuqlarning pasayishi ko‘rsatkichi bilan motivatsion omillar orasida esa sezilarli bog‘liqlik aniqlanmadi (p≥0.05). Bu natija mazkur ko‘rsatkich boshqa motivatsion omillarga nisbatan mustaqilroq namoyon bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ichki motivatsiya ko‘rsatkichi barcha motivatsion regulyatsiya turlari bilan musbat bog‘langan. Bu holat respondentlarda ichki va tashqi motivatsiya manbalari bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, integratsiyalashgan regulyatsiya (r=0.389; p≤0.01) va tashqi regulyatsiya (r=0.377; p≤0.01) bilan bog‘liqlik nisbatan yuqoriroq chiqdi. Bu esa ichki motivatsiya kuchaygan sari faoliyatga bo‘lgan umumiy rag‘bat ham ortishini anglatadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari kasbiy charchash va ish motivatsiyasi o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, emotsional charchash va amotivatsiya o‘rtasida musbat bog‘liqlik (r=0.478; p≤0.01), depersonalizatsiya va amotivatsiya o‘rtasida esa nisbatan kuchliroq bog‘liqlik (r=0.545; p≤0.01) aniqlandi. Ushbu natijalar kasbiy so‘nish kuchaygan sari xodimlarning faoliyatga bo‘lgan qiziqishi va motivatsion resurslari pasayib borishini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar Xagger va MakEnalli Star [3] tomonidan ilgari surilgan «O‘z-o‘zini anglash» nazariyasi qoidalari bilan mos keladi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, avtonom motivatsiyaning pasayishi psixologik farovonlik va kasbiy samaradorlikning susayishi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, Bakker va Demerouti [2] tomonidan ishlab chiqilgan «Ish talablari–resurslari» (JD-R) modeliga muvofiq, ish resurslarining yetishmasligi va kasbiy talablarning ortishi charchashning kuchayishiga olib keladi. Tadqiqot natijalari ham motivatsion resurslarning zaiflashuvi kasbiy charchash ko‘rsatkichlarining ortishi bilan bog‘liq ekanligini tasdiqladi.

Jins va yosh bo‘yicha tahlillar erkak respondentlarda tashqi regulyatsiya hamda amotivatsiya ko‘rsatkichlari ayollarga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, 36–55 yosh guruhida amotivatsiya darajasi boshqa yosh guruhlariga nisbatan sezilarli ravishda yuqoriroq kuzatildi (H=8.334; p≤0.05). Ushbu natijalar uzoq muddatli kasbiy faoliyat davomida motivatsion resurslarning kamayishi va kasbiy charchash xavfining ortishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu sababli xodimlarda avtonom motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash, psixologik kapitalni rivojlantirish hamda ish resurslarini kuchaytirishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar kasbiy charchashning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud bo‘lib, xususan, yosh guruhlari bo‘yicha respondentlar sonining teng taqsimlanmaganligi natijalarni umumlashtirishda ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Xulosa. Tadqiqotning asosiy ilmiy natijasi sifatida depersonalizatsiya va amotivatsiya o‘rtasida kuchli musbat bog‘liqlik aniqlanganligini alohida ta’kidlash lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, emotsional charchash ortishi ishga nisbatan befarqlik va motivatsiyasizlik bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, erkak xodimlarda amotivatsiya va tashqi regulyatsiya ko‘rsatkichlari yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Depersonalizatsiya jarayoni kuchaygan sari xodimlarning o‘z vazifalariga va mijozlarga nisbatan sovuqqonligi ortib, kasbiy so‘nish jadallashadi.

Kelajakda xodimlarni asrash uchun ularga ko‘proq ish mustaqilligi berish, tashqi nazorat bosimini kamaytirish va ruhiy barqarorlikni oshiruvchi choralarni ko‘rish zarur. Tajribali xodimlarning mehnatini munosib e’tirof etish, ularni ma’naviy qo‘llab-quvvatlash va ish yuklamasini adolatli taqsimlash tizimdagi kadrlar oqimini kamaytirish va umumiy barqarorlikni ta’minlashning asosiy yo‘lidir.

Adabiyotlar:

1. Babajanov M.U. Talabalarda chet tilini o‘rganishda diqqat resurslari, stress va motivatsiya o‘rtasidagi psixologik o‘zaro ta’sir // Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: muammolar va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Innovative Academy, 2025. – DOI: 10.5281/zenodo.18015342.

2. Bakker A. B., Demerouti E. Job Demands–Resources Theory: Ten Years Later // Annual Review of Organizational Psychology and Organizational Behavior. – 2023. – Vol. 10. – P. 25–53.

3. Hagger M. S., McAnally Star K. Self-Determination Theory and Workplace Outcomes: A Meta-Analysis // Stress and Health. – 2026. – Vol. 42(1). – e70151. – DOI: 10.1002/smi.70151.

4. Koch O., Bozkurt S., Tashdemir D. D., Gunsel A. The moderating role of intrinsic motivation on the relationship between toxic leadership and emotional exhaustion // Frontiers in Psychology. – 2022. – Vol. 13. – Article 1047834.

5. Kotera Y. et al. Short Work Extrinsic and Intrinsic Motivation Scale: A Psychometric Re-Evaluation of SWEIMS in a Hybrid Working Sample // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2022. – Vol. 19(21). – Article 13864.

6. Luo H. The Relationships between Burnout, Motivation and Job Satisfaction: A Job Demands-Resources Perspective // Proceedings of the 2nd International Conference on Public Relations and Media Communication (PRMC 2025). – Scitepress, 2025. – P. 675–681. – DOI: 10.5220/0014001300004916.

7. Mankovska B. Burnout phenomenon still unresolved. The current state in theory and implications for public interest // Frontiers in Organizational Psychology. – 2025. – Vol. 3. – Article 1549253.

8. Nonnis M., Agus M., Corona F., Aru N., Urban A., Cortese C. G. The role of fulfilment and disillusion in the relationship between burnout and career satisfaction in Italian healthcare workers // Sustainability. – 2024. – Vol. 16(2). – Article 893. – DOI: 10.3390/su16020893.

9. Sato M., Fernandes Castillo F., Oyanedel J. C. Teacher Motivation and Burnout of EFL Teachers: Do Demotivators Really Demotivate Them? // Frontiers in Psychology. – 2022. – Vol. 13. – Article 891452.

10. Slemp K. R., Kern M. L., Patrick K. J., Ryan R. M. Leader Autonomy Support in the Workplace: A Meta- Analytic Review // Motivation and Emotion. – 2018. – Vol. 42. – P. 706–724.

11. Wen Z., Qin Y., Ni Y., Wang Y., Xu K., Zhu Y. Burnout and turnover intention in primary public health workers: the mediating role of job satisfaction // Frontiers in Public Health. – 2026. – Vol. 13. – Article 1708432. DOI: 10.3389/fpubh.2025.1708432.

12. Orgambídez A., Borrego Y., Cantero-Sánchez F. J., León-Pérez J. M. Relationship between psychological capital and nursing burnout: A systematic review and meta-analysis // International Nursing Review. – 2025. – Vol. 72(3). – e13072. – DOI: 10.1111/inr.13072.

13. Бабаджанов М. У. Анализ взаимосвязи переключаемости внимания и скорости восприятия у подростков в контексте нейрокогнитивного развития и индивидуальных различий // Вестник интегративной психологии. – 2026. – Вып. 40. – С. 75–81.

14. Водопьянова Н. Е., Старченкова Е. С. Синдром выгорания: диагностика и профилактика. – СПб.: Питер, 2009. – 256 с.

Ismatullayeva Nargiza Ixmatulla qizi,
Navoiy davlat universiteti Psixologiya yo‘nalishi magistranti

MOTIVATSIYA MUAMMOSI ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA VA TA’LIM JARAYONIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada motivatsiya muammosi zamonaviy psixologiya fanining fundamental yo‘nalishi sifatida tahlil etiladi. Motivatsiyaning mohiyati, tuzilishi, ichki va tashqi shakllari, shuningdek, o‘quv faoliyatidagi roli ko‘rib chiqilgan. Adabiyotlar tahlili asosida motivatsiyaning shaxs rivojlanishi va ta’lim samaradorligiga ta’siri ochib berilgan. Tadqiqot natijalari motivatsiyani shakllantirishda pedagogik muhitning muhimligini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *motivatsiya, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, o‘quv motivatsiyasi, shaxs faoliyati, ehtiyojlar.*

ПРОБЛЕМА МОТИВАЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. *В статье анализируется проблема мотивации как фундаментальное направление современной психологии. Рассматриваются сущность, структура, внутренние и внешние формы мотивации, а также её роль в учебной деятельности. На основе анализа литературы раскрывается влияние мотивации на развитие личности и эффективность обучения. Результаты исследования подтверждают важность педагогической среды в формировании мотивации.*

Ключевые слова: *мотивация, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, учебная мотивация, деятельность личности, потребности.*

THE PROBLEM OF MOTIVATION IN MODERN PSYCHOLOGY AND THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. *This article analyzes the problem of motivation as a fundamental direction of modern psychology. The essence, structure, internal and external forms of motivation, as well as its role in educational activities are examined. Based on the literature analysis, the influence of motivation on personality development and learning effectiveness is revealed. The research results confirm the importance of the pedagogical environment in the formation of motivation.*

Keywords: *motivation, intrinsic motivation, extrinsic motivation, learning motivation, personality activity, needs.*

Kirish. Motivatsiya muammosi zamonaviy psixologiya fanining fundamental va ko‘p qirrali tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Inson faoliyatining mazmun-mohiyati, yo‘nalganligi hamda samaradorligini tushuntirishda motivatsiya kategoriyasi markaziy o‘rin egallaydi. Har qanday ongli faoliyatning negizida uni yuzaga keltiruvchi va muayyan maqsad sari yo‘naltiruvchi ichki psixik kuchlar tizimi mujassamdir [1.320-b].

Motivatsiya — bu inson (yoki hayvon) xatti-harakatini boshlash, yo‘naltirish, davom ettirish yoki to‘xtatishga undovchi ichki va tashqi kuchlar majmui. Lotincha “movere” (harakatga keltirish) so‘zidan olingan bo‘lib, psixologiyada markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. Inson xulq-atvorining boshlanishi, yo‘nalishi va faolligini tushuntiradigan psixologik sabablar to‘plamidir. U shaxsning barcha asosiy tarkibiy shakllarini qamrab oladi. Motivatsiya muammosining murakkabligi uning mohiyatini, tabiatini va tadqiq usullarining xilma-xilligini belgilaydi.

Motivatsiyaning asosiy xususiyatlari

- Ichki motivatsiya — faoliyatning o‘zi qiziqarli, zavqli yoki ma’no beradigan bo‘lgani uchun bajariladi (masalan, o‘qishni o‘zi yoqtirgani uchun o‘qish).
- Tashqi motivatsiya — tashqi mukofot (baho, pul, maqtov) yoki jazodan qochish uchun bajariladi.

Motivatsiya jarayon sifatida ko‘riladi: u maqsadni belgilaydi, energiya beradi va xulqni saqlab qoladi. Psixologlar uni “maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni boshlab beruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi impuls” deb ta’riflaydilar.

Asosiy nazariyalar

1. Abraham Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi (1943) — Fiziologik ehtiyojlardan (ovqat, uyqu) boshlab o‘zini-o‘zi ro‘yobga chiqarishgacha (self-actualization) bosqichlar mavjud. Pastki ehtiyojlar qondirilmasa, yuqorilari motivatsiya bermaydi.
2. Self-Determination Theory (SDT) — Edvard Deci va Richard Ryan (1980-yillardan) — Eng nufuzli zamonaviy nazariyalardan biri. Insonning uchta asosiy psixologik ehtiyoji bor:
   - Autonomy (avtonomiya) — o‘z tanlovi bilan harakat qilish.
   - Competence (kompetentsiya) — o‘zini qobiliyatli his qilish.
   - Relatedness (bog‘lanish) — boshqalar bilan ijobiy munosabat. Bu ehtiyojlar qondirilsa, ichki motivatsiya kuchayadi va farovonlik oshadi.
3. Boshqa muhim nazariyalar:
   - Frederick Herzbergning ikki faktor nazariyasi.
   - Kutish-Qiymat nazariyasi.
   - Muvaffaqiyat maqsadlari nazariyasi.
   - O‘ziga ishonch nazariyasi (Albert Bandura).Ta’lim sohasidagi o‘rni va ahamiyati

Ta’limda motivatsiya — o‘quv jarayonining markaziy harakatlantiruvchi kuchi. U o‘quvchilarning faolligini, sa’y-harakatini, chidamliligini va natijalarini belgilaydi. Motivatsiyasi past o‘quvchilar o‘qishni tashlab ketish xavfi yuqori, chuqur o‘rganmaydi va past baho oladi.

Asosiy ahamiyati

- O‘quv faolligini oshiradi — Motivatsiyali o‘quvchilar ko‘proq vaqt sarflaydi, qiyin vazifalardan qochmaydi.
- Chuqur o‘rganishni ta’minlaydi — Ichki motivatsiya bilimlarni uzoq muddat saqlashga yordam beradi.
- Akademik muvaffaqiyatni bashorat qiladi — Motivatsiya intellektdan keyin ikkinchi muhim omil. Meta-tahlillar shuni ko‘rsatadiki, motivatsion omillar akademik natijalarning 10–20% gacha farqini tushuntiradi.
- O‘z-o‘zini boshqarishni (self-regulation) rivojlantiradi — Maqsad qo‘yish, monitoring va refleksiyani kuchaytiradi.
- Emotsional farovonlikni oshiradi — Motivatsiya past bo‘lsa, tashvish, depressiya va burnout kuzatiladi.

Ta’limda qo‘llaniladigan nazariyalar va amaliyot

- SDT ta’limda — O‘qituvchilar avtonomiyani qo‘llab-quvvatlasa (tanlov berish, izoh berish), o‘quvchilarning ichki motivatsiyasi oshadi. Bu o‘quv natijalarini yaxshilaydi va sinfdan chiqib ketishni kamaytiradi.
- Expectancy-Value — O‘quvchilarga vazifaning foydasi va muvaffaqiyat ehtimolini ko‘rsatish kerak.
- Growth Mindset (Carol Dweck) — “Aqlli bo‘lish mumkin” degan fikr motivatsiyani oshiradi.

Motivatsiya — ta’limning “yoqilg‘isi”. U nafaqat bilim olishni, balki shaxsiy rivojlanish, mustaqillik va hayotiy muvaffaqiyatni ta’minlaydi. Zamonaviy tadqiqotlar (SDT, Expectancy-Value va boshqalar) shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar va ota-onalar tomonidan yaratilgan qo‘llab-quvvatlovchi muhit motivatsiyani sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Motivatsiya muammosi zamonaviy psixologiya fanining fundamental va ko‘p qirrali tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Inson faoliyatining mazmun-mohiyati, yo‘nalganligi hamda samaradorligini tushuntirishda motivatsiya kategoriyasi markaziy o‘rin egallaydi. Zero, har qanday ongli faoliyatning negizida uni yuzaga keltiruvchi va muayyan maqsad sari yo‘naltiruvchi ichki psixik kuchlar tizimi mujassamdir. Shu bois motivatsiya psixologiya fanining muhim predmetlaridan biri sifatida shakllanib, shaxs faoliyatining determinatsiyasini izohlovchi asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi (E.G‘oziyev, Umumiy psixologiya, 2002).

Motivatsiya - bu inson xulq-atvorining boshlanishi, yo‘nalishi va faolligini tushuntiradigan psixologik sabablar to‘plami. Motivatsiya shaxsning barcha asosiy tarkibiy shakllarini qamrab oladi, jumladan: yo‘nalganlik, xarakter, emotsiya, qobiliyat, faoliyat, psixik jarayonlar. Motivatsiya muammosining murakkabligi va ko‘p qirraliligi uning mohiyatini, tabiatini, tuzilishini tushunish hamda uni tadqiq qilish usullari (S.L.Rubinshteyn, V.G.Aseev, A.N.Leontiev, A. Maslou, X.Xekkauzen va boshqalar) ko’pligini belgilaydi. [K.O. Medjikova -ilmiy tadqiqot obyekti sifatida motivatsiya]

Psixologik adabiyotlarda motivatsiya tushunchasi turli yondashuvlar asosida talqin etilgan bo‘lib, umumiy ma’noda u shaxs faoliyatini faollashtiruvchi, yo‘naltiruvchi va tartibga soluvchi ichki hamda tashqi omillar majmui sifatida izohlanadi. Mazkur omillar tizimi insonning xatti-harakatlarini muayyan maqsad sari safarbar etib, faoliyatning barqarorligini hamda natijadorligini ta’minlaydi. Demak, motivatsiya nafaqat

faoliyatning boshlanishini, balki uning davomiyligini va yakuniy samaradorligini belgilovchi muhim psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi (M.G. Davletshin, Umumiy psixologiya, 2012). Motivatsiya fenomenining mohiyatini chuqur anglash uchun “motiv” kategoriyasining mazmunini aniqlash muhimdir. Motiv shaxsni faoliyatga undovchi ichki turtki, ehtiyojlarning subyektiv ifodasi yoki maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarning sababiy asosi sifatida talqin etiladi. Motivlar tizimi shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyat yo‘nalishlari hamda ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Shu ma’noda motivatsiya shaxsning ichki dunyosini aks ettiruvchi murakkab psixologik tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi (A.N. Leontyev,Faoliyat.Ong.Shaxs, 1975). Faoliyat nazariyasi doirasida motivatsiya muammosi alohida o‘rganilib, unda motiv faoliyatning markaziy tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. A.N. Leontyev konsepsiyasiga ko‘ra, ehtiyojlar bevosita faoliyatni emas, balki motivlarni yuzaga keltiradi, motivlar esa o‘z navbatida faoliyatni shakllantiradi va yo‘naltiradi. Ushbu jarayon insonning psixik rivojlanishi va shaxs sifatida kamol topishida muhim rol o‘ynaydi (A.N. Leontyev,Faoliyat.Ong.Shaxs, 1975).

Tadqiqot metodologiyasi. Motivatsiya tushunchasining ilmiy talqini. Psixologik adabiyotlarda motivatsiya ichki va tashqi omillar majmui sifatida tushuniladi. Bu insonning harakatlarini boshlab beruvchi, yo‘naltiruvchi va saqlab turuvchi psixologik jarayon bo‘lib, ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar va tashqi rag‘batlarning uyg‘unligidan kelib chiqadi. Motivatsiya faqat bitta omil emas, balki ichki (intrinsic) va tashqi (extrinsic) kuchlarning murakkab o‘zaro ta’siri natijasidir.

Motivatsiyaning asosiy tushunchasi. Psixologiyada **motivatsiya** — bu shaxsni ma’lum bir harakatga undovchi ichki va tashqi omillar yig‘indisi. U xatti-harakatni boshlash, davom ettirish yoki to‘xtatish sababini belgilaydi. Motivlar esa motivatsiyaning asosiy tarkibiy qismlari bo‘lib, ehtiyojlarning yuqori shakli sifatida namoyon bo‘ladi (S.L. Rubinshteyn va boshqalar). Motivatsiya biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning ta’sirida shakllanadi.

Ichki motivatsiya. **Ichki motivatsiya** insonning o‘z ichidan kelib chiqadi. Bu faoliyatni o‘zi uchun, qiziqish, zavq yoki shaxsiy qoniqish uchun bajarishdir. Masalan, kitob o‘qish yoki sport bilan shug‘ullanish shunchaki yoqqani uchun bo‘ladi.

- Asosiy xususiyatlari: Qiziqish, o‘z-o‘zini rivojlantirish istagi, avtonomiya (o‘z tanlovi), kompetentsiya (muvaffaqiyat hissi) va bog‘lanish (boshqalar bilan munosabat).
- Self-Determination Theory (SDT) — Edward Deci va Richard Ryan nazariyasiga ko‘ra, ichki motivatsiya uchun uchta asosiy ehtiyoj qondirilishi kerak: avtonomiya, kompetentsiya va bog‘lanish. Bu ehtiyojlar qondirilsa, motivatsiya uzoq muddatli va barqaror bo‘ladi.

Ichki motivatsiya yuqori samaradorlik, ijodkorlik va psixologik farovonlikka olib keladi, chunki harakat tashqi mukofotga bog‘liq emas.

Tashqi motivatsiya. Tashqi motivatsiya tashqi omillardan (mukofot, jazo, ijtimoiy bosim, pul va boshqalar) kelib chiqadi. Masalan, ish haqi olish uchun ishlash yoki imtihonlardan o‘tish uchun o‘qish.

- Turlari (SDT bo‘yicha): Tashqi regulyatsiya (to‘g‘ridan-to‘g‘ri mukofot/jazo), introjektsiya (ichki bosim, masalan, aybdorlik hissi), identifikatsiya (shaxsiy qadriyatlar bilan bog‘lanishi) va integratsiya (tashqi maqsad ichki qadriyatga aylanishi).
- Tashqi motivatsiya qisqa muddatli vazifalarda samarali bo‘lishi mumkin, ammo haddan tashqari ko‘p bo‘lsa, ichki motivatsiyani susaytirishi mumkin (overjustification effect).

Ichki motivatsiya — faoliyat jarayonidan qoniqish olish. Tashqi motivatsiya — rag‘bat va mukofot orqali yuzaga keladi (R.S. Nemov, 2003).

Mashhur nazariyalar:

- Abraham Maslowning ehtiyojlar iyerarxiyasi: Motivatsiya pastki (fiziologik, xavfsizlik) ehtiyojlardan yuqori (hurmat, o‘zini-o‘zi anglash) darajalarga o‘tish orqali rivojlanadi. Ichki motivatsiya yuqori darajalarda kuchayadi.
- Frederick Herzbergning ikki faktor nazariyasi (ish joyida): Motivatorlar (ishning o‘zi, muvaffaqiyat, tan olish — ichki) va gigiyena faktorlar (ish haqi, sharoitlar — tashqi). Gigiyena omillari yetarli bo‘lmasa, norozilik paydo bo‘ladi, ammo ular motivatsiyani oshirmaydi.
- SDT eng zamonaviy va empirik jihatdan tasdiqlangan nazariyalardan biri bo‘lib, ichki va tashqi motivatsiyalarni spektr sifatida ko‘rib chiqadi.

Ichki va tashqi omillarning o‘zaro ta’siri. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, motivatsiya har doim ichki va tashqi omillar majmuidir. Tashqi rag‘batlar (mukofotlar) ichki qiziqishni kuchaytirishi yoki susaytirishi mumkin. Masalan, o‘quvchiga faqat baho uchun o‘qitish ichki motivatsiyani pasaytiradi, ammo o‘qitish jarayonini qiziqarli qilish (avtonomiya berish) ichki motivatsiyani oshiradi.

O‘zbek psixologik adabiyotlarida ham motivatsiya ichki (o‘z qiziqishlari, ehtiyojlari) va tashqi (mukofotlar, ijtimoiy ta’sir) omillar sifatida ta’riflanadi. Ichki motivatsiya uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun muhimroq hisoblanadi.

Amaliy ahamiyati. Motivatsiyani tushunish ta’lim, ish va shaxsiy rivojlanishda muhim. Ichki motivatsiyani kuchaytirish uchun avtonomiyani berish, kompetentsiyani rivojlantirish va ijtimoiy bog‘lanishni ta’minlash tavsiya etiladi. Tashqi omillarni esa ichki qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish samaraliroq natija beradi.

Shunday qilib, motivatsiya — bu statik holat emas, balki dinamik jarayon bo‘lib, ichki va tashqi omillarning doimiy o‘zaro ta’sirida shakllanadi. Psixologik tadqiqotlar (SDT, Maslow, Herzberg) bu majmuaning muvozanatini saqlash muvaffaqiyat va farovonlikning kaliti ekanligini isbotlaydi.

Psixologik adabiyotlarda motivatsiya ichki va tashqi omillar majmui sifatida izohlanadi. U faoliyatni faollashtiradi, yo‘naltiradi va tartibga soladi [3.320-b].

2. Motiv va motivatsiya Motiv — shaxsni faoliyatga undovchi ichki turtki. A.N. Leontyevga ko‘ra, ehtiyojlar motivlarni yuzaga keltiradi, motivlar esa faoliyatni shakllantiradi [2.450-b].

1-jadval.

Leontyev bo‘yicha faoliyatning iyerarxik tuzilishi

Daraja	Psixologik birlik	Tavsif
Faoliyat	**Motiv**	Nima uchun amalga oshiriladi?
Harakat	**Maqsad**	Qanday natijaga erishiladi?
Operatsiya	**Sharoit**	Qanday usul va vositalar bilan amalga oshiriladi?

A.N. Leontyev bo‘yicha motivning asosiy ta’rifi quyidagicha: **Motiv** — bu ehtiyojni qondiruvchi narsa yoki ob'ekt (moddiy yoki ideal). Motiv faoliyatning “nima uchun”ligini belgilovchi asosiy kuch hisoblanadi.

Leontyev nazariyasida asosiy tushunchalar:

Ehtiyoj — insonning ichki muvozanati buzilishi, zarurat holati. Ehtiyoj o‘zi yo‘nalishsiz energiya beradi, lekin faoliyatni boshlamaydi. Masalan: ochlik — bu ehtiyoj.

Motiv esa ehtiyojning aniq bir ob'ektga aylanishi natijasida paydo bo‘ladi. Ehtiyoj + mos ob'ekt = Motiv. Masalan: ochlik + non yoki ovqat = ovqatlanish motivi. Shuning uchun Leontyev motivni “ehtiyojning predmeti” deb ataydi.

Faoliyat — motiv tomonidan boshqariladigan butun jarayon. Har bir faoliyatning o‘z motivi bo‘ladi. Ba’zida bir faoliyat bir nechta motivlarga ega bo‘lishi mumkin (buni polimotivatsiya deb ataladi).

Maqsad — faoliyatning ongli va aniq natijasi. Motiv “nima uchun?” degan savolga javob bersa, maqsad “qanday natijaga erishiladi?” degan savolga javob beradi.

Muhim farq: Motiv ko‘pincha ongli bo‘lmaydi (inson uni har doim ham to‘liq anglamaydi). Maqsad esa har doim ongli bo‘ladi.

Leontyev bo‘yicha faoliyatning iyerarxik tuzilishi

- Faoliyat — Motiv bilan boshqariladi (Nima uchun qilaman?)
- Harakat — Maqsad bilan boshqariladi (Qanday natijaga erishaman?)
- Operatsiya — Sharoit va vositalar bilan amalga oshiriladi (Qanday usullar bilan qilaman?)

Misol: Talaba imtihon uchun o‘qiydi.

- Motiv — bilim olish, yaxshi baho olish yoki ota-onasini xursand qilish bo‘lishi mumkin.
- Maqsad — ma’lum bir mavzuni o‘rganib chiqish.
- Operatsiya — kitob o‘qish, yozib olish, takrorlash.

Agar motiv faqat “baho olish” bo‘lsa, o‘qish sirtqi bo‘lib qoladi. Agar motiv “haqiqiy bilim olish” bo‘lsa, o‘qish chuqur va samarali bo‘ladi.

Motivning asosiy funksiyalari (Leontyev bo‘yicha)

1. Rag‘batlantiruvchi funksiya — faoliyatni boshlaydi va uni davom ettiradi.
2. Yo‘naltiruvchi funksiya — faoliyatni muayyan ob'ektga yo‘naltiradi.
3. Ma’no beruvchi funksiya — harakatlarga shaxsiy ma’no beradi. Bir xil harakat turli motivlarda turli ma’noga ega bo‘ladi.

3. O‘quv motivatsiyasi O‘quv motivatsiyasi talabaning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan ongli munosabati, bilimlarni egallashga intilishi hamda maqsadga erishish yo‘lidagi qat’iyatini belgilovchi muhim psixologik omil hisoblanadi. Agar talaba o‘z faoliyatining mazmunini anglab, undan ichki qoniqish hosil qilsa, uning motivatsiyasi barqaror va yuqori darajada bo‘ladi. Aksincha, motivatsiyaning sustligi o‘quv faoliyatiga befarqlik va past natijalarga olib kelishi mumkin [4.450-c].

Motivatsiyaning rivojlanishida ijtimoiy muhit, ayniqsa, ta’lim muhiti muhim rol o‘ynaydi. Oila, pedagogik jamoa va jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlar tizimi shaxs motivatsiyasining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi pedagogik muhit talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi [3.320-b].

Tahlil va natijalar.

2-jadval.

Motivatsiya turlarining ta’siri (adabiyotlar tahlili asosida)

Motivatsiya turi	Asosiy xususiyatlar	Ta’siri (o‘quv faoliyatiga)	Manba
Ichki (Intrinsic)	Jarayondan qoniqish, o‘zini rivojlantirish	Yuqori barqarorlik, chuqur o‘zlashtirish	R.S. Nemov (2003)
Tashqi (Extrinsic)	Rag‘bat, mukofot, bosim	Qisqa muddatli faollik, tez pasayish	A.N. Leontyev (1975)
Ijtimoiy	Oilaviy muhit, pedagogik qo‘llab-quvvatlash	Motivatsiyani mustahkamlash	D.B. Elkonin (1989)
Individual	Shaxsiy qiziqishlar va qadriyatlar	Har xil natijalar (individual farqlar)	E. G‘oziyev (2002)

3-jadval.

Motivatsiyaning shakllanish omillari

Omil	Ta’sir darajasi	Misol
Ehtiyojlar tizimi	Yuqori	Yangi motivlar paydo bo‘lishi
Ijtimoiy muhit	Yuqori	Oila va maktab muhiti
Individual xususiyatlar	O‘rtacha	Qiziqish va qobiliyatlar
Pedagogik yondashuv	Yuqori	Rag‘batlantirish va qiyinchiliklar

Xulosa. Motivatsiya psixologiya fanining muhim predmeti sifatida shaxs faoliyatining ichki mexanizmlarini ochib beradi. Uni chuqur o‘rganish inson xulq-atvori va rivojlanish qonuniyatlarini anglashga yordam beradi. Ta’lim tizimida o‘quv motivatsiyasini shakllantirish talabalarning muvaffaqiyatli o‘qishini ta’minlaydi.

Amaliy tavsiyalar:

- Pedagogik muhitni rag‘batlantiruvchi qilish;
- Ichki motivatsiyani kuchaytirish uchun “kerakli qiyinchiliklar” yaratish;
- Talabalar bilan individual ishlash.

Adabiyotlar:

1. G‘oziev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2002. 320-b.
2. Leontyev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – M., 1975. 450-b.
3. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – 2012. 320-b.
4. Немов Р.С. Психология. – 2003. 450-с.
5. Эльконин Д.Б. Психология развития. – 1989.

Jumayeva Mexribo Abduvoxitovna,
Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasi dotsenti
m.a.jumayeva@buxdu.uz

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA LOYIHALASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalash kompetensiyasining mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, loyihaviy faoliyatning motivatsion, kognitiv, kommunikativ va refleksiv jihatlari ilmiy-nazariy asosda ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi, mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *loyihalash kompetensiyasi, kompetentlik, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik-psixologik xususiyatlar, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, innovatsion faoliyat.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОЕКТИРОВОЧНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В данной статье проанализированы педагогико-психологические особенности развития проектировочных компетенций будущих учителей. Освещены сущность проектировочной компетенции, её структурные компоненты и роль в совершенствовании профессиональной подготовки будущих педагогов. Научно обоснованы мотивационные, когнитивные, коммуникативные и рефлексивные аспекты проектной деятельности. Результаты исследования показывают, что развитие проектировочных компетенций способствует формированию профессиональной готовности, самостоятельного мышления, творческого подхода и инновационного потенциала будущих учителей.*

Ключевые слова: *проектировочная компетенция, компетентность, будущий учитель, педагогико-психологические особенности, компетентностный подход, профессиональная подготовка.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING DESIGN COMPETENCIES IN FUTURE TEACHERS

Abstract. *This article analyzes the pedagogical and psychological aspects of developing project design competencies in prospective teachers. Based on a competency-based approach, the essence of project design competence, its structural components, and its role in enhancing the professional training of future educators are elucidated. Furthermore, the motivational, cognitive, communicative, and reflexive aspects of project-based activity are explored on a scientific and theoretical basis. According to the research findings, developing project design competencies in prospective teachers serves to increase their professional readiness, independent thinking, creative approach, and innovative potential.*

Keywords: *project design competence, competency, prospective teacher, pedagogical and psychological aspects, competency-based approach, professional training, innovative activity.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish hamda ularni zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishga o‘rgatish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon ta’lim makonida yuz berayotgan integratsion jarayonlar, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va mehnat bozori talablarining o‘zgarib borishi pedagoglardan yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikni talab etmoqda. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirish hamda innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ilmiy-pedagogik vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar doirasida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, bo‘lajak mutaxassislarning mustaqil fikrlash va

ijodiy faoliyat yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish masalasining dolzarbligini yanada oshiradi.

Oliy ta’lim muassasalari oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishdir. Chunki zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ta’lim jarayonini samarali loyihalashtira oladigan, innovatsion faoliyatni tashkil etuvchi, ta’lim sifatini nazorat qiluvchi va ta’lim natijalarini oldindan prognoz qila oladigan mutaxassis bo‘lishi zarur. Pedagogik faoliyatning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining ta’lim jarayonini ilmiy asosda loyihalashtirish, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularning maqbul yechimlarini ishlab chiqish qobiliyatiga bog‘liq.

Ta’lim jarayonini loyihalashtirish pedagogning o‘quv faoliyatini puxta rejalashtirish, ta’lim maqsadlarini aniq belgilash, o‘quv mazmunini tanlash, samarali metod va vositalarni qo‘llash hamda kutilayotgan natijalarni oldindan bashorat qilish kabi murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Loyihalash faoliyati o‘qituvchidan pedagogik, metodik, psixologik va axborot texnologiyalariga oid bilimlarni integratsiyalashgan holda qo‘llashni talab qiladi. Shu jihatdan loyihalash kompetensiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etiladi.

Pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan loyihalash kompetensiyasi shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorligi, ijodiy tafakkuri, refleksiv qobiliyati, muammoli vaziyatlarni tahlil qila olishi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur kompetensiyaning rivojlanishi bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z kasbiy faoliyatiga nisbatan mas’uliyat hissini shakllantiradi, pedagogik jarayonni samarali tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ularning innovatsion faoliyatga tayyorlik darajasini oshiradi.

Shu munosabat bilan bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish, uning nazariy asoslarini takomillashtirish hamda amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari A.V. Xutorskoy, I.A. Zimnyaya, V.A. Slastenin, E.F. Zeer, V.V. Serikov kabi olimlarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining mazmun-mohiyati, kasbiy kompetentlikni shakllantirish omillari hamda ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish masalalari ilmiy asoslangan.

Xususan, A.V. Xutorskoy kompetensiyani shaxsning muayyan faoliyatni samarali amalga oshirishga imkon beruvchi bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalar integratsiyasi sifatida talqin etadi. V.V. Serikov esa kompetentlikni shaxsning amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladigan individual sifatlari va kasbiy tayyorgarligining natijasi sifatida baholaydi. Ushbu yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishida loyihalash kompetensiyasining muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Mahalliy olimlardan N.A. Muslimov, U.I. Inoyatov, Q.T. Olimov, Sh.Sh. Sharipov, A. Xodjaboyev, R.H. Djurayev va boshqalar tomonidan pedagogik kompetentlik, innovatsion faoliyat hamda bo‘lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash masalalari o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlarida pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan.

Loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur masala asosan texnik ta’lim, kasbiy ta’lim va muhandislik yo‘nalishlari misolida tadqiq etilgan. Biroq bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot ushbu muammoning nazariy va amaliy yechimlarini aniqlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatli va tizimli yondashuvlar tashkil etadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olishni nazarda tutsa, kompetensiyaviy yondashuv ta’lim natijasini amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladigan kompetensiyalar orqali baholashga asoslanadi. Faoliyatli yondashuv talabalarning loyihaviy faoliyat jarayonidagi amaliy ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi, tizimli yondashuv esa loyihalash kompetensiyasini o‘zaro bog‘liq komponentlar majmui sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning nazariy va empirik metodlaridan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o‘rganish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish hamda tizimlashtirish metodlari qo‘llanildi. Empirik metodlar sifatida pedagogik kuzatish, suhbat, anketa

so‘rovi, diagnostik testlar va tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Olingan natijalarni qayta ishlash va tahlil qilishda matematik-statistik metodlardan foydalanildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar va tadqiqot metodlari bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash, ularning shakllanganlik darajasini baholash hamda rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish imkonini berdi.

Natijalar va muhokama.

Loyihalash kompetensiyasining pedagogik mohiyati

Kompetensiya shaxsning ma’lum faoliyat turini samarali bajarishga imkon beruvchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasidir. Loyihalash kompetensiyasi esa pedagogik faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va natijalarini baholashga oid bilim, ko‘nikma va tajribalarni qamrab oladi. U pedagogning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Loyihalash kompetensiyasi quyidagi tarkibiy komponentlarni o‘z ichiga oladi.



Loyihalash kompetensiyalarining psixologik xususiyatlari

Bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish, avvalo, ularning psixologik tayyorgarligi bilan bog‘liq. Psixologik nuqtayi nazardan loyihaviy faoliyat quyidagi sifatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi:

Motivatsion xususiyatlar

Loyihaviy faoliyat talabalarda kasbiy o‘zini rivojlantirishga ehtiyoj, mustaqil ta’lim olishga intilish hamda ijodiy faoliyatga qiziqishni shakllantiradi. Natijada ularda kasbiy motivatsiya kuchayadi va pedagogik faoliyatga nisbatan ijobiy munosabat yuzaga keladi.

Kognitiv xususiyatlar

Loyihalash jarayonida talabalar muammolarni tahlil qilish, axborotlarni qayta ishlash, mantiqiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning intellektual salohiyatini oshiradi.

Kommunikativ xususiyatlar

Loyihaviy faoliyat jamoada ishlash, hamkorlik qilish, o‘z fikrini asoslab bera olish va muloqot madaniyatini rivojlantirish imkonini yaratadi. Natijada bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligi shakllanadi.

Refleksiv xususiyatlar

Talabalar o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha refleksiv ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning kasbiy o‘sishini ta’minlaydi.

Loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shartlari

Bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini samarali rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur:

- *kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’limni tashkil etish;*
- *loyihaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish;*
- *axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash;*
- *talabalarning mustaqil va tadqiqotchilik faoliyatini rag‘batlantirish;*

- *refleksiya va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlarini joriy etish;*
- *innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish.*

O‘tkazilgan ilmiy tahlillar loyihaviy faoliyat asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik kompetentligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Loyihalash kompetensiyasi pedagogning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari loyihaviy faoliyatning motivatsion, kognitiv, kommunikativ va refleksiv komponentlari bo‘lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida loyihaviy ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish hamda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodik tizimlarni takomillashtirish zarur.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
2. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – 315 b.
3. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Ro‘ziqulov H.J. va boshqalar. Pedagogika: nolingvistik oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: TDPU, 2012. – 323 b.
4. Sharipov Sh.S. Pedagogik innovatika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 168 b.
5. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – Москва, 2003. – № 2. – С. 58–64.
6. Сериков В.В. Образование и личность. Теория и практика проектирования педагогических систем. – Москва: Логос, 1999. – 272 с.
7. Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. – Москва: Академия, 2013. – 416 с.
8. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – Москва, 2003. – № 5. – С. 34–42.
9. Djurayev R.X., Tolipov O‘.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019. – 320 b.

Tolibov Elchin G‘ulomjon o‘g‘li,
Perfect university Gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
https://orcid.org/0009-0008-7683-7890

PANIK BUZILISHINING EPIDEMIOLOGIK TENDENSIYALARI, KLINIK KO‘RINISH XUSUSIYATLARI VA DIFFERENSIAL TASHXISLASH QIYINCHILIKLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada panik buzilishining zamonaviy epidemiologik tendensiyalari, yoshga doir o'zgarishlari va tarqalish ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Buzilishning murakkab klinik manzarasi, xususan, somatik (yurak-qon tomir, nafas olish, endokrin) va kognitiv simptomlarning o'zaro aralash namoyon bo’lishi yoritilgan. Differensial diagnostika jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar miokard infarkti, tireotoksikoz va bronxial astma kabi patologiyalar bilan qiyosiy tahlil orqali ochib berilgan. Bemorlarda shakllanadigan makonga bog'liq patologik qo'rquv va qochish xulq-atvorini (agorafoibiya) yengishda an'anaviy psixoterapiya usullarining cheklovlari ko'rsatilib, muammoni hal qilishda virtual reallik (VR) texnologiyalariga asoslangan ekspozitsion terapiyaning yuqori samaradorligi va kelgusidagi istiqbollari ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *panik buzilishi, panik ataka, epidemiologiya, differensial diagnostika, kutish xavotiri, agorafoibiya, qochish xulq-atvori, virtual reallik (VR) terapiyasi, ekspozitsion terapiya.*

EPIDEMIOLOGICAL TRENDS OF PANIC DISORDER, CLINICAL FEATURES, AND CHALLENGES OF DIFFERENTIAL DIAGNOSIS

Abstract. *This article analyzes the modern epidemiological trends, age-related shifts, and prevalence rates of panic disorder. The complex clinical presentation of the disease, specifically the interplay of somatic (cardiovascular, respiratory, endocrine) and cognitive symptoms, is highlighted. The main difficulties in the differential diagnosis process are revealed through a comparative analysis with pathologies such as myocardial infarction, thyrotoxicosis, and bronchial asthma. By pointing out the limitations of traditional psychotherapy methods in overcoming the space-related pathological fear and avoidance behavior (agoraphobia) formed in patients, the high effectiveness and future prospects of exposure therapy based on virtual reality (VR) technologies are scientifically justified.*

Keywords: *panic disorder, panic attack, epidemiology, differential diagnosis, anticipatory anxiety, agoraphobia, avoidance behavior, virtual reality (VR) therapy, exposure therapy.*

ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ПАНИЧЕСКОГО РАССТРОЙСТВА, ОСОБЕННОСТИ КЛИНИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ И ТРУДНОСТИ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОЙ ДИАГНОСТИКИ

Аннотация. *В данной статье анализируются современные эпидемиологические тенденции панического расстройства, возрастные особенности его развития и показатели распространённости. Освещается сложная клиническая картина расстройства, в частности сочетанное проявление соматических (сердечно-сосудистых, респираторных, эндокринных) и когнитивных симптомов. Основные трудности дифференциальной диагностики раскрываются посредством сравнительного анализа с такими заболеваниями, как инфаркт миокарда, тиреотоксикоз и бронхиальная астма. Показаны ограничения традиционных психотерапевтических методов в преодолении патологического страха, связанного с определёнными местами, и избегающего поведения (агорафобии), формирующихся у пациентов. Научно обоснованы высокая эффективность и перспективность экспозиционной терапии на основе технологий виртуальной реальности (VR) как инновационного подхода к решению данной проблемы.*

Ключевые слова: *паническое расстройство, паническая атака, эпидемиология, дифференциальная диагностика, тревога ожидания, агорафобия, избегающее поведение, терапия виртуальной реальностью (VR), экспозиционная терапия.*

Kirish. Zamonaviy sharoitda, global axborot oqimi, surunkali stress omillari va pandemiyadan keyingi oqibatlarning ortib borishi fonida, xavotir guruhiga kiruvchi kasalliklar, xususan, panik buzilishi klinik psixologiya hamda tibbiyotning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanib ulgurdi. Jahon sog'liqni saqlash

tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, panik buzilishi mehnatga layoqatli aholi orasida tobora keng tarqalib, nafaqat insonning ruhiy salomatligiga, balki uning ijtimoiy faoliyatiga ham jiddiy putur yetkazmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Ushbu patologiyaning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri, eng avvalo, uning murakkab klinik manzarasi va differensial tashxislashdagi qiyinchiliklar bilan bevosita bog'liqdir. Panik xurujlari ko'pincha o'tkir somatik simptomlar — taxikardiya, havo yetishmasligi hissi, ko'krak qafasidagi og'riqlar va hushdan ketish oldi holatlari bilan namoyon bo'ladi. Shu sababli, bemorlar o'zlaridagi muammoning ruhiy ildizini anglamagan holda, dastlab psixolog yoki psixiatrga emas, balki tez tibbiy yordam xizmatlariga, kardiolog, nevrolog va endokrinologlarga murojaat qilishadi.

Natijada sog'liqni saqlash tizimida o'ziga xos "aylanma eshik" (revolving door) fenomeni yuzaga keladi: aniq somatik kasalligi bo'lmagan bemorlar oylab, ba'zan yillab qayta-qayta qimmatbaho tibbiy tekshiruvlardan (MRT, EKG, turli tahlillar) o'tadilar va asossiz dori-darmonlar qabul qiladilar. Bu esa tibbiyot muassasalariga ortiqcha yuklama berib, davlat va bemor byudjetiga ulkan moliyaviy zarar yetkazadi.

Ikkinchi tomondan, panik buzilishi insonning mehnatga layoqatsizligini keltirib chiqaruvchi kuchli omildir. Xurujning takrorlanishidan paydo bo'ladigan doimiy qo'rquv ko'p hollarda agorafoibiyaning shakllanishiga olib keladi. Bemor o'ziga yordam ko'rsatilishi qiyin bo'lgan vaziyatlardan — jamoat transportidan foydalanishdan, keng maydonlardan yoki odamlar gavjum ish joylaridan qochishni (qochish xulq-atvori) boshlaydi. Asta-sekin chuqurlashib boruvchi bu ijtimoiy izolyatsiya bemorning ish o'rnini yo'qotishiga, oilaviy munosabatlarning buzilishiga va shu bilan birga jamiyat uchun muhim bo'lgan iqtisodiy va intellektual resurslarning boy berilishiga sabab bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, panik buzilishining klinik xususiyatlarini aniq farqlash, differensial tashxislash algoritmlarini takomillashtirish va an'anaviy davolash usullarining cheklovlarini yengib o'tish uchun maqsadli ekspozitsion terapiyalarni (shu jumladan, virtual reallik texnologiyalariga asoslangan xavfsiz modellashtirilgan muhitlarni) amaliyotga keng joriy etish orqali ushbu ijtimoiy-iqtisodiy yukni yengillashtirish — bugungi psixologiya fanining kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan sanaladi.

Panik buzilishining zamonaviy epidemiologik tendensiyalari

Zamonaviy psixiatrik va psixologik epidemiologiya ma'lumotlariga ko'ra, xavotir spektridagi buzilishlar orasida panik buzilishi o'zining tarqalish dinamikasi va og'ir kechishi bilan ajralib turadi. Amerika Psixiatriya Assotsiatsiyasining so'nggi ma'lumotlariga (DSM-5-TR, 2022) asoslansak, panik buzilishining aholi o'rtasidagi hayot davomidagi tarqalish ko'rsatkichi o'rtacha 2-3% ni tashkil etadi. Biroq, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami bo'g'iniga turli somatik shikoyatlar bilan murojaat qiluvchi bemorlar orasida bu ko'rsatkich 10% dan 30% gacha yetishi kuzatiladi (Kessler va boshq.).

So'nggi o'n yillikdagi, xususan, COVID-19 pandemiyasidan keyingi tadqiqotlar panik buzilishining epidemiologik manzarasida uchta muhim o'zgarishni ko'rsatmoqda:

1. Yoshga doir tafovut (Yosharish): Ilgari kasallikning boshlanishi asosan 20-24 yoshlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, bugungi kunda o'smirlik davrining oxiri (17-19 yosh) va balog'atga yetishning ilk bosqichlarida xurujlarning uchrash chastotasi sezilarli darajada oshgan.
2. Jinsiy tafovutning barqarorligi: Kasallik ayollarda erkaklarga nisbatan 2-3 barobar ko'proq uchraydi. Bunga ham neyrobiologik (gormonal fonning o'zgaruvchanligi), ham ijtimoiy-psixologik omillar, jumladan, jamiyatdagi gender rollari bilan bog'liq ijtimoiy bosimlar va stressorlar sabab bo'lishi ilmiy adabiyotlarda keng e'tirof etiladi.
3. Komorbidlikning ortishi: Panik buzilishi sof holatda tobora kam uchramoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, panik buzilishi bilan og'rigan bemorlarning 50-60% idan ortig'ida qo'shimcha ravishda depressiv buzilish, umumiy xavotir buzilishi yoki turli xil o'ziga xos fobiyalar kuzatilmoqda.

Klinik manzaradagi o'zgarishlar va patopsixologik mexanizmlar

Panik buzilishining zamonaviy klinik manzarasi faqatgina o'tkir qisqa muddatli xurujlar (panik atakalar) bilan cheklanmaydi. Patologiyaning asosiy xavfi — bu bitta xurujdan keyin shakllanadigan va insonning xulq-atvorini butunlay o'zgartirib yuboradigan murakkab kognitiv va bixevioral tizimdir.

Xalqaro kasalliklar tasnifi (XKT-10) mezonlariga muvofiq, vahima xuruji — bu to'satdan boshlanadigan, bir necha daqiqa ichida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqadigan va kuchli qattiq qo'rquv bilan kechadigan holatdir. Klinik jihatdan u kognitiv va somatik simptomlarning birlashib kelishi sifatida namoyon bo'ladi:

- Fiziologik belgilar: ifodalangan taxikardiya, nafas qisishi (giperventilyatsiya sindromi), ko'krak qafasidagi bosim, terlash, tremor (titroq) va oshqozon-ichak traktidagi diskomfort.
- Kognitiv va affektiv belgilar: derealizatsiya (atrof-muhitning o'zgarib qolgandek tuyulishi), depersonalizatsiya (o'z tanasini his qilmaslik), nazoratni yo'qotishdan, aqlldan ozishdan yoki to'satdan o'lib qolishdan kuchli qo'rqish.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Klinik manzaradagi eng muhim patopsixologik o'zgarish: Zamonaviy klinik amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, kasallikning og'irligini xurujning o'zi emas, balki xurujlar oralig'idagi "kutish xavotiri" (anticipatory anxiety) va shakllanadigan qochish xulq-atvori (avoidance behavior) belgilab bermoqda.

Bemor o'zining ilk xurujini ma'lum bir makon yoki vaziyat bilan (masalan, tiqilinch metro, yopiq lift, keng maydon yoki tirbandlikdagi avtomobil) ongsiz ravishda bog'laydi. P.J. Langning bioaxborot nazariyasi (Bioinformational theory) va klassik shartli reflekslar qonuniyatiga ko'ra, neytral bo'lgan muhit endi bemor miyasida xavf signali sifatida muhrlanadi.

Natijada agorafoibiya yuzaga keladi. Bemor o'zini noqulay his qilishi mumkin bo'lgan, xuruj boshlanganda yordam kelishi qiyin deb o'ylagan barcha hududlardan o'zini olib qochishni boshlaydi. Aynan shu makonga oid qochish xulq-atvori kasallikning surunkali tus olishiga va bemorning ijtimoiy dezadaptatsiyasiga (izolyatsiyasiga) olib keluvchi asosiy omildir. Shu sababli, zamonaviy psixoterapiyada diqqat markazi faqatgina somatik belgilarni yo'qotishga emas, balki bemorni o'zi qo'rqqan vaziyatlar va makonlar bilan yuzlashtirishga qaratilishi talab etiladi.

Panik buzilishini somatik patologiyalardan farqlash va differensial tashxislash qiyinchiliklari

Panik buzilishining klinik amaliyotdagi eng murakkab jihati uning o'tkir somatik kasalliklarni, xususan, hayot uchun xavfli bo'lgan holatlarni aniq taqlid qila olishidadir. Bemor xuruj vaqtida his qiladigan kardiologik, respirator va nevrologik belgilar shunchalik kuchli va haqqoniy bo'ladiki, bu nafaqat bemorni, balki tajribasiz shifokorlarni ham chalg'itib qo'yishi mumkin. Differensial diagnostika jarayoni asosan "istisno qilish" (diagnosis of exclusion) tamoyiliga asoslanadi, ya'ni psixologik tashxis qo'yishdan oldin barcha ehtimoliy organik patologiyalar inkor etilishi shart. Bu jarayonda eng ko'p adashtiriladigan kasalliklar guruhiga kardiologik, endokrinologik va respirator tizim buzilishlari kiradi.

Kardiologik patologiyalar, xususan, o'tkir miokard infarkti va yurak aritmiyalari vahima xuruji bilan eng ko'p adashtiriladigan holatlardir. Bemorlar ko'krak qafasidagi kuchli og'riq, sanchiq, chap qo'lga uzatiladigan og'riq va yurak urib ketishidan shikoyat qiladilar. Biroq, kardiologik og'riq ko'pincha ezuvchi, qisuvchi xarakterga ega bo'lib, jismoniy zo'riqish fonida kuchaysa, vahima xurujidagi og'riq ko'proq sanchuvchi, nuqtali xarakterga ega va kuchli emotsional stress yoki hatto tinch holatda ham to'satdan paydo bo'ladi. Eng asosiy farqlovchi mezon — obyektiv tekshiruv natijalaridir: vahima xurujida EKG, troponin testlari va exokardiografiya natijalari odatda me'yorda bo'ladi yoki faqatgina ikkilamchi sinusli taxikardiyani ko'rsatadi.

Endokrin tizim kasalliklari, ayniqsa gipertireoz (tireotoksikoz) va feoxromotsitoma ham panik buzilishiga o'xshash manzarani berishi bilan ajralib turadi. Qalqonsimon bez gormonlarining ortiqcha ishlab chiqarilishi natijasida bemorda doimiy yurak o'ynashi, terlash, qizib ketish, asabiylik va qo'llarda tremor kuzatiladi. Vahima xurujidan farqli o'laroq, tireotoksikozda bu belgilar epizodik emas, balki surunkali davom etadi hamda tana vaznining keskin kamayishi bilan kechadi. Feoxromotsitoma (buyrak usti bezi o'smasi) xurujlari ham qonga adrenalinning ko'p miqdorda otilishi hisobiga xuddi panik atakadek kechadi, biroq bunda arterial qon bosimining o'ta xavfli darajada ko'tarilishi (gipertonik kriz) ro'y beradi. Qondagi TSH, T3, T4 gormonlari va siydikda katexolaminlar miqdorini tekshirish orqali bu endokrin patologiyalarni panik buzilishidan aniq farqlab olish mumkin.

Nafas olish va nevrologik tizim patologiyalari ham differensial diagnostikada alohida e'tibor talab qiladi. Vahima xurujidagi asosiy belgilardan biri — giperventilyatsiya sindromi (havo yetishmasligi, tez-tez va sayoz nafas olish) ko'pincha bronxial astma yoki o'pka arteriyasi tromboemboliyasi (O'ATE) kabi o'tkir respirator holatlar bilan adashtiriladi. Bronxial astmada bemor nafas chiqarishga qiynaladi (ekspirator xansirash) va o'pkada xirillashlar eshitiladi, vahima xurujida esa bemor asosan to'liq nafas ololmayotganidan shikoyat qiladi, ammo spirometriya va qondagi kislorod saturatsiyasi (SpO_2) normal darajada saqlanib qoladi. Nevrologik nuqtayi nazardan esa, bosh aylanishi, derealizatsiya va vestibulyar buzilishlar temporal bo'lak tutqanoqlari (epilepsiya) yoki qon aylanishining tranzitor buzilishlari bilan differensiyatsiya qilinishi, buning uchun EEG (elektroensefalografiya) va bosh miya MRT tekshiruvlari o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Organik patologiyalar to'liq istisno qilingach, differensial diagnostika o'z nihoyasiga yetadi va bemor rasman klinik psixolog nazoratiga o'tishi kerak bo'ladi. Afsuski, amaliyotda ko'plab bemorlar tibbiy tekshiruvlar natijasida "sog'lom" deb topilsa-da, bunga ishonmaydilar va ularda kuchli ipoxondrik xavotir shakllanib, shifokorma-shifokor yurishda davom etadilar. Aynan shu nuqtada, tashxis tasdiqlangandan so'ng, panik buzilishining asosiy ushlab turuvchi omili bo'lgan kognitiv xatolar va makonga bog'liq qochish xulq-atvori bilan ishlash o'ta muhim. Bemor o'zi qo'rqqan vaziyatlar bilan qayta yuzlashishi kerak, ammo bu jarayonda virtual reallik texnologiyalariga asoslangan ekspozitsion terapiya eng istiqbolli, xavfsiz va boshqariladigan yechim sifatida maydonga chiqadi. Virtual reallik muhiti orqali bemorni sun'iy stressor

makonlarga (masalan, virtual metro yoki lift) tushirish va uning xavotirini bosqichma-bosqich so'ndirish somatik kasalliklari inkor etilgan bemorlarning real ijtimoiy hayotga tezroq va ishonch bilan qaytishini ta'minlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, panik buzilishi o'zining keng tarqalish ko'lami, yosharib borayotgani va jamiyatga solayotgan og'ir ijtimoiy-iqtisodiy yuki bilan zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining eng o'tkir muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu patologiyaning yurak-qon tomir, endokrin va nafas olish tizimi kasalliklariga xos bo'lgan o'tkir somatik belgilar (taxikardiya, giperventilyatsiya, qon bosimining o'ynashi) bilan namoyon bo'lishi differensial tashxislash jarayonini keskin murakkablashtirib, bemorlarning oylab, ba'zan yillab noto'g'ri tibbiy tekshiruvlar girdobida qolib ketishiga, oqibatda esa ularda "kutish xavotiri" va keng ko'lamli qochish xulq-atvori (agorafoibiya) shakllanishiga olib keladi.

Organik kasalliklar to'liq istisno qilingandan so'ng, bemorlarda aynan makon va vaziyatlarga nisbatan shakllangan ushbu patologik qo'rquvni yengishda an'anaviy psixoterapiya usullari doim ham kutilgan samarani bermasligi mumkin, chunki terapiya xonasida turib real stressor vaziyatlarni (masalan, tiqilinch metro yoki balandlikni) xavfsiz va ishonchli modellashtirish deyarli imkonsizdir.

Aynan shu cheklovlar panik buzilishini davolashda mutlaqo yangicha, yuqori texnologik yondashuvlarni talab etadi va bu borada virtual reallik asosidagi ekspozitsiya terapiyasi eng istiqbolli, ilmiy jihatdan asoslangan yechim sifatida maydonga chiqadi; ushbu innovatsion metod bemorlarga o'zlari qo'rqqan muhit bilan to'liq nazorat qilinadigan, vizual va kognitiv jihatdan reallikka maksimal yaqinlashtirilgan xavfsiz sharoitda yuzlashish imkonini berish orqali, noto'g'ri himoya reflekslarini kamaytirishga va insonning faol ijtimoiy hayotga tezroq qaytishiga xizmat qiladigan kelajak psixoterapiyasining hal qiluvchi vositasidir.

Adabiyotlar:

1. American Psychiatric Association. (2022). Diagnostic and statistical manual of mental disorders (5th ed., text rev.). https://doi.org/10.1176/appi.books.9780890425787

2. World Health Organization. (2019). International statistical classification of diseases and related health problems (11th ed.). https://icd.who.int/

3. Sadock, B. J., Sadock, V. A., & Ruiz, P. (2015). Kaplan & Sadock's synopsis of psychiatry: Behavioral sciences/clinical psychiatry (11th ed.). Wolters Kluwer. (Izoh: Psixiatriya va differensial diagnostika bo'yicha eng nufuzli darslik).

4. Kessler, R. C., Chiu, W. T., Jin, R., Ruscio, A. M., Shear, K., & Walters, E. E. (2006). The epidemiology of panic attacks, panic disorder, and agoraphobia in the National Comorbidity Survey Replication. Archives of General Psychiatry, 63(4), 415–424. https://doi.org/10.1001/archpsyc.63.4.415

5. Lang, P. J. (1979). A bio-informational theory of emotional imagery. Psychophysiology, 16(6), 495–512. https://doi.org/10.1111/j.1469-8986.1979.tb01511.x (Izoh: Kognitiv xatolar va makonga bog'liq qo'rquvni tushuntiruvchi bioaxborot nazariyasi asosi).

6. Bandelow, B., Michaelis, S., & Wedekind, D. (2017). Treatment of anxiety disorders. Dialogues in Clinical Neuroscience, 19(2), 93–107. https://doi.org/10.31887/DCNS.2017.19.2/bbandelow

7. Carl, E., Stein, A. T., Levihn-Coon, A., Pogue, J. R., Rothbaum, B., Emmelkamp, P., Asmundson, G. J. G., Carlbring, P., & Powers, M. B. (2019). Virtual reality exposure therapy for anxiety and related disorders: A meta-analysis of randomized controlled trials. Journal of Anxiety Disorders, 61, 27–36. https://doi.org/10.1016/j.janxdis.2018.08.003

8. Meyerbröker, K., & Emmelkamp, P. M. G. (2010). Virtual reality exposure therapy in anxiety disorders: A systematic review of process-and-outcome studies. Depression and Anxiety, 27(10), 933–944. https://doi.org/10.1002/da.20734

9. Maples-Keller, J. L., Bunnell, B. E., Kim, S. J., & Rothbaum, B. O. (2017). The use of virtual reality technology in the treatment of anxiety and other psychiatric disorders. Harvard Review of Psychiatry, 25(3), 103–113. https://doi.org/10.1097/HRP.0000000000000138

10. Botella, C., García-Palacios, A., Villa, H., Baños, R. M., Quero, S., Alcañiz, M., & Riva, G. (2007). Virtual reality exposure in the treatment of panic disorder and agoraphobia: A controlled study. Clinical Psychology & Psychotherapy, 14(3), 164–175. https://doi.org/10.1002/cpp.524

Багдасарова Диана Левоновна,
ведущий научный сотрудник Учебно-научного центра психологии
Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами

ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СРАВНЕНИЯ ВНЕШНОСТИ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ И ЕГО СВЯЗЬ С САМООЦЕНКОЙ И ТЕЛЕСНЫМ ОБРАЗОМ У СТУДЕНТОК

Аннотация. *В статье представлены результаты эмпирического исследования взаимосвязи склонности к сравнению внешности с самооценкой и показателями телесного образа у студенток узбекских вузов (n = 110). Применялись шкала сравнения физической внешности PACS-R, опросник образа тела BIS (7 субшкал) и методика самооценки Дембо–Рубинштейн в модификации Прихожан. Статистический анализ включал проверку нормальности (критерий Шапиро–Уилка) и корреляционный анализ (коэффициент ранговой корреляции Спирмена). Выявлена умеренная отрицательная корреляция сравнения внешности с самооценкой (ρ = −0,409, p < 0,001), а также система связей с субшкалами BIS: снижение принятия тела, тактильного комфорта и защиты тела, нарастание враждебности к телу. Результаты интерпретируются в рамках теории социального сравнения Фестингера и теории объективизации Фредриксон–Робертс. Обсуждаются импликации для психопрофилактической работы в образовательной среде.*

Ключевые слова: *социальные сети, сравнение внешности, самооценка, телесный образ, студентки, PACS-R, BIS, корреляционный анализ, Узбекистан, теория объективизации.*

AN EMPIRICAL STUDY OF APPEARANCE COMPARISON ON SOCIAL MEDIA AND ITS RELATIONSHIP WITH SELF-ESTEEM AND BODY IMAGE AMONG FEMALE STUDENTS

Abstract. *The article presents findings of an empirical study examining the relationship between appearance comparison tendency and self-esteem and body image in female university students in Uzbekistan (n = 110). The Physical Appearance Comparison Scale-Revised (PACS-R), Body Image Scale (BIS, 7 subscales), and Dembo–Rubinstein self-esteem procedure (Prikhozhan modification) were employed. Statistical analysis included normality testing (Shapiro–Wilk) and Spearman rank-order correlations. A moderate negative correlation between appearance comparison and self-esteem was found (ρ = −.409, p < .001), alongside a structured pattern of associations with BIS subscales: reduced body acceptance, tactile comfort and body protection, and increased body hostility. Findings are interpreted within Festinger's social comparison theory and Fredrickson–Roberts objectification theory, with implications for preventive psychological work in educational settings.*

Keywords: *social media, appearance comparison, self-esteem, body image, female students, PACS-R, BIS, correlation analysis, Uzbekistan, objectification theory.*

IJTIMOIY TARMOQLARDA TASHQI KO‘RINISHNI TAQQOSLASH VA UNING TALABA QIZLARDA O‘ZINI BAHOLASH HAMDA TANA OBRAZIGA BOG‘LIQLIGINI EMPIRIK TADQIQ ETISH

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari talaba qizlari (n = 110) misolida tashqi ko‘rinishni taqqoslashga moyillikning o‘z-o‘zini baholash va tana obrazi ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liqligiga doir empirik tadqiqot natijalari taqdim etilgan. Tadqiqotda Jismoniy tashqi ko‘rinishni taqqoslash shkalasi (PACS-R), Tana obrazi so‘rovnomasi (BIS, 7 ta kichik shkala) hamda A.M. Prixojan tomonidan modifikatsiya qilingan Dembo–Rubinshteyn metodikasi qo‘llanilgan. Statistik tahlil me’yoriylikni tekshirish (Shapiro–Uilk mezoni) va korrelyatsion tahlilni (Spirmenning ranli korrelyatsiya koeffitsiyenti) o‘z ichiga olgan. Natijada tashqi ko‘rinishni taqqoslash va o‘z-o‘zini baholash o‘rtasida o‘rtacha darajadagi teskari korrelyatsiya (ρ = −0,409, p < 0,001) mavjudligi, shuningdek, uning BIS kichik shkalalari bilan aloqadorlik tizimi, xususan: tanani qabul qilish, taktil komfort va tanani himoya qilishning pasayishi hamda tanaga nisbatan adovatning kuchayishi aniqlandi. Olingan natijalar L. Festingerning ijtimoiy taqqoslash va B.L. Fredrikson hamda T.A. Robertsning obyektivatsiya nazariyalari doirasida tahlil qilingan. Shuningdek, ta’lim muhitidagi psixoprofilaktik ishlar uchun amaliy tavsiyalar muhokama etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy tarmoqlar, tashqi ko‘rinishni taqqoslash, o‘z-o‘zini baholash, tana obrazi, talaba qizlar, PACS-R, BIS, korrelyatsion tahlil, O‘zbekiston, obyektivatsiya nazariyasi.*

Введение. Стремительное распространение визуально ориентированных социальных сетей – Instagram, TikTok, Pinterest – породило качественно новую среду для формирования самовосприятия молодёжи. Пользователи ежедневно сталкиваются с потоком тщательно отфильтрованных

изображений, задающих эталоны внешности, которые в подавляющем большинстве случаев недостижимы в реальной жизни. Особую уязвимость в этом контексте демонстрируют молодые женщины: многочисленные исследования фиксируют устойчивую связь между интенсивностью просмотра идеализированных образов и снижением удовлетворённости собственной внешностью, самооценки и качества телесного образа[4].

Вместе с тем абсолютное большинство исследований в данной области опирается на западноевропейские и североамериканские выборки, тогда как специфика влияния социальных сетей на самовосприятие студенток в незападном культурном контексте остаётся малоизученной. Узбекистан представляет в этом отношении особый интерес: традиционная культура предъявляет к женской внешности высокие нормативные требования, а охват молодёжи платформами Instagram и TikTok за последние пять лет приобрёл массовый характер. Таким образом, исследование механизмов влияния сравнения внешности на психологическое благополучие узбекских студенток является актуальным как в научном, так и в прикладном отношении.

Цель настоящей статьи – установить характер и силу корреляционных связей между склонностью к сравнению физической внешности (по данным шкалы PACS-R) и показателями самооценки и телесного образа (методики Дембо-Рубинштейн в модификации Прихожан и BIS) в группе студенток узбекских вузов.

Теоретические основы. Концептуальным фундаментом настоящего исследования служат два теоретических направления. Первое – теория социального сравнения Л. Фестингера, согласно которой люди склонны оценивать свои способности и качества через сопоставление с другими. В контексте социальных сетей преобладающим является восходящее сравнение – сопоставление с объектами, воспринимаемыми как превосходящие по привлекательности, что систематически снижает субъективную оценку собственной внешности [9].

Второе направление – теория объективизации Б. Фредриксон и Т.-А. Робертс [5]. Согласно данной теории, женщины в значительно большей мере, чем мужчины, интернализируют внешний оценивающий взгляд, что порождает самообъективацию – склонность воспринимать собственное тело, прежде всего, как объект наблюдения и оценки. Самообъективация, в свою очередь, нарушает целостное телесное самовосприятие: снижает принятие тела, усиливает телесную враждебность и тревогу по поводу внешности, что, в конечном счёте, транслируется на общую самооценку личности.

Применительно к исследуемой теме обе теории предсказывают, что у девушек, склонных к интенсивному сравнению внешности с идеализированными образами в социальных сетях, будет наблюдаться снижение самооценки и нарушение показателей телесного образа – предположение, которое проверяется в эмпирической части данной работы.

Материалы и методы.

Выборка. В исследовании приняли участие 110 студенток 1–3 курсов высших учебных заведений г. Ташкента. Средний возраст составил 19,4 ± 1,7 года. Участие было добровольным и анонимным.

Методики. Применялись следующие психодиагностические инструменты.

1. Шкала сравнения физической внешности PACS-R [7] – измеряет склонность к сравнению собственной внешности с внешностью других людей. Более высокий балл соответствует более выраженной склонности к сравнению.

2. Опросник образа тела BIS (Body Image Scale) – многомерная методика, включающая семь субшкал: Забота о теле, Принятие себя, Защита тела, Враждебность к телу, Склонность к риску, Тактильный комфорт, Контроль дистанции. В настоящей статье анализируются субшкалы, значимо коррелирующие с PACS-R.

3. Методика исследования самооценки и уровня притязаний Дембо–Рубинштейн в модификации А.М. Прихожан – шкальный метод, позволяющий оценить уровень самооценки (от 0 до 100 единиц). Показатель 45–74 соответствует реалистичной самооценке, ≥75 – завышенной тенденции.

Статистический анализ. Нормальность распределения проверялась критерием Шапиро–Уилка. Поскольку большинство переменных не соответствовали условию нормальности ($p < 0,05$), для корреляционного анализа применялся коэффициент ранговой корреляции Спирмена (ρ). Уровень значимости $\alpha = 0,05$. Сила связи оценивалась по шкале Коэна (1988): слабая — $|\rho| = 0,10–0,29$; умеренная — 0,30–0,49; сильная — ≥ 0,50. Расчёты выполнялись в IBM SPSS Statistics 26.

Результаты. Среднее значение по шкале PACS-R в группе девушек составило M = 8,80 (SD = 3,21), что соответствует умеренному уровню склонности к сравнению внешности. Средний балл самооценки по методике Дембо-Рубинштейн – M = 76,34 (SD = 12,8), что формально попадает в

диапазон завышенной тенденции, однако типично для студенческой выборки и согласуется с нормативными данными методики для данного возраста.

Корреляционный анализ выявил богатую и структурированную систему взаимосвязей между показателями сравнения внешности, самооценки и телесного образа. Все значимые коэффициенты ранговой корреляции Спирмена представлены в таблице 1.

Таблица 1.

Значимые коэффициенты ранговой корреляции Спирмена в группе студенток (n = 110)

Пара переменных	ρ	p	Характер связи
PACS-R × Самооценка (Дембо–Рубинштейн)	−0,409	< 0,001	Обратная, умеренная
PACS-R × Принятие себя (BIS)	−0,312	< 0,001	Обратная, умеренная
PACS-R × Враждебность к телу (BIS)	+0,361	< 0,001	Прямая, умеренная
PACS-R × Тактильный комфорт (BIS)	−0,306	0,001	Обратная, умеренная
PACS-R × Защита тела (BIS)	−0,268	0,005	Обратная, слабая
PACS-R × Контроль дистанции (BIS)	+0,296	0,002	Прямая, слабая
Самооценка × Принятие себя (BIS)	+0,452	< 0,001	Прямая, умеренная
Самооценка × Забота о теле (BIS)	+0,411	< 0,001	Прямая, умеренная
Самооценка × Защита тела (BIS)	+0,409	< 0,001	Прямая, умеренная
Самооценка × Враждебность к телу (BIS)	−0,338	< 0,001	Обратная, умеренная
Самооценка × Уровень притязаний	+0,462	< 0,001	Прямая, умеренная
Принятие себя × Враждебность к телу	−0,749	< 0,001	Обратная, сильная
Принятие себя × Забота о теле	+0,622	< 0,001	Прямая, сильная

Примечание. Сила связи по Коэну (1988): слабая — |ρ| = 0,10–0,29; умеренная — 0,30–0,49; сильная — ≥ 0,50.

Центральным результатом является умеренная отрицательная корреляция между склонностью к сравнению внешности (PACS-R) и самооценкой: ρ = −0,409, p < 0,001. Связь является статистически высоко значимой и воспроизводится при использовании коэффициента Пирсона (r = −0,514, p < 0,001), что свидетельствует о её устойчивости. Таким образом, чем активнее студентка сравнивает свою внешность с другими, тем ниже её общая самооценка.

Не менее значимой является система связей PACS-R с субшкалами BIS. Выявлены отрицательные умеренные корреляции с принятием себя (ρ = −0,312, p < 0,001), тактильным комфортом (ρ = −0,306, p = 0,001) и защитой тела (ρ = −0,268, p = 0,005). Положительные связи умеренной и слабой силы обнаружены с враждебностью к телу (ρ = +0,361, p < 0,001) и контролем дистанции (ρ = +0,296, p = 0,002). Совокупно эти результаты указывают на то, что склонность к сравнению внешности сопровождается не только снижением общей самооценки, но и нарушением целостного телесного самовосприятия.

Самооценка, в свою очередь, оказывается тесно интегрированной в широкую сеть телесных переменных. Значимые положительные корреляции зафиксированы с принятием себя (ρ = +0,452), заботой о теле (ρ = +0,411), защитой тела (ρ = +0,409) и уровнем притязаний (ρ = +0,462); отрицательная умеренная — с враждебностью к телу (ρ = −0,338). Принятие тела и враждебность к телу, в свою очередь, образуют наиболее сильную корреляционную связь во всей матрице (ρ = −0,749, p < 0,001), что отражает их статус биполярных полюсов одного конструкта.

Полученные данные в целом подтверждают теоретические предсказания обоих концептуальных направлений, положенных в основу исследования. Обнаруженная отрицательная корреляция PACS-R с самооценкой (ρ = −0,409) согласуется с центральным положением теории социального сравнения Фестингера: сопоставление с воспринимаемыми как превосходящими объектами – идеализированными образами в социальных сетях – снижает субъективную оценку собственных качеств. Механизм этого процесса предположительно состоит в следующем: регулярно наблюдая визуально отредактированные образы, студентки производят восходящее сравнение, результатом которого становится ощущение несоответствия нормативным стандартам красоты.

С позиций теории объективизации [5] особенно значима структура связей PACS-R с субшкалами BIS. Снижение принятия тела, тактильного комфорта и защиты тела при нарастании враждебности к телу – это именно тот комплекс нарушений, который предсказывается теорией как следствие интернализации объективирующего взгляда. Когда внешность становится предметом постоянного сравнения и оценки, тело перестаёт восприниматься как живая субъектная реальность и превращается в объект контроля, критики и неудовлетворённости.

Вместе с тем ряд результатов требует культурно-специфической интерпретации. Средний балл самооценки в выборке (M = 76,34) формально попадает в диапазон высоких значений, что типично для студенческих выборок Центральной Азии и может отражать культурно-обусловленную тенденцию к социально одобряемым ответам в отношении самооценки. Тем не менее, обнаруженные корреляции свидетельствуют о том, что даже внутри этого диапазона индивидуальные различия в склонности к сравнению внешности оказывают значимое влияние на уровень самооценки.

Примечательно, что связь PACS-R с самооценкой у студенток узбекской выборки по силе сопоставима с результатами западных исследований: в метаанализе Фейнголд и более поздних работах по социальным сетям [3] типичные коэффициенты корреляции сравнения внешности с самооценкой у женщин составляют от −0,30 до −0,50. Это означает, что, несмотря на культурную специфику, базовый психологический механизм – снижение самооценки через восходящее сравнение – функционирует в узбекской студенческой среде с той же силой, что и в западных выборках.

Заключение. Проведённое исследование позволяет сформулировать следующие основные выводы. Во-первых, в группе студенток узбекских вузов склонность к сравнению физической внешности с идеализированными образами в социальных сетях значимо и умеренно ($\rho = -0{,}409$) связана со снижением самооценки. Во-вторых, данная склонность сопровождается нарушением целостного телесного образа: снижением принятия тела, тактильного комфорта и защиты тела, нарастанием враждебности к телу. В-третьих, самооценка тесно интегрирована в сеть телесных переменных, занимая в ней центральное место.

Полученные данные имеют прикладное значение для психологической службы высших учебных заведений Узбекистана. Выявленные взаимосвязи указывают на целесообразность разработки профилактических программ, направленных на формирование у студенток навыков критического медиапотребления, снижение интенсивности восходящего сравнения в социальных сетях и укрепление позитивного телесного образа как основы психологического благополучия.

Ограничения исследования включают: поперечный дизайн (не позволяющий установить причинно-следственные отношения), выборочную доступность (студентки ташкентских вузов) и самоотчётный характер методик. Перспективным направлением является лонгитюдное изучение динамики изучаемых переменных, а также включение экспериментальных процедур, позволяющих верифицировать причинную роль сравнения внешности в снижении самооценки.

Литература:

1. Andreassen, C. S., Pallesen, S., & Griffiths, M. D.Addictive use of social media, narcissism, and self-esteem // Addictive Behaviors. — 2017. — Vol. 64. — P. 287–293.

2. Festinger L. A theory of social comparison processes // Human Relations. — 1954. — Vol. 7, № 2. — P. 117–140.

3. Fardouly J., Diedrichs P.C., Vartanian L.R., Halliwell E. Social comparisons on social media: The impact of Facebook on young women's body image concerns and mood // Body Image. — 2015. — Vol. 13. — P. 38–45.

4. Fardouly J., Vartanian L.R. Negative comparisons about one's appearance mediate the relationship between Facebook usage and body image concerns // Body Image. — 2015. — Vol. 12. — P. 82–88.

5. Fredrickson B.L., Roberts T.-A. Objectification theory: Toward understanding women's lived experiences and mental health risks // Psychology of Women Quarterly. — 1997. — Vol. 21, № 2. — P. 173–206.

6. Kuss D.J., Griffiths M.D. Social networking sites and addiction: Ten lessons learned // International Journal of Environmental Research and Public Health. — 2017. — Vol. 14, № 3. — P. 311.

7. Thompson J.K., Heinberg L.J., Tantleff S. The Physical Appearance Comparison Scale (PACS) // The Behavior Therapist. — 1991. — Vol. 14. — P. 174.

8. Tiggemann M., Slater A. NetGirls: The Internet, Facebook, and body image concern in adolescent girls // International Journal of Eating Disorders. — 2013. — Vol. 46, № 6. — P. 630–633.

9. Vogel E.A., Rose J.P., Roberts L.R., Eckles K. Social comparison, social media, and self-evaluation // Psychology of Popular Media Culture. — 2014. — Vol. 3, № 4. — P. 206–222.

10. Young K.S. Internet addiction: The emergence of a new clinical disorder // CyberPsychology & Behavior. — 1998. — Vol. 1, № 3. — P. 237–244

Ishtayev Javlon Mavlonboyevich,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc)
ishtayevjavlon@gmail.com

SPORTCHILARNING MUSOBAQA SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOFIZIOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sportchilarning musobaqa samaradorligiga ta’sir etuvchi psixofiziologik mexanizmlar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Sport faoliyatida yuqori natijaga erishish nafaqat jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlik, balki sportchining markaziy nerv tizimi funksional holati, sensor-motor reaksiya tezligi, diqqat barqarorligi, emotsional o‘zini-o‘zi boshqarish, stressga bardoshlilik, funksional zo‘riqish va portlash qobiliyati bilan ham belgilanadi. Maqolada sportchilarning psixofiziologik holatini baholashda “Psixotest”, “Multipsixometr” va “SPORK” moslamalaridan foydalanishning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, sportchilarning individual psixofiziologik pasportini shakllantirish, musobaqaoldi holatini monitoring qilish va sport natijadorligini prognozlash bo‘yicha tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *sportchi, psixofiziologik mexanizm, sensor-motor reaksiya, diqqat barqarorligi, emotsional barqarorlik, stressga bardoshlilik, funksional holat.*

ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СОРЕВНОВАТЕЛЬНУЮ ЭФФЕКТИВНОСТЬ СПОРТСМЕНОВ

Аннотация. *В данной статье психофизиологические механизмы, влияющие на соревновательную эффективность спортсменов, анализируются с научно-теоретической и практической точек зрения. Достижение высоких результатов в спортивной деятельности определяется не только физической, технической и тактической подготовленностью, но и функциональным состоянием центральной нервной системы спортсмена, скоростью сенсомоторной реакции, устойчивостью внимания, эмоциональной саморегуляцией, стрессоустойчивостью, функциональным напряжением и взрывной способностью. В статье раскрывается научно-практическое значение использования «Психотеста», «Мультипсихометра» и устройства «SPORK» при оценке психофизиологического состояния спортсменов. Также представлены рекомендации по формированию индивидуального психофизиологического паспорта спортсменов, мониторингу предстартового состояния и прогнозированию спортивной результативности.*

Ключевые слова: *спортсмен, психофизиологический механизм, сенсомоторная реакция, устойчивость внимания, эмоциональная устойчивость, стрессоустойчивость, функциональное состояние.*

PSYCHOPHYSIOLOGICAL MECHANISMS AFFECTING ATHLETES’ COMPETITIVE PERFORMANCE

Abstract. *This article analyzes the psychophysiological mechanisms influencing athletes’ competitive performance from scientific-theoretical and practical perspectives. Achieving high results in sport is determined not only by physical, technical and tactical preparedness, but also by the functional state of the athlete’s central nervous system, sensorimotor reaction speed, attention stability, emotional self-regulation, stress resistance, functional tension and explosive ability. The article highlights the scientific and practical significance of using “Psychotest”, “Multipsychometer” and the “SPORK” device in assessing athletes’ psychophysiological state. Recommendations are also provided for developing an individual psychophysiological passport for athletes, monitoring pre-competitive state and predicting sport performance.*

Keywords: *athlete, psychophysiological mechanism, sensorimotor reaction, attention stability, emotional stability, stress resistance, functional state.*

Kirish. Zamonaviy sportda yuqori natijaga erishish murakkab va ko‘p omilli jarayon hisoblanadi. Sportchining musobaqadagi muvaffaqiyati faqat jismoniy kuch, texnik-taktik mahorat yoki sport tajribasi bilan cheklanmaydi. Musobaqa jarayonida sportchi kuchli emotsional bosim, vaqt tanqisligi, raqib qarshiligi, hakam qarorlari, murabbiy kutishi, muxlislar ta’siri hamda natija uchun yuqori mas’uliyat sharoitida harakat

qiladi. Bunday vaziyatlarda sportchining psixik va fiziologik jarayonlari o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Sport faoliyatida psixofiziologik mexanizmlar sportchining tashqi signallarni qabul qilishi, vaziyatni baholashi, diqqatni jamlashi, emotsional holatini boshqarishi, tezkor qaror qabul qilishi va harakatni aniq bajarishini ta’minlovchi ichki boshqaruv tizimi sifatida qaraladi. Ayniqsa, musobaqa sharoitida sportchining sensor-motor reaksiyasi, diqqat barqarorligi, stressga bardoshliligi, emotsional nazorati va funksional tayyorgarligi sport natijadorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli sportchilarda musobaqa samaradorligiga ta’sir etuvchi psixofiziologik mexanizmlarni o‘rganish sport psixologiyasi, psixofiziologiya, sport pedagogikasi hamda sport amaliyoti uchun dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.. [3,4,5,10]

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Sport psixologiyasi va psixofiziologiya sohasidagi tadqiqotlarda sportchining natijadorligi jismoniy, psixologik va fiziologik omillarning integratsiyalashgan natijasi sifatida talqin etiladi. E.P. Ilyin sport faoliyatida markaziy nerv tizimi, emotsional holat, reaksiya tezligi va harakat boshqaruvi sport natijasining muhim psixofiziologik shartlari ekanligini ta’kidlaydi. A.V. Rodionov esa sportchilarda musobaqaoldi holati, stressga bardoshlilik, motivatsiya va psixik tayyorgarlik sport samaradorligini belgilovchi omillar sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. [7,8,9].

R.S. Weinberg va D. Gould sport psixologiyasida motivatsiya, stress, xavotir, diqqat, emotsional nazorat va psixologik tayyorgarlik texnikalarini sport natijadorligini oshirishning muhim mexanizmlari sifatida izohlaydi. V.N. Platonov sport tayyorgarligi tizimida jismoniy, texnik, taktik, psixologik va funksional tayyorgarlikning birgalikda rivojlantirilishi zarurligini asoslaydi. [4,5,6].

So‘nggi yillarda sportchilarning psixofiziologik holatini baholashda kompyuterlashtirilgan test tizimlari, apparat-dasturiy komplekslar va instrumental baholash vositalaridan foydalanish kengayib bormoqda. Jumladan, “Psixotest” sportchilarning psixologik holatini, “Multipsixometr” sensor-motor va kognitiv ko‘rsatkichlarini, “SPORK” esa portlash qobiliyati va tezkor-kuch imkoniyatlarini baholashda amaliy ahamiyat kasb etadi. [1,2,3].

Maqolaning maqsadi — sportchilarning musobaqa samaradorligiga ta’sir etuvchi psixofiziologik mexanizmlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, ularning sport natijadorligidagi o‘rnini asoslash hamda “Psixotest”, “Multipsixometr” va “SPORK” moslamalari asosida sportchilarning musobaqaga tayyorlik holatini baholash imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi: Nazariy tahlil metodi — sport psixologiyasi, psixofiziologiya, sport pedagogikasi va sport tayyorgarligi nazariyasiga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Taqqoslash metodi — psixologik, fiziologik va psixofiziologik omillarning musobaqa samaradorligiga ta’siri qiyosiy o‘rganildi. Tizimlashtirish metodi — sportchilarning musobaqa faoliyatida namoyon bo‘ladigan asosiy psixofiziologik ko‘rsatkichlar guruhlarga ajratildi. Diagnostik yondashuv — sportchilarning psixologik va psixofiziologik holatini baholashda “Psixotest”, “Multipsixometr” va “SPORK” moslamalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Matematik-statistik yondashuv — empirik natijalarni tahlil qilishda o‘rtacha qiymat, foizli tahlil, qiyosiy tahlil, korrelyatsion bog‘liqlik va grafik tasvirlash usullari qo‘llanishi mumkinligi asoslandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Sportchilarning musobaqa samaradorligiga ta’sir etuvchi psixofiziologik mexanizmlar bir nechta asosiy guruhlarga ajratiladi. Ular sensor-motor, kognitiv, emotsional, funksional va tezkor-kuch komponentlarini o‘z ichiga oladi.

1-jadval.

Sportchilarning musobaqa samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy psixofiziologik mexanizmlar

№	Psixofiziologik mexanizm	Mazmuni	Musobaqa samaradorligiga ta’siri
1	Sensor-motor reaksiya	Tashqi signalga tez va aniq javob qaytarish	Tez qaror qabul qilish, vaziyatga mos harakat qilishni ta’minlaydi
2	Diqqat barqarorligi	E’tiborni muhim obyekt va vazifada ushlab turish	Xatolarni kamaytiradi, vaziyatni nazorat qilishni kuchaytiradi
3	Emotsional barqarorlik	Xavotir, hayajon va zo‘riqishni boshqarish	Musobaqa bosimida o‘zini nazorat qilishga yordam beradi
4	Stressga bardoshlilik	Qiyin vaziyatlarda psixik barqarorlikni saqlash	Raqobat, bosim va noaniqlik sharoitida samarali harakatni ta’minlaydi
5	Funksional holat	Charchoq, tiklanish va nerv tizimi faolligi	Ish qobiliyati, koordinatsiya va chidamlilikka ta’sir qiladi
6	Portlash qobiliyati	Qisqa vaqt ichida maksimal kuch namoyon qilish	Start, sakrash, zarba, tez yo‘nalish o‘zgartirishda muhim

Jadvaldan ko‘rinadiki, musobaqa samaradorligi faqat bitta omil bilan emas, balki o‘zaro bog‘liq bo‘lgan psixofiziologik ko‘rsatkichlar tizimi orqali shakllanadi. Masalan, sportchining portlash qobiliyati yuqori bo‘lsa-yu, diqqat barqarorligi past yoki xavotir darajasi yuqori bo‘lsa, u musobaqada o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon qila olmaydi. Shuning uchun sportchilarning holatini kompleks baholash zarur.



1-rasm. Musobaqa samaradorligini belgilovchi psixofiziologik mexanizmlar modeli

Ushbu model sportchining musobaqa samaradorligi bir nechta psixofiziologik tizimlarning uyg‘un ishlashi natijasida yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Bunda sensor-motor reaksiya sportchining tezkor javob harakatini, kognitiv jarayonlar vaziyatni anglash va qaror qabul qilishni, emotsional boshqaruv esa musobaqa bosimida barqarorlikni ta’minlaydi.

Diagnostik vositalarning amaliy ahamiyati

Sportchilarning musobaqa samaradorligini baholashda “Psixotest”, “Multipsixometr” va “SPORK” moslamalaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq.

2-jadval.

Psixotest, Multipsixometr va SPORK moslamalarining diagnostik imkoniyatlari

Diagnostik vosita	Baholanadigan ko‘rsatkichlar	Amaliy ahamiyati
Psixotest	Emotsional holat, xavotir, motivatsiya, diqqat, o‘ziga ishonch	Musobaqaoldi psixologik holatni aniqlaydi
Multipsixometr	Sensor-motor reaksiya, diqqat barqarorligi, funksional holat, charchoq	Psixofiziologik tayyorgarlik darajasini baholaydi
SPORK	Portlash qobiliyati, tezkor-kuch imkoniyati, harakatga tayyorgarlik	Musobaqadagi tezkor harakatlar samaradorligini prognozlaydi

Mazkur vositalar orqali sportchining individual imkoniyatlarini aniqlash, kuchli va zaif tomonlarini belgilash, mashg‘ulot yuklamalarini individuallashtirish hamda musobaqaoldi tayyorgarlikni optimallashtirish mumkin.

3-jadval.

Sportchilarda psixofiziologik ko‘rsatkichlarning musobaqa samaradorligi bilan bog‘liqligi bo‘yicha namunaviy tahlil

Ko‘rsatkichlar	Yuqori natijador sportchilar	O‘rtacha natijador sportchilar	Past natijador sportchilar
Sensor-motor reaksiya tezligi	87%	72%	58%
Diqqat barqarorligi	84%	70%	55%
Emotsional barqarorlik	82%	68%	52%
Stressga bardoshlilik	80%	66%	49%
Portlash qobiliyati	88%	74%	60%
Funksional tayyorgarlik	85%	71%	57%

3-jadvalda sportchilarning psixofiziologik ko‘rsatkichlari musobaqa natijadorligi darajalariga ko‘ra qiyosiy tahlil qilingan. Jadvaldan ko‘rinadiki, yuqori natijador sportchilarda sensor-motor reaksiya tezligi, diqqat barqarorligi, emotsional barqarorlik, stressga bardoshlilik, portlash qobiliyati va funksional tayyorgarlik ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori darajada namoyon bo‘lgan. Bu holat sportchining musobaqa jarayonida tez qaror qabul qilishi, vaziyatga moslashishi va harakatlarni aniq bajarishida psixofiziologik tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. O‘rtacha va past natijador sportchilarda mazkur ko‘rsatkichlarning pasayishi musobaqa samaradorligiga salbiy ta’sir etuvchi omillar mavjudligini anglatadi. Ayniqsa, diqqat beqarorligi, stressga chidamlilikning pastligi va funksional charchoq sport natijalarining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois ushbu jadval sportchilarning musobaqaoldi holatini baholash, individual tayyorgarlik dasturini ishlab chiqish va sport natijadorligini prognozlashda muhim diagnostik asos bo‘lib xizmat qiladi.



2-rasm. Sportchilarning psixofiziologik ko‘rsatkichlari bo‘yicha namunaviy grafik

Grafikdan ko‘rinadiki, yuqori natijador sportchilarda sensor-motor reaksiya, diqqat barqarorligi, stressga bardoshlilik, portlash qobiliyati va funksional tayyorgarlik ko‘rsatkichlari yuqoriroq namoyon bo‘ladi. Bu holat musobaqa samaradorligida psixofiziologik tayyorgarlikning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.



3-rasm. Musobaqa samaradorligiga ta’sir etuvchi psixofiziologik omillarning shartli ulushi

Ushbu diagramma sportchilarning musobaqa samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni shartli nisbatlarda ifodalaydi. Unda sensor-motor reaksiya, portlash qobiliyati va diqqat barqarorligi eng muhim omillar qatorida ko‘rsatilgan. Biroq real tadqiqotda ushbu ulushlar sport turi, yosh, malaka darajasi va musobaqa sharoitiga qarab farqlanishi mumkin.

Natijalar muhokamasi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sportchilarning musobaqa samaradorligi murakkab psixofiziologik tizim asosida shakllanadi. Sensor-motor reaksiya sportchining tashqi signallarga tez javob qaytarishini ta’minlasa, diqqat barqarorligi vaziyatni to‘g‘ri baholash va texnik harakatlarni aniq bajarishga xizmat qiladi. Emotsional barqarorlik va stressga bardoshlilik esa sportchining musobaqa bosimi sharoitida o‘zini nazorat qilishiga imkon beradi.

Portlash qobiliyati va tezkor-kuch imkoniyatlari ham musobaqa samaradorligining muhim omillaridan hisoblanadi. Ayniqsa, futbol, boks, kurash, tennis, voleybol, basketbol va yengil atletika kabi sport turlarida qisqa vaqt ichida maksimal kuch namoyon qilish sportchining ustunligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, portlash qobiliyati faqat mushak kuchi bilan emas, balki nerv-mushak koordinatsiyasi, reaksiya tezligi, motivatsiya va psixik safarbarlik bilan ham bog‘liq.

“Psixotest”, “Multipsixometr” va “SPORK” moslamalaridan kompleks foydalanish sportchilarning musobaqaga tayyorlik holatini chuqurroq baholash imkonini beradi. Bunday yondashuv asosida sportchining individual psixofiziologik pasportini shakllantirish mumkin. Ushbu pasport sportchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, mashg‘ulot yuklamalarini moslashtirish, psixologik tayyorgarlik dasturini tuzish va sport natijadorligini prognozlashga xizmat qiladi.

4-jadval.

Sportchilarning individual psixofiziologik pasporti uchun namunaviy ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkichlar guruhi	Baholanadigan jihatlar	Diagnostik vosita	Amaliy qo‘llanishi
Psixologik holat	Xavotir, motivatsiya, o‘ziga ishonch	Psixotest	Musobaqaoldi ruhiy tayyorgarlikni belgilash
Kognitiv jarayonlar	Diqqat, qaror qabul qilish, xotira	Psixotest, Multipsixometr	Texnik-taktik xatolarni kamaytirish
Sensor-motor jarayonlar	Reaksiya tezligi, signalga javob	Multipsixometr	Tezkor harakatlarni rivojlantirish
Funksional holat	Charchoq, tiklanish, zo‘riqish	Multipsixometr	Yuklamani individuallashtirish
Tezkor-kuch holati	Portlash qobiliyati, harakatga tayyorgarlik	SPORK	Musobaqa natijasini prognozlash
Korreksion yo‘nalish	Stressni boshqarish, relaksatsiya, diqqat mashqlari	Psixologik trening	Musobaqa samaradorligini oshirish

4-jadvalda sportchilarning individual psixofiziologik pasportini shakllantirishda baholanishi lozim bo‘lgan asosiy ko‘rsatkichlar tizimlashtirilgan. Jadvaldan ko‘rinadiki, sportchining musobaqa samaradorligi psixologik holat, kognitiv jarayonlar, sensor-motor reaksiya, funksional tayyorgarlik va tezkor-kuch imkoniyatlarining o‘zaro uyg‘unligi bilan belgilanadi. “Psixotest”, “Multipsixometr” va “SPORK” moslamalaridan kompleks foydalanish sportchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, diqqat barqarorligi, reaksiya tezligi, charchoq darajasi va portlash qobiliyati musobaqaoldi tayyorgarlikni individuallashtirishda muhim diagnostik mezon hisoblanadi. Ushbu jadval sport psixologi va murabbiy uchun sportchining joriy holatini baholash, mashg‘ulot yuklamalarini moslashtirish hamda musobaqa natijadorligini prognozlashda amaliy ahamiyatga ega. Shu bois individual psixofiziologik pasport sportchilar bilan olib boriladigan psixologik va psixofiziologik monitoringning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Xulosalar. Sportchilarning musobaqa samaradorligi markaziy nerv tizimi funksional holati, sensor-motor reaksiya tezligi, diqqat barqarorligi, emotsional boshqaruv, stressga bardoshlilik, funksional tayyorgarlik va portlash qobiliyatining o‘zaro uyg‘unlashgan ta’siri orqali shakllanadi.

Musobaqa sharoitida yuqori natijaga erishish uchun sportchi nafaqat jismoniy va texnik jihatdan, balki psixofiziologik jihatdan ham optimal holatda bo‘lishi zarur. Shu bois sportchilarning musobaqaoldi holatini muntazam baholash, psixofiziologik monitoring olib borish va individual psixofiziologik pasport shakllantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

“Psixotest”, “Multipsixometr” va “SPORK” moslamalari sportchilarning psixologik, psixofiziologik va tezkor-kuch ko‘rsatkichlarini kompleks baholashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu vositalar asosida olingan natijalar murabbiy, sport psixologi va sportchi uchun musobaqaga tayyorgarlik jarayonini

individuallashtirish, charchoqni nazorat qilish, stressni kamaytirish, diqqatni rivojlantirish va natijadorlikni oshirish imkonini beradi.

Amaliy tavsiyalar. Sportchilarning musobaqaoldi psixofiziologik holatini muntazam ravishda “Psixotest”, “Multipsixometr” va “SPORK” moslamalari asosida baholab borish tavsiya etiladi.

Har bir sportchi uchun individual psixofiziologik pasport shakllantirish maqsadga muvofiq.

Murabbiylar mashg‘ulot yuklamalarini sportchilarning charchoq darajasi, diqqat barqarorligi va funksional holatidan kelib chiqib rejalashtirishi lozim.

Sportchilarda musobaqaoldi xavotirini kamaytirish uchun nafas mashqlari, relaksatsiya, vizualizatsiya va ijobiy ichki nutq texnikalaridan foydalanish zarur.

Portlash qobiliyati va tezkor-kuch imkoniyatlarini rivojlantirishda SPORK natijalarini psixologik ko‘rsatkichlar bilan uyg‘un tahlil qilish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Egamberdiyeva B., Ishtayev J., Korobeynikov G., Khasanov O., Gapparov Z., Xursanova R., & Juraev I. (2025). Brilliant moves in chess and early grandmaster success: a study of the world's youngest grandmasters.

2. Ishtayev, J. (2025). Psychological features of specialized perceptions in boxers. // International Journal of Political Sciences and Economics, 1(1), 50-54.

3. Ishtayev J., Gapparov Z., Ishtayeva R. Issues of forming the psychological passport of athletes. International journal of artificial intelligence. ISSN: 2692-5206, Impact Factor: 12, 23. // American Academic publishers, volume 05, issue 09,2025. P-1305-1308.

4. Ильин Е.П. Психофизиология физического воспитания и спорта. — Санкт-Петербург: Питер, 2008.

5. Родионов А.В. Психология физического воспитания и спорта. — Москва: Академия, 2010.

6. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. — Киев: Олимпийская литература, 2015.

7. Weinberg R.S., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. — Champaign: Human Kinetics, 2019.

8. Cox R.H. Sport Psychology: Concepts and Applications. — New York: McGraw-Hill, 2012.

9. Бабушкин Г.Д. Психологическое обеспечение подготовки спортсменов. — Омск: СибГУФК, 2014.

10. Коробейников Г.В. Психофизиологические особенности спортсменов высокой квалификации. — Киев, 2016.

11. Gould D., Dieffenbach K., Moffett A. Psychological characteristics and their development in Olympic champions. Journal of Applied Sport Psychology, 2002.

Latipova Chinnigul Nasriddinovna,
Buxoro davlat universiteti doktoranti
https://orcid.org/0009-0007-3851-7581

VIRTUAL MUHIT VA O‘SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada virtual muhitning o‘smirlik davridagi shaxs psixologik rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilingan. Virtual makonning ijtimoiylashuv, axborot almashish va shaxsiy identifikatsiya jarayonlaridagi roli yoritilgan. O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari — mustaqillikka intilish, ijtimoiy munosabatlarga ehtiyoj, hissiy beqarorlik — virtual muhit sharoitida yangi shakllarga ega bo‘layotgani ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada statistik ma’lumotlar asosida ijobiy va salbiy ta’sirlar ajratilgan: ijodiylik va texnologik savodxonlikning oshishi ijobiy omillar sifatida, diqqatning tarqoqligi, stress va real muloqot ko‘nikmalarining susayishi esa salbiy omillar sifatida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari virtual muhitdan oqilona foydalanish va raqamli gigiyena ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *virtual muhit, o‘smirlik davri, psixologik xususiyatlar, ijtimoiylashuv, diqqat, kreativlik, raqamli gigiyena.*

ВИРТУАЛЬНАЯ СРЕДА И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В статье анализируется влияние виртуальной среды на личностный опыт в подростковом возрасте. Подчёркивается роль виртуального пространства в процессах социализации, обмена информацией и личностной идентификации. Показано, что типичные для подросткового возраста тенденции – стремление к независимости, неуверенность в социальных связях, эмоциональная нестабильность – приобретают новые формы в виртуальной среде. В статье на основе статистических данных анализируются эффекты производства и восстановления: творческая и технологическая грамотность выделяются как усвоение творчества, в то время как отвлечение, стресс и ослабление видимости реального общения анализируются в оздоровительном ключе. Облегчается использование Интернета и ресурсов виртуальной поддержки.*

Ключевые слова*: виртуальная среда, подростковый возраст, психологические особенности, социализация, внимание, креативность, цифровая гигиена.*

VIRTUAL ENVIRONMENT AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF ADOLESCENCE

Abstract. *This article analyzes the impact of the virtual environment on personal experience in adolescence. The role of virtual creation in the processes of adaptation, information exchange and personal identification is highlighted. The typical ways of adolescence - the desire for independence, attitude to social relationships, emotional instability - are shown to have taken on new forms in the virtual environment. Based on additional statistical data, the following developmental and regenerative effects were identified: the adoption of creative and technological literacy, and the dispersion of attention, stress and weakening of the ability to communicate in real life are analyzed in a healthy way. The Internet provides access to virtual and network resources.*

Keywords: *virtual environment, adolescence, psychological characteristics, socialization, attention, creativity, digital hygiene.*

Kirish. Hozirgi globallashuv davrda, zamonaviy raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib borgan. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o‘yinlar va mobil ilovalar o‘smirlarning kundalik faoliyatida markaziy o‘rin egallaydi. Bugungi kunda virtual muhit nafaqat axborot almashish vositasi, balki ijtimoiylashuv, o‘zini anglash va shaxsiy rivojlanish jarayonlarining ham muhim maydoniga aylangan.

Virtual muhit deganda axborot texnologiyalari orqali shakllantirilgan, real dunyodan mustaqil ravishda faoliyat yuritadigan sun’iy aloqa va muloqot muhiti tushuniladi.Virtual muhit — bu insonning real makondan tashqarida, raqamli texnologiyalar vositasida muloqot qilish, axborot olish va shaxsiy faoliyatini amalga oshirish imkonini beruvchi interaktiv axborot fazosidir. Uning asosiy ko‘rinishlariga ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Telegram, TikTok, Facebook va boshqalar), onlayn o‘yinlar, forumlar, bloglar, veb-saytlar va metavers platformalar ekanligi hech birimizga sir emas. Virtual muhitning asosiy xususiyatlari — anonimlik, yuqori tezlikda axborot almashinuvi, doimiy kirish imkoniyati va shaxsiy “onlayn imij”ni yaratish imkoniyatidir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Hozirgi globallashuv zamon sharoitida, an'anaviy faoliyat shakllari texnologiya vositachiligida, o'smirlarning tajribaga bo'lgan ehtiyoji ko'pincha virtual muhitda paydo bo'ladi. Virtual maydon o'smirlarga "bir narsani sinab ko'rish" uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Xususan, u bir nechta raqamli tasvirlarni - kiber-identifikatsiyalarni yaratishga imkon beradi - ularga kerakli xususiyatlarni beradi va o'zaro ta'sir va aloqa maqsadlariga qarab ularni o'zgartiradi

Virtual muhit aynan shu psixologik jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlar o‘smirlarga o‘zlarini ifoda etish, shaxsiy qiziqishlarini namoyish qilish, yangicha ijtimoiy tajribalar o‘tkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu muhit emotsional beqarorlikni kuchaytiruvchi omillarni ham o‘z ichiga oladi: boshqalarning idealizatsiya qilingan hayot tarzini ko‘rish, “layklar” va izohlar orqali baholanishga bog‘lanib qolish, kiberbulling (onlayn tajovuz) holatlari, doimiy raqobat hissi va ijtimoiy solishtirish mexanizmlari shular jumlasidandir.

O‘smirlik davri odatda 11–18 yosh oralig‘ini qamrab oladi va bu bosqich shaxsning psixologik yetilishida murakkab, ko‘p qirrali hamda ziddiyatlarga boy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu davrda shaxsning “Men” konsepsiyasi faol shakllanadi, mustaqillikka bo‘lgan intilish kuchayadi, emotsional sezgirlik ortadi va turli ijtimoiy rollar sinovdan o‘tkaziladi. E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasida bu bosqich “identifikatsiya va rol chalkashuvi” inqirozi bilan tavsiflanadi. O‘smirlar jamiyatda o‘z o‘rinlarini topish, tengdoshlari tomonidan qabul qilinish va shaxsiy chegaralarini aniqlashga intiladilar.

O‘smirlik jarayonida bola bir vaqtning o‘zida ikki asosiy vazifani hal qiladi. Shaxsiy darajada — o‘zini o‘zi anglash, shaxsiy yaxlitlik va individuallikni shakllantirish muammosi; ijtimoiy darajada esa — ijtimoiy munosabatlar tizimiga faol kirish va yangi rollarni egallash jarayoni kechadi. G‘arb psixologiyasida bu jarayonlar shaxsni konstruksiya qilish (E. Erikson) va “o‘z-o‘zini tushunish” modelini shakllantirish (R. Berns, U. Jeyms, K. Rojers) nuqtayi nazaridan izohlanadi. Rus ilmiy an’analarida esa bu masala, asosan, o‘zini anglash (L.S. Vygotskiy, D.B. Elkonin, T.V. Dragunova) va subyektivlik (K.A. Abulxanova-Slavskaya) rivojlanish jarayoni sifatida talqin etiladi. Ijtimoiy muammolar esa sotsializatsiya jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, bu bosqichda o‘smir yangi ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi.

Bu ikki jarayon ko‘pincha alohida tahlil qilinsa-da, aslida ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq. K.N. Polivanova (2000) ta’kidlaganidek, o‘smirlikda bu ikki vazifa maxsus “sinov maydoni”ni talab qiladi, bu esa shaxsiylikni shakllantirish va ijtimoiy tizimda o‘z o‘rnini topish imkonini beradi. G.A. Tsukerman (1995)ning fikricha, o‘smirlarning o‘zini idrok etishdagi “noaniqlik zonalari” ularning ijtimoiy-psixologik tajriba o‘tkazish ehtiyojini kuchaytiradi — bu jarayonda ular bir vaqtning o‘zida ham psixologik, ham ijtimoiy tajribalar bilan shug‘ullanishadi.

Zamonaviy globallashuv sharoitida texnologiyalar vositachiligida an’anaviy faoliyat shakllari o‘zgarib bormoqda. O‘smirlarning tajriba o‘tkazish ehtiyoji tobora ko‘proq **virtual muhit** orqali ro‘yobga chiqmoqda. Virtual maydon o‘smirlarga yangi ijtimoiy rollarni sinab ko‘rish, bir nechta raqamli identifikatsiyalarni yaratish va ularni turli kommunikativ vaziyatlarga moslashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, virtual muhit psixologik rivojlanishga nafaqat imkoniyat, balki xavf omillarini ham olib kiradi: ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarning idealizatsiya qilingan hayot tarzini kuzatish, “layklar” va izohlarga haddan tashqari bog‘lanish, onlayn tajovuz (kiberbulling), doimiy raqobat muhiti va ijtimoiy solishtirish mexanizmlari emotsional beqarorlikni kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy maqolada men asosan so`rovnoma (anketa) - O‘quvchilarning internetdan foydalanish chastotasi, maqsadi, vaqti haqidagi yopiq va ochiq savollar, “Virtual muhitga bog‘liqlik”ni aniqlovchi Likert shkalasi (1–5 oralig‘ida baholash), **Misol savol:**

- “Siz kuniga necha soat ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazasiz?”
- “Internet sizning kayfiyatingizga qanday ta’sir qiladi?” (ijobiy / salbiy / befarq), kuzatuv, Suhbat (intervyu) metodi -O‘smirlar bilan individual yoki guruhli suhbatlar orqali ularning virtual muhitga bo‘lgan shaxsiy munosabatlarini chuqurroq o‘rganish metodikalaridan foydalandim.

So`rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, virtual muhitda ko‘p vaqt o‘tkazuvchi o‘smirlar o‘z-o‘zini baholashda keskin tebranishlar, emotsional charchoq, yolg‘izlik hissi va tashvish darajalarining ortishini ko‘proq boshdan kechiradilar. Shu bilan birga, maqsadli, konstruktiv va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi kontentdan foydalanayotgan o‘smirlar hissiy jihatdan barqarorroq bo‘lishadi.

Internet muhiti bilan o'zaro munosabat yosh avlodning o'z-o'zini anglashini shakllantiradi va ularga boshqalar va atrofdagi dunyo bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatadi.

O'smirlar yangi axborot texnologiyalari va qurilmalaridan foydalanishni oson o'rganadilar, mobil aloqa, internet va real dunyoni birlashtirgan "gibrid" bo'shliqlarni o'zlashtiradilar, ko'pincha ular bir vaqtning o'zida onlayn va ijtimoiy va ijtimoiy muhitda ekanligini anglamaydilar. Bolalar va o'smirlar axborot muhitini kattalarga qaraganda tezroq o'zlashtiradilar va unga osonroq moslashadilar. Biroq axborot muhitining o'smirlarning shaxsiy rivojlanishi va o'zini o'zi anglashiga ta'siri munozarali .

Virtual muhitdagi muloqot bugungi kunda psixologiya fanida hali to‘liq izoh topmagan, yangi turdagi psixologik hodisalar bilan birga kechmoqda. Bunday holat, ayniqsa, kompyuter vositasida olib boriladigan kommunikatsiyaning shaxsga ko‘rsatadigan ta’siri va uning chegaralarini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish zarurligini yuzaga chiqaradi. Shu nuqtayi nazardan, o‘smirlar o‘rtasida onlayn muloqotning ijobiy va salbiy jihatlarini ko‘rib chiqish muhimdir.

Onlayn muloqotning ijobiy tomonlari. Onlayn muloqot o‘smirlarga ko‘plab ijtimoiy-psixologik imkoniyatlarni taqdim etadi. Eng avvalo, bu — ularning muloqotga bo‘lgan tabiiy ehtiyojini qondiradi va ijtimoiy aloqalar doirasini kengaytiradi. Virtual platformalarda ular tengdoshlari bilan faol muloqot olib boradi, shu orqali ijtimoiylashuv jarayonlari rivojlanadi. Onlayn muhit ijtimoiy tajriba orttirish, virtual kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish va mustaqil axborot izlash hamda uni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, internet makoni o‘zini ifoda etish, qiziqishlarini namoyon qilish, shaxsiy manfaatlarni amalga oshirish, turli muloqot guruhlariga qo‘shilish va bahs-munozaralarda ishtirok etish orqali ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish imkonini beradi. O‘smirlar bu jarayonda o‘z shaxsiyligini sinab ko‘rish, yangi rollarni bajarish va avatar, emoji hamda boshqa raqamli ifoda vositalari orqali turli hissiy holatlarni namoyish qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Onlayn muloqotning salbiy tomonlari. Shu bilan birga, virtual muloqot ayrim xavf va cheklovlarni ham o‘z ichiga oladi. O‘smirlar internet orqali ommaviy axborot vositalari, o‘yinlar va turli virtual dunyolar bilan faol muloqotda bo‘ladilar. Bu jarayonda ular ko‘pincha o‘z yoshiga mos bo‘lmagan mazmun va belgilarni tanqidsiz qabul qilishlari mumkin. Eng ko‘p uchraydigan xavflardan biri — erotik va pornografik materiallarga, shuningdek, jinoyatchilik, o‘z joniga qasd qilish yoki boshqa og‘ishgan xatti-harakatlarni targ‘ib qiluvchi saytlar bilan to‘qnashishdir.

Bundan tashqari, o‘smirlar guruh qadriyatlariga so‘zsiz ergashish natijasida o‘z shaxsiyligini yo‘qotish xavfi ostida qolishlari mumkin. Virtual muloqot jarayonida noto‘g‘ri tushunish, salbiy hissiy tajriba orttirish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Ba’zan bu holatlar depersonalizatsiya, o‘zligini yashirish yoki o‘zgartirish orqali qo‘rquv va ishonchsizlikni saqlab qolishga olib keladi. Natijada, real hayotdagi muloqot ko‘nikmalari susayishi mumkin.

Virtual muloqotga haddan tashqari berilib ketish internetga qaramlikni shakllantiradi, shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiya jarayonida buzilishlarga olib keladi hamda “mifologik” tasavvurlar shakllanishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, uzoq vaqt onlayn bo‘lish ko‘rish qobiliyatining pasayishi, tayanch-harakat tizimi buzilishi, uyquning buzilishi, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari kabi jismoniy muammolarni keltirib chiqaradi.

Psixologik jihatdan esa vaqtni to‘g‘ri boshqarishda qiyinchilik, hissiy zo‘riqishning ortishi, ijtimoiy izolyatsiya, tajovuzkorlik, tashvish, tushkunlik, impulsivlik, o‘zini past baholash, umidsizlik, yolg‘izlik, negativlik va javobgarlikdan qochish kabi holatlar ko‘payadi. Ayrim hollarda bu holatlar o‘z joniga qasd qilish tendensiyalarini ham kuchaytirishi mumkin.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Bugungi kunda internetning ijobiy va salbiy jihatlari, shuningdek, uning jamiyat va alohida shaxslar hayotiga ko‘rsatadigan ta’siri haqida turli ilmiy qarashlar va bahslar mavjud. Internet va axborot texnologiyalarining inson hamda ijtimoiy tuzilmaga ko‘rsatadigan psixologik va ijtimoiy ta’siri hali ham ko‘plab savollarni ochiq qoldiradi va chuqurroq tadqiqotlarni talab qiladi.

O‘smirlik davrida keng ko‘lamli muloqotga bo‘lgan ehtiyoj ayniqsa ortib boradi. Bunga ko‘plab omillar sabab bo‘lmoqda — real hayot sharoitida bu ehtiyojni to‘liq qondirish imkoniyati har doim ham mavjud emas. Virtual makonda esa muloqot chegaralari amalda yo‘q, bu esa o‘smirlarning ijtimoiy aloqalar doirasini keskin kengaytiradi va ko‘pincha uni cheksiz ko‘rinishga olib keladi.

Zamonaviy yoshlar ijtimoiy tarmoqlarni faol qo‘llaydilar — ular bir necha soat davomida hamfikrlar, sinfdoshlar yoki qiziqarli shaxslarni izlashga bag‘ishlashadi. Ko‘pchilik o‘smirlar forumlar, messenjerlar (masalan, ICQ, Skype) yoki tanishuv platformalari orqali yangi aloqa o‘rnatadi. Internetning eng muhim afzalliklaridan biri — u geografik masofalardan qat’i nazar, butun dunyo bo‘ylab odamlar bilan erkin muloqot qilish imkonini beradi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi, avvalo, o‘smirlar o‘rtasida virtual muloqot shakllarining jadal ommalashuvida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Onlayn kommunikatsiya vositalari ijtimoiy aloqalarni kengaytirib, ayrim hollarda real, yuzma-yuz muloqotning o‘rnini egallay boshlagan. Bugungi kunda ko‘plab o‘smirlar chuqur, samimiy suhbatlarni ko‘proq onlayn makonda olib borishadi, yuzma-yuz muloqot esa tobora kamayib bormoqda.

Shu bilan birga, shuni unutmaslik kerakki, virtual muloqot hech qachon shaxslararo jonli, bevosita muloqotni to‘liq almashtira olmaydi. Chunki muloqot bu faqatgina gapirish va tinglash jarayoni emas — u

o‘zaro his qilish, emotsional bog‘lanish va sezish elementlarini ham o‘z ichiga oladi. Yuzma-yuz aloqa esa bu jihatdan doimo ustun bo‘lib qoladi

Onlayn aloqa (virtual aloqa) - bu aloqa usuli bo'lib, unda odamlar o'rtasidagi aloqa tarmoqqa ulangan kompyuter orqali amalga oshiriladi va barcha o'zaro ta'sirlar virtual haqiqat makonida amalga oshiriladi.

Onlayn muloqot og'zaki bo'lmagan muloqot nuqtayi nazaridan zaiflashdi. Shunga qaramay, odamlar ushbu komponentning yo'qolishini qoplashga intilishadi va matnning ma'nosini oshirish va his-tuyg'ularni etkazishning boshqa usullarini topishadi. Odatda, his-tuyg'ularni ifodalash uchun foydalanuvchilar ma'lum bir tartibda maxsus shrift, tagiga chizish va tinish belgilaridan foydalanishni afzal ko'radilar.

Jadvalda o‘smirlarning virtual muhitdan foydalanish odatlari va bu omillarning psixologik xususiyatlarga ta’siri statistik ko‘rsatkichlar shaklida ifodalangan (foizlarda).



Muhokama. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, qatnashchilarning deyarli uchdan ikki qismi har kuni internet tarmoqlarida uch soatdan ortiq vaqtini o‘tkazadi.. Bu ularning psixologik holati, xulqi va ijtimoiy faoliyatida sezilarli o‘zgarishlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi.Virtual muhit o‘smirlarning ijtimoiylashuvi, psixik rivojlanishi va hissiy holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijobiy jihatlar qatorida ijodkorlik, axborotga erkin kirish, texnologik savodxonlik bor. Salbiy jihatlar sifatida esa — real muloqot ko‘nikmalarining pasayishi, diqqatning tarqoqligi, ruhiy bosimning oshishi va uyqu buzilishi ko‘zga tashlanadi.

Xulosa va tavsiyalar. Shunday ekan, tan olish kerakki, o‘smirlar va yoshlarning virtual voqelikka bo‘lgan ishtiyoqini bir qolipga tushirib bo‘lmaydi. Texnologik rivojlanish tezligidan qat'i nazar, bizning tadqiqot rolimiz o'zgarishsiz qolmoqda. Ushbu holatlarga duch kelganimizda, biz kibermakonda mavzuga nima bo'layotganiga ayniqsa sezgir bo'lishimiz kerak. Virtual hayot bizga ichki nizolarni hal qilishga yordam beradimi yoki aksincha, bu yechimlarni izlashdan voz kechishni qulayroq qiladimi? Virtual makon ichki va tashqi haqiqat o'rtasida xavfsiz ko'prik bo'ladimi? Yoki bu to'qnashuvdan ishonchli boshpana bo'lib qoladimi? O'smir bilan ushbu savollarni o'rganib chiqsak, biz ularga va ularning ota-onalariga nafaqat bu qiziqishning mohiyatini tushunishga, balki uning psixikaning rivojlanishiga va yosh shaxsning ehtiyojlariga qanday integratsiyalashganligini tushunishimiz mumkin.

Virtual muhit o‘smirlar uchun nafaqat axborot olish, balki o‘zini namoyon qilish, tengdoshlari bilan muloqot qilishning muhim vositasiga aylangan. Shu bilan birga, nazoratsiz va me’yordan ortiq foydalanish salbiy psixologik oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ota-onalar, o‘qituvchilar va psixologlar tomonidan media savodxonlikni oshirish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va emotsional barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar zarur.

Adabiyotlar:

1. Андреева Г. М. Социальная психология: учебник. – 5-е изд., испр. и доп. – Москва: Аспект Пресс, 2018. – 363 с.
2. Божович Л. И. Личность и её формирование в детском возрасте. – Санкт-Петербург: Питер, 2008. – 398 с.
3. Выготский Л. С. Психология развития человека. – Москва: Смысл; Эксмо, 2005. – 1136 с.
4. Эльконин Д. Б. Психология развития: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – Москва: Академия, 2007. – 144 с.
5. Солдатова Г. У., Рассказова Е. И. Цифровая социализация российских подростков. – Москва: Фонд Развития Интернет, 2020. – 304 с.
6. Livingstone S. Children and the Internet: Great Expectations, Challenging Realities. – Cambridge: Polity Press, 2009. – 256 p.
7. Valkenburg P. M., Piotrowski J. T. Plugged In: How Media Attract and Affect Youth. – New Haven; London: Yale University Press, 2017. – 344 p.
8. Twenge J. M. iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy—and Completely Unprepared for Adulthood. – New York: Atria Books, 2017. – 352 p.
9. American Psychological Association. Health Advisory on Social Media Use in Adolescence. – Washington, DC: American Psychological Association, 2023.
10. World Health Organization. Guidelines on Physical Activity, Sedentary Behaviour and Sleep for Children under 5 Years of Age. – Geneva: World Health Organization, 2019. – 33 p.

Amirova Go‘zal Baxodirovna,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

STRESS HOLATIDAGI XOTIN-QIZLARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO‘RSATISHNING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada stress holatidagi xotin-qizlarga psixologik yordam ko‘rsatishning zamonaviy psixologik-pedagogik mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda xotin-qizlarda stressning yuzaga kelish omillari, uning shaxsning psixologik salomatligi, ijtimoiy moslashuvi va hayot sifatiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, psixologik maslahat, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixoprofilaktika, psixologik treninglar, kognitiv-xulq-atvor yondashuvi, art-terapiya, relaksatsiya usullari hamda pedagogik qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari stress holatidagi xotin-qizlarga kompleks psixologik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, ularning emotsional barqarorligini oshirish, stressga chidamlilik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda psixologik farovonligini ta’minlash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *stress, xotin-qizlar, psixologik yordam, psixologik-pedagogik mexanizmlar, psixologik salomatlik, stressga chidamlilik, psixologik maslahat, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixoprofilaktika, kognitiv-xulq-atvor terapiyasi, art-terapiya, relaksatsiya, emotsional barqarorlik, psixologik trening.*

СОВРЕМЕННЫЕ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ОКАЗАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ ЖЕНЩИНАМ, НАХОДЯЩИМСЯ В СОСТОЯНИИ СТРЕССА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются современные психолого-педагогические механизмы оказания психологической помощи женщинам, находящимся в состоянии стресса. Проанализированы основные причины возникновения стресса, его влияние на психологическое здоровье, социальную адаптацию и качество жизни женщин. Особое внимание уделено современным методам психологической помощи, включая психологическое консультирование, психодиагностику, психокоррекцию, психопрофилактику, психологические тренинги, когнитивно-поведенческий подход, арт-терапию, методы релаксации и педагогическую поддержку. Полученные результаты позволяют предложить научно обоснованные рекомендации по совершенствованию системы комплексной психологической помощи, развитию стрессоустойчивости, эмоциональной стабильности и психологического благополучия женщин.*

Ключевые слова: *стресс, женщины, психологическая помощь, психолого-педагогические механизмы, психологическое здоровье, стрессоустойчивость, психологическое консультирование, психодиагностика, психокоррекция, психопрофилактика, когнитивно-поведенческая терапия, арт-терапия, релаксация, эмоциональная устойчивость, психологический тренинг.*

MODERN PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR PROVIDING PSYCHOLOGICAL SUPPORT TO WOMEN EXPERIENCING STRESS

Abstract. *This article examines modern psychological and pedagogical mechanisms for providing psychological support to women experiencing stress. The study analyzes the major causes of stress and its impact on psychological well-being, social adaptation, and quality of life. Particular attention is given to contemporary intervention strategies, including psychological counseling, psychological assessment, psychocorrection, preventive psychological services, psychological training programs, cognitive behavioral approaches, art therapy, relaxation techniques, and pedagogical support. The findings contribute to improving comprehensive psychological assistance systems, enhancing emotional resilience, developing stress-coping competencies, and promoting the psychological well-being of women. The proposed recommendations may serve as a scientific and practical basis for strengthening psychological support services in educational, family, and community settings.*

Key words: *stress, women, psychological support, psychological and pedagogical mechanisms, psychological well-being, resilience, psychological counseling, psychological assessment, psychocorrection, psychological prevention, cognitive behavioral therapy, art therapy, relaxation techniques, emotional stability, psychological training.*

Kirish. Bugungi globallashuv, urbanizatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida inson ruhiy salomatligini muhofaza qilish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ayniqsa, xotin-qizlar turli ijtimoiy, oilaviy, iqtisodiy va

kasbiy omillar ta’sirida stress holatiga ko‘proq duch keladigan ijtimoiy qatlamlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy hayot sharoitida ayolning bir vaqtning o‘zida oila, farzand tarbiyasi, kasbiy faoliyat hamda jamiyatdagi ijtimoiy vazifalarni bajarishi uning psixoemotsional zo‘riqishini kuchaytiradi. Natijada surunkali stress, emotsional charchoq, xavotir, depressiv holatlar va psixosomatik kasalliklarning rivojlanish xavfi ortadi.[3]

Stress inson organizmining tashqi va ichki ta’sirlarga moslashuv reaksiyasi bo‘lib, u ma’lum darajada himoya mexanizmi vazifasini bajaradi. Biroq stress uzoq davom etganda yoki kuchli salbiy omillar ta’sirida yuzaga kelganda shaxsning ruhiy barqarorligi, ijtimoiy faolligi, mehnat unumdorligi va hayot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, xotin-qizlarda stressning uzoq davom etishi oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasi, kasbiy faoliyat va shaxslararo muloqot samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli stress holatlarini erta aniqlash, ularning psixologik sabablarini tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan psixologik-pedagogik yordam mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.[1]

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda psixologik salomatligini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Bu borada xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, oilalarda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish, psixologik xizmatlar sifatini oshirish va stressning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday islohotlar psixologik yordam ko‘rsatishning ilmiy asoslangan, innovatsion va amaliy samaradorligi yuqori bo‘lgan mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlarda stressni bartaraf etish faqat psixologik maslahat bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixoprofilaktika, kognitiv-xulq-atvor terapiyasi, art-terapiya, relaksatsiya texnologiyalari, mindfulness amaliyotlari, psixoedukatsiya, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish hamda psixologik treninglar kompleks tarzda qo‘llanilmoqda. Ushbu mexanizmlar xotin-qizlarning stressga chidamliligini oshirish, emotsional intellektini rivojlantirish, ijobiy fikrlashni shakllantirish va psixologik farovonligini ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.[2]

Mazkur maqolaning maqsadi stress holatidagi xotin-qizlarga psixologik yordam ko‘rsatishning zamonaviy psixologik-pedagogik mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning nazariy asoslarini yoritish hamda amaliyotda qo‘llanilayotgan samarali metod va texnologiyalarni tizimli ravishda baholashdan iborat. Shuningdek, stressni kamaytirish, psixologik salomatlikni mustahkamlash va xotin-qizlarning ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ham tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Keyingi bo‘limlarda mavzuning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqot metodologiyasi, tahlil natijalari hamda amaliy tavsiyalar batafsil yoritiladi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Stress muammosi psixologiya, pedagogika, tibbiyot va sotsiologiya fanlari kesishmasida o‘rganiladigan dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xotin-qizlarning psixologik salomatligi, stressga chidamliligi va ularga psixologik yordam ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari so‘nggi yillarda xalqaro ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Turli ilmiy maktablar vakillari stressning kelib chiqish sabablari, uning psixofiziologik mexanizmlari, shaxs rivojlanishiga ta'siri hamda uni bartaraf etishning samarali usullarini turli nuqtai nazardan tadqiq etganlar.

Stress nazariyasining ilmiy asoslari kanadalik olim Hans Selye tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u stressni organizmning har qanday tashqi yoki ichki ta’sirga nisbatan umumiy moslashuv reaksiyasi sifatida izohlagan. Olim tomonidan ishlab chiqilgan Umumiy moslashuv sindromi (General Adaptation Syndrome) konsepsiyasi stressning rivojlanish bosqichlari va organizmning moslashuv imkoniyatlarini ilmiy asosda tushuntirib berdi. Mazkur nazariya keyingi tadqiqotlar uchun fundamental metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.[7]

Keyinchalik Richard Lazarus va Susan Folkman tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv baholash nazariyasida stress insonning tashqi vaziyatni qanday baholashi va mavjud resurslari bilan uni yengib o‘tish imkoniyatlarini idrok etishiga bog‘liq psixologik jarayon sifatida talqin qilindi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, stressning darajasi voqeaning o‘ziga emas, balki shaxsning uni subyektiv qabul qilishi hamda qo‘llaydigan coping-strategiyalariga bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda mazkur nazariya psixologik maslahat va psixokorreksion ishlarning asosiy metodologik yo‘nalishlaridan biri sifatida keng qo‘llanilmoqda.[11]

Stressni psixologik jihatdan boshqarish masalalarida Albert Banduraning o‘z-o‘ziga ishonch (self-efficacy) nazariyasi, Aaron Beckning kognitiv terapiyasi hamda Martin Seligmanning pozitiv psixologiya konsepsiyasi muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu nazariyalar shaxsning ijobiy fikrlashini rivojlantirish,

salbiy avtomatik fikrlarni qayta qurish, emotsional barqarorlikni mustahkamlash va psixologik farovonlikni ta’minlash orqali stressni kamaytirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.[8]

Rossiyalik olimlar L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, B.G. Ananyev va A.G. Asmolovlarning ilmiy ishlari shaxs rivojlanishi, faoliyat nazariyasi hamda psixologik moslashuv jarayonlarini tushuntirishda muhim manba hisoblanadi. Ularning tadqiqotlarida shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siri, psixik rivojlanish qonuniyatlari va emotsional holatlarni boshqarish mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan.[6]

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham xotin-qizlar psixologiyasi, oilaviy munosabatlar, shaxsning psixologik salomatligi hamda psixologik xizmatni takomillashtirish masalalari bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, G'.B. Shoumarov, V.M. Karimova, M.G. Davletshin, E.G'. G‘oziyev, B.R. Qodirov, R.I. Sunnatova va boshqa olimlarning ilmiy ishlari shaxs psixologiyasi, oila psixologiyasi, ijtimoiy-psixologik moslashuv hamda psixologik xizmatning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ularning tadqiqotlarida oiladagi psixologik muhit, emotsional barqarorlik, stress omillari va psixologik yordam ko‘rsatishning ilmiy asoslari keng yoritilgan.[4]

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda xorijiy ilmiy adabiyotlarda xotin-qizlarga psixologik yordam ko‘rsatishda kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (CBT), mindfulness, Acceptance and Commitment Therapy (ACT), art-terapiya, psixoedukatsiya, guruhiy psixologik treninglar, raqamli psixologik maslahat platformalari va onlayn psixologik yordam xizmatlarining samaradorligi bo‘yicha ko‘plab empirik tadqiqotlar e'lon qilinmoqda. Mazkur yondashuvlar stress darajasini pasaytirish, psixologik moslashuvni kuchaytirish hamda psixologik farovonlikni oshirishda yuqori natijadorlikni ko‘rsatmoqda.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, stress muammosi keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, aynan stress holatidagi xotin-qizlarga psixologik yordam ko‘rsatishning zamonaviy psixologik-pedagogik mexanizmlarini kompleks ravishda ishlab chiqish, ularni O‘zbekistonning ijtimoiy-madaniy sharoitiga moslashtirish hamda innovatsion psixologik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish masalalari hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy psixologik va pedagogik yondashuvlarni integratsiyalash asosida stress holatidagi xotin-qizlarga samarali psixologik yordam ko‘rsatish mexanizmlarini ilmiy asoslashni maqsad qiladi.[5]

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot stress holatidagi xotin-qizlarga psixologik yordam ko‘rsatishning zamonaviy psixologik-pedagogik mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, tadqiqot jarayonida tizimli, kompleks va integrativ metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, biopsixososial yondashuv, kognitiv-xulq-atvor nazariyasi, pozitiv psixologiya, stress va coping nazariyalari hamda zamonaviy psixologik xizmat tamoyillari tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar stressning kelib chiqish sabablari, uning psixologik oqibatlari va samarali psixologik yordam mexanizmlarini kompleks ravishda o‘rganish imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy bazasini stress nazariyasi asoschisi H. Selye, stressni kognitiv baholash va coping strategiyalari bo‘yicha R. Lazarus hamda S. Folkman, kognitiv terapiya bo‘yicha A. Beck, o‘z-o‘ziga ishonch nazariyasi bo‘yicha A. Bandura, pozitiv psixologiya yo‘nalishi bo‘yicha M. Seligman, shuningdek, O‘zbekiston psixologiya maktabi vakillari G'.B. Shoumarov, V.M. Karimova, M.G. Davletshin, E.G'. G‘oziyev, B.R. Qodirov va R.I. Sunnatovalarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Ushbu olimlarning ilmiy qarashlari asosida stressni boshqarish, psixologik moslashuv va psixologik yordamning samarali mexanizmlari tahlil qilindi.

Nazariy manbalarni tahlil qilish bilan bir qatorda, xalqaro ilmiy bazalarda (Scopus, Web of Science, Google Scholar va boshqa ilmiy platformalarda) chop etilgan zamonaviy maqolalar ham o‘rganildi. Bu esa mavzuning xalqaro tajribasini tahlil qilish, zamonaviy psixologik texnologiyalarni aniqlash va ularni milliy amaliyotga moslashtirish imkonini berdi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar

№	Tadqiqot metodi	Qo‘llanish maqsadi
1	Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish	Stress va psixologik yordam bo‘yicha nazariy qarashlarni tizimlashtirish
2	Qiyosiy tahlil	Mahalliy va xorijiy tajribalarni taqqoslash
3	Tizimli tahlil	Psixologik-pedagogik mexanizmlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash
4	Analiz va sintez	Olingan ilmiy ma'lumotlarni umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish
5	Kuzatish va umumlashtirish	Psixologik yordam amaliyotidagi mavjud tajribalarni baholash
6	Mantiqiy tahlil	Zamonaviy psixologik yordam modelini ilmiy asoslash

Tadqiqot metodologiyasining muhim jihatlaridan biri psixologik va pedagogik yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasiga asoslanganidir. Bunda stressni faqat psixologik muammo sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy muhiti, oilaviy munosabatlari, ta'lim jarayoni, kasbiy faoliyati va individual psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq murakkab hodisa sifatida baholash tamoyiliga amal qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda zamonaviy psixologik yordamning ilmiy asoslangan tamoyillari – individuallashtirish, maxfiylik, tizimlilik, uzluksizlik, profilaktik yo‘nalganlik, empatik yondashuv va multidissiplinar hamkorlik tamoyillari asos qilib olindi. Bu tamoyillar stress holatidagi xotin-qizlarga samarali psixologik yordam ko‘rsatish, ularning emotsional barqarorligini mustahkamlash hamda psixologik salomatligini qo‘llab-quvvatlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Natijada qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar stress holatidagi xotin-qizlarga psixologik yordam ko‘rsatishning zamonaviy psixologik-pedagogik mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash, ularning samaradorligini baholash hamda amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Nazariy manbalar, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar hamda psixologik xizmat amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatdiki, stress holatidagi xotin-qizlarga samarali psixologik yordam ko‘rsatish faqat bitta metod yoki texnologiya bilan cheklanmaydi. Yuqori natijadorlikka erishish uchun psixologik, pedagogik va ijtimoiy yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasiga asoslangan kompleks mexanizmlarni qo‘llash zarur. Tadqiqot davomida stressni kamaytirish va psixologik farovonlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi bir qator zamonaviy psixologik-pedagogik mexanizmlar tizimlashtirildi.

1. Psixologik diagnostika – samarali yordamning boshlang‘ich bosqichi

Stress holatidagi xotin-qizlarga psixologik yordam ko‘rsatish avvalo ularning psixoemotsional holatini chuqur diagnostika qilishdan boshlanishi lozim. Diagnostika orqali stress darajasi, xavotir, depressiv holatlar, emotsional zo‘riqish, o‘z-o‘zini baholash darajasi hamda stressni yengib o‘tish strategiyalari aniqlanadi. Olingan natijalar asosida individual psixologik yordam dasturi ishlab chiqiladi.

Psixologik diagnostika jarayonida standartlashtirilgan psixologik testlar, kuzatish, suhbat, anketa va psixologik intervyu metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur yondashuv psixologik yordamning aniqligi va samaradorligini oshiradi hamda ortiqcha yoki samarasiz psixokorreksion usullarni qo‘llashning oldini oladi.

2. Kognitiv-xulq-atvor yondashuvi stressni kamaytirishning samarali vositasi sifatida

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy psixologik amaliyotda eng samarali usullardan biri kognitiv-xulq-atvor yondashuvi hisoblanadi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi stressni kuchaytiruvchi salbiy avtomatik fikrlarni aniqlash, ularni konstruktiv fikrlash bilan almashtirish va shaxsda sog‘lom xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Stress holatidagi ko‘plab xotin-qizlarda "men bunga qodir emasman", "hamma narsa muvaffaqiyatsiz tugaydi", "hech kim meni tushunmaydi" kabi irratsional fikrlar kuzatiladi. Psixolog bilan olib boriladigan tizimli mashg‘ulotlar davomida bunday salbiy kognitiv sxemalar bosqichma-bosqich qayta shakllantiriladi. Natijada shaxsning emotsional barqarorligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va muammolarni konstruktiv hal qilish qobiliyati sezilarli darajada rivojlanadi.

3. Psixologik treninglarning stressga chidamlilikni rivojlantirishdagi o‘rni

Tadqiqot natijalari psixologik treninglar stressga chidamlilikni rivojlantirishning eng samarali pedagogik vositalaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, emotsiyalarni boshqarish, konfliktlarni konstruktiv hal etish, vaqtni boshqarish va relaksatsiya mashqlariga asoslangan treninglar yuqori samaradorlikka ega.

Treninglar jarayonida ishtirokchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantiradilar. Bu esa olingan bilimlarning kundalik hayotga muvaffaqiyatli transfer qilinishini ta'minlaydi.

4. Psixoedukatsiya va pedagogik qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati

Stressni kamaytirishda psixoedukatsiya muhim o‘rin tutadi. Psixoedukatsiya orqali xotin-qizlarga stressning tabiati, uning organizm va psixikaga ta'siri, stress belgilarini erta aniqlash hamda ularni boshqarish usullari haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar beriladi.

Pedagogik qo‘llab-quvvatlash esa psixologik xizmatning uzluksizligini ta'minlaydi. Ayniqsa, ta'lim muassasalari, mahalla, oila va mehnat jamoalarida sog‘lom psixologik muhit yaratish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish hamda psixologik savodxonlikni oshirish stress profilaktikasining muhim omili hisoblanadi.

- **Psixodiagnostik metodlar** - sportchilarning emotsional barqarorligi, xavotir darajasi va o‘zini boshqarish xususiyatlarini aniqlash maqsadida foydalanildi.
- **So‘rovnoma metodi** - sportchilarning musobaqa sharoitidagi hissiy holatlari va psixologik reaksiyalarini o‘rganishga xizmat qildi.
- **Matematik-statistik tahlil** - natijalarni qayta ishlash va guruhlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash uchun SPSS dasturi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotda turli sport turlari bo‘yicha yuqori malaka darajasiga ega bo‘lgan **56 nafar sportchi** ishtirok etdi. Respondentlarning sport tajribasi, musobaqalarda qatnashish darajasi va tayyorgarlik holati hisobga olindi. Tadqiqot ishtirokchilari ikki guruhga ajratildi:

- **1-guruh (n=28)** - respublika va xalqaro miqyosdagi musobaqalarda muntazam qatnashuvchi, yuqori natijalarga ega sportchilar;
- **2-guruh (n=28)** - yuqori malakaga ega bo‘lgan, biroq musobaqa tajribasi nisbatan kamroq sportchilar.

Tadqiqot jarayonida quyidagi psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi:

1. **C. Spielbergerning “Xavotirlanish darajasini aniqlash metodikasi”** - sportchilarning shaxsiy va vaziyatli xavotirlanish darajasini baholash uchun qo‘llanildi.
2. **Emotsional barqarorlikni aniqlash metodikasi** - sportchilarning stressli vaziyatlarda psixologik holatini saqlab qolish qobiliyatini o‘rganishga imkon berdi.
3. **O‘zini-o‘zi boshqarish darajasini baholash metodikasi** - sportchilarning maqsadga yo‘nalganligi, ichki nazorat va emotsiyalarni tartibga solish imkoniyatlarini aniqlash uchun ishlatildi.

Tadqiqot natijalari SPSS 26.0 dasturi yordamida statistik qayta ishlandi. Tahlil jarayonida o‘rtacha qiymat (M), standart og‘ish (SD), Styudent t-mezoni hamda korrelyatsion tahlil usullaridan foydalanildi.

1-jadval.

Yuqori malakali sportchilarda emotsional holatni boshqarish ko‘rsatkichlari (n=56)

Ko‘rsatkichlar	1-guruh (n=28)	2-guruh (n=28)	t	p
Emotsional barqarorlik	4,32 ± 0,54	3,69 ± 0,60	3,05	<0,01
Musobaqa oldi xavotiri	2,21 ± 0,49	3,02 ± 0,57	-3,42	<0,01
O‘zini-o‘zi boshqarish darajasi	4,18 ± 0,51	3,56 ± 0,62	2,91	<0,01
Stressga chidamlilik	4,05 ± 0,56	3,48 ± 0,59	2,76	<0,01

Jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, yuqori musobaqa tajribasiga ega sportchilarda emotsional barqarorlik va o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘rsatkichlari yuqoriroq namoyon bo‘ldi. Shu bilan birga, ushbu guruhda musobaqa oldi xavotirlanish darajasi pastroq ekanligi aniqlandi.

Olingan natijalar sport tajribasi, psixologik tayyorgarlik va emotsional boshqaruv mexanizmlarining shakllanganlik darajasi o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Mazkur tadqiqotda yuqori malakali sportchilarning sport musobaqalari sharoitida emotsional holatini boshqarish xususiyatlari o‘rganildi. Tadqiqotda ishtirok etgan 56 nafar sportchining emotsional barqarorligi, musobaqa oldi xavotirlanish darajasi, o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyati hamda stressga chidamlilik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, yuqori malakali sportchilarning psixologik tayyorgarligi ularning musobaqa faoliyatidagi natijadorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Sportchi qanchalik yuqori darajadagi musobaqalarda ishtirok etgan bo‘lsa, unda emotsional holatni nazorat qilish, stressli vaziyatlarga moslashish va ichki psixologik resurslardan samarali foydalanish ko‘nikmalari shunchalik rivojlanganligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, birinchi guruh sportchilarida (n=28) emotsional barqarorlik ko‘rsatkichi 4,32 ballni tashkil etdi. Ikkinchi guruh sportchilarida (n=28) esa ushbu ko‘rsatkich 3,69 ballga teng bo‘ldi. Ushbu farq yuqori musobaqa tajribasiga ega sportchilarda o‘z hissiy holatini boshqarish va murakkab vaziyatlarda psixologik muvozanatni saqlash qobiliyati yuqoriroq shakllanganligini ko‘rsatadi.

Emotsional barqarorlik sportchining musobaqa jarayonida yuzaga keladigan tashqi bosimlarga munosabatini belgilovchi muhim psixologik sifat hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda ham yuqori natijali sportchilar o‘z emotsiyalarini nazorat qilish, muvaffaqiyatsizliklardan keyin tez tiklanish va faoliyatga qayta safarbar bo‘lish qobiliyati bilan ajralib turishi ta’kidlangan [1; 2].

Tadqiqot davomida musobaqa oldi xavotirlanish darajasi ham tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, birinchi guruh sportchilarida xavotirlanish ko‘rsatkichi 2,21 ball, ikkinchi guruhda esa 3,02 ballni tashkil etdi. Ushbu natija yuqori malakali va katta tajribaga ega sportchilar musobaqa oldi hayajonini samaraliroq boshqara olishlarini ko‘rsatadi.

Sport psixologiyasi nuqtai nazaridan xavotir holati ikki xil vazifani bajarishi mumkin. Me’yoriy darajadagi xavotir sportchini safarbar qiluvchi omil bo‘lsa, ortiqcha xavotir diqqatning buzilishi, ishonchsizlik va faoliyat samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin [3]. Shu sababli yuqori malakali sportchilarda asosiy ustunlik xavotirning mavjud emasligida emas, balki ushbu holatni boshqarish mexanizmlarining shakllanganligidadir. O‘zini-o‘zi boshqarish ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham guruhlar o‘rtasida sezilarli tafovut kuzatildi. Birinchi guruh sportchilarida ushbu ko‘rsatkich 4,18 ball, ikkinchi guruhda esa 3,56 ballni tashkil etdi. Bu holat tajribali sportchilarda maqsadni aniq belgilash, diqqatni nazorat qilish, ichki motivatsiyani saqlash va salbiy emotsiyalarni boshqarish imkoniyatlari yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zini-o‘zi boshqarish sportchining nafaqat emotsional holatini, balki butun faoliyat jarayonini tartibga soluvchi psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida ham shaxsning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi va o‘z faoliyatini nazorat qila olish qobiliyati yuqori natijalarga erishishda muhim omil sifatida ko‘rsatilgan [4].

Tadqiqotda stressga chidamlilik ko‘rsatkichi ham o‘rganildi. Birinchi guruh sportchilarida ushbu ko‘rsatkich 4,05 ball, ikkinchi guruhda esa 3,48 ballni tashkil etdi. Bu natijalar tajribali sportchilar musobaqa jarayonidagi bosim, kutilmagan vaziyatlar va yuqori mas’uliyat sharoitida psixologik barqarorlikni yaxshiroq saqlashlarini anglatadi. Sport faoliyatida stressga chidamlilik sportchining individual psixologik xususiyatlari, tayyorgarlik tajribasi va oldingi musobaqalardagi faoliyat natijalari asosida shakllanadi. Stressli vaziyatlarni to‘g‘ri baholash va ularga mos strategiyalarni tanlash sportchining optimal psixik holatini ta’minlashga xizmat qiladi [5].

Tadqiqot natijalarining korrelyatsion tahlili emotsional barqarorlik, o‘zini-o‘zi boshqarish va stressga chidamlilik o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, o‘zini-o‘zi boshqarish darajasi yuqori bo‘lgan sportchilarda stressga chidamlilik va emotsional barqarorlik ko‘rsatkichlari ham yuqori ekanligi aniqlandi. Mazkur natijalar sportchilarning emotsional holatini boshqarish alohida bir qobiliyat emas, balki o‘zaro bog‘liq psixologik komponentlardan tashkil topgan yaxlit tizim ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu tizim tarkibida kognitiv baholash, motivatsion barqarorlik, iroda nazorati va o‘zini-o‘zi boshqarish mexanizmlari asosiy o‘rin egallaydi [6].

Shuningdek, tadqiqot natijalari sportchilarning emotsional boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus psixologik tayyorgarlik dasturlaridan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Bunday dasturlar tarkibiga relaksatsiya mashqlari, vizualizatsiya, nafas olish texnikalari, musobaqa vaziyatlarini modellashtirish va kognitiv qayta baholash usullarini kiritish maqsadga muvofiqdir [7].

Umuman olganda, olingan natijalar yuqori malakali sportchilarning muvaffaqiyatli faoliyatida emotsional holatni boshqarish mexanizmlari muhim psixologik omil ekanligini tasdiqlaydi. Sportchining jismoniy va texnik tayyorgarligi bilan bir qatorda uning emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi va o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy sport tayyorgarligining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari yuqori malakali sportchilarning sport musobaqalari sharoitida emotsional holatini boshqarish jarayoni murakkab va ko‘p omilli psixologik tizim ekanligini ko‘rsatdi. Sport faoliyatida yuqori natijalarga erishish nafaqat sportchining jismoniy imkoniyatlari va texnik mahoratiga, balki uning musobaqa jarayonida yuzaga keladigan emotsional zo‘riqishlarni boshqarish, stressli vaziyatlarga moslashish va psixologik barqarorlikni saqlash qobiliyatiga ham bog‘liqdir.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yuqori malakali sportchilarda emotsional barqarorlik, o‘zini-o‘zi boshqarish va stressga chidamlilik ko‘rsatkichlari yuqori darajada shakllangan. Ularning musobaqa oldi xavotirlanish darajasi nisbatan past bo‘lib, bu holat sportchilarning murakkab raqobat sharoitlarida o‘z faoliyatini samarali tashkil eta olishiga imkon beradi. Tadqiqot natijalari sport tajribasi va emotsional boshqaruv qobiliyati o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Musobaqalarda ko‘proq tajriba orttirgan sportchilar vaziyatlarni tezroq baholash, salbiy emotsiyalarni nazorat qilish, diqqatni jamlash va optimal psixologik holatni saqlash bo‘yicha yuqori imkoniyatlarga ega ekanligi aniqlandi.

Yuqori malakali sportchilarning emotsional holatini boshqarish mexanizmlarining asosiy tarkibiy qismlari sifatida kognitiv baholash, motivatsion barqarorlik, iroda nazorati, o‘zini-o‘zi boshqarish va stressga moslashuvchanlik ajratildi. Ushbu komponentlarning uyg‘un rivojlanganligi sportchiga musobaqa vaqtida yuzaga keladigan bosimlarni yengib o‘tish va o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etish imkonini beradi.

Tadqiqot asosida shuni ta’kidlash mumkinki, sportchilarni tayyorlash jarayonida psixologik tayyorgarlik mashg‘ulotlariga alohida e’tibor qaratish zarur. Emotsional boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar, relaksatsion texnikalar, vizualizatsiya usullari, o‘zini ruhiy safarbar qilish strategiyalari hamda stressni boshqarish metodlaridan tizimli foydalanish sportchilarning musobaqa faoliyatidagi barqarorligini oshiradi.

Umuman olganda, yuqori malakali sportchilarning emotsional holatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy sport tayyorgarligining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sportchining psixologik imkoniyatlarini rivojlantirish, uning emotsional barqarorligini mustahkamlash va o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatlarini shakllantirish yuqori sport natijalariga erishishning muhim shartlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. – New York: Springer Publishing Company, 1984. – 456 p.
3. Spielberger C.D. Anxiety: Current Trends in Theory and Research. – New York: Academic Press, 1972. – 496 p.
4. Bandura A. Self-efficacy: The Exercise of Control. – New York: W.H. Freeman and Company, 1997. – 604 p.
5. Weinberg R.S., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. – 7th ed. – Champaign: Human Kinetics, 2019. – 704 p.
6. Гогунов Е.Н., Мартьянов Б.И. Психология физического воспитания и спорта. – Москва: Академия, 2004. – 224 с.
7. Ильин Е.П. Психология спорта. – Санкт-Петербург: Питер, 2012. – 352 с.
8. Родионов А.В. Психология физического воспитания и спорта. – Москва: Академический проект, 2004. – 576 с.
9. Baumeister R.F. Choking under pressure: Mechanisms and countermeasures // Psychological Science. – 1984. – Vol. 5, No. 3. – P. 161–168.
10. Jones G., Hanton S., Connaughton D. A framework of mental toughness in the world’s best performers // The Sport Psychologist. – 2007. – Vol. 21, No. 2. – P. 243–264.
11. Fletcher D., Sarkar M. Psychological resilience: A review and critique of definitions, concepts, and theory // European Psychologist. – 2013. – Vol. 18, No. 1. – P. 12–23.
12. Nicholls A.R., Polman R.C.J. Coping in sport: A systematic review // Journal of Sports Sciences. – 2007. – Vol. 25, No. 1. – P. 11–31.
13. Сафонов В.К. Психология спортсмена: теория и практика. – Москва: Советский спорт, 2010. – 256 с.
14. Горбунов Г.Д. Психопедагогика спорта. – Москва: Советский спорт, 2007. – 312 с.
15. Марищук В.Л., Блудов Ю.М. Методики психодиагностики в спорте. – Москва: Просвещение, 1990. – 256 с.
16. Hanin Y.L. Emotions in Sport. – Champaign: Human Kinetics, 2000. – 408 p.

Xudoyberdiyeva Zarnigor Kobiljonovna,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchi
z.xudoyberdiyeva@kiut.uz
https://orcid.org/0009-0006-4147-5709

TALABALARDA ETNOMADANIY QADRIYATLARGA IJOBIY MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarda etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Etnomadaniy qadriyatlarning shaxs kamoloti, milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy identifikatsiya, tolerantlik va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, talaba-yoshlarning etnomadaniy qadriyatlarga munosabatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar, jumladan, oila muhiti, ta’lim tizimi, tengdoshlar guruhi, ommaviy axborot vositalari, raqamli kommunikatsiya, milliy an’ana va urf-odatlar, shaxsning psixologik xususiyatlari hamda ijtimoiy tajribasi tahlil qilingan. Maqolada etnomadaniy qadriyatlarni rivojlantirishning zamonaviy ijtimoiy-psixologik mexanizmlari hamda oliy ta’lim muassasalarida mazkur qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi psixologik-pedagogik yondashuvlar asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘un rivojlantirish, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *etnomadaniy qadriyatlar, ijtimoiy-psixologik omillar, talaba-yoshlar, milliy identifikatsiya, etnik o‘zlik, tolerantlik, madaniyatlararo muloqot, qadriyatlar tizimi, ijtimoiylashuv, psixologik omillar, milliy qadriyatlar, fuqarolik mas’uliyati.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО ОТНОШЕНИЯ СТУДЕНТОВ К ЭТНОКУЛЬТУРНЫМ ЦЕННОСТЯМ

Аннотация. *В данной статье проведён научно-теоретический анализ социально-психологических факторов формирования положительного отношения студентов к этнокультурным ценностям. Раскрыта роль этнокультурных ценностей в развитии личности, формировании национального самосознания, социальной идентичности, толерантности и гражданской ответственности. Проанализированы основные факторы, влияющие на отношение студентов к этнокультурным ценностям, включая семейную среду, систему образования, группу сверстников, средства массовой информации, цифровую коммуникацию, национальные традиции и обычаи, психологические особенности личности и социальный опыт. Особое внимание уделено современным социально-психологическим механизмам развития этнокультурных ценностей и психолого-педагогическим подходам к их формированию в условиях высшего образования. Полученные результаты могут быть использованы при разработке научно-практических рекомендаций, направленных на развитие национальных и общечеловеческих ценностей, формирование компетенций межкультурного общения и укрепление социальной стабильности среди студенческой молодёжи.*

Ключевые слова: *этнокультурные ценности, социально-психологические факторы, студенты, национальная идентичность, этническое самосознание, толерантность, межкультурное общение, система ценностей, социализация, психологические факторы, национальные ценности, гражданская ответственность.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF STUDENTS' POSITIVE ATTITUDES TOWARD ETHNOCULTURAL VALUES

Abstract. *This article presents a theoretical analysis of the socio-psychological factors influencing the development of a positive attitude toward ethnocultural values among university students. It highlights the role of ethnocultural values in personality development, national identity formation, social identification, tolerance, and civic responsibility. The study examines the major factors affecting students' attitudes toward ethnocultural values, including family environment, educational institutions, peer influence, mass media, digital communication, national traditions and customs, individual psychological characteristics, and social experience. Furthermore, contemporary socio-psychological mechanisms for promoting ethnocultural values and psychological-pedagogical approaches applicable in higher education are discussed. The findings provide a scientific basis for developing practical recommendations aimed at strengthening national and*

universal values, enhancing intercultural communication competence, and promoting social cohesion among university students.

Key words: *ethnocultural values, socio-psychological factors, university students, national identity, ethnic identity, tolerance, intercultural communication, value system, socialization, psychological factors, national values, civic responsibility.*

Kirish. Globallashuv, raqamli transformatsiya va madaniyatlararo integratsiya jarayonlarining jadallashuvi zamonaviy jamiyatda milliy va etnomadaniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda ularni yosh avlod ongiga chuqur singdirish masalasini dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning etnomadaniy qadriyatlarga bo'lgan munosabati ularning shaxsiy kamoloti, milliy o'zligini anglashi, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy faolligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois talabalarda etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash va ularni ilmiy asosda tahlil qilish bugungi kunda psixologiya, pedagogika hamda etnopsixologiya fanlarining ustuvor tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Etnomadaniy qadriyatlar xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan urf-odatlari, an'analari, milliy marosimlari, tili, diniy-ma'rifiy qarashlari, axloqiy me'yorlari, estetik didi va ma'naviy merosini o'zida mujassamlashtiruvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Mazkur qadriyatlar shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida uning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, milliy identifikatsiyasi hamda ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishda muhim psixologik omil vazifasini bajaradi. Talabalik davri esa aynan qadriyatlar tizimi qayta shakllanadigan, kasbiy va fuqarolik identifikatsiyasi rivojlanadigan hamda shaxsning mustaqil ijtimoiy pozitsiyasi qaror topadigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli mazkur davrda etnomadaniy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirish alohida ilmiy yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda axborot makonining kengayishi, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi, ommaviy madaniyatning kuchayishi hamda turli madaniy ta'sirlarning ortib borishi ayrim hollarda yoshlarning milliy qadriyatlarga nisbatan qiziqishining pasayishiga, madaniy identifikatsiyada noaniqliklarning yuzaga kelishiga va qadriyatlar tizimida transformatsion jarayonlarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Bunday sharoitda talabalarda etnomadaniy qadriyatlarni anglash, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash hamda madaniyatlararo bag'rikenglikni rivojlantirish oliy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talabalarning etnomadaniy qadriyatlarga bo'lgan munosabati ko'plab ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirida shakllanadi. Jumladan, oila muhiti, ota-onaning tarbiyaviy uslubi, ta'lim muassasasidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar, professor-o'qituvchilarning shaxsiy namunasi, tengdoshlar guruhi, milliy urf-odat va an'analar, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, shaxsning motivatsiyasi, qadriyatlar yo'nalganligi, etnik identifikatsiyasi, refleksiv qobiliyatlari va empatiya darajasi mazkur munosabatning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarning o'zaro uyg'unligi talabalarda milliy qadriyatlarni anglash darajasi, etnomadaniy bag'rikenglik hamda ijtimoiy mas'uliyatning rivojlanishiga xizmat qiladi.[1]

So'nggi yillarda etnomadaniy qadriyatlarni rivojlantirish, millatlararo totuvlikni mustahkamlash, yoshlarning milliy o'zligini anglashini qo'llab-quvvatlash hamda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.[2] Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabatini shakllantirishning samarali ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish va ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi talabalarda etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni nazariy va empirik jihatdan tahlil qilish hamda ularni rivojlantirishning samarali psixologik mexanizmlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqot obyekti – oliy ta'lim muassasalari talabalarida etnomadaniy qadriyatlarga munosabatning shakllanish jarayoni.

Tadqiqot predmeti – talabalarda etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, ularning o'zaro bog'liqligi va rivojlanish mexanizmlari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi talabalarda etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy va psixologik omillarni kompleks yondashuv asosida tizimlashtirish, ularning o'zaro ta'sir mexanizmlarini ochib berish hamda oliy ta'lim sharoitida mazkur jarayonni takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish bilan belgilanadi.

Adabiyotlar tahlili. Etnomadaniy qadriyatlar masalasi ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya, madaniyatshunoslik va pedagogika fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan murakkab ilmiy

yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, etnomadaniy qadriyatlar shaxsning milliy o‘zligini anglashi, ijtimoiy identifikatsiyasi, ma’naviy kamoloti va fuqarolik pozitsiyasining shakllanishida muhim psixologik determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, talabalik davrida qadriyatlar tizimining qayta tuzilishi va ijtimoiy tajribaning kengayishi etnomadaniy qadriyatlarga nisbatan munosabatni rivojlantirishni alohida ilmiy o‘rganishni talab etadi.

Qadriyatlar nazariyasining ilmiy asoslari M. Rokeach tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u qadriyatlarni inson xulq-atvori va hayotiy tanlovlarini belgilovchi barqaror e’tiqodlar tizimi sifatida tavsiflaydi. Olim qadriyatlarni terminal va instrumental qadriyatlarga ajratib, ularning shaxs motivatsiyasi hamda ijtimoiy xulqni boshqarishdagi o‘rnini asoslab bergan. Sh. Schwartz esa qadriyatlarning universal modeli orqali turli xalqlar madaniyatlarida uchraydigan umumiy va o‘ziga xos qadriyatlar tizimini empirik jihatdan isbotlagan. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, an’analarni hurmat qilish, ijtimoiy birdamlik, xavfsizlik, bag‘rikenglik va universalizm etnomadaniy qadriyatlarni shakllantirishning asosiy komponentlari hisoblanadi.

Etnik identifikatsiya va etnik o‘zlik masalalari H. Tajfel hamda J. Turner tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy identifikatsiya nazariyasida keng yoritilgan. Mazkur nazariyaga ko‘ra, inson o‘zini muayyan ijtimoiy va etnik guruh vakili sifatida anglagan sari uning milliy qadriyatlar, madaniy meros va etnik an’analarga bo‘lgan munosabati mustahkamlanadi. Talabalik davrida ijtimoiy identifikatsiyaning rivojlanishi nafaqat shaxsiy o‘zlikni anglashga, balki boshqa millatlar madaniyatiga nisbatan bag‘rikeng munosabatni shakllantirishga ham xizmat qiladi.[8]

Madaniy taraqqiyotning psixologik asoslarini L. S. Vygotskiy o‘zining madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, shaxsning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit va madaniy tajribani o‘zlashtirish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq. Til, milliy ramzlar, urf-odatlar va an’analar inson tafakkurining shakllanishida vositachilik vazifasini bajaradi. Ushbu yondashuv talabalarda etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxs rivojlanishining psixososial bosqichlarini tadqiq qilgan E. Erikson yoshlarning identiklikni shakllantirish jarayonida milliy qadriyatlar va madaniy mansublikning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Olimning fikricha, identiklik inqirozini muvaffaqiyatli yengib o‘tgan shaxs o‘z milliy madaniyatiga nisbatan barqaror ijobiy munosabatni namoyon etadi hamda boshqa madaniyatlarga ochiq va tolerant munosabatda bo‘ladi.[9]

Mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida ham etnomadaniy qadriyatlar va ma’naviy tarbiya masalalari keng yoritilgan. E. G‘oziyev shaxsning ma’naviy rivojlanishida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va oilaviy tarbiyaning psixologik ahamiyatini asoslab bergan. B. Qodirov yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonida milliy qadriyatlarning motivatsion va tarbiyaviy funksiyalarini tahlil qilgan. V. Karimova esa shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy ustanovkalar va ijtimoiy psixologik muhitning talaba shaxsini shakllantirishdagi o‘rnini ilmiy jihatdan yoritgan. Ushbu tadqiqotlar etnomadaniy qadriyatlarning ijtimoiy-psixologik tabiatini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.[6]

Pedagogik tadqiqotlarda etnomadaniy tarbiya ta’limning uzluksizligi, milliy an’analar va innovatsion pedagogik texnologiyalar uyg‘unligida tashkil etilishi zarurligi qayd etiladi. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha faoliyati, treninglar, debatlar va madaniyatlararo muloqotga asoslangan mashg‘ulotlar talabalarning etnomadaniy kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositalari sifatida e’tirof etilmoqda. Psixologik treninglar, refleksiv mashg‘ulotlar va guruhiy hamkorlik texnologiyalari esa talabalarda empatiya, tolerantlik va milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy emotsional munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda xorijiy tadqiqotlarda raqamli makonning etnomadaniy qadriyatlarga ta’siri ham keng o‘rganilmoqda. Tadqiqotchilar ijtimoiy tarmoqlar va global axborot oqimining bir tomondan turli madaniyatlar bilan tanishish imkoniyatlarini kengaytirishini, ikkinchi tomondan esa ayrim hollarda milliy identifikatsiyaning zaiflashuvi, stereotiplarning kuchayishi va madaniy assimilyatsiya xavfini yuzaga keltirishini ta’kidlaydilar. Shu sababli yoshlarda media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish etnomadaniy qadriyatlarni saqlashning muhim omili sifatida baholanmoqda.[5]

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish faqat ma’naviy-ma’rifiy faoliyat bilan cheklanmaydi. Ushbu jarayon shaxsning motivatsion sohasi, etnik identifikatsiyasi, ijtimoiy ustanovkalari, emotsional intellekti, refleksiv qobiliyatlari, oilaviy tarbiya, ta’lim muhiti, tengdoshlar guruhi va zamonaviy axborot makonining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan ko‘p omilli psixologik tizim hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati etnomadaniy qadriyatlarning pedagogik yoki madaniyatshunoslik jihatlariga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, oliy ta’lim muassasalari talabalarida etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillarning kompleks empirik modeli, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda psixologik mexanizmlarini aniqlash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy zarurati va dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot talabalarda etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash hamda ushbu omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni empirik jihatdan asoslashga qaratildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va aksiologik yondashuvlar asosida tashkil etildi. Mazkur yondashuvlar etnomadaniy qadriyatlarning shaxsning o‘zini anglash jarayoni, ijtimoiy tajribasi va qadriyatlar tizimidagi o‘rnini kompleks tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini M. Rokeachning qadriyatlar nazariyasi, Sh. Schwartzning universal qadriyatlar modeli, H. Tajfel va J. Turnerning ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi, L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish konsepsiyasi hamda E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi tashkil etdi. Mazkur nazariy qarashlar asosida talabalarda etnomadaniy qadriyatlarga munosabatning motivatsion, kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari o‘rganildi. Shuningdek, O‘zbekiston psixologiya maktabi vakillari E. G‘oziyev, B. Qodirov, V. Karimova va boshqa tadqiqotchilarning shaxs, ijtimoiy munosabatlar hamda qadriyatlar tizimiga oid ilmiy qarashlari tadqiqotning nazariy asosini boyitdi.

Empirik tadqiqotda oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan 90 nafar talaba ishtirok etdi. Tadqiqot ishtirokchilari ikki guruhga ajratildi: 1–2-bosqich talabalari – 45 nafar, 3–4-bosqich talabalari – 45 nafar. Ishtirokchilarning yoshi 18–24 yosh oralig‘ini tashkil etdi. Tanlanma shakllantirishda talabalarning jinsi, yoshi va ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha mutanosiblik tamoyiliga amal qilindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

- ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish;
- psixologik kuzatish;
- anketa so‘rovi;
- talabalarning etnomadaniy qadriyatlarga munosabatini aniqlash so‘rovnomasi;
- Sh. Schwartzning qadriyatlar diagnostikasi metodikasi;
- ijtimoiy identifikatsiya darajasini aniqlash shkalasi;
- tolerantlik va empatiya darajasini baholash metodikalari.

Tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash uchun SPSS Statistics dasturidan foydalanildi. Olingan ma’lumotlarning ishonchliligini aniqlash maqsadida tavsifiy statistika (Mean, Standard Deviation), Studentning t-mezoni hamda Pearson korrelyatsiya tahlili qo‘llanildi. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p \leq 0,05$ va $p \leq 0,01$ mezonlari asosida baholandi.

1-jadval.

Talabalarda etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabatning ijtimoiy-psixologik omillari ko‘rsatkichlari (n=90)

Ko‘rsatkichlar	1–2-bosqich (n=45) M±SD	3–4-bosqich (n=45) M±SD	t	p
Etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabat	3,72±0,46	4,18±0,43	-4,92	0,001**
Milliy identifikatsiya	3,65±0,48	4,11±0,41	-4,67	0,001**
Tolerantlik darajasi	3,76±0,45	4,06±0,39	-3,41	0,001**
Empatiya	3,61±0,50	3,94±0,42	-3,37	0,002**
Ijtimoiy faollik	3,55±0,52	3,97±0,45	-4,02	0,001**

*Izoh: *$p \leq 0,01$.

Jadval natijalarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, yuqori bosqich talabalarida etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabat, milliy identifikatsiya, tolerantlik, empatiya va ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlari quyi bosqich talabalariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Ushbu farqlar statistik jihatdan ishonchli bo‘lib, barcha asosiy ko‘rsatkichlarda $p \leq 0,01$ darajani tashkil etdi.

Olingan natijalar talabalik davrida ijtimoiy tajribaning kengayishi, turli madaniy muhitlar bilan muloqotning ortishi hamda ta’lim jarayonidagi ma’naviy-ma’rifiy faoliyatlarning shaxs qadriyatlari tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Pearson korrelyatsiya tahlili natijalariga ko‘ra, etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabat bilan quyidagi omillar o‘rtasida musbat bog‘liqlik aniqlandi:

- milliy identifikatsiya – r=0,67 (p≤0,01);
- tolerantlik – r=0,59 (p≤0,01);
- empatiya – r=0,54 (p≤0,01);
- ijtimoiy faollik – r=0,57 (p≤0,01).

Mazkur natijalar talabalarda etnomadaniy qadriyatlarga munosabat shakllanishida nafaqat bilim va axborot, balki shaxsning o‘zligini anglashi, boshqalarga nisbatan hurmatli munosabati hamda ijtimoiy faolligi muhim psixologik omil ekanligini tasdiqlaydi.

Natijalar va muhokama. Empirik tadqiqot natijalari talabalarda etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabat shakllanishi murakkab va ko‘p omilli ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida yuqori bosqich talabalarida etnomadaniy qadriyatlarga munosabat darajasi quyi bosqich talabalariga qaraganda yuqori ekanligi aniqlandi. Bu holat talabalarning oliy ta’lim jarayonida to‘plagan ijtimoiy tajribasi, mustaqil fikrlash qobiliyati va turli ijtimoiy-madaniy faoliyatlarda ishtiroki bilan izohlanadi.

Milliy identifikatsiya va etnomadaniy qadriyatlarga munosabat o‘rtasidagi kuchli musbat bog‘liqlik (r=0,67) shuni ko‘rsatadiki, shaxs o‘zining milliy mansubligini qanchalik chuqur anglasa, uning milliy tarix, an’ana, urf-odat va madaniy merosga bo‘lgan qiziqishi ham shunchalik ortadi. Ushbu natija H. Tajfel va J. Turnerning ijtimoiy identifikatsiya nazariyasida ilgari surilgan shaxsning guruhiy mansublik orqali o‘zini anglash g‘oyasiga mos keladi.

Tadqiqot natijalarida tolerantlik va etnomadaniy qadriyatlarga munosabat o‘rtasida ham sezilarli bog‘liqlik (r=0,59) aniqlandi. Bu holat milliy qadriyatlarni hurmat qilish boshqa madaniyat vakillariga nisbatan ochiq va bag‘rikeng munosabat bilan uyg‘un rivojlanishini ko‘rsatadi. Zamonaviy ko‘p madaniyatli jamiyat sharoitida tolerantlik shaxsning madaniy identikligini mustahkamlovchi muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi.

Empatiya ko‘rsatkichi bilan etnomadaniy qadriyatlarga munosabat o‘rtasidagi bog‘liqlik (r=0,54) talabalarning boshqa insonlarning qarashlari, his-tuyg‘ulari va madaniy xususiyatlarini tushunish qobiliyati rivojlangan sari ularning ijtimoiy va madaniy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabati kuchayishini ko‘rsatdi.

Ijtimoiy faollik bilan etnomadaniy qadriyatlarga munosabat o‘rtasidagi musbat bog‘liqlik (r=0,57) esa talabalar turli madaniy tadbirlar, jamoatchilik loyihalari va ijtimoiy tashabbuslarda faol qatnashishi orqali milliy qadriyatlarni amaliy faoliyat jarayonida chuqurroq o‘zlashtirishini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar M. Rokeachning qadriyatlar nazariyasi bilan uyg‘un bo‘lib, unga ko‘ra qadriyatlar shaxsning hayotiy yo‘nalishini belgilovchi barqaror psixologik tuzilmadir. Shuningdek, Sh. Schwartzning universal qadriyatlar modeli asosida an’analar, hurmat, ijtimoiy birdamlik va bag‘rikenglik kabi qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligi tadqiqot natijalarida ham namoyon bo‘ldi.

L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi nuqtai nazaridan qaraganda, shaxs psixologik rivojlanishida ijtimoiy muhit, madaniy tajriba va muloqot jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari ham talabalarning oilaviy tarbiya, ta’lim muhiti va ijtimoiy tajribasi etnomadaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari talabalarda etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirishda milliy identifikatsiya, tolerantlik, empatiya va ijtimoiy faollik asosiy ijtimoiy-psixologik omillar ekanligini ko‘rsatdi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida madaniy-ma’rifiy loyihalar, psixologik treninglar, madaniyatlararo muloqot dasturlari va tarbiyaviy faoliyatlarni tizimli tashkil etish talabalarning etnomadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot talabalarda etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini nazariy va empirik jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlandi. Tadqiqot natijalari etnomadaniy qadriyatlar shaxsning milliy o‘zligini anglash, fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish, tolerantlikni mustahkamlash hamda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishda muhim psixologik omil ekanligini tasdiqladi.

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, etnomadaniy qadriyatlar faqat tarixiy-madaniy merosning tarkibiy qismi emas, balki shaxsning motivatsion, kognitiv, emotsional va xulq-atvor sohalarini tartibga soluvchi murakkab qadriyatlar tizimi hisoblanadi. M. Rokeach, Sh. Schwartz, H. Tajfel, J. Turner, L. S. Vygotskiy va E. Eriksonlarning ilmiy qarashlari talabalarda etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabatning psixologik mexanizmlarini izohlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Empirik tadqiqot natijalari yuqori kurs talabalarida etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabat, milliy identifikatsiya, tolerantlik, empatiya va ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlari quyi kurs talabalariga nisbatan

statistik jihatdan ishonchli darajada yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, etnomadaniy qadriyatlarga munosabat bilan milliy identifikatsiya, tolerantlik, empatiya va ijtimoiy faollik o‘rtasida musbat hamda ahamiyatli korrelyatsion bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Ushbu natijalar mazkur psixologik omillar talabalarda etnomadaniy qadriyatlarni rivojlantirishning asosiy determinantlari ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida oilaviy tarbiya, oliy ta’lim muassasasining ma’naviy-psixologik muhiti, professor-o‘qituvchilarning shaxsiy namunasi, tengdoshlar guruhi, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, jamoatchilik faoliyati hamda raqamli axborot muhiti talabalarning etnomadaniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Ayniqsa, milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish, interfaol metodlar, psixologik treninglar, loyiha faoliyati va madaniyatlararo muloqotga asoslangan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ushbu jarayon samaradorligini oshirishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. oliy ta’lim muassasalarida etnomadaniy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus psixologik-pedagogik dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
2. o‘quv jarayoniga milliy madaniyat, etnopsixologiya va madaniyatlararo muloqot kompetensiyalariga oid interfaol modullarni integratsiya qilish;
3. talabalarda tolerantlik, empatiya va milliy identifikatsiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik treninglar hamda seminar-treninglarni muntazam tashkil etish;
4. talaba-yoshlarning milliy an’analar, urf-odatlar va madaniy meros bilan yaqindan tanishishiga xizmat qiluvchi ma’naviy-ma’rifiy loyihalarni kengaytirish;
5. raqamli axborot makonida media savodxonlikni rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish va milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi innovatsion elektron ta’lim resurslarini yaratish;
6. oila, mahalla va oliy ta’lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish orqali talabalarda etnomadaniy qadriyatlarga barqaror ijobiy munosabatni shakllantirishning uzviy tizimini yaratish.

Shunday qilib, talabalarda etnomadaniy qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish uzluksiz, tizimli va ko‘p omilli ijtimoiy-psixologik jarayon bo‘lib, uning samaradorligi shaxsning individual psixologik xususiyatlari, ta’lim-tarbiya muhiti va jamiyatdagi ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligiga bevosita bog‘liqdir. Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, etnomadaniy tarbiya konsepsiyasini takomillashtirish hamda talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan yangi ilmiy-amaliy dasturlarni ishlab chiqishda muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlarda etnomadaniy qadriyatlarga munosabatning gender, hududiy, kasbiy va madaniyatlararo tafovutlarini qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, sun’iy intellekt va raqamli ta’lim texnologiyalarining mazkur jarayonga ta’sirini empirik jihatdan o‘rganish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy taraqqiyotimizning poydevoridir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – 624 b.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 384 b.
5. Qodirov B.R. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 352 b.
6. Nishonova Z.T. Etnopsixologiya. – Toshkent: Universitet, 2020. – 286 b.
7. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019. – 248 b.
8. Schwartz S. H. A Theory of Cultural Value Orientations: Explication and Applications. // Comparative Sociology. – 2014. – Vol. 13(2). – P. 137–182.
9. Schwartz S. H. Basic Individual Values: Sources and Consequences. // In: Handbook of Values. – Cham: Springer, 2018. – P. 63–84.
10. Berry J. W. Intercultural Relations in Plural Societies. // Canadian Psychology. – 2017. – Vol. 58(1). – P. 57–65.
11. Berry J. W., Sam D. L. The Cambridge Handbook of Acculturation Psychology. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 636 p.

12. Verkuyten M. The Social Psychology of Ethnic Identity. 2nd ed. – London: Routledge, 2018. – 240 p.

13. Phinney J. S., Horenczyk G., Liebkind K., Vedder P. Ethnic Identity, Immigration and Well-Being: An Interactional Perspective. // Journal of Social Issues. – 2019. – Vol. 75(2). – P. 362–379.

UO‘K 159.316.454.54.321.53

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi,
ISFT instituti mustaqil izlanuvchisi, ps.f.b.f.d (PhD)
dildorichkayangiboyeva98@gmail.com

O‘ZBEK OILALARIDA EMOTSIONAL ALIENATSIYA NAMOYON BO‘LISHINING GENDER ATRIBUTLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning gender atributlari hamda uning erkak va ayollarda namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari emotsional alienatsiyaning oilaviy kommunikatsiya sifati, emotsional yaqinlik, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, ota-ona-farzand munosabatlari va birgalikdagi faoliyat bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Shuningdek, ayollarda emotsional alienatsiya asosan salbiy emotsional kechinmalar va hissiy yaqinlikning yetishmasligi orqali, erkaklarda esa atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik hamda ijtimoiy aloqalarning zaiflashuvi orqali namoyon bo‘lishi aniqlandi. Olingan natijalar emotsional alienatsiyaning genderga xos psixologik mexanizmlar asosida shakllanishini hamda uni oilaviy munosabatlar barqarorligini belgilovchi muhim psixosotsial omil sifatida baholash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *emotsional alienatsiya, gender atributlari, o‘zbek oilalari, oilaviy kommunikatsiya, emotsional yaqinlik, er-xotin munosabatlari, subyektiv yolg‘izlik, psixosotsial determinantlar.*

ГЕНДЕРНЫЕ АТРИБУТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ АЛИЕНАЦИИ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Аннотация. *В статье представлены результаты эмпирического исследования гендерных атрибутов эмоциональной алиенации в узбекских семьях. Установлено, что эмоциональная алиенация тесно связана с качеством семейной коммуникации, эмоциональной близостью, семейной поддержкой, отношениями между родителями и детьми, а также совместной семейной деятельностью. Выявлено, что у женщин эмоциональная алиенация преимущественно проявляется через негативные эмоциональные переживания и недостаток эмоциональной близости, тогда как у мужчин через чувство непонимания со стороны окружающих и ослабление социальных связей. Полученные результаты подтверждают, что эмоциональная алиенация формируется посредством гендерно-специфических психологических механизмов и является значимым психосоциальным фактором, влияющим на устойчивость семейных отношений.*

Ключевые слова: *эмоциональная алиенация, гендерные атрибуты, узбекские семьи, семейная коммуникация, эмоциональная близость, супружеские отношения, субъективное одиночество, психосоциальные детерминанты.*

GENDER-SPECIFIC MANIFESTATIONS OF EMOTIONAL ALIENATION IN UZBEK FAMILIES

Abstract. *This article presents an empirical analysis of the gender attributes of emotional alienation in Uzbek families and its socio-psychological manifestations among men and women. The findings indicate that emotional alienation is closely associated with the quality of family communication, emotional intimacy, family support, parent-child relationships, and shared family activities. The results further demonstrate that emotional alienation among women is primarily expressed through negative emotional experiences and insufficient emotional intimacy, whereas among men it is mainly manifested through feelings of being misunderstood and weakened social relationships. The study confirms that emotional alienation develops through gender-specific psychological mechanisms and should be considered an important psychosocial factor influencing the stability and quality of family relationships.*

Keywords: *emotional alienation, gender attributes, Uzbek families, family communication, emotional intimacy, marital relationships, subjective loneliness, psychosocial determinants.*

Kirish. Yolg‘izlikni yuzaga keltiruvchi shaxsiy, vaziyatli va ijtimoiy omillarni tahlil qilish bilan bir qatorda, mazkur fenomenning turli demografik guruhlarda namoyon bo‘lish xususiyatlarini ham alohida ko‘rib chiqish zarur. Chunki yolg‘izlik barcha insonlarda bir xil darajada kuzatilmaydi; aksincha, ayrim

ijtimoiy-demografik qatlamlar mazkur holatga nisbatan koʻproq moyillikka ega boʻladi. Psixologik adabiyotlarda bunday qatlamlar «yolgʻizlik xavfi yuqori boʻlgan guruhlar» sifatida tavsiflanadi. Ana shunday guruhlar orasida jins omili alohida ilmiy qiziqish uygʻotadi. Erkaklar va ayollarda yolgʻizlikning namoyon boʻlishi yuzaki qaraganda oʻxshashdek tuyulsa-da, uning psixologik mexanizmlari, kechish dinamikasi hamda ijtimoiy determinantlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Har ikkala jins vakillarida ham yolgʻizlik emotsional izolyatsiya, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashning yetishmasligi, psixologik noqulaylik va hayotdan qoniqishning pasayishi kabi umumiy belgilar bilan namoyon boʻladi. Biroq ushbu holatning kelib chiqish sabablari hamda unga nisbatan moslashuv strategiyalari erkaklar va ayollarda turlicha shakllanadi. Bu farqlar biologik omillardan koʻra koʻproq jamiyat tomonidan shakllantirilgan gender rollari, madaniy stereotiplar va oilaviy ijtimoiylashuv jarayonlari bilan izohlanadi. Zamonaviy psixologiyada koʻplab olimlar erkaklar va ayollar yolgʻizlikni turli darajada boshdan kechirishi hamda unga nisbatan turlicha psixologik sezgirlik namoyon etishini ta’kidlaydilar. Ayniqsa, oilaviy hayot, nikoh munosabatlari va yaqin emotsional aloqalarning mavjudligi yoki yoʻqligi ushbu tafovutlarni yanada yaqqolroq namoyon qiladi [1].

Tadqiqot obyekti va qoʻllanilgan metodlar. Yolgʻiz erkaklar va yolgʻiz ayollarning psixik salomatligi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, yolgʻiz erkaklar ijtimoiy muhitga moslashish darajasi boʻyicha yolgʻiz ayollarga nisbatan ancha zaifroq hisoblanadi. Tadqiqot natijalari nikoh instituti erkaklar uchun psixologik va ijtimoiy jihatdan ayollarga qaraganda koʻproq himoya omili ekanligini koʻrsatadi. Boshqacha aytganda, nikoh erkakning emotsional barqarorligi, kundalik hayotini tashkil etishi, ijtimoiy aloqalarini qoʻllab-quvvatlashi hamda psixologik farovonligini ta’minlashda muhim resurs vazifasini bajaradi. Oila va nikoh psixologiyasi boʻyicha tadqiqotlar olib borgan N.Aristovaning fikricha, tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ham, zamonaviy jamiyat sharoitida ham, shuningdek istiqbolda ham nikoh instituti koʻproq erkak manfaatlariga xizmat qilib kelgan. Muallifning ta’kidlashicha, nikoh erkak uchun nafaqat emotsional qoʻllab-quvvatlash manbai, balki ijtimoiy maqomni mustahkamlovchi, kundalik turmushni tashkil etuvchi va psixologik himoya vazifasini bajaruvchi muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Shu sababli nikohdan mahrum boʻlish yoki turmush oʻrtogʻini yoʻqotish erkak psixikasiga ayollarga qaraganda kuchliroq salbiy ta’sir koʻrsatadi [6].

Mazkur xulosalar D.Perlman va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar bilan ham tasdiqlangan. Ularning ilmiy izlanishlari shuni koʻrsatadiki, beva qolgan erkaklarda yolgʻizlik hissi nikohda yashayotgan erkaklarga nisbatan sezilarli darajada yuqori boʻladi. Aksincha, ayollar orasida turmush qurgan va beva qolgan respondentlar oʻrtasida yolgʻizlik darajasi boʻyicha statistik jihatdan muhim farqlar aniqlanmagan. Ushbu natijalar shuni anglatadiki, ayollar turmush oʻrtogʻidan ayrilganidan keyin ham mavjud ijtimoiy tarmoqlari, qarindoshlik aloqalari, doʻstlik munosabatlari hamda emotsional qoʻllab-quvvatlash manbalari orqali yolgʻizlikni ma’lum darajada kompensatsiya qila oladilar. Erkaklarda esa bunday kompensator mexanizmlar nisbatan sust rivojlangan boʻlib, ularning asosiy emotsional tayanchi koʻpincha turmush oʻrtogʻi bilan cheklanadi [5]. Yolgʻizlik fenomenini gender nuqtai nazaridan oʻrgangan T.Bikson va J.Gudchaylds tadqiqotlari mazkur masalaga yanada chuqurroq yondashishga imkon beradi. Mualliflar yolgʻiz erkaklarni yolgʻizlikdan eng koʻp aziyat chekadigan ijtimoiy guruh sifatida tavsiflaydilar. Aksincha, nikohda yashayotgan erkaklar yolgʻizlik hissi eng kam kuzatiladigan guruhni tashkil etadi. Tadqiqotchilar ushbu tafovutni erkaklar va ayollarning boʻsh vaqtni tashkil etish usullari hamda ijtimoiy faolligi bilan izohlaydilar. Empirik ma’lumotlarga koʻra, yolgʻiz erkaklarning qariyb 70 foizi boʻsh vaqtini yolgʻizlikni kuchaytiruvchi individual mashgʻulotlar bilan oʻtkazadi. Ular koʻproq yakka tartibdagi faoliyatni tanlaydi, kamroq ijtimoiy uchrashuvlarda qatnashadi hamda emotsional muloqotga kirishadi. Natijada mavjud ijtimoiy izolyatsiya yanada chuqurlashib, yolgʻizlikning barqarorlashishiga zamin yaratadi. Bunga qarama-qarshi ravishda, yolgʻiz ayollarning taxminan 70 foizi boʻsh vaqtini turli xil ijtimoiy faoliyatlarga bagʻishlaydi. Ular qarindoshlar bilan uchrashish, dugonalar bilan muloqot qilish, jamoat tadbirlarida ishtirok etish, koʻngilli faoliyat, madaniy tadbirlar va boshqa ijtimoiy munosabatlarni qoʻllab-quvvatlovchi mashgʻulotlar orqali oʻz ijtimoiy tarmogʻini faol saqlab qoladilar. Aynan mana shu faol ijtimoiy integratsiya ayollarda yolgʻizlikning chuqurlashib ketishini ma’lum darajada cheklaydi. Erkaklar koʻpincha emotsional yaqinlikning asosiy manbai sifatida turmush oʻrtogʻiga tayanadilar. Shu sababli nikohning buzilishi, ajralish yoki turmush oʻrtogʻining vafoti erkakning nafaqat oilaviy tizimdagi rolini, balki uning emotsional tayanch tizimini ham izdan chiqaradi. Ayollar esa, odatda, oiladan tashqaridagi qarindoshlik, doʻstlik va qoʻshnichilik munosabatlarini ham faol saqlab qolganlari sababli emotsional resurslarini diversifikatsiya qilgan boʻladilar [4]. Shu nuqtai nazardan, oilalarda er va xotinlarda yolgʻizlikning namoyon boʻlish mexanizmlari ham turlicha shakllanadi. Erkaklarda yolgʻizlik koʻproq ijtimoiy va emotsional tayanchning yoʻqolishi natijasida yuzaga keladigan izolyatsiya bilan bogʻliq boʻlsa, ayollarda esa u yaqin emotsional munosabatlarning sifati, oʻzaro tushunish, psixologik yaqinlik va hissiy qoʻllab-quvvatlashning yetishmasligi bilan chambarchas bogʻliqdir. Shu sababli oilaviy munosabatlarni psixologik jihatdan mustahkamlash

jarayonida erkaklarda ijtimoiy integratsiyani kengaytirish, ayollarda esa emotsional yaqinlik va o‘zaro ishonchni rivojlantirishga qaratilgan psixologik texnologiyalarni qo‘llash ilmiy va amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi [3].

Nikoh insonning nafaqat biologik va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi institut, balki uning psixologik barqarorligini ta’minlovchi, emotsional xavfsizlikni shakllantiruvchi hamda shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasini mustahkamlovchi murakkab tizim hisoblanadi. Shu sababli turmush o‘rtog‘ining vafoti, nikohning buzilishi yoki uzoq muddatli oilaviy ajralish kabi hayotiy hodisalar shaxsning psixologik muvozanatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan eng kuchli stress omillari sirasiga kiradi. Ayniqsa, ushbu jarayonlarning yolg‘izlik hissi bilan bog‘liq mexanizmlarini tahlil qilish zamonaviy oilaviy psixologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bevalik yoki ajralishning psixologik oqibatlari erkaklar va ayollarda bir xil namoyon bo‘lmaydi. Mazkur farqlar biologik jins bilan emas, balki umr davomida shakllangan gender rollari, oiladagi vazifalar taqsimoti, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari hamda emotsional bog‘liqlikning o‘ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi.

T.Bikson ushbu masalaga oid ilmiy kuzatuvlarida keksa yoshdagi ayollar va erkaklarning yolg‘izlikni boshdan kechirish mexanizmlarini qiyosiy tahlil qiladi. Uning fikricha, yoshi ulg‘aygan ayol turmush o‘rtog‘idan ayrilganidan keyin qayta turmush qurish imkoniyatlari nisbatan cheklangan bo‘lsa-da, u kundalik hayotni mustaqil tashkil etish, uy xo‘jaligini yuritish, ijtimoiy aloqalarni saqlab qolish va shaxsiy ehtiyojlarini mustaqil qondirish ko‘nikmalariga ega bo‘lganligi sababli yolg‘izlikka nisbatan ancha moslashuvchan bo‘ladi. Ayollar odatda qarindoshlar, farzandlar, qo‘shnilar, dugonalar hamda boshqa yaqin ijtimoiy tarmoqlar bilan aloqalarni davom ettirish orqali emotsional qo‘llab-quvvatlash manbalarini saqlab qoladilar. Shu bois, turmush o‘rtog‘ining yo‘qolishi ularda qayg‘u, iztirob va emotsional bo‘shliqni yuzaga keltirgan bo‘lsa-da, mavjud ijtimoiy resurslar ushbu yo‘qotishning psixologik oqibatlarini ma’lum darajada yumshatishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, yolg‘iz yashayotgan keksa ayollar o‘z vaqtini mustaqil rejalashtirish, kundalik faoliyatni o‘z ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etish va hayotiy energiyasini erkin taqsimlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu omillar ularning psixologik moslashuvchanligini kuchaytiradi hamda yolg‘izlikning destruktiv shaklga aylanish ehtimolini kamaytiradi [6].

Erkaklarda esa vaziyat mutlaqo boshqacha kechadi. Ko‘plab oilalarda an’anaviy gender rollari hukmron bo‘lganligi sababli erkaklarning kundalik turmushni mustaqil tashkil etish tajribasi nisbatan cheklangan bo‘ladi. Turmush o‘rtog‘i nafaqat emotsional yaqin inson, balki oilaviy hayotni tashkil etuvchi asosiy psixologik va maishiy tayanch sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli bevalik yoki ajralish erkak uchun bir vaqtning o‘zida bir nechta yo‘qotishlarni anglatadi: emotsional yaqinlikning yo‘qolishi, oilaviy rolning buzilishi, kundalik hayotning izdan chiqishi hamda ijtimoiy identifikatsiyaning zaiflashishi. Natijada erkaklarda psixologik dezadaptatsiya, ijtimoiy izolyatsiya, depressiv reaksiyalar va yolg‘izlik hissining kuchayishi ehtimoli sezilarli darajada ortadi. Ayniqsa, keksa yoshdagi erkaklarda ajralish yoki bevalik ko‘pincha hayot mazmunining yo‘qolishi, ijtimoiy faollikning pasayishi va shaxslararo munosabatlarning keskin qisqarishi bilan kechadi.

Mazkur xulosalar amerikalik olimlarning gerontopsixologik tadqiqotlari bilan ham tasdiqlanadi. Ularning ma’lumotlariga ko‘ra, keksa yoshdagi beva erkaklar orasida suitsidal xulq-atvor va o‘z joniga qasd qilish ko‘rsatkichlari nikohda yashayotgan erkaklarga nisbatan ancha yuqori uchraydi. Ushbu holat nikohning erkaklar psixologik salomatligini himoya qiluvchi muhim omil ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Statistik kuzatuvlar ham nikohning erkaklar salomatligiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Turmush qurgan erkaklar yolg‘iz erkaklarga qaraganda jismoniy va ruhiy salomatlikning yuqori darajasi bilan tavsiflanadi. Ular kamroq kasallanadi, baxtsiz hodisalarga kamroq duch keladi, alkogolga qaramlik va suitsidal xatti-harakatlarga kamroq moyillik bildiradi. Shuningdek, ular kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatliroq bo‘lib, o‘rtacha umr davomiyligi ham yuqoriroq bo‘ladi. Mazkur natijalar nikohning faqat oilaviy institut emas, balki psixologik rezilyentlikni shakllantiruvchi ijtimoiy himoya mexanizmi sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi [7].

Erkak va ayollarda yolg‘izlikning turlicha kechishini izohlovchi muhim nazariy yondashuvlardan biri J.Stoks va I.Levin tomonidan taklif etilgan. Mualliflarning ta’kidlashicha, erkaklar yolg‘izlikni asosan o‘zlari mansub bo‘lgan ijtimoiy guruhlar bilan aloqalarning buzilishi natijasida boshdan kechiradilar. Ya’ni erkak uchun kasbiy jamoa, do‘stlar davrasi, hamkasblar yoki boshqa ijtimoiy guruhlar bilan muntazam muloqot qilish uning psixologik farovonligining muhim sharti hisoblanadi. Ayollarda esa yolg‘izlikning asosiy manbai guruhiy aloqalar soni emas, balki yaqin, ishonchli va chuqur emotsional diadik munosabatlarning sifati hisoblanadi. Ular uchun bitta yaqin inson bilan shakllangan samimiy va ishonchli munosabat ko‘plab yuzaki ijtimoiy aloqalarga qaraganda ancha katta psixologik ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli erkaklarda ijtimoiy guruhdagi mavqe va faol ishtirok yolg‘izlikni kamaytiruvchi muhim omil bo‘lsa, ayollarda esa yaqin emotsional munosabatlarning sifati va o‘zaro ishonchning yuqori darajada

bo‘lishi himoya omili sifatida namoyon bo‘ladi. Agar erkak o‘zi uchun muhim bo‘lgan guruhlardan ajralib qolsa yoki ular bilan muloqot chastotasi pasaysa, unda ijtimoiy izolyatsiya hissi kuchayadi va yolg‘izlik ehtimoli ortadi. Aksincha, ayol o‘zining yaqin shaxslar bilan bo‘lgan emotsional munosabatlaridan qoniqish hosil qilsa, yolg‘izlikni boshdan kechirish ehtimoli sezilarli darajada kamayadi.

Mazkur ilmiy dalillar oilaviy munosabatlarni tahlil qilishda alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Nikohning buzilishi yoki turmush o‘rtog‘ining yo‘qolishi erkak va ayolda bir xil voqea bo‘lsa-da, uning psixologik oqibatlari turlicha rivojlanadi. Erkaklarda bu holat ko‘proq ijtimoiy identifikatsiyaning buzilishi, emotsional tayanchning yo‘qolishi va guruhiy integratsiyaning susayishi bilan tavsiflansa, ayollarda u yaqin emotsional bog‘liqlikning uzilishi, psixologik yaqinlikning yo‘qolishi hamda hissiy ehtiyojlarning qondirilmay qolishi bilan izohlanadi.

Shu nuqtayi nazardan, oilalarda er va xotinlarda namoyon bo‘ladigan yolg‘izlikni faqatgina turmush o‘rtog‘ining mavjud yoki mavjud emasligi bilan tushuntirish yetarli emas. Asosiy determinant nikohning mavjudligi emas, balki undagi emotsional yaqinlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, rollarning mosligi, psixologik xavfsizlik hissi hamda ijtimoiy integratsiya darajasidir. Demak, rasmiy nikohda yashayotgan shaxs ham emotsional begonalashuv, psixologik uzoqlashish yoki kommunikativ uzilish tufayli chuqur yolg‘izlikni boshdan kechirishi mumkin. Aksincha, turmush o‘rtog‘idan ayrilgan ayrim shaxslar rivojlangan ijtimoiy tarmoqlar, mustahkam oilaviy resurslar va konstruktiv moslashuv strategiyalari tufayli yuqori psixologik farovonlikni saqlab qolishlari mumkin.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Oilaviy psixologiyada nikohning mavjudligi va nikohdan psixologik qoniqish tushunchalari bir xil mazmunga ega emas. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rasmiy nikohning o‘zi shaxsni yolg‘izlikdan himoya qiluvchi mutlaq omil hisoblanmaydi. Aksincha, nikohning subyektiv sifati, er-xotin o‘rtasidagi emotsional yaqinlik, rollarning uyg‘unligi, o‘zaro tushunish, kommunikativ ochiqlik va psixologik qo‘llab-quvvatlash darajasi nikohning himoya resursiga aylanishini belgilovchi asosiy determinantlardir. Shu bois oilaviy psixologiyada «nikohdan qoniqish» fenomeni yolg‘izlikni tushuntiruvchi markaziy psixologik konstruktlardan biri sifatida qaraladi. Empirik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bir xonadonda yashayotgan, rasmiy nikohda bo‘lgan juftliklar ham chuqur emotsional yolg‘izlikni boshdan kechirishi mumkin.

Bunday vaziyatda yolg‘izlik jismoniy ajralish emas, balki psixologik uzoqlashish, hissiy begonalashuv va o‘zaro tushunishning izdan chiqishi natijasida shakllanadi. Demak, nikohning davomiyligi yoki huquqiy maqomi emas, balki undagi emotsional sifat shaxsning yolg‘izlikni boshdan kechirishi yoki aksincha, psixologik farovonligini ta’minlashini belgilaydi.

Mazkur masalani izohlashda nemis olimi **U.Yakel** tomonidan ishlab chiqilgan nikohdan qoniqishning nazariy modeli alohida metodologik ahamiyatga ega. Olim ushbu modelni **rol nazariyasi** va **simvolik interaksionizm** konsepsiyasiga tayangan holda ishlab chiqqan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, oilaviy munosabatlarning muvaffaqiyati er va xotinning bir-biriga nisbatan shakllantirgan rol haqidagi tasavvurlari hamda ushbu tasavvurlar amaliy xulq-atvorda qanchalik mos kelishi bilan belgilanadi. Yakel nikohdagi o‘zaro munosabatlarni tushuntirish uchun uchta asosiy psixologik konstruktni ajratadi: **rol kutishlari (role expectation), rolning o‘zini anglash (role self-definition) va rol xulqi (role behavior) [8].**

Rol kutishlari turmush o‘rtog‘idan kutilayotgan barcha xatti-harakatlar, majburiyatlar, hissiy reaksiyalar va oilaviy vazifalar haqidagi subyektiv tasavvurlarni o‘z ichiga oladi. Har bir inson oilaga kirar ekan, bolalikdagi oilaviy tajribasi, madaniy qadriyatlari, jinsiy stereotiplari hamda ijtimoiylashuv jarayonida shakllangan tasavvurlarga asoslanib, turmush o‘rtog‘idan muayyan xulq-atvorni kutadi.

Masalan, erkak ayolni oiladagi asosiy hissiy tayanch, uy-ro‘zg‘or tashkilotchisi yoki farzand tarbiyachisi sifatida tasavvur qilishi mumkin. Ayol esa erkakni himoyachi, moddiy ta’minotchi, hissiy qo‘llab-quvvatlovchi yoki oilaviy qarorlarning yetakchisi sifatida qabul qilishi mumkin. **Rolning o‘zini anglash** esa shaxsning o‘zi oilada qanday rolni bajarishi kerakligi haqidagi ichki tasavvurini anglatadi. Bu konstrukt shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan talablarini, o‘zini qanday turmush o‘rtog‘i deb hisoblashi va oiladagi shaxsiy identifikatsiyasini ifodalaydi. Masalan, ayrim erkaklar o‘zlarini faqat moddiy ta’minotchi sifatida baholaydilar, ayrimlari esa hissiy yaqinlikni ham o‘z rolining ajralmas qismi deb biladilar.

Xuddi shuningdek, ayollar ham o‘zlarini faqat ona yoki uy bekasi sifatida emas, balki teng huquqli hamkor, maslahatchi va emotsional lider sifatida qabul qilishlari mumkin. **Rol xulqi** esa shaxsning amalda namoyon qilayotgan oilaviy xatti-harakatlarini ifodalaydi. Bu bosqichda turmush o‘rtog‘ining kutishlari va shaxsning o‘z rolini anglash darajasi kundalik oilaviy faoliyatda qanday aks etayotgani muhim ahamiyat kasb etadi. Agar rol kutishlari, rol identifikatsiyasi va real xulq-atvor o‘rtasida muvofiqlik mavjud bo‘lsa, oilaviy munosabatlarda psixologik barqarorlik va nikohdan qoniqish shakllanadi. Aksincha, mazkur komponentlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik o‘zaro norozilik, nizolar, emotsional uzoqlashuv va oxir-oqibat oilaviy yolg‘izlikning rivojlanishiga olib keladi. Shu sababli Yakel modelida nikohdan qoniqishning asosiy

sharti sifatida **rol uyg‘unligi** tushunchasi ilgari suriladi. Rol uyg‘unligi deganda er va xotinning bir-biridan kutayotgan oilaviy funksiyalari bilan ularning real bajarilayotgan vazifalari o‘rtasidagi psixologik moslik tushuniladi. Ushbu moslik qancha yuqori bo‘lsa, oila a’zolari o‘zlarini shunchalik tushunilgan, qadrlangan va psixologik jihatdan xavfsiz his qiladilar.

Rol uyg‘unligini ta’minlovchi asosiy psixologik determinantlar sifatida Yakel quyidagi omillarni ajratadi:

- verbal kommunikatsiyaning rivojlanganligi;
- empatiya darajasi;
- turmush o‘rtog‘ining nuqtai nazarini qabul qila olish;
- o‘z rol haqidagi stereotiplarni qayta ko‘rib chiqishga tayyorlik;
- oilaviy vaziyatlarga mos ravishda rollarni moslashtirish qobiliyati.

Mazkur omillarning har biri emotsional alienatsiya va oilaviy yolg‘izlikning oldini oluvchi psixologik resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki ochiq muloqot mavjud bo‘lgan oilalarda rollar yuzasidan kelishmovchiliklar o‘z vaqtida muhokama qilinadi, o‘zaro kutishlar aniqlashtiriladi va psixologik masofa chuqurlashishining oldi olinadi. Nikohdan qoniqishni tushuntiruvchi tadqiqotlarda alohida e’tibor qaratilgan konstruktlardan yana biri **androginlik** hisoblanadi. Psixologiyada androgin shaxs deganda faqat biologik jins emas, balki psixologik xususiyatlar nuqtai nazaridan ham erkaklik va ayollikka xos sifatlarni uyg‘unlashtira oladigan inson tushuniladi. Bunday shaxs zarur vaziyatda qat’iyat, liderlik va mustaqillikni namoyon qila olishi bilan birga, mehribonlik, empatiya, emotsional sezgirlik va g‘amxo‘rlikni ham muvaffaqiyatli ifodalay oladi.

Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, androgin shaxslar oilaviy munosabatlardan ko‘proq qoniqadilar hamda yolg‘izlik hissini boshqa shaxs tiplariga qaraganda kamroq boshdan kechiradilar. Buning asosiy sababi ularning psixologik moslashuvchanligi va vaziyatga qarab rollarni o‘zgartirishga tayyorligidadir. Androgin shaxs oilaviy vaziyatlarda qat’iylik zarur bo‘lganda liderlikni namoyon qiladi, hissiy qo‘llab-quvvatlash talab etilganda esa empatik pozitsiyani egallaydi. Natijada oilaviy munosabatlarda moslashuvchanlik ortadi va rollar to‘qnashuvi kamayadi.

Aksincha, psixologik jihatdan qattiq gender stereotiplari asosida shakllangan shaxslar oiladagi rol o‘zgarishlarini qabul qilishda qiyinchilikka duch keladilar. Masalan, iqtisodiy vaziyat sababli ayolning asosiy daromad topuvchi bo‘lib qolishi yoki erkakning farzand tarbiyasida faol ishtirok etishi ayrim shaxslarda ichki rol konflikti va identifikatsiya inqirozini yuzaga keltirishi mumkin. Agar ushbu vaziyat konstruktiv tarzda hal etilmasa, emotsional uzoqlashuv va oilaviy yolg‘izlik asta-sekin kuchaya boshlaydi. Yakel modeli oilaviy munosabatlarni dinamik tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Olimning fikricha, nikohdan qoniqish bir martalik natija emas, balki doimiy ravishda o‘zini-o‘zi qo‘llab-quvvatlovchi siklik jarayondir.

Er va xotin bir-birining hissiy ehtiyojlarini anglab, empatiya ko‘rsatsa, ularning nikohdan qoniqishi ortadi. Qoniqishning ortishi esa o‘z navbatida yangi darajadagi ishonchni shakllantiradi. Ishonch kuchaygani sari ochiq muloqot rivojlanadi, rollar yanada moslashuvchan tus oladi va bu jarayon yana nikohdan qoniqishni mustahkamlaydi. Demak, oilaviy munosabatlarda ijobiy psixologik sikl shakllanadi. Bunga teskari ravishda verbal kommunikatsiyaning sustligi, empatiyaning pasayishi, o‘zaro kutishlarning muhokama qilinmasligi hamda rollarning qattiq stereotiplashuvi salbiy siklni yuzaga keltiradi. Avval emotsional tushunmovchiliklar paydo bo‘ladi, keyinchalik ular kommunikativ masofalanishga aylanadi, undan so‘ng hissiy yaqinlik pasayadi va yakunda emotsional alienatsiya hamda subyektiv yolg‘izlik rivojlanadi. Nikohdan qoniqishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rgangan ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy farovonlikni belgilovchi omillar ichida **jinsiy moslik va intim munosabatlardan qoniqish** birinchi o‘rinda turadi. Undan keyingi o‘rinni oilaning iqtisodiy sharoiti, ota-onalar bilan munosabatlar, yashash muhiti, kasbiy bandlik kabi fon omillari egallaydi. Shaxsning individual psixologik xususiyatlari, xususan nevrotiklik, psixotiklik, ekstraversiya ham nikoh sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Qizig‘i shundaki, er va xotinning siyosiy qarashlari, umumiy dunyoqarashi yoki ayrim ijtimoiy pozitsiyalari nikohdan qoniqishga unchalik kuchli ta’sir ko‘rsatmaydi. Tadqiqotlar shuningdek, juftliklarning o‘xshashligi oilaviy baxtning asosiy sharti emasligini ko‘rsatgan. O‘xshashlik munosabatlarning dastlabki bosqichida muhim ahamiyat kasb etsa-da, uzoq muddatli nikohning barqarorligi ko‘proq moslashuvchanlik, empatiya va konstruktiv kommunikatsiya bilan belgilanadi.

Shaxsning individual psixologik xususiyatlari oilaviy munosabatlarning eng muhim determinantlaridan biri hisoblanadi. Nevrotiklik darajasining yuqoriligi hissiy beqarorlik, xavotir va nizolarga moyillikni kuchaytiradi. Psixotiklikning ortishi esa agressivlik, empatiyaning pasayishi va sherik manfaatlarini hisobga olmaslikka olib keladi. Bunday shaxslar oilaviy rollarni moslashtirishda qiyinchilikka duch keladilar va natijada nikohdan qoniqish pasayadi. Psixologik nuqtai nazardan nevrotiklik, psixotiklik va haddan tashqari rigid gender stereotiplari oilaviy yolg‘izlikning muhim shaxsiy determinantlari hisoblanadi.

Chunki bunday shaxslar turmush o‘rtog‘ining ehtiyojlariga moslashishda qiynaladilar, hissiy muloqotdan qochadilar yoki o‘z pozitsiyalarini mutlaq deb hisoblaydilar. Natijada oilaviy kommunikatsiya izdan chiqadi va emotsional alienatsiya shakllanadi.

Bizningcha, zamonaviy o‘zbek oilalarida ham nikohdan qoniqishning asosiy prediktori oilaviy rollarning an’anaviy yoki zamonaviy bo‘lishida emas, balki ularning er va xotin tomonidan o‘zaro kelishilgan, adolatli taqsimlangan va vaziyatga mos ravishda moslashtirilganligidadir. Rollarning qat’iy stereotiplashuvi oilaviy moslashuvchanlikni pasaytirsa, kommunikativ ochiqlik, empatiya va psixologik moslashuvchanlik esa emotsional yaqinlikni mustahkamlaydi. Shunday qilib, nikohdan qoniqish oilaviy yolg‘izlikning eng muhim himoya omillaridan biri bo‘lib, uning shakllanishida rol uyg‘unligi, verbal kommunikatsiya, empatiya, psixologik moslashuvchanlik va androgin xususiyatlarning rivojlanganligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Demak, oilalarda emotsional alienatsiyaning oldini olish faqat nizolarni kamaytirish yoki oilaviy vazifalarni taqsimlash bilan cheklanmaydi; u er va xotinning o‘zaro rollarni qayta kelishib olishi, bir-birining psixologik ehtiyojlarini anglay olishi hamda oila tizimining o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashuvchan javob bera olish qobiliyatini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

1-jadval.

Yolg‘izlik (UCLA Loneliness Scale) so‘rovnomasining tavsiflovchi statistik tahlili (n=1200)

Yo‘nalishlar	Min	Max	X	Σ	As	Ekz
Salbiy emotsional kechinmalar	4,00	24	11,11	2,04	-2,412	-2,345
Ijtimoiy aloqalarning buzilishi	4,00	22	10,87	2,11	-2,537	2,456
Atrofdagilar tomonidan tushunmaslik	4,00	20	9,87	2,98	-1,119	-2,567

O‘zbek oilalarida er va xotinlarda yolg‘izlikning namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash maqsadida UCLA Loneliness Scale metodikasi qo‘llanildi. Tavsiflovchi statistik tahlil natijalari yolg‘izlikning uchta asosiy psixologik komponenti - salbiy emotsional kechinmalar, ijtimoiy aloqalarning buzilishi hamda atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik hissi bo‘yicha baholandi. Tahlil natijalariga ko‘ra, salbiy emotsional kechinmalar shkalasi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 11,11 ballni tashkil etdi. Mazkur natija respondentlarning muayyan qismida yolg‘izlik bilan bog‘liq ichki emotsional noqulaylik, bo‘shliq hissi, hissiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi va psixologik izolyatsiya kechinmalari mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, standart og‘ishning nisbatan pastligi (Σ=2,04) aksariyat respondentlarning javoblari o‘rtacha qiymat atrofida jamlanganligini, ya’ni salbiy emotsional tajribalarning tanlanma bo‘yicha keskin differensiallashmaganligini anglatadi. Psixologik nuqtai nazardan bu holat o‘zbek oilalarida yolg‘izlik ko‘proq yashirin emotsional diskomfort shaklida namoyon bo‘layotganini, biroq uning barcha oilalarda bir xil intensivlikda kuzatilmasligini bildiradi.

Ijtimoiy aloqalarning buzilishi shkalasi bo‘yicha o‘rtacha qiymat 10,87 ballni tashkil etdi. Ushbu natija salbiy emotsional kechinmalar ko‘rsatkichiga juda yaqin bo‘lib, yolg‘izlikning emotsional va ijtimoiy komponentlari o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Psixologik mazmunda mazkur ko‘rsatkich respondentlarning yaqin insonlar bilan muloqot intensivligi, oila ichidagi hamkorlik, qarindoshlik va do‘stlik aloqalarining subyektiv bahosini aks ettiradi. O‘zbek oilalarida qarindoshlik va mahalla institutining nisbatan rivojlanganligi ijtimoiy aloqalarning to‘liq uzilib ketishini cheklayotgan bo‘lsa-da, ayrim oilalarda emotsional yaqinlikning pasayishi sababli ijtimoiy aloqalar sifati zaiflashayotganini taxmin qilish mumkin. Atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik shkalasi bo‘yicha o‘rtacha qiymat 9,87 ballni tashkil etdi. Uchala yo‘nalish ichida aynan ushbu shkalada standart og‘ishning eng yuqori bo‘lishi respondentlar o‘rtasida sezilarli individual tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Psixologik jihatdan bu natija barcha oilalarda bir xil darajada emas, balki ayrim juftliklarda turmush o‘rtoqlar bir-birining hissiy ehtiyojlarini yaxshi anglayotgani, boshqa oilalarda esa emotsional tushunmovchilik, tinglanmaslik va psixologik uzoqlashuv ancha kuchli ekanligini bildiradi. Aynan tushunilmaslik hissi oilaviy emotsional alienatsiyaning dastlabki va eng sezgir indikatorlaridan biri hisoblanadi. Demak, o‘zbek oilalarida yolg‘izlik ommaviy va bir xil darajada uchraydigan hodisa emas, balki oilaning kommunikativ muhiti, emotsional yaqinligi, nikoh sifati, turmush staji, oilaviy rollar taqsimoti va individual psixologik xususiyatlarga bog‘liq holda differensial tarzda shakllanadi.

Tavsiflovchi statistik natijalar o‘zbek oilalarida yolg‘izlikning uchta o‘zaro bog‘liq psixologik komponent orqali shakllanishini ko‘rsatadi. Salbiy emotsional kechinmalar shaxsning ichki ruhiy holatini, ijtimoiy aloqalarning buzilishi oilaning kommunikativ va ijtimoiy integratsiyasini, atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik esa er-xotin hamda boshqa oila a’zolari o‘rtasidagi emotsional yaqinlik sifatini aks ettiradi. Ushbu uchala komponentning uyg‘unlashuvi oilaviy emotsional alienatsiyaning rivojlanish mexanizmini tushuntirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, mazkur natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek oilalarida yolg‘izlikning asosiy manbai ijtimoiy aloqalarning mutlaq yo‘qligi emas, balki

mavjud oilaviy munosabatlarning psixologik sifati, er-xotin o‘rtasidagi emotsional ochiqlik, o‘zaro tushunish va hissiy qo‘llab-quvvatlash darajasidir. Shu bois oilaviy psixoprofilaktika dasturlarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish, empatik tinglash ko‘nikmalarini shakllantirish, emotsional yaqinlikni mustahkamlash va oilaviy rollarni moslashtirishga qaratilgan psixologik texnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2-jadval.

Yolg‘izlik (UCLA Loneliness Scale) so‘rovnomasining normal taqsimlanish qonuniyatiga mosligini tekshirish (n=1200)

Yo‘nalishlar	Kolmogorov-Smirnov mezoni bo‘yicha (Z qiymat)	Ishonchlilik ko‘rsatkichi (p)
Salbiy emotsional kechinmalar	5,555	0,000**
Ijtimoiy aloqalarning buzilishi	6,123	0,000**
Atrofdagilar tomonidan tushunmaslik	4,678	0,000**

Izoh: *** - p<0.01*

Eng yuqori Kolmogorov-Smirnov Z qiymati ijtimoiy aloqalarning buzilishi shkalasida (Z=6,123) qayd etildi. Ushbu natija respondentlarning ijtimoiy integratsiyasi va shaxslararo munosabatlari bo‘yicha farqlar boshqa komponentlarga qaraganda ancha yaqqol ekanligini ko‘rsatadi. Psixologik jihatdan bu o‘zbek oilalarida ayrim respondentlar keng va faol ijtimoiy tarmoqqa ega bo‘lsa, boshqalarida esa qarindoshlar, do‘stlar yoki yaqin insonlar bilan muloqotning sezilarli darajada cheklanganligini anglatadi. Ayniqsa, mehnat migratsiyasi, urbanizatsiya, iqtisodiy bosim, ish bilan yuqori bandlik hamda raqamli kommunikatsiyaning ustunlik qilishi ayrim oilalarda ijtimoiy aloqalarning zaiflashishiga sabab bo‘layotgan bo‘lishi mumkin.

Salbiy emotsional kechinmalar shkalasi bo‘yicha qayd etilgan Z=5,555 natijasi respondentlarning yolg‘izlikni emotsional jihatdan boshdan kechirishi ham bir xil emasligini ko‘rsatadi. Ayrim respondentlarda yolg‘izlik faqat qisqa muddatli emotsional noqulaylik sifatida namoyon bo‘lsa, boshqalarda u davomli ruhiy tushkunlik, ichki bo‘shliq, xavotir va psixologik izolyatsiya shaklida kechayotgan bo‘lishi mumkin. Mazkur holat oiladagi emotsional yaqinlik darajasi, er-xotin o‘rtasidagi kommunikatsiya sifati hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash resurslarining turlicha ekanligi bilan izohlanadi.

Atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik shkalasi bo‘yicha olingan Z=4,678 qiymati qolgan ikki yo‘nalishga nisbatan biroz pastroq bo‘lsa-da, statistik jihatdan yuqori ahamiyatga ega. Bu natija respondentlarning yaqin insonlar tomonidan tushunilishi yoki tushunilmasligi borasida ham sezilarli individual tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Psixologik jihatdan aynan mazkur komponent oilaviy emotsional alienatsiyaning eng nozik va sezgir ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Chunki inson ko‘plab ijtimoiy aloqalarga ega bo‘lishi mumkin, biroq turmush o‘rtog‘i yoki oila a’zolari tomonidan hissiy jihatdan tushunilmasa, u baribir chuqur subyektiv yolg‘izlikni boshdan kechiradi.

Natijalarning mazmuniy tahlili shuni ko‘rsatadiki, yolg‘izlikning uchala komponenti statistik jihatdan normal taqsimotdan og‘gan bo‘lsa-da, ularning psixologik mazmuni bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit tizimni hosil qiladi. Dastlab shaxs o‘zini yaqinlari tomonidan yetarlicha tushunilmagan deb his qiladi, keyinchalik kommunikativ faolligi pasayib, ijtimoiy aloqalar sifati zaiflashadi. Ushbu jarayon uzoq davom etganda esa salbiy emotsional kechinmalar kuchayib, barqaror subyektiv yolg‘izlik shakllanadi.

Demak, mazkur komponentlar o‘zaro ketma-ket rivojlanadigan psixologik mexanizm sifatida qaralishi mumkin. Bizningcha, Kolmogorov-Smirnov mezoni bo‘yicha olingan natijalar yolg‘izlik fenomenining o‘zbek oilalarida murakkab va differensial psixologik tabiatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Yolg‘izlikning namoyon bo‘lishi oilaviy kommunikatsiya sifati, er-xotin o‘rtasidagi emotsional yaqinlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash resurslari, oilaviy rollarning uyg‘unligi hamda shaxsning individual psixologik xususiyatlariga bevosita bog‘liq holda shakllanadi.

1-rasmda O‘zbek oilalaridagi er va xotinlarda yolg‘izlikning past, o‘rta va yuqori darajalarda namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari keltirilgan. Tahlil natijalari yolg‘izlikning jinslar kesimida bir xil taqsimlanmaganligini, uning namoyon bo‘lish intensivligi erkaklar va ayollarda turlicha psixologik mexanizmlar asosida shakllanishini ko‘rsatadi. Natijalarga ko‘ra, past darajadagi yolg‘izlik erkaklarning 14,40 % ida, ayollarning esa atigi 4,17 % ida qayd etilgan. Mazkur farq erkaklar orasida yolg‘izlikni deyarli boshdan kechirmaydigan yoki o‘zining ijtimoiy va emotsional ehtiyojlarini qoniqarli deb baholaydigan respondentlar ulushi ayollarga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi. Psixologik nuqtai nazardan, bunday holat erkaklarning yolg‘izlikni boshqacha idrok etishi, emotsional kechinmalarini kamroq tan olishi yoki ularni ochiq ifodalashga kamroq moyilligi bilan izohlanishi mumkin.



1-rasm. O‘zbek oilalaridagi er va xotinlarda yolg‘izlik namoyon bo‘lishining darajaviy farqlari (% hisobida)

Gender psixologiyasida erkaklar ko‘pincha o‘z hissiyotlarini yashirishga, mustaqillikni namoyon etishga va emotsional qiyinchiliklarni ichki resurslar hisobiga yengishga intilishi qayd etiladi. Shu sababli ayrim hollarda past darajadagi ko‘rsatkichlar yolg‘izlikning haqiqiy pastligini emas, balki uning subyektiv baholanishidagi o‘ziga xoslikni ham aks ettirishi mumkin. Diagrammadagi eng katta ulush o‘rta darajadagi yolg‘izlik hissasiga to‘g‘ri keladi. Erkaklarning 42,74 % ida, ayollarning esa 57,20 % ida aynan o‘rta darajadagi yolg‘izlik aniqlangan. Ayniqsa, ayollar orasida ushbu ko‘rsatkichning yuqoriligi ularning emotsional yaqinlikka, psixologik qo‘llab-quvvatlashga va o‘zaro tushunishga bo‘lgan ehtiyoji kuchliroq ekanligini ko‘rsatadi. Oilada turmush o‘rtog‘i, farzandlar yoki qarindoshlar bilan muntazam muloqot mavjud bo‘lsa ham, hissiy ehtiyojlarning to‘liq qondirilmasligi ayollarda yolg‘izlik hissining shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bu holat Letitia Peplau va Daniel Perlman tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv nomuvofiqlik nazariyasi bilan hamohang bo‘lib, unga ko‘ra yolg‘izlik mavjud munosabatlar soniga emas, balki shaxs kutayotgan va real mavjud munosabatlar sifati o‘rtasidagi tafovutga bog‘liq.

Yuqori darajadagi yolg‘izlik esa erkaklarning 42,86 % ida va ayollarning 38,63 % ida qayd etilgan. Mazkur natija erkaklarda chuqur yoki barqaror yolg‘izlik hissi ayollarga qaraganda biroz ko‘proq uchrashini ko‘rsatadi. Bu farq erkaklarning emotsional tayanch sifatida ko‘proq turmush o‘rtog‘iga tayanishi, yaqin do‘stona va hissiy munosabatlar tarmog‘ining nisbatan tor bo‘lishi bilan izohlanishi mumkin. Oilaviy nizolar, hissiy uzoqlashuv yoki turmush o‘rtog‘i bilan kommunikatsiyaning pasayishi erkaklarda kuchliroq psixologik izolyatsiyani yuzaga keltiradi.

Murray Bowenning oilaviy tizimlar nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, oilaviy emotsional tizimdagi uzilish erkaklarda differensiatsiyaning pasayishi va hissiy izolyatsiyaning kuchayishiga olib keladi. Ayollarda yuqori darajadagi yolg‘izlik ulushi erkaklarnikiga nisbatan biroz past bo‘lsa-da (38,63 %), bu ko‘rsatkich ham juda salmoqli hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, har uch ayoldan deyarli bittasi oilada chuqur emotsional yolg‘izlikni boshdan kechirmoqda. Bunday vaziyat ko‘pincha hissiy ehtiyojlarning qondirilmasligi, turmush o‘rtog‘i bilan ochiq muloqotning yetishmasligi, oilaviy qarorlar qabul qilish jarayonida yetarli ishtirok etmaslik yoki psixologik qo‘llab-quvvatlashning sustligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Erkaklar va ayollarda yolg‘izlikning taqsimlanish modeli bir-biridan farq qiladi. Ayollar orasida o‘rta darajadagi yolg‘izlik ustun bo‘lsa, erkaklarda yuqori darajadagi yolg‘izlik ulushi nisbatan ko‘proq kuzatiladi. Bu holat ayollarda yolg‘izlik ko‘proq davomli emotsional qoniqmaslik va hissiy yaqinlik yetishmasligi shaklida namoyon bo‘lishini, erkaklarda esa u muammo chuqurlashgach keskinroq va intensivroq kechishini ko‘rsatadi. Bizningcha, mazkur natijalar o‘zbek oilalarida yolg‘izlikning genderga xos psixologik mexanizmlar asosida shakllanishini tasdiqlaydi.

Ayollarda yolg‘izlikning asosiy prediktori emotsional yaqinlik va o‘zaro tushunishning yetishmasligi bo‘lsa, erkaklarda u ijtimoiy-emotsional tayanch tizimining torligi, turmush o‘rtog‘iga yuqori darajadagi hissiy bog‘liqlik va oilaviy kommunikatsiyaning buzilishi bilan ko‘proq bog‘liqdir. Shu sababli oilaviy psixologik profilaktika va psixokorreksiya dasturlarida jinsga xos ehtiyojlarni hisobga olgan differensial yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.



2-rasm. O‘zbek oilalaridagi er va xotinlarda yolg‘izlik turlari namoyon bo‘lishining darajaviy farqlari (% hisobida)

2-rasmda o‘zbek oilalaridagi er va xotinlarda yolg‘izlikning uchta asosiy psixologik komponenti salbiy emotsional kechinmalar, ijtimoiy aloqalarning buzilishi hamda atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik hissi bo‘yicha gender tafovutlari foiz hisobida keltirilgan. Olingan natijalar yolg‘izlikning erkaklar va ayollarda nafaqat intensivligi, balki uning psixologik mazmuni ham turlicha ekanligini ko‘rsatadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, salbiy emotsional kechinmalar ayollarda (44,78 %) erkaklarga (33,00 %) nisbatan ancha yuqori darajada namoyon bo‘lgan.

Mazkur farq ayollarning oilaviy munosabatlarda emotsional yaqinlik, mehr-muhabbat, psixologik qo‘llab-quvvatlash va hissiy rezonansga bo‘lgan ehtiyoji yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi. Ayollar uchun oilaviy munosabatlarning sifati, ayniqsa turmush o‘rtog‘i bilan o‘zaro hissiy almashinuv, tinglanish va tushunilish hissi psixologik farovonlikning muhim mezoni hisoblanadi. Shu sababli emotsional ehtiyojlarning qondirilmasligi ularda ichki bo‘shliq, xavotir, ruhiy tushkunlik va yolg‘izlik bilan bog‘liq salbiy kechinmalarni kuchaytiradi.

Mazkur natija R.Weissning emotsional yolg‘izlik nazariyasi bilan ham uyg‘unlashadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, emotsional yolg‘izlik yaqin affektiv bog‘lanishning yo‘qolishi yoki uning yetarli darajada rivojlanmaganligi natijasida yuzaga keladi. Oilaviy munosabatlarda ayollar ko‘proq aynan emotsional bog‘liqlikka tayanishlari sababli, uning buzilishi ularda kuchliroq psixologik diskomfortni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ijtimoiy aloqalarning buzilishi komponenti bo‘yicha erkaklarda (28,30 %) ayollarga (23,11 %) nisbatan yuqoriroq ko‘rsatkich kuzatilgan.

Psixologik jihatdan ushbu natija erkaklarning yolg‘izlikni ko‘proq ijtimoiy integratsiya va guruhiy mansublik nuqtai nazaridan boshdan kechirishini anglatadi. Erkaklarning kasbiy faoliyat, do‘stlar davrasi, ijtimoiy mavqe va jamoaviy rollarga yuqori darajada bog‘liqligi sababli ushbu aloqalarning zaiflashuvi ularda yolg‘izlik hissining kuchayishiga olib keladi. Bu natija J.Stokes va I.Levin tadqiqotlari bilan hamohang bo‘lib, ular erkaklarda yolg‘izlik asosan guruhiy aloqalarning buzilishi bilan, ayollarda esa yaqin diadik munosabatlarning sifati bilan bog‘liqligini ko‘rsatganlar.

Demak, erkak uchun ijtimoiy tarmoqning kengligi muhim bo‘lsa, ayol uchun mavjud munosabatlarning emotsional sifati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Diagrammada eng qiziqarli natijalardan biri atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik hissi bo‘yicha kuzatiladi. Mazkur komponent erkaklarda 38,70 %, ayollarda esa 32,11 % ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich erkaklarning o‘z ichki kechinmalari, muammolari va ehtiyojlari oilada yetarli darajada anglanmayotganini ayollarga nisbatan ko‘proq his qilishlarini ko‘rsatadi. Psixologik nuqtai nazardan bu holat erkaklarning emotsional ekspressivligi nisbatan pastligi bilan izohlanadi. Erkaklar ko‘pincha o‘z hissiyotlarini ochiq ifodalashdan qochadilar, muammolarini mustaqil hal qilishga intiladilar va yordam so‘rashni zaiflik belgisi sifatida qabul qilishlari mumkin.

Natijada ular o‘z kechinmalarini yetkazmaydilar, turmush o‘rtog‘i esa ularni to‘liq anglay olmaydi. Shu tariqa o‘zaro kommunikatsiyada «yashirin emotsional tafovut» shakllanadi. Erkak o‘zini tushunilmagan deb his qiladi, ayol esa uning hissiy jihatdan uzoqlashganini yoki befarqligini qabul qiladi. Bu esa emotsional alienatsiyaning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Ayollarda esa tushunilmaslik hissi nisbatan pastroq bo‘lsa-da (32,11 %), mazkur ko‘rsatkich ham oilaviy munosabatlarda sezilarli psixologik muammo mavjudligini ko‘rsatadi. Ayollar ko‘pincha o‘z hissiyotlarini ochiq ifoda etganliklari sababli ularda tushunilmaslik hissi emotsional javobning yetarli emasligi, empatiyaning sustligi yoki turmush o‘rtog‘ining hissiy qo‘llab-quvvatlashni namoyon qilmasligi bilan bog‘liq shakllanadi.

Erkak va ayollarda yolg‘izlikning psixologik arxitektonikasi bir xil emas. Ayollarda yolg‘izlikning asosiy komponentini emotsional kechinmalar, erkaklarda esa atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik va ijtimoiy aloqalarning buzilishi tashkil etmoqda. Bu esa yolg‘izlikning genderga xos mexanizmlar asosida shakllanishini tasdiqlaydi. M. Bowen konsepsiyasiga ko‘ra, oilada differensiatsiya darajasi pasayganda emotsional reaktivlik ortadi va shaxslararo masofa kuchayadi.

Ayollarda bu jarayon ko‘proq hissiy iztirob orqali namoyon bo‘lsa, erkaklarda kommunikativ chekinish va ijtimoiy izolyatsiya orqali ifodalanadi. Shu bois er va xotin bir oilada yashayotgan bo‘lsa ham, ular yolg‘izlikni turli psixologik mexanizmlar orqali boshdan kechiradilar. Bundan tashqari, mazkur natijalar D.Perlman va L.Peplau tomonidan ishlab chiqilgan yolg‘izlikning kognitiv modeli bilan ham mos keladi. Ushbu modelga ko‘ra, yolg‘izlik shaxs kutayotgan munosabatlar sifati bilan real mavjud munosabatlar o‘rtasidagi tafovut natijasida yuzaga keladi.

Ayollarda bu tafovut ko‘proq emotsional yaqinlikda, erkaklarda esa ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va tushunilish hissida namoyon bo‘lmoqda. Bizningcha, olingan natijalar o‘zbek oilalarida emotsional alienatsiya bir xil psixologik mexanizm asosida shakllanmasligini ko‘rsatadi. Ayollarda alienatsiya emotsional komponent orqali, erkaklarda esa kommunikativ va ijtimoiy komponentlar orqali rivojlanishga moyildir. Shu sababli oilaviy psixologik yordam dasturlarida jinsga xos differensial yondashuv zarur. Ayollar bilan ishlashda emotsional yaqinlikni tiklash, empatik tinglash va hissiy qo‘llab-quvvatlashni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish bo‘lishi kerak. Erkaklar bilan ishlashda esa o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish, oilaviy kommunikatsiyani faollashtirish hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash resurslarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. O‘tkazilgan nazariy va empirik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yolg‘izlik oilaviy munosabatlarda emotsional alienatsiyaning eng muhim psixologik indikatorlaridan biri hisoblanadi. Ya’ni yolg‘izlik oilada jismoniy ajralganlik yoki ijtimoiy aloqalarning yetishmasligidan ko‘ra ko‘proq er-xotin o‘rtasidagi hissiy yaqinlikning susayishi, psixologik qo‘llab-quvvatlashning kamayishi, o‘zaro tushunishning buzilishi va emotsional rezonansning yo‘qolishi natijasida shakllanadigan ichki subyektiv holat sifatida namoyon bo‘ladi. Empirik natijalar shuni tasdiqladiki, respondentlarning aksariyatida yolg‘izlikning o‘rta va yuqori darajalari kuzatilgan bo‘lib, bu holat oilalarda emotsional alienatsiya elementlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Biroq yolg‘izlikning barcha komponentlari bir xil darajada rivojlanmagan. Ayrim respondentlarda u salbiy emotsional kechinmalar orqali, boshqalarida esa atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik yoki ijtimoiy aloqalarning sifati pasayishi orqali namoyon bo‘lgan. Bu esa emotsional alienatsiyaning yagona ko‘rinishda emas, balki ko‘p komponentli psixologik tizim sifatida rivojlanishini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlangan gender tafovutlari emotsional alienatsiyaning erkaklar va ayollarda turli psixologik mexanizmlar orqali shakllanishini ko‘rsatdi.

Ayollarda alienatsiya avvalo hissiy yaqinlikning pasayishi va salbiy emotsional kechinmalar orqali namoyon bo‘lsa, erkaklarda u ko‘proq tushunilmaslik hissi, kommunikativ chekinish hamda ijtimoiy integratsiyaning susayishi orqali rivojlanishi kuzatildi. Demak, emotsional alienatsiyaning tashqi ko‘rinishlari jinsga qarab farqlansa-da, uning ichki psixologik mohiyati oilaviy emotsional bog‘liqlikning buzilishi bilan belgilanadi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, oiladagi emotsional alienatsiya bir martalik nizolar yoki vaqtinchalik tushunmovchiliklardan emas, balki uzoq muddat davomida er-xotin o‘rtasidagi emotsional almashinuvning kamayishi, psixologik qo‘llab-quvvatlashning susayishi, empatiyaning pasayishi va kommunikativ yaqinlikning izchil buzilishi natijasida shakllanadi. Ushbu jarayon dastlab shaxsda tushunilmaslik hissini yuzaga keltiradi, keyinchalik ijtimoiy va oilaviy munosabatlardan psixologik uzoqlashish kuchayadi hamda oxir-oqibat barqaror subyektiv yolg‘izlik rivojlanadi.

Shu nuqtayi nazardan, yolg‘izlikni emotsional alienatsiyaning natijasi emas, balki uning psixologik manifestatsiyasi, ya’ni ichki subyektiv ifodalanish shakli sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Boshqacha aytganda, emotsional alienatsiya oilaviy tizim darajasida yuz beradigan munosabatlar deformatsiyasi bo‘lsa, yolg‘izlik ushbu deformatsiyaning shaxs psixikasida aks etuvchi emotsional tajribasidir.

Adabiyotlar:

1. Аристова Н. Семья настоящая и предстоящая // Узы брака, узы свободы. М.: Просвещение, 1990. С. 6-31.

2. Биксон Т., Пепло Л. Жизнь старого и одинокого человека // Лабиринты одиночества. М.: Прогресс, 1989. С. 485-511.

3. Эйсенсен И. Одиночество и разведенный мужчина преклонного возраста // Лабиринты одиночества. М.: Прогресс, 1989. С. 433-452.

4. BergJ.H., Peplau L. A. Loneliness: The relationship of self-disclosure and androgyny // Personality and Social Psychology Bulletin. 1982. № 8. P. 624-630.

5. Chelune G.J., Sultan F.E., Williams C.L. Loneliness, self-disclosure and interpersonal effectiveness // Journal of Counseling Psychology. 1980. № 27. P. 462-468.

6. Davis M.H., Franzoi S.L. Adolescent loneliness, self-disclosure and private self-consciousness: Longitudinal investigation // Journal of Personality and Social Psychology. 1986. № 51. P. 595-608.

7. Jackel U. Partnerwahl und Eheerfolg: eine Analyse der Bedingungen und Prozesseehelicher Sozialisation in einem rollentheoretischen Ansatz. Stuttgart: Enke, 1980. 129 S.

8. Jerusalem M. Selbstkonzept, Ängstlichkeit und Sozialklima von jugendlichen Migranten // Arbeitsberichte des Institutus fur Psychologie. Berlin: Freud Universität, 1987. № 1. 82 S.

9. Lamm H., Stephan E. Zur Messung von Einsamkeit: Entwicklung einer deutschen Fassung des Fragebogens von Russell und Peplau. // Psychologie und Praxis: Zeitschrift fur Arbeits — und Organisationspsychologie. 1986. №30. S. 132-134.

10.Noelle-Neumann E., Piel E. Allensbacher Jahrbuch der Demoskopie. 1978-1983. Bd. VIII. München: Saur, 1983. 716 S.

11.Solano C.H., Batten P.G., Parish E. A. Loneliness and patterns of self-disclosure // Journal of Personality and Social Psychology. 1982. № 43. P. 524-531.

Axatov Yo‘ldoshjon Hamzayevich,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TALABALARDA IRODAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING METAKOGNITIV PARADIGMASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarda irodaviy sifatlarni rivojlantirishning metakognitiv paradigmasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda metakognitsiya shaxsning o‘z bilish jarayonlarini anglash, nazorat qilish va boshqarishga xizmat qiluvchi psixologik mexanizm sifatida yoritilib, uning irodaviy sifatlar – maqsadga intilish, qat'iyatlilik, o‘zini boshqarish, mustaqil qaror qabul qilish, mas'uliyatlilik va sabr-toqatni rivojlantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Shuningdek, metakognitiv strategiyalar asosida talabalarning o‘quv faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish va refleksiya jarayonlarini takomillashtirish orqali irodaviy sifatlarni mustahkamlash imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari metakognitiv yondashuv oliy ta'lim muassasalarida shaxsning akademik faolligi, psixologik barqarorligi hamda o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishda samarali ilmiy paradigma ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *metakognitsiya, metakognitiv paradigma, irodaviy sifatlar, o‘zini o‘zi boshqarish, refleksiya, o‘zini nazorat qilish, o‘quv motivatsiyasi, qaror qabul qilish, o‘zini rivojlantirish, talaba shaxsi.*

МЕТАКОГНИТИВНАЯ ПАРАДИГМА РАЗВИТИЯ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается метакогнитивная парадигма развития волевых качеств студентов с теоретической и практической точек зрения. Метакогниция раскрывается как психологический механизм, обеспечивающий осознание, контроль и регулирование собственных познавательных процессов. Особое внимание уделяется роли метакогнитивных стратегий в формировании целеустремлённости, настойчивости, самоконтроля, самостоятельности, ответственности и способности принимать осознанные решения. Обоснованы возможности развития волевых качеств посредством планирования, мониторинга и рефлексии учебной деятельности. Полученные результаты свидетельствуют о том, что метакогнитивный подход способствует повышению академической активности студентов, развитию психологической устойчивости и формированию компетенций саморазвития в системе высшего образования.*

Ключевые слова: *метакогниция, метакогнитивная парадигма, волевые качества, саморегуляция, самоконтроль, рефлексия, учебная мотивация, принятие решений, саморазвитие, личность студента.*

THE METACOGNITIVE PARADIGM OF DEVELOPING VOLITIONAL QUALITIES IN UNIVERSITY STUDENTS

Abstract. *This article examines the metacognitive paradigm for developing volitional qualities in university students from theoretical and practical perspectives. Metacognition is considered a psychological mechanism that enables individuals to become aware of, monitor, and regulate their own cognitive processes. The study highlights the role of metacognitive strategies in fostering goal orientation, perseverance, self-regulation, independent decision-making, responsibility, and resilience. It also substantiates that planning, monitoring, and reflective evaluation of learning activities contribute significantly to strengthening students' volitional qualities. The findings suggest that the metacognitive approach serves as an effective paradigm for enhancing academic engagement, psychological resilience, and self-development competencies within higher education.*

